

C Y P



2018


3

CONFERENCE OF YOUNG PHILOLOGISTS

FILOLOGIYA MASALALARI YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA

TALABALARNING AN'ANAVIY III ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI



I QISM

2018-yil
23-24-noyabr

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
HAYDAR ALIYEV NOMIDAGI OZARBAYJON MADANIYAT MARKAZI
YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI



FILOLOGIYA MASALALARI YOSH TADQIQOTCHILAR NUSXASIDA

(Talabalarning III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari)

I QISM

TOSHKENT
«NAVOIY UNIVERSITETI»
nashriyot-matbaa uyi
2018

38/23

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
ToshDO-TSU
AXBOROT-RESURS MARKAZI

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Yosh filolog olimlar jamiyati tomonidan tashkil etilgan «Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida» mavzusidagi universitet talabalarining III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan. Mazkur to'plamga o'zbekistonlik talaba va tadqiqotchilarning maqolalaridan tashqari chet ellik talaba hamda tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari ham kiritilgan.

To'plam materiallaridan filolog mutaxassislar, til va adabiyot fani o'qituvchilari, bundan tashqari, magistratura va bakalavriat talabalari foydalanishlari mumkin.

[Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar
hamda taqrizchilar (ilmiy rahbarlar) mas'uldirlar.]

Mas'ul muharrirlar:

Sh. Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori,
professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori;

Z. Abdurashidov, filologiya fanlari doktori,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universitetining
Ilmiy ishlar bo'yicha prorektori

Taqrizchi:

H. Ahmedov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

To'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Kengashining 2018-yil 30-oktabrdagi 3-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9943-52-317-3

© Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2018

© Yosh filolog olimlar jamiyati, 2018

© «NAVOIY UNIVERSITETI» nashriyot-matbaa uyi, 2018

QUTLUG' QADAMLAR

Universitetimizda tashkil etilgan, ilm-u ma'rifatga chanqoq, izlanuvchan talabalarni o'zida birlashtirgan "Yosh filolog olimlar jamiyati" tomonidan bir necha yildan buyon o'z kelajagini yaratish, erkin fikrni shakllantirish hamda o'z ustida muntazam ishlash istagida bo'lgan yoshlar o'rtasida talabalar konferensiyalari o'tkazib kelinmoqda.

Quvonarlisi, joriy yilgi konferensiyada nafaqat turdosh oliy o'quv yurtlari, balki qardosh mamlakatlar: Turkiya, Qozog'iston, Ozarbayjon kabi davlatlarda tahsil oluvchi talabalar ham o'z ilmiy izlanishlari bilan ishtirok etishmoqda. Bu esa o'zaro tajriba almashishga imkon yaratadi.

Yaxshi niyatlar bilan ilm olamiga kirib kelayotgan adabiyot, til, tarjimashunoslik yo'nalishlarida ulug' ijodkorlar merosini o'qib-o'rganish va bundan boshqalarni ham bahramand qilishni maqsad qilgan, bilim olishga ishtiyoqmand yosh tadqiqotchilar uchun esa bu kabi konferensiyalar ustozshogird an'anasining boshlanishi, qalamini charxlovchi mahorat maktabi vazifasini bajarmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek, "Bugun biz yashayotgan internet va yuksak texnologiyalar asrida adabiyot va san'at, madaniyatimizning o'rni va ta'sirini nafaqat saqlab qolish, balki qanday qilib uni kuchaytirish mumkin, degan to'g'ri va odilona savollar barchamizni, birinchi navbatda, xalqimizning eng ilg'or vakillari bo'lgan ijod ahlini o'ylantirishi zarur..."

Bu yo'lda "Yosh olimlar jamiyat"i ham yangi-yangi iste'dodlarni kashf etish, ularni saralab olish va filologiya sohasiga olib kirish, asosiysi, ularni xalqaro hamjamiyat bilan yaqinlashishiga ko'maklashishdek ezgu maqsad yo'lida o'z faoliyatini olib bormoqda.

Ilm igna bilan quduq qazimoq kabidir. Bunday zalvarli vazifani o'z zimmasiga olgan, millat taqdiriga daxldor va bu yo'lda til va adabiyot ilmini o'zlariga bayroq qilib olgan bo'lajak olim va olimalarimizga ilm sari tashlagan yana bir qadamingiz qutlug' bo'lsin deymiz!

*Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, professor*





I SHO'BA. NAZARIY TILSHUNOSLIK



DİLİN KÜLTÜRÜN GELİŞMESİNDEKİ YERİ VE ÖNEMİ

Ahmet Atak*

Özet

Dil, millî hafızanın, millî hatıraların, duyguların ve düşüncelerin, bütün maddî ve manevî değerlerin, bütün buluş ve yaradılışların ortak hazinesidir. Millet denilen insan topluluğunun en önemli sosyal varlığıdır. Kültürün ilk ve temel unsurudur. Kültür, varlığını nesilden nesile intikale borçludur. Kültürün nesilden nesile geçmesi, böylece devamı ve yaşaması kültür taşıyıcı eserler, eğitim ve öğretim yolu ile olur. Onun içindir ki Kültür eserleri, eğitim ve öğretim kültürün temel şartıdır. Bir milletin fertleri arasındaki ortak duygu ve düşünce akımı dille kurulabilmektedir. Bu akım, dünden bu güne, bu günden yarına dille aktarılmaktadır. Bundan dolayı dil, aynı zamanda bir kültür aktarıcısı, bir kültür taşıyıcısıdır. Bir milletin tarihi, coğrafyası, değer ölçüleri, folkloru, müziği, edebiyatı, ilmi, dünya görüşü ve millet olmayı gerçekleştiren her türlü ortak değerleri yüzyılların süzgecinden süzüle süzüle kelimelerde, deyimlerde sembolleşerek hep dil hazinesine aktarılmakta, özünü orada saklamaktadır.

Anahtar kelimeler: Dil, Kültür, Tarih, Gelenek, Millet.

Annotation

Language is the common treasure of national inventions, memory, culture, traditions. Also, it is the most important social entity of the human community which is called nation and it is the first and essential element of the culture. In addition, culture owes its ability to transmit its existence from generation to generation. The existence of culture occurs through the culture carrying trace, education and training. Therefore, the basic circumstance of culture is the education and cultural artifacts. Also, the common sense and thought flow between the members of a nation can be established in the language and this current is transmitted from yesterday to today, from today to tomorrow by language. Therefore, the language is a culture transporter and a culture carrier between the members of the nations. The historical geography, values, literature, world view and common values which come from the being nation sieves from the centuries and it is symbolized in the idioms and words. Finally, It is transferred to the language treasure.

Key words: Language, Culture, History, Tradition, Nation.

Dil; İnsanların düşündüklerini ve duyduklarını bildirmek için kelimelerle veya işaretlerle yaptıkları anlaşma, lisan, zeban: *Dilinden Anadolu olduğunu ancak belli oluyordu.* -S. F. Abasıyanık. 2. Bir çağa, bir gruba, bir yazara

* Hoca Ahmet Yesevi uluslararası türk-kazak üniversitesi, gazetecilik anabilim dalı, 11. sınıf öğrencisi, akhmetatak@yandex.ru

özgü söz dağarcığı ve söz dizimi: *Halk dilinin günebakan ismini verdiği bu çiçek, güneşe âşuktur.* -H. S. Tanrıöver. 3. Belli mesleklere özgü dil: *Hukuk dili.* 4. Düşünce ve duyguları bildirmeye yarayan herhangi bir anlatım aracı: *Müzik dili. Yazı dili. Hiçbir zaman onların arasına katılabilecek bir dil bulamadım.* -R. Mağden. 5. tar. Sorguya çekilmek için yakalanan tutsak.

Dil, bir anda düşünemeyeceğimiz kadar çok yönlü, değişik açılardan bakınca başka nitelikleri beliren, kimi sınırlarını bu gün de çözemediğimiz büyüklü bir varlıktır (Aksan, 1990: 11). Kutlu bir varlık olan dil, atalarımızdan bize kalan büyük ve değerli mirastır. İnsan açısından bakınca, insanın dünyadaki yerini ve değerini belirleyen odur. Konuşma yeteneği, dolayısıyla dil, insanı insan yapan niteliklerin başında gelir. Onun duygularını düşüncelerini, isteklerini bütün incelikleriyle açığa vurmasına, yaşamını sürdürebilmesine olanak sağlar. (Aksan, 1990: 11). Bir toplumu ulus yapan bağların en güçlüsü, dildir. Bireyleri ulusuna, yurduna, geçmişine sıkı sıkıya bağlar; kuşaktan kuşağa aktararak gelen dil, bireyi geçmişle gelecek arasındaki zincirin bir halkası durumuna getirir. Bütün özellikleriyle dil, bir sistem özelliği taşımaktadır. Bu sistem, insanların anlaşma, anlama-anlatma yeteneği çerçevesinde birlikte yaşayan insan grupları tarafından oluşturulmaktadır. Her dilin küçük birimi olan kelime, sesle kavramın kaynaşmasıyla oluşur. Kelime ve kurallar, o dili konuşan insanlar kitlesinin dünya ve insan ilişkilerinde ve oluşturup yaşadıkları kültüre göre şekil kazanır. İnsan grupları bu anlaşma yeteneği çerçevesinde bir araya gelerek hem dili oluştururlar hem de o dille deneyimlerini sonra gelen kuşaklara aktarırlar. Dil, toplumdaki en güçlü bağların oluşması, nesiller arası kültür aktarımında önemli bir rol oynamaktadır ve ulus kültürünün temel öğelerinin başında gelmektedir. İnsan toplumuna özgü bilgi, inanç ve davranışlar, bütünü ile bu bütünün parçası olan maddî ve manevî nesnelere kültürdür.

Bir toplumun pek çok özellikleri, yaşayışı, gelenekleri, dünya görüşü, yaşam felsefesi, inançları, bilim, teknik ve sanata katkıları o toplumun diline yansır; o toplumun dilinden izlenebilir: Bundan bin yıl sonra bir bilim adamının Türklerle ilgili araştırma yapmakla görevlendirildiğini varsayalım. Türkler üzerinde hiçbir bilgisi, Türklerle hiçbir ilişkisi olmayan araştırmacı herhangi bir yoldan, önce dilimizi iyi öğrenme olasılığını bulsa, yalnızca Türkçenin sözcüklerini inceleyerek ülkemizin XX. yüzyılda hangi koşullar içerisinde bulunduğunu, ne gibi değişikliklere sahne olduğunu, bize hangi kavramların önem taşıdığını ve hangi uluslarla ilişki kurduğumuzu saptayabilir. Tıpkı bir toplumun bir evresiyle ilgili metinleri ele alarak o ulusun o evredeki kültürünü, toplumsal değişimleri ortaya koyabilir. Tıpkı bir toplumun bir evresiyle ilgili metinleri ele alarak o ulusun o evredeki kültürünü, toplumsal değişimlerini bugün aydınlatılabildiğimiz gibi (Aksan, 1990: 12).

Kültür; 1. Tarihsel, toplumsal gelişme süreci içinde yaratılan bütün maddî ve manevî değerler ile bunları yaratmada, sonraki nesillere iletmede kullanılan, insanın doğal ve toplumsal çevresine egemenliğinin ölçütünü gösteren araçların bütünü, hars, ekin: *Harf inkılabı, Türk kültür inkılabının temelidir.* -E. İ. Benice. 2. Bir topluma veya halk topluluğuna özgü düşünce ve sanat eserlerinin bütünü: *Doğrusu, teknik ve kültür her gün biraz daha ilerlemektedir.* -S. Birsal. 3. Muhakeme, zevk ve eleştirme yeteneklerinin öğrenim ve yaşantılar yoluyla geliştirilmiş olan biçimi: *Bir memlekette kitap kültürü ne kadar zenginse günlük konuşma da o kadar zengin olur.* -M. Kaplan. 4. Bireyin kazandığı bilgi: *Tarih kültürü kuvvetli bir kişi.* 5. Tarım. 6. *biy.* Uygun biyolojik şartlarda bir mikrop türünü üretme: *Mikrop cinsinden canlı bir varlığın muayyen bir ortam içinde çoğalmasına da kültür denilir.* -M. Kaplan.

Kültür, insan toplumuna özgü bilgi, inanç ve davranışlar, bütünü ile bu bütünün parçası olan maddî ve manevî nesnelere bütünüdür. Kültür, toplumsal yaşamın dil, düşünce, gelenek, işaret sistemleri, kurumlar, yasalar, aletler, teknikler, sanat yapıları gibi her türlü maddî ve tinsel ürünü kapsamı altına almaktadır. Kültür; insanoğlunun biyolojik olarak değil de maddî olarak kuşaktan kuşağa aktardığı maddî ve maddî olamayan ürünler bütünü, ekin. Günlük dilde «Kültürlü Olmak» bilgili, görgülü, incelikli olmak anlamına gelir. Kültürlü kişi uygarlığın nimetlerinden bilinçli olarak yararlanan, eğitilmiş kişidir. Kültür terimi günümüzdeki anlamın yakın bir şekilde ilk kez 17. Yüzyılda Samuel von Pufendorf kullanmıştır. Ona göre kültür doğaya karşıt olan ve belli bir toplumsal bağlam içinde ortaya çıkan tüm insan eserleridir. Alman filozof Emanuel Kant, kültürü insanın mantıksal özünden dolayı özgürce hayata geçirebileceği amaçların, ideallerin tümü olarak tanımlanmıştır. Başka bir Alman filozof Herder, kültürü bir ulusun, bir halk ya da topluluğun yaşam tarzı olarak yorumlamıştır. Antropoloji ve etnoloji bilimleri geliştikçe kültür olgusunun karmaşıklığı daha da belirginleşmiş ve tanımlar da çeşitlenmiştir. ABD'li antropologlar A. L. Kroeber ve Clyde Kluckhohn «Kültür Kavramlarına ve Tanımlarına Eleştirisel Bir Bakış – 1952» adlı çalışmalarında kültürün 164 farklı tanımının verirler. Bunlardan biri olan «Öğrenilmiş Davranış» yeterli bir tanım değildir çünkü hayvan türlerinin yaşamında da doğal davranışların payı vardır. Bir başka tanıma göre kültür, «Zihindeki Düşünceler» den oluşur. Buda yeterli değildir çünkü düşünceler toplumda ancak dilde, eylemde ve yaratılmış ürünlerde cisimlendikleri sürece bir anlam ve işlem kazanırlar.

Eğer insanlar toplum halinde yaşamakta olmasalardı, hiç kuşkusuz, dile gereksinim duymayabileceklerdi. Dil olmasaydı, insanların bir arada yaşamaları, anlaşabilmeleri, bir toplumu oluşturmaları da söz konusu edilemezdi. Kısacası insanı insan eden dil, toplumun da başlıca temel taşlarından; ulusu ulus yapan öğelerin en başta gelenidir; kültürün

belkemiği sayılabilir. Bir ulusun yaşayış biçimi, inançları, gelenekleri, dünya görüşü, çeşitli nitelikleri ve hatta tarih boyunca bu toplumda meydana gelen çeşitli olaylar üzerinde hiçbir bilgimiz olmasa, yalnızca dilbilim incelemeleriyle, bu söz varlığının, söz hazinesinin derinliğine inerek bütün bu konularda çok değerli bilgiler ve güvenilir ipuçları edinebiliriz. (Aksan, 1990: 64).

Kuşaktan kuşağa geçen kültür kalıntıları, alışkanlıklar, yaşanmışlıklar, deneyimler, toplumların geleneklerini oluşturur. Milletlerin hayatında tarih sahnesinde görülmelerinden bu yana varlıklarını bütünlüklerini ve farklılıklarını koruyan düzenler görülür. Süreklilik vasfına sahip bu düzenlerin birisi, toplum kültürünü oluşturan düzenlerdir. Toplum kültüründe, ulusal yönetim anlayışı, adalet sistemleri ve sosyal düzen bu kültür etrafında gelişmektedir. Ulusların ahlaki değerleri, tarihlerinden aldıkları feyz ve oluşturdukları gelenekler, bağlayıcı gücü elde etmektedirler. Dillerini kaybetmeleri ile birlikte unutmaya başladıkları tarihleri, örf ve adetleri diğer toplumlar arasındaki farklarını da zamanla yitirmelerine sebep olmuştur.

Yaşam, insana toplumda kabul gören deneyimleri yinelemek, bunları iyileştirmek, geliştirmek, kötü deneyimleri yinelemekten kurtulmak ders çıkarmak gibi fırsatlar sunar. İnsan bu yolla kendine yaraşır yaşam biçimini oluşturma çabası içine girmeye çalışır. Bu bağlamda gelenekler, kuşaklararası görsel ve işitsel iletişim aracı kimliğine bürünür ve ortak kültür bünyesinde depolanır, ardından gelecek kuşaklar tarafından yorumlanır. Böylece gelenekler anlatılmak istenen deneyimler, yüzlerce binlerce yıl sonra da kuşaklar üzerinde etkili olur. Gelenekler aracılığıyla insanlara ulaştırılmak istene iletiler, dolaylı anlatım özelliği gösterir. İletin doğrudan değil de dolaylı olarak resimsel, ezgisel bir düzlemde sunulması bir başka deyişle bir anlatıcı olmadan göze ve kulağa aynı anda seslenen bir anlatı biçimiyle sunulması, yalnızca estetik bir coşku verme ya da bir geleneği sürdürme amacı gütmemelidir. Görsel anlatım, doğal ortamında canlandırılırken doğal dilin sözlü kullanımından yararlandığı gibi başka gösterge çeşitlerinden de yararlanır. Müziksel gösterenlerin her biri, dilsel gösteren kimliğiyle müziksel anlatıya dönüşür. Böylece söz konusu geleneğin ve taşıdığı iletinin, hem kolay anlaşılması sağlanır hem de kalıcılığı için gerekli zemin hazırlanır. Sonuçta geleneklerin tören ya da ayin dokusunda gösteri biçiminde sunulmasının en temel bilindik işlevi, sürdürülebilmelerini sağlamaktır.

SONUÇ

Dil bir köprüdür. Toplum içindeki insanları birbirleriyle, tarihleriyle, gelenekleriyle bağlayan bir araçtır. Milletlerin var olması için bir gerekliliktir. Kültürün gelişmesinde ve aktarılmasında en önemli rolü oynamaktadır. Bir zincirin halkası gibi birbiri ile bağlantılı olan bu iki araç insanı tarihi ile

birleştirir. Zincirde herhangi bir kopukluk olduğunda insanın temel yapıtaşları arasında bir oynama olur ve insan, insan olma özelliğini kaybeder. Diğer toplumlar arasında baskıda kalır ve kendi temel kültüründen uzaklaşır. Millî benliği kaybolur ve vasıflarını yitirir. Özgün olma özelliği yok olur. Devlet yönetiminde, adalet sisteminde, eğitim ve sanat alanlarında eksiklikler baş gösterir ve kırılmalar başlar. İnsan ve içinde bulunduğu toplum yok olur.

KAYNAKÇA:

- Prof. Dr. Doğan Aksan, Her Yönüyle Dil, 1990, ANKARA
- Güncel Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu



O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA YANGI SO'ZLAR O'ZLASHISHI VA ULAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

Amirova Gulhayo*

Annotatsiya

Bugungi kunda dunyo jadallik bilan rivojlanmoqda. Natijada ma'lum bir tilga boshqa tillardan ko'plab yangi so'zlar kirib kelmoqda. Ushbu jarayonni hisobga olib, mazkur maqolada neologizmlarni qabul qilish jarayonida kelib chiqadigan muammolar yoritilgan. Unda, shuningdek, ingliz tili so'zlarining kelib chiqishi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Ko'rsatmalarga amal qilib, tarjima jarayonida ularni qo'llash, yangi so'zlarni muvofiq ravishda qabul qilish va tilni boyitishga xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar: o'zlashma so'zlar, neologizm, old qo'shimchalar, so'z yasalishi, atamalar, transkripsiya, transliteratsiya.

Annotation

Nowadays, the world is developing rapidly. Consequently, several new words are borrowing from another language. On the account of those, the article deals with problems which is faced to accept neologisms. There is also information about etymology of the English words in it. Following the orders and using them in translation process serve to adopt new words correctly and enrich the language.

Key words: borrowed words, neologism, prefixes, make a word, terms, transcription, transliteration.

Kishilik jamiyatida millatlararo rivojlanish bosqichlari nafaqat ularning madaniyati, balki yashash sharoiti va dunyoqarashiga, balki uzoq yillar mobaynida shakllanib, sayqallanib qaror topgan milliy tiliga ham bevosita va bilvosita ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Chunki, dunyoda bo'y ko'rsatish — barcha mamlakatlar yutuqlarini o'rganib chiqish, taqqoslash, o'z navbatida,

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek-ingliz tarjima fakultetining 2-kurs talabasi, amirovagulhayo@gmail.com

ulardan o'rnak olish va tajriba almashish orqali amalga oshadigan ko'p bosqichli jarayondir. Bu jarayonni qadimda va o'rta asrlarda davlat taraqqiyoti uchun uning rahbarlari o'zga mamlakatlarga siyosiy va iqtisodiy jihatdan «ochiq» deya e'lon qilishida ko'rishimiz mumkin. Birinchi prezidentimiz I. A. Karimovning so'zlari ham fikrimizni dalillaydi: «Mamlakatimiz ijtimoiy siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda jahon andozalari darajasida bilim olgan, zakovatli, har tomonlama barkamol, dunyoqarashi keng milliy kadrlarni tayyorlashda chet tilning xizmati katta.» (I. Karimov, 2000: 91).

Yangiliklarni muntazam qabul qilish barcha sohalarida yangi so'zlarning tezlik bilan kirib kelishini taqozo etadi. Bir tildan ma'lum tilga o'zlashgan so'z yoki so'z birikmalari o'z qatlamga o'tishi uchun bir qancha muddat talab etiladi. Bunda ular muayyan tushuncha yoki maxsus narsani aniq ifoda etishi lozim. Sohaviy neologizmlarni me'yorlashtirish, ularni lug'atlarga joylashtirish tilshunos olimlar va o'sha soha vakillari ishtirokida amalga oshiriladi. Ular yangi terminlarni jamiyatning turli qatlamiga xizmat qiluvchi lisoniy birlikka aylantiradi.

Neologizmlar tuzilishiga ko'ra: 1. Sodda; 2. Murakkab; 3. Birikmali atama tarzida o'zlashishi mumkin. Masalan:

Sodda: *menejer* [ingl. – *manager* – boshqaruvchi] leksemasi korxon va kompaniya egalari bo'lmagan, maxsus tayyorgarlik ko'rgan malakali yollanma boshqaruvchi ma'nosini ifodalaydi.

Murakkab: – *chaynvord* [ingl. *Chain* – zanjir, halqa+ *word* – so'z – so'zlar zanjiri] ketma-ket joylashgan kataklarni harflar bilan to'ldirishdan iborat boshqotirma turi.

Atama so'z shaklida: – *Capital income* – [Fr. +ingl.] kapitaldan olinadigan daromad; *Rate of exchange* – [lot.] valyuta kursi; *Cargo scale* – [lot. +norv.] yuk o'lchami va h.

Birikmali so'zlarning uch turi mavjud:

1) Tarkibiy qismlarning ikkalasi ham alohida ma'no saqlagan: *Cash* – naqd pul, *balance* – hisob. Demak, ular ajratilgan holda boshqacha tarjima qilinishi mumkin. Ammo birgalikda yangi ma'no ifodalaydi: *Cash balance* – kassa qoldig'i; *Cash payment* – naqd pul bilan to'lash; *Cash discipline* – kassa intizomi; *Cash flow* – pul oqimi; Bu yerda *capital* so'zi ot va sifat bo'lib tarjima qilingan va mablag' ma'nosida tarjima qilinmasligi ham mumkin: *Flow of capital* – kapital oqimi; *Foreign capital* – xorijiy mablag'lar; *Capital city* – poytaxt shahar; *Capital letter* – bosh harf.

2) Birikmada birinchisi sifat bo'lib, ma'lum sohada maxsus ma'no anglatadi. Masalan: *Compulsory payment* – majburiy to'lov;

3) Bu turdagi atamalarning har ikkala qismi ham umumiste'moldagi so'zlar bo'lib, ular birgalikda yangi atama hosil qiladi. Masalan: *Salary*

earner – xizmatchi, ishchi; *Wage earner* – yollanma ishchi; *Exchange control* – valyutani tartibga solish; *Exchange goods* – birja tovarlari;

Sifat+ot shaklida: *Domestic market* – ichki bozor; *Double taxation* – ikki yoqlama soliqqa tortish; *Economic growth* – iqtisodiy o'sish.

Albatta, yuqoridagi misollarning aksariyati iqtisodiy atamalar bo'lib, bu ko'rsatkich boshqa tillardan yuzdan ortiq so'z o'zlashtirayotgan ingliz tili lug'atining katta qismini egallagan.

Ingliz tili lug'atlarida berilgan so'zlarning 80 % ini asosan lotin tilidan o'zlashgan so'zlar tashkil etadi. Chunki ingliz tili so'zlari etimologiyasining 60 % dan ortig'i grek yoki lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, bugungi kunda o'zlashma lug'atlar tarkibining 90 % dan ko'prog'ini ilmiy-texnikaviy atamalar tashkil etadi.

Ingliz tilida neologizmlarning berilishi va o'z qatlamga aylanishi tarixiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, 1066-yilda Normandlar floti Britaniyaga hujum qilgach, fransuz tili mamlakat bo'ylab keng tarqaladi. Bugungi kun ingliz lug'atining 45 % ini fransuz so'zlari tashkil etadi. Shundan o'n mingdan ortig'i o'rta asrlarda o'zlashgan deb qaraladi. Lotin tilidan so'z olish esa nasroniylikni qabul qilgach Roman-German qabilalari bilan aloqalar o'rnatish, lotin tilidan eski ingliz tiliga ko'plab diniy va badiiy-adabiy matnlarni tarjima qilish orqali amalga oshirilgan. Hatto Renessans davrida ham lotin tili ziyoli tabaqa vakillarining ikkinchi faol tili bo'lib qolgan. Bundan tashqari, yana boshqa tillardan ham jumladan:

- Keltlardan: *bard, brat, slogan, whisky, machintosh*;
- Scandinavian tilidan: *anger, scare, take, get, skirt, skill, drop, true; pronouns: they, their, them*;
- Ruslardan: *спутник, космос, космонавт*;
- Italianlar: *confetti, macaroni, opera, sonata, soprano*.

Ularning ba'zilarini davrlashtiradigan bo'lsak, o'rta asrlarda, xususan, 1250-yillardan oldin kirib kelgan sohaviy so'zlar Normandiya fransuzlari tilidan kirib kelgan bo'lib, quyidagicha guruhlanadi:

- Qonuniy: *government, prison, court*;
- Diniy: *clergy, abbot, sacrament*;
- Harbiy: *army, soldier, sergeant*.

1250-yillardan so'ng Parij fransuzlari tilidan moda, ya'ni yillik urf bo'lgan (*fashion, dress, coat*); uy-ro'zg'or buyumlari nomi: *curtain, towel, blanket*; ijtimoiy hayot: *leisure, dance, music*; adabiyot sohasida: *poet, prose, romance* va boshqalar.

Dastlabki zamonaviy Angliya lug'at boyligining katta qismini so'z kombinatsiyalari jarayoni orqali kirib kelgan so'zlar: asosan lotin – *perfect*,

logic; fransuz – *elegant, decision*; yunon – *theology, trilogy*; italyan – *opera, balcony*; ispan-portugal – *alcohol, alligator* va h. k. tashkil etadi.

Lotin tilidan o'zlashgan «*status quo*» birikmasi XIV asr diplomatik yozishmalaridan kirib kelgan bo'lib, «*in statu quo res errant ante bellum*», ya'ni «*the way things are now, the current situation*» birikmalarining qisqa shakldagi ma'nosini berib, ingliz tilida ishlatiladi: *He is content with the status quo* (3) *U hozirgi vaziyatni hisobga oldi.*

Ma'lumki, ingliz tili o'z qatlamiga mansub so'zlar miqdori unchalik katta bo'lmagan bir necha semantik guruhlarda aks etadi. Ularga yordamchi va modal fe'llar, olmoshlar, predloglar, grammatik bog'lovchilar, oila a'zolari nomlari, tabiiy hodisalar va sayyoralar nomlari, hayvonlar va umumiy ish-harakat nomlarini ifodalovchi so'zlar kiradi.

Yangi so'zlar o'zbek tilidagi kabi ingliz tiliga ham mavjud so'zga o'zlashgan yasovchi qo'shimchalarni yangi so'zlarga qo'shish orqali yasalishi mumkin.

Masalan: *-er, -ness, -ish, -ed, -un, -mis, -dom, -ly, -over, -out, -under.*

Yuqoridagi yasovchi qo'shimchalarning kelib chiqishi inglizcha bo'lib, birgina *help* – yordam bermoq so'ziga – *helper, helpful, helpfully, helpfulness, helpfully, helpably, helped, unhelpable* va boshqa shakllarda kombinatsiyalar hosil qilish mumkin. Bundan ko'rinadiki, tilda so'z yasash imkoniyati juda keng. *Help* so'zining kelib chiqishi qadimgi nemis tiliga mansub *helfan* so'zining inglizchaga ko'chgan *helpen* shakli yaxlitlanib, xalq orasida talaffuzi barqarorlashuvdan hosil bo'lgan va XII asrdan *help* shaklida qo'llanilgan.

Olinma so'zlarni ajratishning yana bir necha usullari bo'lib, ular: 1. Agar noodatiy inglizcha tovushlar ketma-ketligidan foydalanilsa (*ka-, ko-, ku-, kh-, kl-*) – *khat-[Arabik]-buta, khan [Turkish]-xon; (-tz-, -zz-, -sch-, -ieux-) -school [nem-lot]-maktab, tzigane [fr. from Hung.]-segan* va b. 2. So'zlarning tovushlar yoki harflar joylashuvi turlicha talaffuz qilinsa: fransuzcha ko'rinishda – *déjà vu [da, -zha-vu, -vue] -tanish, elas-elas eslash* kabi. 3. Yangi inglizcha *-nik* qo'shimchasi ham rus tilidan *снүтнүк* so'zi orqali kirib kelgan: *beatnik – ishqiboz, folknik – milliy ashulalarni o'rganuvchi, protestnik – qarshi chiquvchi, peacenik – tinchlik uchun kurashuvchi* va b.

O'zga tillardan so'z kirib kelishi haqida o'rganar ekanmiz, buni o'zbek tili bilan ham bevosita bog'lamasdan ilojimiz yo'q. Chunki, O'zbekiston ham bugun butun dunyoga o'z eshiklarini ochib bergan holda jahon informatsiyalarini qabul qilib, o'zining imkoniyatlarini ko'rsatib berishga harakat qilmoqda. Mustamlakachilik tufayli ko'proq ma'lum vaqt ruscha so'zlar muomalada bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda garchand o'zi ham o'zga tildan olingan bo'lsada mahalliylashgan inglizcha so'zlar jadal suratda kirib

kelmoqda. Ularni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va sport sohasi mavzuviy guruhlariga ajratib o'rganish o'rinli bo'ladi.

Masalan: oziq-ovqat mahsulotlari nomlari: *bifshteks, gamburger, yogurt, ketchup, jem*.

O'rin-joy nomlari: *vokzal, dendropark, drenaj, skver, kemping, klub, kollej, kottej, motel, bar, tunnel, xoll park, supermarket*.

Mato nomlari: *belting, tik, reps, sheviot, neylon*.

Transport nomlari: *ekspress, pikop, layner, treyler*.

Ilmiy atamalar: *logistika, ufologiya, menejment, formalizm, sentrizm, dominion, lokout, ketgut, topik, interaktiv reyting, innovatsiya, keys, trening, sammit, lider, spiker, reagent, dialektrik, radar, transistor, bulldog*.

Axborot texnologiyasiga oid: *display, printer, multimedia, skaner, kompakt-disk, tiker, sayt, peyjer, peyjing, xaker, kartrij, teleks, teletayp*.

Tashkilot nomlari: *Interpol, aeroklub, press byuro, provayder*.

San'at-adabiyot: *triller, detektiv, pamphlet, yumor, prodyuser, diafilm, jaz, pop, klip, rekorder*.

Texnik atamalar: *terminal, avtokar, antifriz, bluming, kreking, skreper, forsunka, server, jin, magneto, starter, bufer, nipple*.

Sportga oid: *autsayder, ping-pong, vaterpolo, velotrek, karting, match, motobol, nokaut, nokdaun, raund, regbi, record, ring, set, sprinter, trener*.

Ko'rib turibsizki, o'zlashmalarni davom ettirsak sohaviy tarzda minglab keltirish mumkin. Ularning etimologiyasi turlichadir.

Masalan: *provayder* [ingl. *provider*] – ta'minlovchi, yetkazib beruvchi; *shou* [ingl. *show* – ko'rsatish, namoyish qilish] ommaviy tomoshabinlarga mo'ljallangan television yoki estrada tomoshasi; shu bilan birga – *shou biznes* [ingl. *show-bussiness*] – ishbilarmonlik faoliyati; *tokshou* [ingl. *talk show*] – suhbat, ashula asosida tashkil etiladigan ko'ngilochar ko'rsatuv va boshqalar bo'lib, tarixi uzoq bo'lmagan leksemalardir. Rus tilida *h* fonemasi mavjud emas, shunga muvofiq rus tili orqali o'zlashgan *xaker* [ingl. *hacker* – *hack* – buzmoq, kesmoq, qirqmoq]; *xuligan* [ingl. *hooligan* – irlandcha atoqli ot – *Houlihan*]; *xoll* [ingl. *hall* – *zal*]; *xokkey* – rus tiliga ingliz tili orqali o'zlashgan, aslida fransuzcha deb qaralgan [ingl. *hockey* – eski fr. *hoquet* – cho'ponlarning uchi qayrilma tayog'i va h. k.

Lug'atshunoslar neologizmlarni qabul qilish jarayonida quyidagi usullardan foydalanadilar: 1. Transkripsion, 2. Translitratsiyon, 3. Kalkalash.

Transkripsion usulda so'zning orfografik jihatdan emas, talaffuzi bilan o'zlashadi: *telephone* [‘te-le-, fon] – telefon

Translitratsiya — o'zbekcha harflar bilan inglizcha so'zni tashkil qiluvchi tovushlarni berish usuli: *internet* – internet

Kalkalash usulida asliyat birligi tarjima tilidagi mos leksima bilan almashadi: *auction* – kimoshdi; *commerce* – tijoratchi va b.

Ma'lum tilga o'zlashgan so'zlar, ular yangimi yoki o'zlashganidan buyon ancha vaqt o'tganmi, agar so'z ifodalagan tushuncha yo predmetning o'zi bilan kirib kelsa, xalq vakillari orasida qabul qilinishi va so'zning o'zlashishi ko'p vaqtni olmaydi, chunki bu amaliy jarayon bo'lib, tabiiy ravishda sodir bo'ladi. Bunda so'z shakl jihatidan ham o'z holicha qoladi. Agar kirib kelgan so'zning muqobil tarjimasi bo'lsa va u atamalar sirasiga kirmasa tilda ularning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra bir necha variantlari paydo bo'ladi va ularni uslubiy betaraf yoki bo'yoqdorligiga ko'ra farqlash lozim bo'ladi.

Masalan: *horse, steed, gee-gee* so'zlari bir xil (*ot*) jonivorni ifodalaydi, ammo o'zbekcha matnlardan ingliz tiliga o'girilganda ularning ma'noviy farqida xatoga yo'l qo'yilishi mumkin. Ularning tarjimasi quyidagicha beriladi: *horse* [*nem.*] – umumiy ma'nodagi ot; *steed* [*qad. ingl.*] – otliq minishi uchun chavandoz ot; *gee-gee* – bu ham ot, ammo bolalar tilida, ular bilan suhbatlashuvda ishlatiladi. Bundan tashqari: *stallion* [*nem. fr.*] – erkak ot; *mare* [*slavyan*] – urg'ochi ot; *colt* [*shved*] – toychoq, otning bolasi (asosan erkak jinsi).

Bunga o'xshash yana ko'plab so'zlar uchraydiki, turli tillardan olinib shakllangan sinonimik qatori bir qancha bo'lishi mumkin, ammo ularning har biri kontekstdan kelib chiqib ishlatilishi darkor.

Masalan: *freedom – liberty, help – aid, meal – repast, happiness – felicity, hide – conceal, wedding – marriage, meet – encounter, feed – nourish* va h. k.

«Tarjima boshqa til birliklari orqali mazmun va uslub birligini saqlagan holda asl nusxani qayta ishlash demakdir» deya ta'kidlagan edi Y. I. Resker. Yaxshi tarjimon hamisha badiiy ham ilmiy jihatdan har bir so'z va frazalarni leksik-semantik, stilistik, grammatik va pragmatik muammolarni hisobga olib ish ko'radi. Shunday ekan, jadallik bilan kirib kelayotgan yangi so'zlardan to'g'ri foydalanish, ularning muvofiq o'rnavhuviga hissa qo'shish, bu bilan til boyligining o'sishi va barqarorligini ta'minlash har bir tilshunosning vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- I. A. Karimov, «Barkamol avlod orzusi», T.: 2000.
- Stuart Redman. Lexicology of the English language. –T.: 2008
- Texas Gateway. Origins and Meanings of Foreign Words and Phrases.
- Merriam – Webster Online. 2011. <http://www.merriam-webster.com/>
- B. Zoid. Iqtisodiy matnlarda neologizmlarning tarjima qilinishi. – S. 2013.
- <http://www.dictionary.com/e/word>.



FRAZEOLOGIZMLARDAGI SINONIMIYA VA VARIANTLANISH HODISALARIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Anvarova Maftuna*

Annotatsiya

Maqolada tadqiqotlardan foydalanilgan holda frazeologizmlarda sinonimiya va variantlashish hodisalari tahlil qilingan va farqli jihatlari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: frazeologizm, frazeologik sinonimiya, frazeologik variantlashuv, so'z komponentlari, graduonomiya.

Annotation

The article analyzes synonyms and variants of phraseology and analyzed the contradictions

Key words: phraseology, synonymy of phraseology, variance of phraseology, word components, graduation.

Frazeologizm fikrni keng qamrovda, obrazli, o'tkir ma'noli ifodalash xususiyati bilan boshqa til birliklaridan farqlanadi. Shu bilan birga, ularda qo'shimcha ma'no va ma'no qirralarining kuchli ifodalanishi frazeologizm xarakterli tomonlari hisoblanadi. Shu jihatlari bilan frazeologiya hozirda ko'pgina tillarda tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

«Frazeologiya» tushunchasi, uning tarkibi va hajmi, milliy xususiyati, madaniy informatsion funksiyasi va shu kabi boshqa xususiyatlari hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Frazeologizmlar murakkab til hodisasi sifatida tilda so'z (leksik-semantik birlik) va so'z birikmalari (sintaktik birlik) orasida turuvchi birlik hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan frazeologizmlar so'zlar kabi tilning lug'aviy birligidir. Frazeologizmlar birdan ortiq so'zdan tashkil topishi bilan so'z birikmasi yoki gap tipida bo'lsa ham, lekin ular nutq birligi bo'lgan bu birliklardan tamoman farqlanadi va lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi. So'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir. Frazeologizmlar ham xuddi so'zlar kabi shakl va ma'no butunligiga ega. So'zning shakliy tomonini tovushlar tashkil etsa, frazeologizmlarda esa shakliy tomonni so'zlar tashkil qiladi.

Tilning leksik qatlamida frazeologizmlar muhim o'rin egallaydi. Ular fikrni obrazli va aniq tarzda berib, voqelikning har xil tomonini aks ettiradi. Frazeologizmlar nafaqat voqelikning ochiq ko'rinishini balki uni xarakterlashtirib, unga ma'lum baho beradi. Ma'nolar munosabatida ular yagona tushunchaga to'g'ri kelib, predmet, jarayon, holat, sifat, xususiyat va

* Qarshi davlat universiteti O'zbek fililogiyasi fakulteti talabasi, E-mail: maftuna.anvarovna.9595@mail.ru

■ *Talabalarning III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil
usulni ifodalaydi. Tilning umumiy sistemasi bilan munosabatda bo'lgan
qonuniyatlarni o'zida namoyon qiladi.

Frazeologizmlarning yana bir asosiy belgilaridan biri bu birikmaning
majoziy ma'noni ifodalovchi barqaror va doimiy birlik bo'lib kelishidir.
Ya'ni u birdan ortiq mustaqil so'zlardan tashkil topsa ham, biroq uning
ma'nosi tarkibidagi so'zlarning to'la yoki qisman ko'chma ma'noda
ishlatilishi natijasida hosil bo'ladi. Nutqda doimo bir ko'rinishda, ya'ni
barqaror bo'lib qo'llaniladi.

Frazeologizmlar komponentlarining u yoki bu so'zga almashtirilishi
asosida o'zaro yaqin ma'noli frazeologizmlar shakllanadi. Bunda asosan shakl
o'zgaradi, ma'no esa deyarli o'zgarmaydi. Leksik va struktur grammatik
o'zgarishlar asosida hosil bo'lgan frazeologizmlar tilshunoslikda frazeologik
variantlanish va frazeologik sinonimiya deyiladi. Ammo frazeologik
variantlanish va frazeologik sinonimiya hodisalarini bir-biridan farqlash lozim.

Sinonim frazeologizmlar umumtil frazeologizmlari asosida emas, balki til
frazeologik shakllanish tizimi asosida, turli doirada, lisoniy va nolisoniy
omillar ta'sirida yuzaga keladi. (*yer bilan yakson qilmoq-kulini ko'kka
sovurmoq*)

Frazeologik variantlashuv esa umumtil frazeologizmlari asosida yuzaga
keladi va ular ma'lum frazeologizmga asoslanadi yoki tilda mavjud bo'lgan
frazeologizmlardan o'sib chiqqan bo'lib, turli obrazlarda shakllanadi va
ularda umumiy so'z komponent mavjud bo'ladi. Masalan, *yuragiga tugmoq-
ko'ngliga tugmoq*.

Sinonim frazeologizmlarni frazeologik variantlanishdan ajratish uchun
iboralarning so'z komponentlariga diqqat qilish kerak. Leksik tarkibida ayni
bir so'z komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani, shubhasiz.
Masalan, *ipidan ignasigacha — miridan sirigacha*.

Ko'ngliga tugmoq bilan *yuragiga tugmoq* o'zaro bir iboraning
variantlariga teng, chunki bir leksik komponenti ayni shu so'zning o'zi,
ikkinchi leksik komponentlari esa o'zaro sinonim.

Frazeologik variantlashuv o'ta mahsuldor bo'lib, aksariyat
frazeologizmlarning variantlari uchraydi. O'zbek tilshunosligida ham
frazeologik variantlanish hodisasi chuqur o'rganilgan bo'lib,
Sh. Rahmatullayev frazeologik sohada variantlanish muammosini o'rta
qo'ydi. Olim ta'kidlaganidek, variantlanish tufayli bir frazeologizm boshqa
bir frazeologizmga aylanmaydi, bu frazeologizmga xos obraz birligi
saqlanadi. Variantlanish tufayli yuz beradigan o'zgarishlar
frazeologizmlarga xos yaxlitlikni yemirmaydi, parchalamaydi, balki
frazeologizmga xos yaxlitlik doirasida, shu yaxlitlik yo'l qo'ygan darajada
voqe bo'ladi. Aks holda yo frazeologizm yo'qqa chiqadi, yoki boshqa
frazeologizm barpo bo'ladi.

Frazeologik variantlar asos frazeologizmlarning bir ko'rinishi bo'lib, ma'nolari, stilistik va sintaktik vazifalariga ko'ra, aynan o'xshash leksik tarkibida qisman o'zgarishi bo'lgan, ayni bir obraz asosida yotuvchi til birligidir. Variantlanish turlicha bo'lib, asos frazeologizmlarning ayrim komponentlari o'zgaradi. Frazeologizmlarning har qanday komponenti variantlanishi mumkin.

Demak, frazeologik sinonimlar umumiy mundarijasi bilan birlashib tursa ham semik strukturasi nuqtayi nazaridan farqlanadi. Sinonim va variantdosh frazeologizmlarning komponentlari o'zaro o'xshash bo'lganligi uchun ularni farqlash qiyin. Ular ma'no darajasi bilan yoki hududiy chegaralanishi bilan bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, bular orasidagi asosiy farqlardan birini obrazlilik belgilaydi. Frazeologik sinonimlar aynan yoki bir-biriga yaqin tushunchalarni turli obrazlar yordamida ifodalaydi. Frazeologik variantlar esa shunday tushunchalarni bir obraz yoki bir-biriga yaqin obrazlar yordamida ifodalaydi.

Tilshunoslikda variantlanishning belgilarini aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, A.V.Kunin, I.I.Chernisheva, V.M.Mokienko, A.G.Nazaryanlar asosiy e'tiborni variantdor frazeologizmlarning ma'no umumiyiligiga qaratadilar. N.M.Shanskiy, L.M.Boldireva va I.A.Fedorovlar frazeologik variantlar tarkibi va tuzilishi u yoki bu tarzda o'zgarishiga uchrab, stilistik va ekspressiv xususiyatlari bilan farqlanishini ta'kidlaydilar. Turli xil fikrlar bo'lishiga qaramasdan, deyarli barcha tilshunoslar frazeologik variantlarda obrazlarning umumiy bo'lishini e'tirof etadilar.

Shunday qilib, frazeologik variantlanishning quyidagi belgilari mavjud: obrazning umumiyliigi; tildagi vazifalari va kategorial (leksik-gramatik) ma'nolarning mos kelishi; umumiy so'z komponentlarining mavjud bo'lishi.

Demak, frazeologizmlarning variantdorlikka tegishlilikini farqlashda, ularning aynan ma'no o'xshashligiga, tarkibining bir tipligi va birikmalarning ichki birligi (obrazlilik)ga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Ichki bog'liqlik frazeologik variantlarning hosil bo'lishida asosiydir.

Yuqorida aytganimizdek, professor Sh. Rahmatullayevning frazeologik sinonimlar xususidagi qarashlari ham frazeologik birliklar tadqiqida muhim o'rin tutadi. Olim sinonimiya hodisasini frazeologik sathga tatbiq etar ekan, ma'no ottenkasi, uslubiy bo'yog'iga ko'ra farq qiladigan, atash ma'nosiga ko'ra umumiy bo'lgan frazeologizmlar qatorini sinonimik iboralar deb baholaydi.

Shuningdek, sinonimlar qatorida o'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan uzvlar o'rtasida ko'p hollarda ma'no darajalanishi bo'ladi. Bu esa sinonimik qatordagi a'zolar o'zaro sinonimik munosabatda bo'lishi bilan birgalikda graduonomik munosabatga ham kirishishini taqozo etadi. Frazosinonimlardagi ana shu xususiyatni e'tiborga olgan holda, professor

■ Talabalarining III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari ~~~~ ■ 2018-yil
Sh. Rahmatullayev bu munosabatni yoritishga diqqatni tortadi va frazeosinonimik qatordagi ayrim a'zolar ma'noning kuchayish darajasiga ko'ra farqlanishini ko'rsatadi.

Frazeologiya sohasining strukturasi, semantik va funksional xususiyatlari hali hech bir tilda to'liq o'rganilmagan. Ammo, shu davrgacha bo'lgan izlanishlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, sinonimiya va variantlashish frazemalarda boshqa lisoniy birliklardagidan ko'ra ko'p uchraydi, chunki frazema murakkab qurilishli bo'lib, turli-tuman o'zgarishlar, uning tarkibidagi leksemalarda ham, morfemalarda ham yuz bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Rahmatullayev Sh., O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. -T., 1978.
- G'aniyeva Sh. Sh.Rahmatullayevning frazeologik sinonimlar haqidagi qarashlari // Tilshunoslikning dolzarb masalalari.-T.,2015, 448-449.
- Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. -T.,2000.
- Rahmatullayev Sh. «O'zbek filologiyasining ba'zi masalalari». -T., 1996, 146.



TILDA INTERFERENSIYANING VOQELANISHI

Bultakova Durdona*

Annotatsiya

Ushbu maqolada bilingvlar nutqidagi interferensiyaning kelib chiqish sabab va oqibatlari ko'rsatiladi. Interferensiyaning turlari misollar vositasida yoritiladi.

Tayanch so'zlar: Interferensiya, bilingvizm, tillar aralashuvi, psixologik va sotsiologik interferensiya, til kontaktlari.


Annotation

In this article the causes and the results of interference in the speech of bilinguals are studied. These types of interference are expressed by examples.

Key words: Interference, bilingualism, clash of languages, psychological and sociological interferences, the contacts of language.

Til — bu imkoniyat. Undagi birliklardan qanday, nima maqsadda, qay nutqiy vaziyatda foydalanish nutq iste'molchilari, ya'ni shu tilda so'zlashuvchi kishilarning salohiyati, yoshi, imkoniyatiga, jamiyatda tutgan o'rniga bog'liq. Bugungi rivojlanayotgan jamiyatimizda ikki tilni egallagan bilingvlar, ko'p tilli shaxslar ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida til kontaktlarining ko'payib borayotganligidan dalolatdir.

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-Kurs talabasi,
durdonabultakova@mail.uz



17
3825

Til sohiblari lisonida ular biladigan va o'rgangan tillari imkoniyat tarzida mavjud bo'ladi va nutqiy sharoitda ongsiz ravishda o'zi o'rgangan ikkinchi tilni qo'llayotgan vaqtida ona tilidagi so'zlar, elementlar, ma'lum bir xususiyatlar namoyon bo'ladi. Shuningdek, ikkinchi tilni qo'llash jarayonida birinchi til elementlarining uchrashi ham kuzatiladi. Bunday holat tilshunosligimizda *interferensiya* deyiladi. Interferensiya (lot. inter – ora + ferens – o'tkazish). Ona tiliga xos xususiyatlarni o'rganilayotgan tilga o'tkazishdir. Bu tillar odatda qardosh bo'lmaydi. Masalan, rus tilida fikrlovchi kishining *карандаш унал* gapini o'zbekcha nutqda *qalam yiqildi* tarzida ifodalash noto'g'ri. (Hojiyev A., 2002, 42). Tilshunos olim Dulayning fikrlariga ko'ra interferensiya birinchi tildagi ko'nikma tufayli uning strukturasi to'g'ridan to'g'ri ikkinchi tilga ko'chirishdir. Bu hodisani tillarning chatishuvi, to'qnashuvi, til kontaktlari tufayli bir tilning elementlarini ikkinchi tilga o'tkazish deb ta'riflasak ham bo'ladi. Interferensiya — keng ma'noda ikki tillilik sharoitida til sistemalarining o'zaro ta'sirini: ikki tilli shaxslar nutqida u yoki bu til me'yorining buzilishini ifodalaydi. Tor ma'noda ikki tilli shaxsning og'zaki va yozma nutqida ona tili ta'sirida ikkinchi til me'yorining buzilishini anglatadi (Usmonova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. 2013, 42). Lingvistik interferensiyani qaysi tilda, ya'ni bilingvning ona tilida yoki u o'zlashtirgan ikkinchi tilda namoyon bo'lishiga ko'ra (tilda lingvistik transformatsiya holati qaysi tilga ko'chayotganligiga qarab) ikkiga ajratish lozim:

1. Til sohibining ongida ona tili ustunligi tufayli birinchi til strukturasi, yoki ayrim elementlarning o'zlashtirilgan tilga o'tkazilishi. Bola shakllanayotgan vaqtidayoq atrof-muhit ta'sirida tabiiy ravishda, ongida, ona tiliga kuchli ko'nikma hosil bo'ladi. U kelajakda qandaydir tilni o'rgangandan keyin ham avval u ongida, o'z tilida gap tuzib oladi va keyin uni o'zga tilga o'giradi. Ya'ni ona tilida fikrlab, muloqotni o'zga tilda amalga oshiradi. Bunday tabiiy jarayon, shuningdek, ikki tildagi tafovutlar, til qurilishidagi farqlar bilingvga noqulaylik tug'diradi va ikkinchi tilni o'rganishida unga halal beradi.

Oxirgi tadqiqotlarga ko'ra til o'zlashtirishda ona tili ikkinchi tilga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar bilingvning ona tili va u o'rgangan tili qurilishi o'xshash bo'lsa, ikkinchi tilda so'zlayotganida unga qulaylik beradi va ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aks holda esa (bilingvning ona tili va o'rgangan tillarida farqlar ko'p bo'lsa) salbiy ta'sir ko'rsatib, bilingvning ikkinchi tilidagi nutq sifatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. (Theory and Practice in Languages Studies, 2015: 2016). Mazkur holatni o'zbek-ingliz bilingvlari nutqida kuzatish mumkin. O'zbek tili sohiblari ingliz tilida so'zlayotganda tillar qurilishidagi farqlar tufayli qator kamchiliklarga yo'l

qo'yishadi. Misol uchun, «*bugun ob-havo issiq*» degan gapni ingliz tiliga quyidagicha o'girishadi: «*Weather is hot today*». Aslida esa, quyidagicha bo'lishi kerak: «*It is hot today*». Yoki «*yomg'ir yog'yapti*» deyish uchun ingliz tilida «*rain is going*» degan ingliz tili tabiati uchun o'rinsiz xato gap tuzish holatlari ham uchraydi. «*It is raining*» holati esa mutlaqo to'g'ridir. «*Menga kitob kerak*» gapini ingliz tiliga tarjima qilishda uni «*The book needs to me*» deya xato tarjima qilish ingliz tilini o'rganayotgan shaxslar nutqida uchraydi. «*I need the book*» — bu esa to'g'ri tarjimadir. Aynan shu gap misolida ikki til qurilishdagi farq tufayli kelib chiqqan interferensiyani ko'rish mumkin. Bu gapni o'zbek tili qoidalari jihatidan tahlil qilsak: «kitob» — ega, «menga» esa — to'ldiruvchi. Ingliz tilida esa aynan shu gapda «I» (menga) ega, «book» esa to'ldiruvchi. O'zbek-ingliz bilingvi o'z ikkinchi tilida gap tuzishda o'zbekcha gap qurilishidan foydalanib, inglizcha so'zlar ishtirokida gap tuzgan. Bunday interferensiyalar tilni chuqur o'zlashtirganda umuman sodir bo'lmaydi. Ikkinchi tilni mukammal o'zlashtirmaganlik holatida ham shu turdagi interferensiya kuzatiladi.

2. Bilingv o'rgangan til uning nutqida faollashib, u ikkinchi tilining darajasini ona tiliga tenglashtirganda o'ziga bog'liq bo'lmagan tarzda ona tilidagi nutqida ikkinchi tilning elementlarini namoyon qiladi. «...Где гуманистический подход? Ну, анави шопир биргина карабди, ну, хаваси келган...» (Azamov E., 2011, 96). E'tiborli jihati shundaki, bu hodisa tilimizda anchagina faol va nutqimizning sofliğini buzayotgan omillardan biridir. Bunga qator sabablarni keltirish mumkin. Birinchi sababi, bilingvlarining ko'payib borayotganligi. Bunday shaxslar o'zlariga bog'liq bo'lmagan tarzda, ongsiz ravishda tilida, nutqida va uning turli sohalarida bir til elementlarini, xususiyatlarini boshqa tilga ko'chirishadi. E'tibor qaratishimiz kerak bo'lgan shunday jihat ham borki, fuqarolarimiz orasida rus tiliga ikkinchi til sifatida qarash borligi va buning oqibatida o'zbek tilida so'zlashayotganda ruscha so'zlarni qo'llash holati ko'p uchraydi. Masalan, «*postoyanna shunaqa qiladi*», «*privet hammaga*», «*sabzavotlaringiz svejimi?*» va hokazo. Lekin hozirda ingliz va o'zbek tillarini biluvchi bilingvlar nutqida o'zbekcha so'zlarni ham inglizcha aksent bilan gapirish va ingliz tilidagi so'zlarni qo'llash holatlari ko'p uchramoqda. Misol uchun: «*Hali hammasi OK bo'ladi*», «*Bravo, azizlar*», «*O may Gad, hamma narsa tayyor bo'lishi kerak edi-ku*», «*Bay-bay, ko'rishguncha*», «*Hotelga joylashib olaylik*», «*O, yes, zo'r bo'libdi*» va boshqalar. Bunday holatlarda ikki tilli shaxs u o'zlashtirgan ikkinchi tilida ko'p muloqot qilganligi, o'zi qo'llayotgan boshqa tildagi so'zning ishlatilishini o'z tilidagi muqobilidan qulay deb bilganligi tufayli va qolaversa, o'zi xohlamagan tarzda qo'llab yuboradi. Natijada nutqda soflik yo'qoladi, til me'yori buziladi, uslubiy va grammatik xatoliklar kelib chiqadi. Bundan ko'rinib turibdiki, interferensiya

dinamik, doimiy o'zgarishdagi, turg'un bo'lmagan hodisa. Interferensiyaning birinchi turi (birinchi tilning elementini ikkinchi tilga ko'chirish) ko'p tadqiq qilingan. Ammo ikkinchi til ayrim bilingvlar nutqida faollashib, u birinchi til o'rnini egallaganligi bois ikkinchi til xususiyatlari birinchi tilga o'tishi holatlari kam o'rganilgan. Bunday holatning kelib chiqishiga qator sabablarni keltirish mumkin. Masalan, globallashuv, hukmron tilning ustunligi, zamonaviylik va tushunarlilikka intilish. Bugungi kunda ayrim shaxslar o'zi o'rgangan ikkinchi tilidagi so'zlarni o'z nutqida qo'llashini o'zlari uchun go'yo obro', o'zgacha uslub sifatida qabul qilishadi.

Interferensiyaning oqibati tillardagi salbiy holatlar va ko'z yumib bo'lmaydigan xatoliklar, nutqiy me'yorning buzilishi kabilarda ko'rinadi. Masalan, tilimizdagi nutqiy savodxonlikning pasayib ketayotganligi, ya'ni o'z tilida fikrini ravon, hech qanday g'alizliklarsiz ifoda etib bera olmaydigan shaxslarning ko'payib borayotganligini inkor qilib bo'lmaydi. Bu, albatta, ma'lum bir tilning imkoniyati cheklanib qolayotganligini yoki torayib qolayotganligini ko'rsatadi. Oqibatda tildagi ayrim so'zlar yo'qolib ketishi ham mumkin. Chunki har bir so'zning, umuman olganda, tilning qancha yashashini undan foydalanayotganlarga hal qilib berishadi. Ma'lum bir kod orqali muloqot jarayonida boshqa kodning (ayni paytda ikki subkod) aralashuvini ham interferensiya sifatida baholash o'rinli. Shunga asosan interferensiyaning ikki yirik guruhga: dialektal interferensiya va internatsional interferensiyaga ajratish mumkin (Mahkamova D., 2018, 21). Bir tilning o'zida bir subkoddan boshqasiga o'tganda, ya'ni bir shevadan ikkinchisiga yoki adabiy tildan so'zlashuv tiliga o'tganda ham interferensiya yuz beradi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bularni ichki interferensiya va tashqi interferensiya desak ham o'rinlidir.

Tilshunos olim Lott bu hodisani shunday ta'riflaydi: Interferensiya — bu ona tilining ta'siri tufayli xorijiy tilni ishlatishda qilinadigan xatolikdir (<http://www.education.com/definition/language-transfer/>).

Adabiyotlarimizda ko'rib chiqilmagan, ammo xorijiy adabiyotlarda aytib o'tilgan interferensiyaning qator turlarini bizning tilshunosligimizda ham ko'rib chiqsa o'rinli bo'ladi, nazarimizda. Masalan, tilshunos olim Dulay lingvistik interferensiyaning ikkiga ajratadi: psixologik interferensiya va sotsiologik interferensiya. Psixologik interferensiya boshqa tilni o'rgangandan keyin ona tiliga kuchli ko'nikma sababli ikkinchi tildagi chalg'ish holatidir. Bunday interferensiya insonning ma'lum bir vaziyatdagi ruhiy holati sababli kelib chiqadi. Kuzatilgan shunday bir holat borki, inson asabiylashgan vaqtda, jahli chiqqanda adabiy tilda so'zlay turib, o'z shevasida gapirib ketadi. Bunda ichki interferensiya yuz beradi. Beixtiyor ongimizda birinchi til strukturasi o'rnashib qolgan va psixologik jihatdan bunga oddiy holat sifatida qarash mumkin. Sotsiologik interferensiya ikki til

kommunikatsiyasida tillarning o'zaro ta'sirlashuvi yoki nutqiy sharoitda bir tilning ikkinchi tilga ta'sir ko'rsatishi. Inson ishda, turli faoliyatda boshqa til egalari bilan muloqotga kirishishiga to'g'ri keladi. Bunday holatlarda ba'zan faqat muloqot jarayonidagina bir til ikkinchisiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday holat sotsial bo'lganligi tufayli sotsiologik interferensiya deb yuritiladi.

Ko'rilganidek, ikki tillilik sharoitida interferensiya qator omillar tufayli kelib chiqadi. Har bir omil esa uning ma'lum bir turini belgilab beradi. Mazkur turlarni tadqiq etish til ta'limidagi qator muammolar, ekstralingvistik xavflar, uslubiy xatolar, nutqiy madaniyatsizlik kabi vaziyatlar yechimiga muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Azamov E., Shovqin. –T.: O'zbekiston, 2011, 96.
- Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T.: Fan, 2002, 42.
- <http://www.education.com/definition/language-transfer/> (Taken on Monday, April 2nd, 2013)
- Mahkamova D. Interferensiya sotsiolingvistik hodisa sifatida. Maqola. 2018, 21.
- Usmonova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. –T. 2013, 42.
- Theory and Practice in Languages Studies, Vol. 5, No. 10, pp. 2112–2117, October 2015. DOI: <http://dx.doi.org/10.17507/tpls.0510.19>.



SIFATDOSHNING BO'LISHLI VA BO'LISHSIZ SHAKLLARI

Eshbekov Nuriddin*

Annotatsiya

Maqolada sifatdoshning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari haqida bir necha olimlarning fikrlari ko'rib chiqilgan, qaysi davrlarda qo'llanganligi ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: sifatdosh, -mas, -ma, bo'lishli, bo'lishsiz.

Annotation

The article gives an overview of the views and views of several scientists on the forms of split-in and out-of-expression.

Key words: participle, not, positive, negative.

Bugungi kunda ilm-fan barcha sohalarda jadal rivojlanib bormoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligi ham o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ydi. Til — murakkab ijtimoiy hodisa. Uni o'rganishga kirishilgan paytdan boshlab, to hozirgi kunga qadar dunyo tilshunosligida hal

* Guliston davlat universiteti Filologiya fakultetining O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-kurs talabasi, nur-eshbekov@mail.ru

qilinmagan, bir qarorga kelinmagan va o'z yechimini kutib turgan masalalar ko'p. O'zbek tilshunosligida aniq bir qarorga kelinmagan masalalar, muammolar va noaniqliklar bugungi o'quvchilar uchun murakkablik va tushunarsizlik holatini keltirib chiqarmoqda. Shu kabi masalalardan biri sifatdoshning - (a)r qo'shimchasining bo'lishsiz shakli $-ma+r-s=mas$ qo'shimchasining fonetik hodisa asosida yoki $-mas$ qo'shimchasi bilan ifodalanishiga to'xtalib o'tsak.

Sifatdosh narsa-buyumning belgisini o'zgarish, harakat natijasi sifatida ifodalaydigan fe'lning sifatga xoslangan shaklidir. Sifatdosh fe'l singari ish-harakatni anglatib, zamon, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlikni bildiradi: *borgan* bo'lishli. Sifatdoshlarning bo'lishsiz shakli: *bormagan*. Sifatdoshning bo'lishsiz shakli $-ma$ bo'lishsizlik qo'shimchasi orqali hosil qilingan. O'zbek tili grammatikasida sifatdosh yasovchi affikslardan biri - (a)r qo'shimchasining bo'lishsiz shakli $-mas$ bilan ifodalanadi deb keltirib o'tiladi.

Sh. Rahmatullayevning darsligida $-r$ (bo'lishsiz shakldan keyin $-s$) affiksi «umumzamon» ma'nosi ifodalaydi: *ko'rar ko'zim, aytar so'zim; tez yurar poyezd, o'q o'tmas jilet* kabi. Bu sifatdosh shakli *bo'lar-bo'lmas* (gaplar) kabi ayni bir fe'l leksemani bo'lishli-bo'lishsiz shaklda takrorlab ham ishlatiladi; bunday shakldagi sifatdosh, otga bog'lanishdan tashqari, fe'lga ham bog'lanib, harakatning belgisini anglatadi: *Tong otar-otmas jonadik* kabi.

Bu sifatdosh yasovchisining $-r$ shakli asosiy allomorfema bolib, $-s$ shakli shu allomorfemaning tovush ozgarishi natijasida paydo bolgan deyiladi: *oqima + r > oqimaz > oqimas* kabi. Kelib chiqishi bir ekanini nazarda tutib bu affiksning $-r$ va $-s$ shakllarini allomorfemalar deb baholash to'g'ri deb keltiradi.

R. Sayfullayevalarning darsligida - (a)r qo'shimchasini bo'lishsiz shaklini $-mas$ qo'shimchasi bilan ifodalaydi. Masalan: *Balki zavod qurish uchun ovora bo'lishga to'g'ri kelmas. (O.) Shu atrofda yurgandir, kelib qolar. (S.A.)* Bu qo'shimchani kelasi zamon qo'shimchasi deb keltirib o'tadi.

A.G'ulomov, A.N.Tixonov va R.Qo'ng'urovlarning «O'zbek tili morfem lug'ati» qo'llanmasida $-mas$ qo'shimchasini shakldosh qo'shimcha deb keltiradi. $-mas$ ($-ma+$ $-s$) I - (a)r affiksi vositasida yasalgan sifatdoshning bo'lishsiz formasi sifatida ajratiladi ($r > z > s$): *bil/mas, ko'r/mas, sez/mas, top/mas, o'zgar/mas, to'y/mas, qo'rq/mas*.

Bu morfema sifatdosh tarkibida kelib, ayrim hollarda ajratiladi. Reduplikatsiya yo'li bilan yasalgan ravishlarda ham shunday: *bil/ar – bil-mas* (gapiradi), *kel/ar – kel/mas, ayt/ar – ayt/mas, eshit/ar – eshit/mas* kabi.

-mas II -gan formali sifatdoshdan keyin ba'zi so'zlarda emas to'liqsiz fe'lining qisqargan formasi sifatida ajratiladi. Bu, odatda, og'zaki nutqda, poeziyada uchraydi.

Qiyos.: *kel/gan emas // kel/gan/mas, yur/gan emas // yur/gan/mas, suz/gan emas // suz/gan/mas*. Buning ham aslida sifatdoshga aloqasi bor.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun chiqarilgan ona tili darsligida sifatdoshning bo'lishsiz shakli sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimchalardan oldin *-ma* qo'shimchasini keltirish orqali yasaladi, deb yozilgan. Masalan: aytgan-aytmagan, oqayotgan-oqmayotgan, o'qiydigan-o'qimaydigan.

- (*a*)r qo'shimchasi yordamida yasalgan shakllarning bo'lishsiz shakli *-mas* qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi.

Yuqorida keltirilgan barcha adabiyotlardagi qarashlarni ko'rib chiqdik. Bizning fikrimizcha, sifatdoshning bo'lishsiz shaklini hosil qilishda sifatdosh yasovchi qo'shimchalar oldidan *-ma* bo'lishsizlik affiksini keltirish orqali hosil qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, *tani/gan odam // tani/ma/gan odam*. Kelasi zamon sifatdoshining - (*a*)r affiksining bo'lishsiz shaklini hosil qilishda

-ma bo'lishsizlik affiksini keltirish orqali hosil qilib, *-ma+ (r > z > s) = -mas* shaklida olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi kunda o'quvchilarda kelasi zamon sifatdoshi - (*a*)r qo'shimchasining bo'lishsiz shaklini *-ma+ (r > z > s) = mas* qo'shimchasining fonetik hodisa asosida yoki murakkab *-mas* qo'shimchasi bilan hosil qilishda murakkablik tug'dirmoqda.

Masalan,

U joyidan bir qadam ham qimirlamasdi,
gapida fonetik hodisa asosida, ya'ni *qimirlamas* so'zi *qimirlar* so'zining inkor shaklidan:

qimirla+ma+ (r > z > s)

tovush o'zgarishi asosida *r* tovushining *s* tovushiga o'zgarishidan hosil bo'lgan, desak to'g'riroq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- O'zbek tili grammatikasi I tom. -T.: Fan, 1975.
- Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: Universitet, 2006.
- R. Sayfullayeva, B. Mengliyev va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. -T.: Fan va texnologiya, 2009.
- A.G'ulomov, A.N.Tixonov, R.Qo'ng'urov. O'zbek tili morfem lug'ati. -T.: O'qituvchi, 1977.
- N.Mahmudov, A.Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. Ona tili (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik). -T.: Tasvir nashriyot uyi, 2017.



GLOBALLASHUV JARAYONIDA TIL MUAMMOLARI

Eshqulova Go'zal*

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuv jarayonida ro'y berayotgan til muammolari, televideniya, radio va reklama tilining adabiy til me'yorlariga rioya qilinmayotgan holatlar, savodxonlikning pasayib borayotgani va shu kabi masalalar xususida ilmiy-tahliliy fikrlar yuritiladi.

Tayanch so'zlar: globallashuv jarayoni, adabiy til me'yorlari, tillarning zaiflashuvi.

Annotation

Article discusses the role of language in the process of globalization, the factors that affect the authority of the state, advertising and television literary language standards, the influence of mass culture to the youth culture of speech, bilingual attention to the conditions of the mother language issues.

Key words: process of globalization, language, affect, positive, negative.

Bugungi kunda Yer sharida kechayotgan globallashuv jarayoni natijasida jahon xalqlari uchun umumiy etiket, umumiy xarakter, tafakkur, umumiy mentalitet shakllanmoqda va bunga bevosita jahon miqyosida kechayotgan siyosiy, iqtisodiy va axborot borasidagi globallashuv ancha kuchli ta'sir qilmoqda. Bunday globallashuv, muayyan ijobiy natijalar berishiga qaramasdan, salbiy oqibatlariga ham olib kelmoqda. Bu har bir xalqning ma'naviy qiyofasiga ham bevosita hamda bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada globallashuv oqibatida millatlarning ma'naviy olamiga xos ko'plab qadriyatlar, marosim va udumlari unutilishiga sabab bo'lmoqda. Global makonda yuz berayotgan ma'naviy-mafkuraviy xurujlar, avvalo, yoshlarning ongini egallashga yo'naltirilgan bo'lib, «ommaviy madaniyat» deb qaralayotgan mazkur illat xalqimizning ma'naviy xazinasini bo'lgan: tili, odobi, axloqi, ibosi, or-nomusi, irodasi, sharm-hayosi, iffat-andishasi kabi ma'naviy fazilatlarimizga tajovuz qilib, ko'p ming yillik milliy qadriyatlarimizning ildiziga putur yetkazayotgani ham ayni haqiqatdir. Ana shunday ta'sirni ona tilimizga bo'lgan munosabatda ham ko'rish mumkin. Bugungi kunda ko'p tillilik hayotiy zaruratga aylanayotgani ham globallashuv sharoitida tillarga munosabatni tegishli tahlil etishni talab etadi.

Globallashuv tillarning ijtimoiy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgani davrimizga oid asosiy jarayonlardan biridir. Bu sohadagi holat, o'zgarishlarni taniqli faylasuf olim Q. Xonazarovning «Globallashuv va til falsafasi» nomli monografiyasida atroflicha tahlil etilgan. Muloqot vositasi sifatida tilning mavqeyi oshishi uning rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq. Q. Xonazarov

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakultetining 3-kurs talabasi, gozaleshqulova@gmail.com

■ *Talabalarining III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil
tilning rivojlanganlik darajasini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar bo'lishi
shart deb hisoblaydi:

1. Shu tilda so'zlashuvchilar soni.
2. Shu tilda so'zlashuvchilarning zich yoki tarqoq yashashi.
3. Shu tilning dialektlarga bo'linganlik soni.
4. Shu til dialektlarining bir-biriga yaqinligi yoki bir-biridan uzoqligi.
5. Shu tilning adabiy shakli qachon shakllanganligi.
6. Adabiy tilda chop etilayotgan nashrlarning millat soniga nisbati va salmog'i.
7. Adabiy tilda asarlar qachondan beri chop etilib kelayotganligi.
8. Shu milliy tilning tilshunoslik fani nuqtayi nazaridan ishlanganligi.
9. Shu tilning maorif tizimida o'qitilishi va oliy o'quv yurtlaridagi o'rni va salmog'i.
10. Ushbu tilda izohli lug'atning borligi, hajmi, nashr etilgan yili.
11. Ushbu til bilan jahonning xalqaro tillarini qamrab oladigan ikki tilli yoki uch tilli lug'atlarning mavjudligi, ushbu til va chet tili lug'atlari, ularning hajmi va adadi.
12. Ushbu tilda hozirgi zamon fani, texnikasi va texnologiyasining terminologik boyligini qamrab oladigan lug'atlarning mavjudligi va hokazo (Xonazarov Q., Globallashuv va til falsafasi, 56).

Ushbu ko'rsatkichlar mezoni talablari nuqtayi nazaridan o'zbek tilining maqeyi hozirgi paytda ancha yuqori turadi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov qayd etganidek, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi».

Globallashuv jarayonlarining milliy tillar rivojiga ta'sirini esa quyidagilarga ajratib ko'rsatish mumkin.

- **Birinchidan**, globallashuv jarayonlari, ayniqsa madaniy va informatsion globallashuv tilimizga turli so'zlarning kirib kelishiga olib kelyapti. Bu bir tomondan tilimizning boyib borishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan tilimizning qaysidir ma'noda zaiflashishiga olib kelmoqda.
- **Ikkinchidan**, har qanday tilni zamonaviy, madaniy niqoblar ostida begona so'zlar egallayversa, bu til oldiniga qashshoqlashadi, keyin, tarixda kuzatilganidek, ma'naviy jihatdan yemirilib boradi yoki boshqa tillarga singib ketadi.
- **Uchinchidan**, globallashuv sharoitida milliy tillarga kirib kelayotgan so'z va iboralar agarki, ijtimoiy ma'naviy hayotimizdagi mavjud narsa va hodisalarning mazmun-mohiyatini

ifodalaydigan milliy tushunchalarning o'rnini egallaydigan bo'lsa, bu til ma'naviy qashshoqlashib boradi. Aksincha, milliy tillarga kirib kelayotgan tushuncha va iboralar ushbu xalqning ijtimoiy ma'naviy hayotida o'z aksini topmagan narsa va hodisalarning mohiyatini ochishga xizmat qilsa, bu til ma'naviy jihatdan boyib boradi.

Globalashuv jarayoni va davlat tili muammolarini tadqiq etgan olimlar, mutaxassislar bugungi televideniya va radio tili, ayniqsa, reklama tili talab darajasida emasligini qayd etishgan. Masalan, shahrimizdagi rus va ingliz tilidagi reklamalar, peshlavhalar soni ko'payib ketdi. Hatto ayrim o'rinlarda ularning o'zbekcha tarjimai ham berilmayapti. Shahar va tumanlardagi do'konlar, oshxonalar, restoranlar, kafelar, barlarning nomlarini o'qisangiz, o'zingizni O'zbekistonda emas, boshqa bir yurtga borib qolgandek his qilasiz. Masalan, «Golden Fork», «Selfie», «Na Neba», «Caferma» singari peshlavhalarga shahrimizda tez-tez duch kelamiz.

Yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, davlat tilida nashr qilingan kitoblar, ko'chalarimizdagi reklama, peshlavhalarga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda bir qancha imloviy, uslubiy, punktuatsion xatolarni kuzatishimiz mumkin. Bu esa ona tilimizga hurmatsizlikdan boshqa narsa emas.

Joy nomlarini qo'yish, reklama lavhalarini, telemarket materiallarini tartibga keltirish kabi masalalar muvofiqlashtirilsa, tegishli mutaxassislar ishtirokida maxsus hay'at tasdig'idan o'tkazilsa, bu masala o'z-o'zidan ijobiy hal etilgan bo'lardi.

Umuman olganda, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida yozganlaridek: «...o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili — bu millatning ruhidir (Karimov I. A., Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch, 2008: 60).

Shunday qilib, til — millatning vijdoni, uning mavjudligini, yashayotganini tasdiqlovchi hujjat bo'lgani uchun hozirgi globalashuv davrida tilning, jumladan davlat tili maqomiga ega bo'lgan o'zbek tilining istiqboli, rivoji uchun barcha ziyolilar birday mas'ul bo'lmog'i lozim, degan fikrdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Davlat tili muammolari. // Samarqand gazetasi, 2011-yil 22-oktyabr.
- Karimov I. A., Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch — T.: Ma'naviyat, 2008
- Xonazarov Q. Globalashuv va til falsafasi. — T., 2009.



«SON/SO'NG» VE «SONRA/SO'NGRA» KELİMELERİNİN TÜRKİYE VE ÖZBEK TÜRKÇELERİNDE KULLANIMI

Gülşah Tuğlaci*

Özet

Bu çalışmanın amacı Türkiye Türkçesinde «son, sonra» ve Özbek Türkçesinde «so'ng, so'ngra» şeklinde yaşayan kelimelerin kullanım, işlev ve türlerini karşılaştırmalı olarak incelemektir. Bu kelimelerin isim, sıfat, zarf, edat gibi türlerde karşımıza çıkması, onların cümle kuruluşunda çeşitli görevler üstlendiklerini göstermektedir. Lehçeler arası araştırmalarda bu çeşitliliğin daha da arttığı görülmektedir. Konu, Türkiye ve Özbek Türkçelerinin standart/edebî dilleri tabanında incelenecek, benzer ve farklı yönler ortaya konacaktır.

Anahtar kelimeler: zarf, edat, son/so'ng, sonra/so'ngra.

Annotation

The aim of this paper is to analyse the uses, functions and classes of «son/so'ng (last)» and «sonra/so'ngra (after)» comparatively in Turkish and Uzbek. We can see these words as various word types such as noun, adjective, adverb or postposition in a sentence. This shows that they have various functions in a sentence structure. It is seen that this variety increases in inter-dialects research. The subject will be analysed in modern Turkish and Uzbek literary language and revealed similarities and differences.

Key words: adverb, postposition, son/so'ng (last), sonra/so'ngra (after).

1. Giriş

Türkçe/Türkiye Türkçesi ile Özbekçe/Özbek Türkçesi, tek bir ana dilden çıkıp geniş alanlara yayılmış ve dallara ayrılarak farklılaşmış olan iki kardeş dildir. Bu sebeple bu çalışmada *Türkçe* adıyla sadece genel/ana Türkçe kastedilecektir. Türkiye'de konuşulan Türkçe için *Türkiye Türkçesi* (TT.), Özbekistan'da konuşulan Türkçe içinse *Özbek Türkçesi* (ÖT.) adlandırmaları kullanılacaktır.

Son/so'ng ve *sonra/so'ngra*, Eski Türkçeden beri var olup günümüzde de birçok Türk dilinde yaşamaya devam eden kelimelerdendir. Bu kelimelerin isim (ot), sıfat (sifat), zarf (ravish), edat (ko'makchi) gibi türlerde karşımıza çıkması, onların cümle (gap) kuruluşunda çok çeşitli görevler üstlendiklerini göstermektedir. Lehçeler arası araştırmalarda bu çeşitliliğin daha da arttığı, kelimelerin kullanım skalasının farklılaştığı görülmektedir. Bu çalışmada *son/so'ng* ve *sonra/so'ngra* kelimelerinin cümle içinde üstlendikleri görevler ve temsil ettikleri türler Türkiye ve Özbek Türkçelerinde karşılaştırmalı olarak incelenecektir.

* Hacettepe Üniversitesi, gtuglaci@hacettepe.edu.tr

Eski Türkçe *soŋ* kelimesi DLT (Atalay 2013: 357), DC (Nadelyayev vd. 1969: 508), EDPT (Clauson 1972: 832-833) ve ETG'de (Akalin 2007: 107) «sonra; son» anlamlarıyla yer almaktadır. Yani *soŋ* kelimesi *soŋra* yerine de kullanılmaktadır. Karahan, *soŋ*'un *soŋra* yerine Nehcü'l Feradis ve Kısasü'l-Enbiya'da da kullanıldığını gösteren örneklere yer vermiştir (2007: 41, 44). *Soŋra* kelimesinin *+ra* yön gösterme ekinden türediği genel olarak kabul edilmektedir (Abdurahmonov vd. 1973: 197; Banguoğlu 2007: 197; Erdal 2004: 373; G'ulomov vd. 1977: 233; Rahmatullayev 2000: 315). Ancak bu fikre aykırı bazı görüşler de bulunmaktadır (ayrıntılı bilgi için bk. Alkaya 2002: 503). KLS'de *song* ve *songra* olarak geçen kelimelerin *songı*, *songu*; *andan songra*, *songrasında* şekilleri de yer almaktadır (Grönbech 1992: 168-169). *Soŋra* kelimesinin ÇEK'de *soŋrarak* derecelendirilmiş şekli geçmektedir (Eckmann 2017: 92). GT'de ise «sonraki» anlamına gelen *soŋrağı* şekli yer almaktadır (Özkan 1993: 431).

Güncel Türkçe Sözlük'te *son* «şimdiki zamana en yakın zamandan beri olan veya bu zamanda yapılmış, olmuş olan, ilk karşıtı; en arkada bulunan» ve «uç, sınır; bir şeyin en arkadan gelen bölümü, bitimi, nihayet, akıbet» gibi anlamlarda *sıfat* ve *isim* türü olarak geçer. *Sonra* ise «daha ileri bir zamanda, müteakiben, önce karşıtı», «daha uzak ve ileri bir yerde» ve «arkadan gelen bölüm veya zaman» gibi anlamlarda *zarf*, *edat* ve *isim* türü olarak geçer.

Özbek Tilining İzohli Lug'ati'nde *so'ng* kelimesi «son, nihayet», «sonuncu», «sonra», «ayrılma hâli ekiyle birlikte -dan sonra» anlamlarında *isim*, *sıfat*, *zarf* ve *edat* türünde geçer. *So'ngra* ise «ardından, sonra» ve «bunun dışında, ayrıca» anlamlarında *zarf* türü olarak geçer (2007: 615-616). Görüldüğü gibi ÖT. deki *so'ng*, TT. deki *son*'dan farklı olarak *zarf* ve *edat* göreviyle de kullanılır. TT. de *son* kelimesinin *zarf* görevinde kullanılabilmesi için çeşitli ekleşme süreçlerinden geçmesi gerekir. *Son*'un ekleşmiş *zarf* şekillerinden inceleme kısmında detaylı olarak bahsedilecektir. Çalışmanın çıkış noktası da esasen bu farklılık olmuştur.

Konu, Türkiye ve Özbek Türkçelerinin standart/edebî dili tabanında ele alınacaktır. ÖT. için örnekler, Özbek Türkçesiyle yazılmış romanlardan derlenecektir. Yöntem olarak Türkiye gramerciliği esas alınacaktır.

ÖT. de ekler çoğunlukla *-da*, *-dan*, *-gan* gibi tek şekillidir. TT. de ise seslerin uyuma girmesinden dolayı bir ekin birden fazla şekli vardır. Örneğin ayrılma hâli eki (chiqish kelishigi qo'shimchasi) bağlandığı kelimeyle uyuma girerek *-dan* (kapı-dan), *-den* (tepe-den), *-tan* (park-tan), *-ten* (ders-ten) şekillerinde karşımıza çıkabilir. İnceleme kısmında ek, farklı şekillerinin birçok kez tekrar edilmemesi amacıyla, *-DAn* şeklinde gösterilecektir. Ekin büyük yazılan harfleri, o seslerin uyuma göre değiştiğini ifade eder. İncelemede verilen örneklerin aktarımı için birden fazla alternatif varsa bunlar araya *</>*

işareti konularak yazılacaktır. Örneğin *keyingi/oxirgi* gibi bir gösterim her ikisinin de kullanılabilirdiğini ifade eder.

Çalışmanın bundan sonraki kısmında *son/so'ng*, *sonra/so'ngra* kelimelerinin Türkiye ve Özbek Türkçelerindeki kullanım ve işlevleri detaylı olarak ele alınacaktır.

2. İnceleme

2. 1. Zarf (ravish) ve Edat (ko'makchi) Görevinde Kullanım

Son/so'ng ve *sonra/so'ngra*'nın cümle içerisinde zarf görevinde kullanımları incelendiğinde Türkiye ve Özbek Türkçeleri ilginç farklılıklar sergilemektedir. TT. de «önce» karşıtı anlamında *sonra* kelimesi yaygın olarak zarf görevinde kullanılır (bk. 1). Buna karşın *son*, cümle içerisinde zarf görevinde kullanılmaz. Sadece *son-u-n-da* şeklinde ekleşirse veya *en son* şeklinde derecelendirilirse zarf görevi üstlenebilir (bk. 2, 3). ÖT. de ise hem *so'ngra* hem de *so'ng* cümle içerisinde zarf görevinde kullanılabilir. Her ikisi de TT. ye *sonra* şeklinde aktarılır (bk. 4, 5).

- (1) «*Senin kalemini sonra vereceğim.*» // «Sening qalamingni keyin beraman.»
- (2) «*Sonunda sizinle karşılaştım.*» // «Nihoyat siz bilan uchrashdim.»
- (3) «*Bugün eve en son ben geldim.*» // «Bugun uyga eng oxiri men keldim.»
- (4) «*Sufi sessiz kaldı. Sonra ağabeyi devam etti...» // «*So'fi jim bo'ldi. So'ngra akasi davom etdi...*» (KVK 13)*
- (5) «*Bir an öylece durup kaldı, sonra gövdesini geriye çekti.*» // «*Shu yo'sin bir lahza tinib qoldi, so'ng gavdasini orqaga tortdi.*» (PT 55)

TT. de isimlere *-Dan sonra* yapısı eklenerek de zarf yapılabilir (bk. 5). Bağımsız bir zarf olarak kullanılmayan *son* kelimesi ise bu tip bir yapıya bağlanmaz. Bu açıdan ÖT., yine TT. den farklı özellikler gösterir. ÖT. de *so'ng*, zarf olarak bağımsız kullanımının yanı sıra *-dan so'ng* şeklinde de zarf görevinde yaygın olarak kullanılır (bk. 6).

- (6) «*Yemek-ten sonra film izleyeceğiz.*» // «*Ovqatlangandan keyin kino ko'ramiz.*»
- (7) «*Bundan sonra Taşkent'e gitmeyeceğim.*» // «*Mundan so'ng Toshkand bormayman.*» (O'K 80)

So'ngra ise bir cümle haricinde, tespit edilen bütün örneklerde sadece bağımsız olarak kullanılmaktadır. Yani TT. 'dekinden tam tersi bir durum söz konusudur. Özellikle O'K ve KVK'de *so'ng* sadece bağımlı olarak *-dan so'ng* şeklinde kullanılmıştır. *So'ngra* ise sadece KVK'deki bir örnek dışında daima bağımsız olarak kullanılmıştır. Bir cümlede tespit edilen *-dan so'ngra* ancak bir istisna olarak ele alınabilir. 8 numaralı örnekte *so'ngra* ve *so'ng*'un bu farklı kullanımı aynı cümle içerisinde gözlemlenebilmektedir:

- (8) «Biraz sonra kavuğunu giyib, gömleğini eline aldıktan sonra: 'Hurcu ver, Fitne! Yoksa iki tane çuval ver!' dedi.» // «Bir oz so'ngra sallasini kiyib, yaxtagini qo'liga ol-gandan so'ng: – Xurjinni ber, Fitna! Bo'lmasa, ikkita qop ber! – deb goldi.»

PT'de *so'ngra* yalnızca bir cümlede bağımsız olarak geçer. Onun dışında sadece - (*gan*)dan *so'ng* ve *so'ng* şekilleri kullanılmıştır. MO'K'de ise *so'ngra* kullanılmamıştır. Sadece *so'ng* ve - (*gan*)dan *so'ng*'ün kullanıldığı tespit edilmiştir. Romanların birinci baskı tarihleri göz önüne alındığında en eskilerinin O'K (1925), KVK (1936) ve QQ (1940); en yenilerinin de PT (2011) ve MO'K olduğu görülmektedir. Bu kronolojik karşılaştırmadan yola çıkarak *so'ngra* bağlayıcısının kullanımının zamanla daraldığı yorumu yapılabilir. Zaten günümüz Özbek konuşma dilinde de *so'ng* ve *so'ngra*'nın kullanımının az olduğu, yerini daha çok *keyin*'e bıraktığı bilinmektedir.

TT. de fiillere eklenen -*DiktAn sonra* zarf-fiil (ravishdosh) yapısıyla da zarf unsuru karşılanabilir (bk. 9). -*DAn sonra* yapısında olduğu gibi bu yapıda da *son* kullanılamaz. ÖT. de ise -*gandan so'ng* yapısının zarf görevinde zaman bildiricisi olarak kullanıldığı görülmektedir (bk. 10). *So'ngra*'nın ise bu yapıda kullanımı sadece bir örnekte tespit edilmiştir. Bu durum bize -*gandan so'ngra* yapısının bir istisna dışında kullanılmadığını gösterir.

- (9) «Her gün *babam eve gel-dikten sonra yemek yeriz...*» // «Har kuni otam uyga kelgandan keyin ovqatlanamiz...»

- (10) «Birkaç dakika konuştuktan sonra Yulçi sordu...» // «Bir necha minut so'zlash-gandan so'ng Yo'lchi so'radi...» (QQ 135)

TT. de *son* ile oluşturulamayan -*DAn sonra* yapısı isme eklenip yer bildiricisi olarak edat görevinde kullanılabilir (bk. 10). ÖT. de ise taranan romanlarda tam tersi bir tablo ortaya çıkmıştır. Birkaç örnekte -*dan so'ng* yapısı yer bildiricisi olarak kullanılırken, -*dan so'ngra* yapısına bu görevde rastlanmamıştır (bk. 12).

Sapayev de, ayrılma hâli ekiyle kullanılan edatlar başlığı altında sadece *so'ng*'a yer vermiştir (2009: 210). O'K'de ayrıca ÇEL'de karşılaşılan *so'ngrarak* şeklinin yer bildiricisi olarak edat görevinde kullanıldığı bir örnek tespit edilmiştir (bk. 13).

TT. de -*roq* derecelendirme eki yaşamadığı için bu şekil de kullanılmamaktadır.

- (11) «Kule-den sonra geri döndük.» // «Minora (ga borgan)dan keyin orqaga qaytdik.»

- (12) «Koridordan sonra avluydu/avlu vardı.» // «Yo'lak-dan so'ng havli edi.» (O'K 99)

- (13) «Nihayet Kuşbeyi mektubun daha sonrasına/ilerisine gelince durdu...» // «Oxirda qushbegi maktubning so'ngrog'ig'a kelib to'xtadi...» (O'K 54)

2. 2. İsim (ot) ve Sifat (sifat) Görevinde Kullanım

TT. de *sonra* ve *son* kelimeleri isim olarak kullanılabilir (bk. 14, 15). ÖT. de sadece *so'ng* isim olarak kullanılabilir. Taranan eserlerde, bu kullanımın tespit edilen en farklı ve eskicil örneği 16 numarada verilmiştir. Bu cümlede örneği gösterilen kullanım TT. için geçerli değildir. Bu sebeple *son* *söylediğinizde* şeklinde aktarılır. *So'ngra* ise TT. deki *sonraki* şeklinde olduğu gibi ekleşmediği için isim olarak kullanılmaz.

(14) «*Sonrasını merak ediyorum.*» // «*Oxiriga/natijasiga qiziqaman.*»

(15) «*Filmin sonuncusunu birlikte izleyelim.*» // «*Kinoning oxirgi seriyasini birga ko'raylik.*»

(16) «*Son söylediğinizde yanlışlık var, Kuşbeyi!*» // «*So'ngizda yanglishliq bor, qushbegi!* (O'K 158)

TT. de *son* hem kök hâlde hem de *sonuncu*, *sonsuz* gibi ekleşmiş hâllerde sıfat olarak kullanılabilir. *Sonra* ise sadece *sonraki*, *sonsal* gibi ekleşmiş hâllerde sıfat olarak kullanılabilir (bk. 17). ÖT. de durum, yine TT. den farklıdır. ÖT. de *so'ng* hem kök hâlinde hem de ekleşmiş *so'nggi* biçiminde sıfat olarak kullanılabilirken, *so'ngra* sıfat olarak kullanılmaz. Hem TT. de hem de ÖT. de *en sonki*, *eng so'nggi* şeklinde derecelendirme yapmak mümkündür.

(17) «*Son gün/sonraki gün hastaneye gittim.*» // «*So'nggi kun kasalxonaga bordim.*»

2. 3. Bağlaç (bog'lovchi) Görevinde Kullanım

TT. de *son* ve *sonra* kelimelerinden sadece *sonra* «yoksa» anlamında kullanılarak bağlaç görevi üstlenebilir (bk. 17). *Son'un* böyle bir kullanımı söz konusu değildir. ÖT. de ise her ikisi de «ayrıca» anlamıyla bağlaç görevinde kullanılabilir (bk. 19, 20).

(18) «*Kendine dikkat et, sonra hasta olursun.*» // «*O'zingni ehtiyot qil, aks holda kasal bo'lib qolasan.*»

(19) «*En evvel eli darlıktan (yoksulluktan) büyük işler yapmaya imkan bulamamak, çaresizlik, ümitsizlik engeli! Sonra, sana kendi garip kulübende bile bir şeyi özgürce düşünmeye, bir işi planlayıp özgürce hareket etmeye fırsat vermeyen, beylerin koyduğu engel!*» // «*Eng avval, qo'li qisqalik (kambag'allik)dan, katta bir ishlar qilishga imkon topolmaslik — nochorlik, noilojlik to'sig'i! So'ng, seni o'z g'arib kulbangda ham bir narsani erkin o'ylash, bir ishni mo'ljallab erkin harakat qilishga qo'ymagan — to'ralar qurgan to'siq!*» (MO'K 50)

(20) «*Bunun için tüccarlar gerek, bu bir, bunun dışında ittifak gerek.*» // «*Buning uchun komersantlar kerak, bu bir, so'ngra ittifoq kerak.*» (QQ 44)

- (8) «Biraz sonra kavuğunu giyip, gömleğini eline aldıktan sonra: 'Hurcu ver, Fitne! Yoksa iki tane çuval ver!' dedi.» // «Bir oz so'ngra sallasini kiyib, yaxtagini qo'liga ol-gandan so'ng: – Xurjinni ber, Fitna! Bo'lmasa, ikkita qop ber! – deb qoldi.»

PT de *so'ngra* yalnızca bir cümlede bağımsız olarak geçer. Onun dışında sadece - (*gan*)dan *so'ng* ve *so'ng* şekilleri kullanılmıştır. MO'K'de ise *so'ngra* kullanılmamıştır. Sadece *so'ng* ve - (*gan*)dan *so'ng*'un kullanıldığı tespit edilmiştir. Romanların birinci baskı tarihleri göz önüne alındığında en eskilerinin O'K (1925), KVK (1936) ve QQ (1940); en yenilerinin de PT (2011) ve MO'K olduğu görülmektedir. Bu kronolojik karşılaştırmadan yola çıkarak *so'ngra* bağlayıcısının kullanımının zamanla daraldığı yorumu yapılabilir. Zaten günümüz Özbek konuşma dilinde de *so'ng* ve *so'ngra*'nın kullanımının az olduğu, yerini daha çok *keyin*'e bıraktığı bilinmektedir.

TT. de fiillere eklenen -*DiktAn sonra* zarf-fiil (ravishdosh) yapısıyla da zarf unsuru karşılanabilir (bk. 9). -*Dan sonra* yapısında olduğu gibi bu yapıda da *son* kullanılamaz. ÖT. de ise -*gandan so'ng* yapısının zarf görevinde zaman bildiricisi olarak kullanıldığı görülmektedir (bk. 10). *So'ngra*'nın ise bu yapıda kullanımı sadece bir örnekte tespit edilmiştir. Bu durum bize -*gandan so'ngra* yapısının bir istisna dışında kullanılmadığını gösterir.

- (9) «Her gün *babam eve gel-dikten sonra yemek yeriz..*» // «Har kuni otam uyga kelgandan keyin ovqatlanamiz...»

- (10) «Birkaç dakika konuştuktan sonra Yulçı sordu...» // «Bir necha minut so'zlash-gandan so'ng Yo'lchi so'radi...» (QQ 135)

TT. de *son* ile oluşturulamayan -*Dan sonra* yapısı isme eklenip yer bildiricisi olarak edat görevinde kullanılabilir (bk. 10). ÖT. de ise taranan romanlarda tam tersi bir tablo ortaya çıkmıştır. Birkaç örnekte -*dan so'ng* yapısı yer bildiricisi olarak kullanılırken, -*dan so'ngra* yapısına bu görevde rastlanmamıştır (bk. 12).

Sapayev de, ayrılma hâli ekiyle kullanılan edatlar başlığı altında sadece *so'ng*'a yer vermiştir (2009: 210). O'K'de ayrıca ÇEL'de karşılaşılan *so'ngrarak* şeklinin yer bildiricisi olarak edat görevinde kullanıldığı bir örnek tespit edilmiştir (bk. 13).

TT. de -*roq* derecelendirme eki yaşamadığı için bu şekil de kullanılmamaktadır.

- (11) «Kule-den sonra geri döndük.» // «Minora (ga borgan)dan keyin orqaga qaytdik.»

- (12) «Koridordan sonra avluydu/avluydu vardı.» // «Yo'lak-dan so'ng havli edi.» (O'K 99)

- (13) «Nihayet Kuşbeyi mektubun daha sonrasına/ilerisine gelince durdu...» // «Oxirda qushbegi maktubning so'ngrog'ig'a kelib to'xtadi...» (O'K 54)

2. 2. İsim (ot) ve Sifat (sifat) Görevinde Kullanım

TT. de *sonra* ve *son* kelimeleri isim olarak kullanılabilir (bk. 14, 15). ÖT. de sadece *so'ng* isim olarak kullanılabilir. Taranan eserlerde, bu kullanımın tespit edilen en farklı ve eskicil örneği 16 numarada verilmiştir. Bu cümlede örneği gösterilen kullanım TT. için geçerli değildir. Bu sebeple *son* *söylediğinizde* şeklinde aktarılır. *So'ngra* ise TT. deki *sonraki* şeklinde olduğu gibi ekleşmediği için isim olarak kullanılmaz.

(14) «Sonrasını merak ediyorum.» // «Oxiriga/natijasiga qiziqaman.»

(15) «Filmin sonuncusunu birlikte izleyelim.» // «Kinoning oxirgi seriyasini birga ko'raylik.»

(16) «Son söylediğinizde yanlışlık var, Kuşbeyi!» // So'ngizda yanglishliq bor, qushbegi! (O'K 158)

TT. de *son* hem kök hâlde hem de *sonuncu*, *sonsuz* gibi ekleşmiş hâllerde sıfat olarak kullanılabilir. *Sonra* ise sadece *sonraki*, *sonsal* gibi ekleşmiş hâllerde sıfat olarak kullanılabilir (bk. 17). ÖT. de durum, yine TT. den farklıdır. ÖT. de *so'ng* hem kök hâlinde hem de ekleşmiş *so'nggi* biçiminde sıfat olarak kullanılabilirken, *so'ngra* sıfat olarak kullanılmaz. Hem TT. de hem de ÖT. de *en sonki*, *eng so'nggi* şeklinde derecelendirme yapmak mümkündür.

(17) «Son gün/sonraki gün hastaneye gittim.» // «So'nggi kuni kasalxonaga bordim.»

2. 3. Bağlaç (bog'lovchi) Görevinde Kullanım

TT. de *son* ve *sonra* kelimelerinden sadece *sonra* «yoksa» anlamında kullanılarak bağlaç görevi üstlenebilir (bk. 17). *Son'un* böyle bir kullanımı söz konusu değildir. ÖT. de ise her ikisi de «ayrıca» anlamıyla bağlaç görevinde kullanılabilir (bk. 19, 20).

(18) «Kendine dikkat et, sonra hasta olursun.» // «O'zingni ehtiyot qil, aks holda kasal bo'lib qolasan.»

(19) «En evvel eli darlıktan (yoksulluktan) büyük işler yapmaya imkân bulamamak, çaresizlik, ümitsizlik engeli! Sonra, sana kendi garip kulübende bile bir şeyi özgürce düşünmeye, bir işi planlayıp özgürce hareket etmeye fırsat vermeyen, beylerin koyduğu engel!» // «Eng avval, qo'li qisqalik (kambag'allik)dan, katta bir ishlar qilishga imkon topolmaslik — nochorlik, noilojlik to'sig'i! So'ng, seni o'z g'arib kulbangda ham bir narsani erkin o'ylash, bir ishni mo'ljallab erkin harakat qilishga qo'ymayan — to'ralar qurgan to'siq!» (MO'K 50)

(20) «Bunun için tüccarlar gerek, bu bir; bunun dışında ittifak gerek.» // «Buning uchun komersantlar kerak, bu bir, so'ngra ittifoq kerak.» (QQ 44)

3. Sonuç

Çalışmadan elde edilen verilerle şu sonuçlara ulaşılmıştır:

1) Giriş bölümünde Eski Türkçede *soy'*un *soyra* yerine kullanıldığından bahsedilmiştir. Özbek Türkçesinde de çok sayıda örnekte *so'ng'*un, *so'ngra* yerine kullanıldığı tespit edilmiştir. Türkiye Türkçesinde *son* kelimesi *sonra* yerine kullanılmaz. Bu durum, ÖT. nin *so'ng'*un bu işlevini koruduğunu ve bu açıdan ET. deki kullanıma yakınlığını göstermektedir. *Son'*un *sonra* yerine kullanımı TT. 'de kaybolmuştur.

2) *Son* ve *sonra* kelimelerinin ayrılma hâli ve zarf-fiil ekleriyle kullanımı açısından da farklılıklar gözlemlenmiştir. TT. de *-DAn sonra* ve *-DlktAn sonra* yapıları zarf ve edat görevlerinde kullanılmaktadır. Ancak *son* kelimesi bu yapılara bağlanamaz. ÖT. de ise tam tersi olarak *-dan so'ng* ve *-gandan so'ng* yapıları çok yaygın olarak kullanılırken *-dan so'ngra* ve *-gandan so'ngra* yapıları birkaç istisna dışında kullanılmaz. *So'ng'*un söz konusu eklerle bağlanabiliyor olması, onun *so'ngra* yerine kullanılabilir olmasıyla bağlantılıdır. *So'ngra*'nın bu eklerle kullanımının çok nadir olması ise iki kelime arasındaki kullanım dağılımıyla açıklanabilir.

3) *Son* söylediğim gibi bir kelime grubu, *söylediğim* kısmı düşürülüp *sonum* şeklinde kullanılamaz. Ancak bu tür bir kullanım ÖT. için tespit edilmiştir. *Son söylediğiniz* anlamında karşımıza çıkan *so'ngizda* (*so'ngingizda*) kullanımı ilgi çekicidir. Ancak ÖT. için de eskicil bir kullanımdır ve yaygın değildir.

4) ÖT. de *so'ngra* kelimesi için TT. *sonra+ki* şeklinde olduğu gibi bir ekleşme mümkün değildir. Eski Türkçede de karşılaşılan *sonraki* (Şonrağı) kullanımı TT. de devam etmektedir. Öte yandan ÖT. de devam ettirilen *so'ng+gi* ekleşmesi de TT. deki *son* kelimesi için kullanılmamaktadır.

5) ÖT. de taranan eserlerdeki *so'ng* ve *so'ngra* kullanımı kronolojik olarak incelendiğinde özellikle *so'ngra* kullanımında belirgin bir azalma görülmektedir. Günümüz Özbek konuşma dilinde de *so'ng* ve *so'ngra*'nın, yerini büyük oranda *keyin'*e bıraktığı bilinmektedir. Dolayısıyla geçmişten günümüze doğru *so'ng* ve *so'ngra* kelimelerinin kullanımının büyük oranda azaldığı söylenebilir.

6) *Son/so'ng* ve *sonra/so'ngra* kelimeleri TT. ve ÖT. arasında özellikle kullanımları açısından çaprazlama bir zıtlık göstermektedir. Bu zıtlığın en temel sebebi ÖT. de *so'ng'*un *so'ngra* anlamındaki işlevidir.

Bu kelimelerin TT. ve ÖT. deki kullanım ve işlev farklılıklarının öğrenilmesi, dil tarihi incelemeleri ve lehçeler arası aktarmalar açısından önemlidir.

Kullanılan	Kisaltmalar
bk.	bakınız
ÇEK	Çağatayca El Kitabı
DC	Drevnetyurkskiy Slovar'
DLT	Divanü Lûgat-it-Türk
EDPT	An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish
ET.	Eski Türkçe
ETG	Eski Türkçenin Grameri
GT	Gülistan Tercümesi
KLS	Kuman Lehçesi Sözlüğü
ÖT.	Özbek Türkçesi
TT.	Türkiye Türkçesi
vd.	ve diğerleri

TARANAN ESERLER:

- KVK: Cho'pon (2000). Kecha va Kunduz. –T.: Sharq (Eserin orijinali 1936'da yayımlandı).
- MO'K: Muxtor O. (2010). Muhabbat o'limdan kuchli. Sharq yulduzi jurnali, 4–5-sonlar.
- O'K: Qodiriy A. (2007). O'tkan kunlar. –T.: Sharq (Eserin orijinali 1925'te yayımlandı).
- PT: Kenja Q. (2011). Palaxmon toshlari. Sharq yulduzi jurnali, 1–2-sonlar.
- QQ: Oybek (1969). Qutlug' qon. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi (Eserin orijinali 1940'ta yayımlandı).

KAYNAKÇA:

- Abdurahmonov G., Shukurov, Sh. (1973). O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. –T.: O'qituvchi.
- Alkaya, Ercan (2002). Kuzey Grubu Türk Lehçelerinde Edatlar. (Doktora Tezi). Fırat Üniversitesi/Sosyal Bilimler Enstitüsü, Elazığ.
- Atalay, Besim (Çeviren). (2013). Divanü Lûgat-it-Türk (Çeviri), I-III. Ankara: Türk Dil Kurumu Yay.
- Begmatov B., Madvaliyev A., Mahkamov N. vd. (2007). O'zbek tilining izohli lug'ati. III. Jild. –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi.
- Banguoğlu, Tahsin (2007). Türkçenin Grameri. Ankara: Türk Dil Kurumu Yay.
- Clauson, Sir Gerard (1972). An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. Oxford: Oxford University Press.
- Eckmann, J. (2017). Çağatayca El Kitabı (Çev.: Günay Karaağaç). Ankara: Türk Dil Kurumu Yay.
- Erdal, Marcel (2004). A Grammar of Old Turkic. Leiden: Brill.

- Gulomov A., Tixonov A. N., Ko'ng'urov, R. (1977). O'zbek tili morfem lug'ati. –T.: O'qituvchi.
- Grönbech, K. (1992). Kuman Lehçesi Sözlüğü - Codex Cumanicus'un Türkçe Sözlük Dizini (Çev.: Kemal Aytaç). Ankara: Kültür Bakanlığı Yay.
- Güncel Türkçe Sözlük. Türk Dil Kurumu, <http://www.tdk.gov.tr/index.php?option=com_gts>. (SET: 25/10/2018).
- Karahan L., (2007). 'Sonra, Önce' Kelimelerinin Edat Kategorisi İçindeki Durumu. Dil Araştırmaları 1: 1, 39-48.
- Nadelyayev V. M., Nasilov D. M., Tenişev E. R. ve Şçerbak A. M. (1969). Drevnetyurkskiy Slovar'. Leningrad: Akademiya Nauk SSSR institut yazikoznaniya.
- Özkan M., (Hazırlayan) (1993). Mahmûd b. Kâdî-i Manyâs, Gülistan Tercümesi Giriş-İnceleme-Metin-Sözlük. Ankara: Türk Dil Kurumu Yay.
- Rahmatullaev Sh. (2000). O'zbek tilining etimologik lug'ati I tom (Turkiy so'zlar). – T.: Universitet.
- Sapayev Q., (2009). Hozirgi o'zbek tili (Morfemika, so'z yasalishi va morfologiya). – T.: Nizomiy nomidagi TDPU.
- Üşenmez, Emek, Boltabayev, Saidbek ve Tuğlacı, Gülşah (2016). Özbekçe-Türkçe Sözlük. İstanbul: Kültür Sanat Yay.



MODALLIK KATEGORİYASI XUSUSIDA

Hayitova Munisa*

Annotatsiya

Ushbu maqolada modallik kategoriyasi va uning xususiyatlari, bundan tashqari, obyektiv va subyektiv modallikning qanday ma'no anglatishi, modallik kategoriyasiga oid olimlarning qarashlari, modallikning o'zbek tilida ifodalanishi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: modallik, obyektiv modallik, subyektiv modallik, modallikning ifodalanishi.

Annotation

In this article, we will try to analyze the category of modality and its characteristics, the meaning of objective and subjective modals, the views of scientists in the modal category, their representation in linguistics.

Key words: modality, objective modals, subjective modals, the use of modality.

Modallik kategoriyasiga bo'lgan e'tibor va qiziqish turkiyshunoslarning ham diqqat markazida bo'lib kelgan. Ushbu semantik kategoriyani turli qatlamlarda qator olimlar (N. K. Dmitriyev, N. A. Baskakov, N. Z. Gadjiyeva, R. S. Sibagatov, G. Minniaxmetov, N. E. Petrov, A. Nermonov, N. Mahmudov)

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakultetining 3-kurs talabasi, hmunisa97@.ru

ma'lum darajada o'rganishgan. Quyida modallik kategoriyasining tilda ifodalanishiga oid fikrlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Modallik gapning asosiy belgisi, gap mazmunining eng muhim qismidir. Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, gap mazmunining obyektiv borliqqa munosabati va so'zlovchining gap mazmuniga bo'lgan munosabati tushuniladi.

Modallik kategoriyasiga gap modalligini ta'minlashda xizmat qiladigan xilma-xil vositalar kiritiladi.

V. Z. Panfilov ta'kidlaganidek, juda ko'p mualliflar tomonidan modallik kategoriyasi tarkibiga o'z mohiyati jihatidan xilma-xil ma'nolar kiritiladiki, natijada bu kategoriya ma'lum aniqlikdan mahrum bo'ladi. I. P. Raspopov modallik haqida fikr yuritib, sof grammatik ma'nodagi kategoriya sifatida hech qanday modallik kategoriyasi haqida emas, balki gapning modal sifati haqida gapirish maqsadga muvofiq, degan edi. Lomtev ham mazkur kategoriyaga xuddi shunday fikr bildiradi. Uning fikricha, modal xarakterdagi grammatik kategoriya «bir grammatik modal ma'noni emas», balki bir sistemani tashkil etadi.

Modallik haqidagi bunday fikrlar tasodifiy emas, albatta. Modallikning an'anaviy talqiniga ko'ra, uni ta'riflash juda qiyin. Modallik ma'nosi til sistemasining turli sathlarida kuzatiladi. Modallikni ifodalovchi vositalar ham rang-barang. Tilshunoslikda bu vositalarni aniqlashning yagona metodi bo'lmagani tufayli modallik ifodalovchi vositalar turli tillar materiallari asosida turlicha ajratilmoqda.

Jumladan, Shvedovanning fikricha, modallik vositalariga mayl, gapning alohida konstruksiyalari, intonatsiya, so'z tarkibi, takror, yuklama, undov, kirish (modal) so'zlar va gaplar mansubdir.

Turkiy tillar materiallari asosida, asosan, quyidagi modallik vositalari ajratiladi: mayl, zamon va shaxs-son qo'shimchalari, gapning alohida qurilmalari, yuklamalar, so'z tartibi, ohang, yuklama vazifasidagi so'roq olmoshlari, undalmalar, kirish so'z va gaplardir.

Turkiyshunoslarning modallik kategoriyasi haqidagi fikr-mulohazalarini 4 qismga bo'lish mumkin:

1. modallik kategoriyasi grammatik kategoriya bo'lib, gap mazmunining real va noreal xususiyatiga ega bo'lishi;
2. modallik so'zlovchining voqelikka munosabatining grammatik ifodalanishini anglatishi;
3. modallik ba'zan modal hukmning analogi deb ta'riflanishi;
4. modallik muammosining lingvistika, mantiq va falsafa asosida yechimini topishi.

Mavjud bo'lgan ilmiy-nazariy qarashlarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- 1) Modallik-bu gap mazmunining obyektiv borliqqa munosabati;
- 2) So'zlovchining obyektiv borliqqa, o'z nutqiga bo'lgan modal munosabati;

dalolatki, davlat rahbari va hukumat vakillari noshirlik ishi ravnaqi hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Kitob va kitobxonlik madaniyati xususida gapirganda, eng avvalo, «kitob» konseptiga to'xtalish zarur. O'zbek tilshunosligida konsept masalasi ancha yillardan beri o'rganilib kelinmoqda. Konsept va uning xususiyatlari yuzasidan tilshunos olimlarimiz tomonidan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada atoqli o'zbek tilshunoslari A.A.Abdualazizov, O'.Q.Yusupov, D.U.Ashurova, Sh.Safarov kabi olimlar ham kognitiv tilshunoslikda konsept va uning tutgan o'rni haqida, konsept tushunchasiga kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatning o'zaro bog'liqligini o'zlarining tadqiqotlarida asoslab bergan.

«Konsept» atamasi va tushunchasi kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, madaniyat va inson o'rtasidagi aloqa o'rnatuvchi element hisoblanadi. Konsept lingvokulturologiyada ham eng faol qo'llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

«Kitob» konsepti kognitiv tilshunoslikda ham, lingvokulturologiyada ham birdek o'rganishni taqozo etadi. Taniqli allomalar tomonidan yaratilgan, «Kitobi javohir al-nahv fil-lug'otit-turk» (Mahmud Koshg'ariy), «Kitob surat al-arz» («Yerning surati haqida kitob»). «Kitob ul-musiqa al-kabir» («Musiqa haqida katta kitob») (Al Xorazmiy), «Kitob ush-shifo» (Ibn Sino) kabi asarlar sarlavhasida kitob atamasi uchraydi. Bu asarlarda qo'llangan «kitob» so'zi O'TILda 1.«Ma'lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan bosma (qadim qo'lyozma ham) asar.» 2.«Umuman, ma'lum shaxs, voqea hodisaga va boshqa narsalarga oid tugal, odatda, nashr etishga (kitob bo'lishga) mo'ljallangan asar.» Hamzaning «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi» asarlarida kitob atamasi «darslik» tushunchasini ifodalaydi.

Konseptlar lisoniy va badiiy konseptlarga bo'linadi. «Kitob» konsepti badiiy adabiyotda o'xshatish qurilmasida o'xshatish obyektiga aylanadi va badiiy konseptni shakllantiradi. Masalan:

*Yashash darbozasi ostonasidan,
Zarhal kitob kabi ochilur olam.*

G'.G'ulomning «Vaqt» nomli ushbu she'rda tongda quyoshning chiqishi zarhal kitobning ochilishiga qiyoslanmoqda. Shoir bu tasvir orqali badiiy konseptni shakllantirgan.

Zulfiya qalamiga mansub:

*Hayot kitobimni bexos varaqlab,
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.*

■ *Talabalarining III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil
misralarida «kitob» konsepti yangi tushuncha ifodasiga ega. Ya'ni shoira
«kitob» konsepti orqali «o'tgan umr bayoni», «xotiralar majmui» ifodasiga ega.

*Oh, kitoblar, kitoblar, mangu ishchilar,
Beg'araz xayrixohlar va kengashchilar!*

Bu misralarda «kitob» konsepti «odamlarga beg'araz ko'makchi»
sifatida namoyon bo'ladi. «Kitob» konsepti tarkibini belgilashda O'tkir
Hoshimovning onasi tomonidan aytilgan «Meniyam kitob qilib yozsangchi,
o'g'lim» jumlasini yangicha talqiniga ega bo'ladi.

Adebning dunyoga mashhur asari «Dunyoning ishlari» onasi taklifi
asosida yaratilgan bo'lib, «Onalar bu- dunyodagi eng buyuk va qadrli kitob»
degan fikrga kelish mumkin. Bu fikr «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» asarida
«Ayol — bu o'qilmagan kitob» jumlasida ham mavjud. «O'qilmagan kitob»
qiyosi «hali to'la kashf etilmagan» tarzidagi ma'noni ifodalaydi. Ayollar
uning ichki olami, his-tuyg'ulari, fazilatlarini tugal kashf etilgan emas. Ular
har bir ayolda betakror va o'zgacha.

Yozuvchi Nazar Eshonqulning «Qora kitob» asarida ham «kitob»
konseptining qay holatda insonlar tafakkurida assotsiatsiyalanishi sal
boshqacharoq. Asarning nomi asosida tafakkurda sintez jarayoni yuzaga
keladi. Bu jarayon Nazar Eshonqulning ko'p asarlariga xos. Asardagi
«kitob» konseptini tahlil qilamiz. Asar qahramoni tashqi ko'rinishi qora
rangda bo'lgan bu kitobni ikki so'z bilan: «iblis kitobi» deb nomlaydi.
Ammo bu bilan kitob tushunchasi aniq ochilmaydi. Asarda nogoh topib
olingan bu kitob bir inson hayotini boshqarishi, son-sanoqsiz odamlarning
hayotini barbod bo'lishga olib keladigan omil sifatida talqin qilinadi. Asarda
«qora kitob» leksemasi «mustabid mafkura» tushunchasini ifodalash uchun
qo'llangan.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, «kitob» leksemasi tahlil
qilingan manbalarda u bilan bog'liq tasavvur paydo bo'ladi.

«Kitob» so'zi konsept darajasiga ko'tariladi. Bu konsept o'z doirasiga
«qo'llanma», «darslik», «qiyos», «do'st», «maslahatchi» «kashf
etilmaganlik» kabi asoslarda qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Safarov Sh., Kognitiv tilshunoslik. —J.: Sangzor, 2006.
- Rahatullayev Sh., O'zbek tilining izohli lug'ati. —T., 1981.
- G'ulom G'. Saylanma. —T., 2003.
- Zulfiya, Saylanma. —T., 2005.
- Shayxzoda M., Asarlar. 1995.



EYVAZ ZEYNALOV'UN ESKİ BİSİKLET ADLI ESERİNDE DEYİMLER

Jumabayeva Shakhida*

Annotatsiya

Ushbu maqolada ozarbayjonlik yozuvchi Eynar Zeynalovning tarjimai holi, bundan tashqari, ijod yo'li, uning qalamiga mansub asarlar atroflicha o'rganilgan. Jumladan, Eynar Zeynalovning «Eski Bisiklet» kitobi va mazkur nashr tarkibiga kirgan hikoyalari nazariy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etilgan.

Tayanch so'zar: Eynar Zeynalov, Ozarbayjon adabiyoti, hikoyanavislik, badiiy asar tili.

Özet

Azərbaycanlı yazar Eyvaz Zeynalov 18 Ocak 1950 yılında Ağdam şəhərində doğdu. Küçükkən zəkallığı ilə çoğu insani şaşırmış Eyvaz'ın ilk hikayeleri ortaokulda okurken gazetede yayınlanmıştı. 1969 yılında lise eğitimini tamamladıktan sonra, Bakü'de Azərbaycan Pedagoji Enstitüsündə Üniuersite tahsilini başladı. Azərbaycan Dil və Edebiyat Fakültesi'ni 1973 yılında bitirdikten sonra Saylan şəhərinə ögretmen olaraq çalıştı. Kısa müddet Bakü'de «Azərbaycan Mektebi» dergisinde çalıştı. Eyvaz Zeynalov'un eserlerinde deyimler oldukça sık kullanılmaktadır. Makalede Eyvaz Zeynalov'un «Eski Bisiklet» adlı eserinde kullanılan deyimler incelenmektedir.

Anahtar kelimeler: Eyvaz Zeynalov, Azərbaycan Edebiyatı, deyimler, dil.

Azərbaycanlı yazar Eyvaz Zeynalov 18 Ocak 1950 yılında Ağdam şəhərində doğdu. Küçükkən zəkallığı ilə çoğu insani şaşırmış Eyvaz'ın ilk hikayeleri ortaokulda okurken gazetede yayınlanmıştı. 1969 yılında lise eğitimini tamamladıktan sonra, Bakü'de Azərbaycan Pedagoji Enstitüsündə Üniuersite tahsilini başladı. Azərbaycan Dil və Edebiyat Fakültesi'ni 1973 yılında bitirdikten sonra Saylan şəhərinə ögretmen olaraq çalıştı. Kısa müddet Bakü'de «Azərbaycan Mektebi» dergisinde çalışırken, çeşitli sebeplerden birkaç yıl Rusya'nın Volgograd vilayətində, Ukrayna'nın Zaporojye, Donetsk şəhirlərində yaşamış və muhtelif işlərdə çalışmış. 1990 yılında Bakü'de ilk kitabı Yazıçı Yayınevi'nden «Rengsiz yuhu» adıyla yayımlandı. 1999'da «Bahalı şokolad gutusu» adlı küçük bir kitab yayımladı. Yaklaşık on yıldır Azərbaycan Yazarlar Birliğı'nin üyesidir. «Rengsiz yuhu», «Bahalı şokolad gutusu», «Karabağ Hekayeleri», «Hekayeler», «Gırmızı Almalar», «Kış Güneşi» adlı kitapların yazarıdır. Eyvaz Zeynalov'u 2007 yılında «Avrupa Neşr Matbu Evi» «En Yaşı Vatanpervar Yazar» Uluslararası Altın Ödülü'ne layık görmüştür (Hal Tercümesi, 2017: 3–4).

- Güven A. (2012). *Toplumsal Dilbilimin Kapsam Alanı*, Pamukkale Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, Sayı 13, 55-62.
- Hacib Y. H. (2017). *Kutadgu Bilig*, çev., A. Çakan, İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları.
- Kaçalın M. S., *Kutadgu Bilig*. (E-kitap: <http://ekitap.kulturturizm.gov.tr/>)
- De Saussure F. (1916). *Cours de linguistique générale*, C. Bally and Sechehaye, with the collaboration of A. Riedlinger (Eds). Lausanne and Paris: Payot; trans. W. Baskin, *Course in General Linguistics*, Glasgow: Fontana/Collins, 1977. (Tr. Genel Dilbilim Dersleri 1–2, çev.: B. Vardar, Ankara 1976, 35.)
- Sapir-Whorf Hipotezi Nedir?, *Dil-Bilim.com*, erişim 21, Ekim 2018.
- <http://www.dil-bilim.com/sapir-whorf-hipotezi-nedir>.



ИБРАЙЫМ ЮСУПОВ ШЫҒАРМАЛАРЫНДА РӘҮИШ МӘНИЛИ ФРАЗЕОЛОГИЗМЛЕРДИҢ ЖУМСАЛЫҰЫ

Қобланова Жибек*

Аннотация

Тилимизде пикиримизди образлы, көркем, тәсирли етип бериуде фразеологизмлердиң орны үлкен. Қарақалпақ тили де басқа түркий тиллер сыяқлы фразеологиялық сөзлерге жүдә бай тил есапланады. Фразеология сөз дизбеклери пикирди кең, образлы, өткир етип бериу өзгешелиги менен басқа тил бирликлеринен айрықшаланып турады. Оны образлы, эмоциональ — экспрессивлик бояу менен тәмийинлейди, пикирди қысқа, ықшам етип бериу қуралы хызметин атқарады. Сонлықтан биз мақаламызды Ибрайым Юсуповтың дәретиўшилигиндеги рәуиш мәнили фразеологизмлердиң қолланылуы өзгешелигине арнаймыз.

Таяныш сөзлер: түркий тиллер, лексикология, фразеология, семантика, рәуиш.

* Бердақ номидеги Қорақалпақ дәулет университети, Қорақалпақ филологияси факултетининг Қорақалпақ тили ва адабиёт йўналишини 2-курс талабаси, jibek.koblanova@mail.ru

Аннотация

При образном, красивом и глубоком выражение мыслей в нашем языке фразеологизмы играют значительную роль. Каракалпакский язык как и все другие тюркские языки богат фразеологизмами. Фразеологические сочетания слов отличаются от других языков единиц тем, что они служат для широкого, образного и острого выражения мыслей. Они являются средством для краткого и четкого выражения мыслей и придают им образную, эмоционально-экспрессивную окраску. Данную статью мы посвящаем особенностям употребления фразеологизмов с наречным значением в творчестве Ибрагима Юсупова.

Ключевые слова: тюркские языки, лексикология, фразеологизм, семантика, наречие.

Қарақалпақ тилинде терең мәнили, образлылығы менен айрықшаланатуғын тил байлықларының бир топарын фразеологиялық сөз дизбеклери курайды. Онда қарақалпақ халқының әсирлер дауамында қәлиплескен даналығы, ойы, әрманы, күн-көриси, қулласы, пүткил турмысы аз сөзли, терең мәнили сөз дизбеклери арқалы бериледи. Сондықтан да, көркем әдебий шығармаларда турақлы сөз дизбеклери образлы, терең мәнили тил бирликлери сыпатында стильлик жақтан жийи қолланылады. Шығарманың талабына сәйкес бул тараўда тил байлықларының барлығы да жумсала бериўи мүмкин, ол жазыўшының шеберлигине байланыслы. Солай да көркем шығарманың тилинде фразеологиялық сөз дизбеклериниң өзине тән өзгешелиги бар.

Қарақалпақ тилинде фразеологиялық сөз дизбеклери оғада көп. Олар күнделикли қарым-қатнас жасаў хәм пикирди өткирлестирип бериўде көркем шығармаларда жийи қолланылады. Фразеологиялық сөз дизбеклери тилимизде жеке лексикалық бирликлер сыпатында таяр түринде қәлиплескен сөз дизбеклери. Сонлықтан да мәнилик жақтан бир сөз шақабына қатнаслы болады. Бул туўралы проф. Е.Бердимуратов былай деп жазады: «Лексикалық-грамматикалық жақтан фразеологиялық сөз дизбеклериниң ажыралмаслығы, пүтинлиги, турақлылығы, көбинесе бир лексикалық бирлик сыпатында қолланылыўи оларды жеке сөзлер хызметинде белгили бир сөз шақабына қатнаслы жобада қараўға да мүмкиншилик береди» (Бердимуратов Е., Хәзирги қарақалпақ тили. Лексикология, 1994:133).

Мәселен, «ийт өлген жер» деген сөз дизбеги үш сыңардан турады (ийт, өлген, жер). Олардың хәр бири дара қолланғанда белгили бир сөз шақабына тийисли. Ал, бул мысалда бәри бир пүтин мәнини, яғный алыс деген мәнини аңлатып тур. Сонлықтан да ол бир бирлик сыпатында рәуиш сөз шақабына тийисли.

Фразеологиялық сөз дизбеклериниң сөз шақапларына қатнасын анықлаўда биз олардың дәслепки формасында, сол формада қолланылыўын көзде тутамыз. Қарақалпақ тилинде фразеологизмлер сөз

шақабының қатнасына қарай төрт топарға бөлинеди: *фейил мәнили* фразеологиялық сөз дизбеклери, *атлық мәнили* (субъстантивлик) фразеологиялық сөз дизбеклери, *келбетлик мәнили* (адъективлик) фразеологиялық сөз дизбеклери хәм *рәуиш мәнили* фразеологиялық сөз дизбеклери болып бөлинеди (Бердимуратов Е., Хәзирги қарақалпақ тили. Лексикология, 1994:135). Булардың ишинде *фейил мәнили* фразеологиялық сөз дизбеклери басым көпшилигин қурайды.

Биз бул мақаламызда белгили шайырымыз Ибраһым Юсупов шығармаларында *рәуиш мәнили* фразеологизмлердің жумсалыуына тоқтап өтеміз. *Рәуиш мәнили* фразеологизмлер *фейил* хәм *келбетлик мәнили* фразеологизмлерге қарағанда сийрек қолланғанын көреміз.

Рәуиш мәнили фразеологизмлер гәп ишинде қолланған басқа сөзлер менен байланысыу ушын хәр қыйлы грамматикалық формаларды қабыл етеди. Қурылысы турақлы болып, өзиниң дизбектеги қалпин сақлайды. Мысалы: бир майдан, жети түнде, төрт көз тууел, көзди ашып жумғанша, қас пенен көздиң арасында, түйениң куйрығы жерге тийгенде х.т.б. *Рәуиш мәнили* фразеологиялық сөз дизбеклери ис-хәрекеттиң муғдарын, сынын, орны, уақтың хәм басқа да белгилерди билдирип келеди.

1. *Уақытлық мәни* билдиретуғын фразеологизмлер: бир майдан, бир заматта, жети түнде, хәп заматта, түйениң куйрығы жерге жеткенде х.т.б. Мысалы:

Аргымақтан ябы озып кеткенше,
Түйениң куйрығы жерге жеткенде.

«Өмир саған ашықпан»

Шаўқым сүрен хәп заматта басылып,
Сиз пайда боласыз және ортада.

«Биринши муғаллимге»

Биринши мысалда «түйениң куйрығы жерге тийиу» турақлы сөз дизбеги жумсалып *уақытлық мәнини* аңлатып келеди хәм дизбектиң соңғы сөзи хал *фейилдиң* — генде формасын қабыллаған. Екинши мысалда «хәп заматта» турақлы сөз дизбеги де *уақытлық мәнини* өткирлестирип, тәсирлилигин күшейткен.

Сын мәнисин билдиретуғын фразеологизмлер: көзди ашып жумғанша, қас пенен көздиң арасында, түйеден постын таслағандай, аяқ астынан, ат үсти, әне-мине дегенше т.б.

Сыншылар сығалап көздиң астынан,
Айғыр орнын басар ма деп жас ғунан.

«Арал элегиялары»

Қасымкер тәбият тонын терис кийип,
Жездесиндей ойнар жаныңа тийип.

«Сен мәрдана халықсан»

Аязлы көз қарасың аязлатты Аязийди,
Жыллы нәзерің менен көз кыйығың салып кет.

«Ғәззеллер»

Жоқарыда келтирилген мысаллардағы «көздің астынан қарау», «тонын терис кийіу», «көзинің қыйығын салыу» турақлы сөз дизбеклери хәрекеттің белгисин аңлатып келеди. Шайыр өзинің қосық қатарларында булл турақлы сөз дизбеклерин «сығалап көздің», «тонын терис кийип», «көз қыйығын салып кет» түрінде оның эмоциональ-экспрессивлик тәсирин күшейтип қолланған.

2. Мугдарды билдиретуғын фразеологизмлер: бир жутым, бир асым, бир кесе шай ишим т.б. Мысалы:

Кеуил деген не десем,
Насыбай екен бир атым.

«Санат»*

Бир қысым топыраққа толған соңында,
Аш көзлик адамның көзинде барды.

«Бул дүнья»

Бул мысалларда қарақалпақ тилиндеги «кеуил бир атым насыбайдан қалады», «көзи бир қысым топыраққа толыу» турақлы сөз дизбеклеринің қурамында санлық сөз бенен заттың атамасының ортасында «атым» хәм «қысым» номератив сөзлер жумсалған.

3. Орын мәнисин билдиретуғын фразеологизмлер: көз ушында, көз жетпес жерде, дүньяның төрт тәрепи, ийт өлген жер т.б. Мысалы:

Қанша қарасам да мойнымды созып,
Көз ушында көк теңизим көринбес

«Арал элегиялары»

Бул мысалда «көз ушында» турақлы сөз дизбеги орынлық, узақ аралықты аңлатып келген. Шайыр булл мысалда «Алыста көк теңизим көринбес» деп қолланғанда «көз ушында» деген турақлы сөз дизбеги аңлататуғын мәниге салыстырғанда бир қанша әпиуайы болған болар еди, тәсирлилик күши пәслеу болған болар еди.

Солай етип, шайыр шығармаларында хәзирги қарақалпақ тилиндеги сыяқлы фәйил мәнили хәм келбетлик мәнили фразеологизмлердің жийи, ал атлық хәм рәуиш мәнили фразеологизмлердің сийрек қолланғанлығын көремиз. Ибрайым Юсупов шығармаларының тили

* Қырғызда термені «санат» дейди (Ибрайым Юсупов.)

лексика-семантикалық хэм стилистикалық жақтан айрықшаланып турады. Онда көркем сүүретлеудің әжайып тил қураллары болған фразеологизмлер мәниси хэм қурылысы бойынша өзине тән өзгешеликлерге ийе екенлигин көреміз.

ПАЙДАЛАНҒАН ӘДЕБИЯТЛАР:

- Айназарова Г., Қарақалпақ тилинде теңлес еки компонентли фразеологизмлер. –Нөкис, 2005, 55.
- Бердимуратов Е., Хәзирги қарақалпақ тили. Лексикология. –Нөкис, 1994. 133-135.
- Йўлдашев Б., Фразеологик услубият асослари. –Самарқанд. 1999, 200.
- Кожахметова Х., Фразеологизмдердиң көркем әдебиетте қолданылыўы. –Алматы. 1972, 54-58.
- Юсупова Б., Қарақалпақ тилиниң фразеологиясы. –Т.: Тафаккур қаноти. 2014., 44.



О‘ЗБЕК ТИЛИДАГИ АРАЛАШ О‘ЗБЕКЧА-RUSCHA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING SEMANTIK STRUKTURASI

Qobulova Dildora*

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning frazeologiya sohasi, uning shakllanish tarixi, iboralarning zamonaviy tilshunoslikda o'rganishga oid o'ziga xos jihatlari o'rganilgan.

Tayanch so'zlar: frazeologiya, ibora, frazeologik birlik, frazeologizm.

Annotation

This article deals with the phraseology, the use phraseology in modern linguistics.

Key words: phraseology, expression, phraseological units.

Frazeologiya O'zbekistonda fan sifatida shakllanganiga hali uncha vaqt bo'lgan emas. Uning paydo bo'lishi, taraqqiy etib, ta'lim tizimiga kiritilishiga ko'plab ustozlarimizning samarali mehnatlari singgan. Rus tilshunosligida FBlar bilan tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab shug'ullanib kelishmoqda. Jumladan, M. V. Lomonosov rus adabiy tili lug'ati rejasini tuzar ekan, bunda so'zlar bilan bir qatorda «xalq (Rossiya) maqollari», «фразеслар» va «идиоматизмлар» o'z ifodasini topishi lozimligini alohida ta'kidlagan edi. (Rahmatullayev Sh., Hozirgi zamon o'zbek tilidagi obrazli fe'l frazeologik birliklarning asosiy grammatik xususiyatlari, 1952: 52).

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi, qobulova.dildora.97@gmail.com

Ushbu maqolada umumiy frazeologiya va rus tilida ishlatilayotgan va uning bir qancha izohli va maxsus lug'atlarida qayd qilingan rus va turkiy, aniqrog'i, o'zbek so'zlaridan yasalgan aralashma frazeologik birliklar hamda ularni o'rganish haqida fikr yuritiladi. Bu borada shuni aytish joizki, hosil bo'lgan yangi frazeologik birliklarning ko'pchiligi rus lug'atlarida uchrab turadi, og'zaki nutq davomida ham qo'llaniladi. A. I. Molotkov va A. I. Federovlarning «Русский фразеологический словарь» kitobini kuzatganda, bunday aralashma frazeologik birliklarda yuzlab topilishi mumkin. Masalan: «алмазная свадьба», ya'ni kelin-kuyov (er-xotin) nikoh to'yining 75 yillik sanasi nishonlashi. (Rahmatullayev Sh., Hozirgi zamon o'zbek tilidagi obrazli fe'l frazeologik birliklarning asosiy grammatik xususiyatlari, 1952: 28).

Ushbu aralash frazeologik birliklarning asosiy komponentidan biri turkiy tillar orqali rus tiliga o'tgan *olmos* so'zidan ruscha affikslar yasalgan va ayrim fonetik o'zgarishlar tufayli «алмазная свадьба» shakli bilan rus tilining boshqa lug'atlariga ham kirgan. O'zbek tilida «*otin to'y*» degan ibora ham ishlatiladi. (Rahmatullayev Sh., Hozirgi zamon o'zbek tilidagi obrazli fe'l frazeologik birliklarning asosiy grammatik xususiyatlari, 1952: 37).

Tilning lug'at tarkibida so'zlardan tashqari «*gap otmoq*», «*sirkasi suv ko'tarmaydigan*», «*og'zi qulog'ida*», «*boshi osmonga yetmoq*», «*mum tishlamoq*», «*arpasini xom o'rmoq*», «*dami ichiga tushmoq*», «*chuchvarani xom sanamoq*», «*terisiga somon tiqmoq*», «*temirni qizig'ida bosmoq*» kabi turg'un bo'lib qolgan talay iboralar ham bor. Bunday iboralar frazeologizmlar nomi bilan yuritiladi. So'zlar leksik birlik, iboralar esa frazeologik birlik sanaladi. Frazeologik birlik (bundan keyin FB) yoki frazema, ibora kelib chiqish jihatidan juda qadimiy bo'lsa-da, frazeologiya (iborashunoslik) fani tarixi bir necha yuz yilni o'z ichiga oladi.

Frazeologizmlar kamida ikkita mustaqil leksemadan tarkib topadi. Ular bir butun holda ko'chma ma'no ifoda qiladi. Masalan, «*ko'ngli keng*», «*anqoning urug'i*», «*dunyodan o'tmoq*», frazemalari ikkita; «*og'zida qatiq ivitmoq*», «*og'zi qulog'iga yetdi*» frazemalari uchta; «*bir yoqadan bosh chiqarmoq*», «*to'nini teskari kiyib olmoq*», frazemalari to'rtta; «*sichqonning ini ming tanga bo'lmoq*», «*ishi bitguncha, eshagi loydan o'tguncha*» beshta leksemadan tashkil topgan. (G'oyibov S., O'zbek tili leksikologiyasi, 1981: 24).

Frazeologizmlar til birligi bo'lib, ular nutq jarayonidan ancha oldin yuzaga kelganligi, bir qolipda qo'llanilishi, tilda tayyor holda bo'lishligi bilan nutq birligi bo'lgan so'z birikmasi va gaplardan farq qiladi.

Frazeologizmlarning grammatik qurilishi o'ziga xos. Frazema komponentlari sintaktik jihatdan har xil yo'llar bilan bog'lanadi. Frazeologik iboralarning talay qismi birikmaga teng iboralardir. Bundan tashqari, gapga

teng qurilishli frazemalar ham anchaginani tashkil etadi. Demak, frazemalar tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) birikmaga teng frazemalar: *katta og'iz, ko'nglini ko'tarmoq, ochiq ko'ngil, bir shingil, ketidan tushmoq, katta gapirmoq, yeng shimarmoq, dunyodan o'tmoq, anqoning urug'i kabi;*

2) gapga teng frazemalar: *yuzi yorug' bo'ldi, yuragi qisildi, ko'zi to'rt bo'ldi, kapalagi uchib ketdi, ta'bi tirriq bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi, g'ashi keldi kabilar.* (Rahmatullayev Sh., O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, 1978: 32).

Frazeologizmlarning nimanidir nomlashi, ifodalashi, ya'ni belgi, harakat kabilar haqidagi ma'lumoti frazeologik ma'no sanaladi. Masalan, «*ammanning buzog'i*» iborasi «lapashang, landavur» ma'nosini ifodalab belgini, «*boshi osmonga yetdi*» iborasi «xursand bo'lmoq» ma'nosini bildirib, harakatni bildiradi:

– *Bektemirdan ko'nglim to'q, – dedi Ali tajang, – kallasi ishlaydi. Ammo Safar cho'tir, ham qo'rqoq, ham ammanni buzog'i.*

(Oybek)

Belgi-xususiyat ma'nosini bildiruvchi frazemalarga *bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday* («*beqiyos go'zal*», «*nihoyatda dilrabo*»), *ko'ngli bo'sh* («*ko'ngilchan*», «*rahmdil*»), *fe'li tor* («*ziqna*»), *qo'ling o'rgilsin* («*ajoyib*») iboralari ham misol bo'la oladi.

Tilimizda harakat bildiruvchi frazemalar ham nihoyatda ko'p. *Ko'ngli joyiga tushdi* («*xotirjam bo'lmoq*», «*tinchlanmoq*»), *og'zi qulog'iga yetdi* («*behad sevinmoq*»), *sirkasi suv ko'tarmaydi* («*tanqidga mutlaqo chidamaydi*») iboralari harakatni ifoda qiluvchi frazemalardir.

Ayrim frazemalarda iboraning ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nosiga bog'liq bo'ladi. Frazemaning ma'nosini uning tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar asosida izohlash mumkin bo'ladi. Tarkibidagi so'zlarga xos leksik ma'nolar qisman bo'lsa-da, hisobga olinadi. Frazemaning yaxlit ma'nosi fonida tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar ham sezilib turgani sababli bunday frazemaning ma'nosi ko'p qirrali, boy bo'ladi. *To'ydan ilgari nog'ora chalmoq; yog' tushsa, yalaguday; katta og'iz; yeng shimarmoq; mum tishlamoq; yer bilan osmoncha; tepa sochi tikka bo'lmoq; ko'nglida kiri yo'q; yulduzni benarvon uradigan; do'ppisini osmonga otmoq* kabi frazemalarida shunday xususiyat mavjuddir. (Rahmatullayev Sh., O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, 1978: 34).

Ruscha-o'zbekcha frazeologik birliklar tarkibida turkiy so'zlardan *qo'shimcha oltin* (алтун) /золота/, *Olloh* (Аллах), *bosh* (голова) va boshqa leksik birliklarning turli vaziyatlarida ishlatilayotganligi, lug'at va kitoblarda o'z ifodasini topayotganligi bunday tuzilmalarning naqadar hayotiy ekanligidan darak beradi. Agar ularning derivatlari, ya'ni so'z yasovchi

komponentlar yordamida tuzilgan yangi leksik birliklar va tuzilmalarini nazarda tutsak, bu raqamlar bir necha bor ko'payishi turgan gap.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan so'zlar yordamida tuzilgan frazeologik birliklardan *Аллах (его) знает*, muqobillari: *Аллах ведает, Одному Аллаху известно* iboralari o'zbek tilida *Olloh (uni) biladi, Olloh oghoh, Birgina Ollohga ayon* shakllarida uchrab, insonga tafakkuri yetmaydigan holatni bildiradi. Bu birliklarning sinonimlari sifatida «hech kim bilmaydi», «faqat xudo biladi» birliklarini ko'rsatish mumkin.

Kambag'al kishining nochorligi odatda rus tilida «*Ни гроша за душой*» frazeologik birligi bilan ifodalanadi. Lekin o'sha lug'atning o'zida ushbu ibora frazeologik birlik shaklida «*Ни алтуна за душой*» iborasi bilan ishlatilgan. Oltin so'zi turkiy tillarda qimmatbaho metal yoki narxi baland bo'lgan pul va boshqa predmetlarni bildirsa-da, rus tilida esa *oltin* so'zi uch mis chaqasiga teng bo'lgan pul birligini bildiradi.

Bu yerda «oltin» so'zi bilan ishlatilgan ibora o'zining asl ma'nosini o'zgartirib, kambag'al, qashshoq kimsani ko'rsatishda qo'llanilayapti. Yoki bu so'z yordamida boshqa frazeologik birlikni «*Не было ни гроша, а вдруг алтун*» iborasini tahlil qilganimizda, ushbu holatda oltin so'zi butunlay boshqacha ma'no, ya'ni boylik ma'nosini anglatyapti. O'zbek tilida «*hech boshqasi (hech nimasi) yo'q edi-yu, birdan oltin (ya'ni xazina, boylik) nasib etdi*» degan tushuncha berilyapdi.

Rus tilida *bosh* (голова) so'zi yordamida ham qator frazeologik birliklar yaratilgan. Shulardan bittasini misol tariqasida ko'rib chiqamiz. «*Баи на баи*» aslida «*голова на голову*» bo'lar edi. Biroq bu yerda ushbu ibora miqdori, qiymati teng bo'lgan narsalarning almashtiruv ko'zda tutilgan. Xuddi shu so'z bilan yasalgan «*Дубовая башка*» iborasi esa g'irt savodsiz, ahmoq kishini anglatadi. (Rahmatullayev Sh., Hozirgi zamon o'zbek tilidagi obrazli fe'l frazeologik birliklarning asosiy grammatik xususiyatlari, 1952: 46).

Biz aralash frazeologik birliklarning etimologiyasini va asl ma'nosini chuqurroq o'rganishimiz kerak. Frazeologiya masalalarini tadqiq etish, shubhasiz, uning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi, tilshunoslik fanini nazariy va amaliy jihatdan boyitdi. Lekin bundan frazeologiya sohasiga doir o'rganilmagan muammolar qolmadi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Aralashma frazeologik birliklarni o'qitishda, ularni chuqurroq his etishda har bir tilning milliy xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR:

- G'oyibov S., O'zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent. 1981, 241.
- Rahmatullayev Sh., O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. –Toshkent. 1978, 467.

- Rahmatullayev Sh., Hozirgi zamon o'zbek tilidagi obrazli fe'l frazeologik birliklarning asosiy grammatik xususiyatlari. Nomzodlik dissertatsiyasi. –Moskva. 1952, 250.
- Yo'ldoshev B., O'zbek frazeologiyasida frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. –Samarqand. 2013, 360.
- O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi va funksional-pragmatik xususiyatlari. (Ma'ruzalar matni). –Samarqand. 2012, 130.
- Молотков, А. И., Федоров А. И., Фразеологический словарь русского языка. –Москва. 1965, 530.



XOTIN-QIZLAR NUTQIDA NOLISONIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

Sattorova Gulmira*

Аннотация

Mazkur maqolada xotin-qizlar nutqidagi noverbal vositalar tahlil qilingan. Bundan tashqari, noverbal vositalarning verbal vositalarga hamkorligi masalalari o'rganilgan bo'lib, o'zbek milliy nutqidagi noverbal vositalarning xususiyatlari ham yoritilgan. Misollar o'zbek adiblari matnlaridan olingan.

Tayanch so'zlar: xotin-qizlar nutqi, noverbal vositalar, verbal vositalar, hamkorlik, sistema, nutqning sistemaviyligi, nutqqa ta'sir qiluvchi omillar.

Аннотация

В статье анализированы невербальные средства в женской речи. Изучены содействие невербальных средств с вербальными средствами. Освещены особенности невербальных средств в узбекской национальной речи. Иллюстративные примеры изъятые из текстов узбекских писателей.

Ключевые слова: женская речь, невербальные средства, вербальные средства, содействие, система, системность речи, факторы влияющие речи.

Nutqiy kommunikatsiya bilan ta'minlangan sistema (tizim) — inson tili yoki lisonni tilshunoslik o'rganadi. N. I. Yevsikova, K. S. Stanislavskiy, A. P. Belikov, N. I. Yevsikova, M. L. Knapp, M. Moss, S. Katsnelson kabi rus va G'arb olimlari verbal va noverbal muloqot haqidagi ilmiy asosli fikrlarni ifoda etuvchi tadqiqot ishlari olib borishgan. O'zbek tilshunosligida E. Qilichev, G. Toirova, Sh. Safarov, S. Muminov kabi olimlar nutqiy muloqot haqida o'z ilmiy qarashlarini bayon etganlar. Maqolaning maqsadi xotin-qizlar nutqida nolisoniy vositalardan foydalanishning ilmiy, amaliy ahamiyatini ma'lum darajada tasniflashdan iborat.

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakultetining 4-kurs talabasi, gulmirasattorova@mail.ru

Mavzuning vazifasi muloqot jarayonida uchraydigan nutqning nolisoniy xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilishdan iborat. Muloqot ikki xil bo'ladi: verbal va noverbal. Noverbal muloqot so'zlarga tayanmaydigan harakat va jestlardan iborat bo'lgan barcha shakllarni o'zida mujassam etgan til sifatida mashhur. Psixologlarning e'tirof etishicha, noverbal signallarni uqish samarali muloqotning muhim sharti. Nima uchun noverbal signallar muloqotda shunchalik muhim?

- 70 %ga yaqin ma'lumotni inson ko'rish, kuzatish kanallari orqali (vizual) qabul qiladi;
- noverbal signallar suhbatdoshning haqiqiy hislari va fikrlarini tushunishni taqozo etadi;
- bizning suhbatdoshga munosabatimiz ko'pincha birinchi taassurot orqali shakllanadi. Bu, o'z navbatida, noverbal omillarning ta'siri natijasi: yurish-turish, yuz tuzilishi, qarash, o'zni tutish, kiyinish va h.

Ayniqsa, noverbal signallarning qiymati shundaki, ular so'zlardan farqli o'laroq o'z-o'zidan, samimiy tarzda nutqqa chiqadi. Ish yuzasidagi muzokaralarda noverbal signallar katta ahamiyatga egaligi eksperimental tadqiqotlarda tasdiqlanadi, ya'ni so'zlar (biz shunchalik katta ahamiyat beradigan) faqat 7% ma'noni, 38% tovush va ohang ma'nosini va 55% imo-ishoralar suhbat mazmunini ochib bera oladi.

Noverbal muloqot o'zida beshta tasnifni jam qilgan:

1. Makon tasnifi.
2. Nigoh.
3. O'zida quyidagilarni qamrab olgan optik-kinesik tasnif:
 - suhbatdoshning tashqi ko'rinishi;
 - mimika (yuz ifodasi);
 - pantomimika (imo-ishoralar).
4. Paralingvistik yoki nutqqa yaqin tasnif:
 - ovozning vokal sifati;
 - uning diapozoni;
 - toni;
 - tembri.
5. Ekstralingvistik yoki nutqdan tashqari tasnif:
 - nutqning tempi;
 - pauza;
 - kulgi va h.

So'zlarni qanday talaffuz qilishimiz ham noverbal kommunikatsiyani shakllantiradi. Intonatsiya va ohang, ovoz tembri, nutqning ravonligi va h. nazarda tutiladi. Tajribalardan ma'lumki, biz fikrimizni qanday bayon etishimizga qarab, gapning mazmuni ham keskin o'zgarishi mumkin.

Tajribalarga asoslanib, nutqiy ma'lumotning ma'lum qismi fikr almashinayotganda tilning holati, vaziyati va ovozning jarangdorligiga ko'ra qabul qilinadi. 55% ma'lumot yuz ifodasi, imo-ishora orqali, 38% esa intonatsiya orqali qabul qilinadi. Faqat 7%i biz gaplashayotganimizda so'zlarni tashkil qilar ekan. Boshqacha aytganda, ko'p hollarda bizning qanday gapirishimiz talaffuz qilayotgan so'zlardan muhimroq. Boshqacha aytganda, ko'p hollarda bizning gapirishimiz aytmochi bo'lgan so'zimizdan muhimroq. Nolisoniyy vositalarlarining hosil bo'lishini ma'lum ijtimoiy sharoit, madaniy an'analar asosida deb biluvchilar nolisoniyy vositalar ma'lum jamiyat kishilari aloqa-aralashuvining mahsuli, shuning uchun ular barcha kishilar uchun erkin holda axborot uzatuvchi vosita bo'la olmaydi, deb hisoblaydilar. Fikr ifodalashda ishlatiluvchi nolisoniyy vositalarlarining kelib chiqishini ikki holatda o'rganish mumkin: birinchi nolisoniyy vositalarlarni tabiiy-biologik holat deb o'rganish; ikkinchi nolisoniyy vositalarlarni ijtimoiy hodisa deb o'rganish.

Chunki barcha kishilik jamiyati uchun umumiy bo'lgan biologik tarzda imo-ishoralardan tashqari har bir xalqning, ijtimoiy guruhning muloqot jarayonidagina qo'llaniluvchi nolisoniyy vositalar ham borki, ularda o'sha xalqning o'ziga xos turmush tarzi, mamlakatning siyosiy xususiyatlari, diniy urf-odatlar, an'analari asosida shakllangan. Muloqot jarayonida yuz ifodasi inson va, ayniqsa, uning hissiyotlari haqida ma'lumot beruvchi muhim manba hisoblanadi. Xotin-qizlar muloqoti jarayonida ba'zi yuz ifodasi ta'sirchanligiga oid ma'lumotlarga to'xtalamiz. Odatda, xotin-qizlar yaxshi, ijobiy stimullar hosil qiluvchi tabassumdan tez-tez foydalanadi va u qo'llanadigan yuz mimikasining asosi hisoblanadi. «Tabassum, odat bo'yicha, do'stlik, o'rtoqlikni ifodalaydi. Lekin noqulay vaziyatdagi cheksiz tabassum, odatda, ma'qullashni kutishni ifodalaydi... noqulay vaziyatdagi cho'zilgan tabassum kechirim va notinchlik holatini anglatadi... Qoshlar ko'tarilgan holdagi tabassum bo'ysunishga tayyorlikni, qoshlar tushirilgan holdagi tabassum esa hayratlanishni ifodalaydi» (Тоирова Г., Ўзбек нутқий мулоқотида системавийлик ва информативлик. //Автореф. –Тошкент). Misol:

...*Kumushbibining sezilar-sezilmas kulimsirashidan yoqutdek irinlari ostidagi sadafdek oq tishlari ko'rinib ketdi ersa-da, biroq uning bu holi tezlik bilan tundliqqa alishindi.*

(Abdulla Qodiriy, O'tkan kunlar)

Nolisoniyy vositalarning tasniflanishi ichki guruhlash orqali ham amalga oshirish mumkin: gender xususiyatiga ko'ra xoslanishi, yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi, nutq sharoitiga ko'ra xoslanishi, faol va nafaol qo'llanishi kabilar.

1. Imo-ishoraviy noverbal vositalar jest nomi bilan ham yuritiladi. *Jest* lotincha *jereru, jestus* so'zlaridan olingan bo'lib, «amalga oshirmoq», «bajarmoq» kabi ma'nolarni anglatadi. Ingliz manbalarida bu so'z «tanani nazorat qilish», «insonning yurish-turishi» kabi ma'nolarda qo'llangan. Ingliz olimi A. Kendonning ta'kidlashicha, bu atama ostida so'zlovchining o'z nutqi davomida o'zini to'g'ri tuta bilishi, tinglovchiga ta'sir etishda tana imkoniyatlaridan unumli, maqsadli foydalanish tushunilgan. Jest tushunchasi ostida yuz, oyoq, qo'l, bosh harakatlari tushuniladi. O'ng qo'l ko'krak ustida, bosh sal egik holda salomlashish — mamnunlik, itoatkorlik, izn so'rash, rozilik kabi ijobiy ma'nodagi muloqotning ko'rinishlarini aks ettiradi. Ayrim hollarda kinoya, piching, norozilikni ham shu ko'rinishda aks ettirilishi.

2. O'ng yoki chap qo'l (ba'zan ikkala qo'l ham) belda, bosh tepaga ko'tarilgan — norozilik, biror narsadan asabiylashish, janjal ko'tarishga tayyorlik. Bu holatda, albatta, lisoniy vositalardan ham foydalaniladi. Xususan, ovoz tonining baland bo'lishi va salbiy ma'nodagi so'zlar, iboralardan foydalanish.

3. Yengi uzun ko'ylaklarning yengleri tirsakkacha qatlangan — ish qilishga shaylangalik ma'nosini ifodalaydi. Shu bilan birga agar qo'llar ikkalasi ham belda bo'lsa, urush qilishga shaylanganlikni ham ifodalaydi.

O'zbek xotin-qizlariga mos bo'lgan harakatlardan biri — bosh egik holda o'zidan kattalarning nutqini odob bilan tinglash. Bunday holda agar biror ish yoki yumush buyurilayotgan bo'lsa, «Xo'p bo'ladi», «Jonim bilan», «Xo'p», «Aytganingizdek qilaman» kabi lisoniy vositalar orqali munosabat bildiriladi.

Xulosa. O'zbek xotin-qizlarining nutqida nolisoniy vositalarning ahamiyati nihoyatda katta. Chunki milliy mintalitetga xos bo'lgan kam gapirish odobi qizlarga yoshligidan uqtirib boriladi. Muloqot vaqtida turli jestlar, mimika, xatti-harakatlardan foydalanish esa barcha uchun birdek xos. Xursandchilik, mamnunlik, rozilik, baxtiyorlik kabi ijobiy holatlarni ifodalashda ishlatiladigan turli jest va mimikalar ularning aksi bo'lgan xafachilik, norozilik, tushkunlik, baxtsizlik kabi salbiy holatlarda ishlatiladigan turli jest va mimikalardan farq qilib turadi. Nolisoniy vositalar insonlarning tashqi ko'rinishiga ham qarab belgilanar ekan, xotin-qizlarda bu narsa yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki, faqat ulargina kayfiyatiga, qilmoqchi bo'lgan ishiga qarab tashqi ko'rinishlariga turlicha tus berishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Qodiriy A., O'tkan kunlar. Mehrobdan chayon. Romanlar. —Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa uyi, 1994.
- Toirova G., O'zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik: Filol. fanlari... fals. doktori diss. avtoref. —Toshkent, 2017.



O'ZBEK-INGLIZ TILLARI TILSHUNOSLIK TERMINOLOGIYASINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Xabibullayeva Dilnoza*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillari leksikografiyasiga oid masalalar, jumladan tilshunoslik terminologiyasi, o'zbek va ingliz tillari leksikografiyasidagi o'xshash va farqli jihatlar yoritilgan. O'zbek-ingliz tillari lingvistik terminlarining izohli lug'ati ustida ishlash hamda uni shakl va mazmun jihatdan mukammal qilib yaratish to'g'risida mulohaza yuritilgan.

Tayanch so'zlar: leksikografiya, terminologiya, termin, terminologik leksika, ikki tilli lug'at.

Annotation

This article analyzes some points about the lexicography of Uzbek and English languages as well as their similar and distinctive features. A number of essential concepts about forming the dictionary of Uzbek-English linguistic terms and the perfect way of creating it are given.

Key words: lexicography, terminology, term, terminological lexics, bilingual dictionary.

Bugungi kun tilshunoslari oldida turgan dolzarb masalalardan biri tilning taraqqiyot darajasini belgilovchi lug'atshunoslik sohasining amaliy va nazariy vazifalaridir. O'zbek amaliy leksikografiyasida erishilgan muayyan muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda, keyingi yillarda, lug'atchilikning nazariy muammolariga ham juda katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohada mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga bag'ishlangan ilmiy ishlar amalga oshirildi va ularning natijasi tuzilajak lug'atlarning sifatini yaxshilashga yordam berishi shubhasiz. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida ona tilimizni asrab avaylash haqida ko'rsatmalar berish bilan birga, fan sohalari mutaxassislari, tilshunoslar oldiga zarur hollarda zamonaviy terminosistemalarni takomillashtirish, yo'qlarini ilmiy asosda ishlab chiqish, turli tipdagi lug'atlarni tuzish kabi vazifalarni qo'ygan edi. O'zbek tilining zamonaviy leksikografiyasi tarixida shu kungacha ilmfan va texnikaning 50 dan ortiq turli sohalari va tarmoqlari bo'yicha 300 dan ortiq xilma-xil terminologik lug'at yaratildi. Dastlabki terminologik lug'at N.To'raqulovning 1922-yilda chop etilgan «Rus-o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy lug'ati»dir.

Mustaqillikdan keyingi yillarda o'zbek leksikografiyasida ko'zga tashlangan bir qator o'zgarishlardan biri — ikki tilli lug'atlarning yaratilishi bo'ldi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, XIX asrgacha arab-o'zbek, fors-

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek-ingliz tarjima fakulteti talabasi, dilnoza.xabibullayeva@mail.com

o'zbek, turk-o'zbek ikkitilliligi asoslanib yoki, aksincha, tartibda tuzilgan tarjima lug'atlari mavjud bo'lgan. XX asrda ular qatoriga mazkur tillar bilan birga ingliz, nemis, fransuz, ispan, hind, yapon tillari ishtirokida tuzilgan ikki tilli lug'atlar ham qo'shildi. Vaholanki, mustaqillikka qadar bu tur lug'atlar, asosan, ruscha-o'zbekcha yoki o'zbekcha-ruscha ko'rinishda yaratilgan edi.

Boshqa lug'atlardan farqli o'laroq, lingvistik lug'atlarning asosiy maqsadi til birligi hisoblangan so'zning ma'nolarini, turli lisoniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Lingvistik lug'at turlaridan biri so'zligi ma'lum bir fan va texnika tarmog'i, ijtimoiy yoki xo'jalik hayotining biror sohasiga oid so'z-terminlardan iborat bo'ladigan terminologik lug'atlaridir. Terminologik lug'at faqat bir soha terminlarini tushuntirib berishi yoki bilishning turli xil, odatda yondosh sohalari terminlarini qamrab olishi mumkin. Umuman olganda terminologik lug'atlarni tuzishda u qaysi tilda bo'lmasin terminlarning o'ziga xos jihatlari nazardan chetda qoldirmaslik zarur. Jumladan, termin va oddiy so'zning farqli jihatlari e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Odatda, olimlar terminlarning quyidagi belgilarini ko'rsatadilar.

1. Termin bir ma'noli yoki bir ma'noli tendensiyaga ega;
2. Termin aniq, nominativ funksiyaga ega bo'lib, unga emotsionallik, ekspressivlik, modallik funksiyalari xos emas. Termin o'zining bu xususiyatini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi;
3. Terminning ma'nosi tushunchaga tengdir;
4. Termin stilistik jihatdan neytraldir;
5. Terminologik leksika alohida sistemadir.

Ta'kidlash joizki, terminologiya sohasida ham bir qancha muammolar mavjud. Ilmiy adabiyotlarda barcha tillardagi sohaviy terminologiyalar uchun umumiy bo'lgan quyidagi jiddiy kamchiliklarni ko'rsatib o'tilgan: terminlarning ko'p ma'noliligi, terminlar sinonimiyasi; ma'lum bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi terminning aglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyatiga uyg'un bo'lmasligi; ko'p komponentlardan iborat bo'lishi va natijada, uni qo'llashdagi noqulaylik; termin talaffuzining noqulayligi (bunday terminlar ikki sababga ko'ra vujudga keladi:

1) asosiy termini yaratishda uning derivativlik imkoniyatlari yetarlicha inobatga olinmaydi;

2) xorijiy termini o'zlashtirishda unga jiddiy e'tibor bilan qarab, tanqidiy yondoshilmaydi); terminologiyani keragidan ortiq miqdorda xorijiy terminlar bilan to'ldirib tashlanishi; termin yaratilishida u anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan o'zaro batartiblik (sistemalik)ning yetishmasligi kabilardir.

O'zbek tili terminologik tizimlar sohasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, hozirda o'zbek tilining izohli lug'atlariga kiritilgan terminlarning umumiy miqdori 1345 tani tashkil etadi. Shundan 559 tasi tilshunoslik terminlari hisoblanadi. O'zbek tilining lingvistik terminlarining izohli lug'ati Azim Hojiyev tomonidan tuzilgan. Lug'at 1500 ga yaqin terminni o'z ichiga olgan bo'lib, ular o'zbek tilida eng ko'p ishlatiladigan terminlar va barcha tillar uchun umumiy bo'lgan hodisalarning terminlari hisoblanadi. Ushbu lug'at tuzilgandan buyon oradan ma'lum bir vaqt o'tdi. Bu vaqt mobaynida tilimizga qanchadan qancha yangi terminlar kiritildi. Jumladan, tilshunoslik sohasiga kiritilgan yangi terminlarning o'zi 210 tani tashkil etadi.

Demak, lug'atshunoslar oldida turgan jiddiy masalalardan yana biri o'zbek tilining yangi lingvistik terminlari lug'atini yaratish. Azim Hojiyev tomonidan yaratilgan lug'atda terminlar alifbo tartibida keltirilgan. Undagi terminlar lingvistikaning qaysi bo'limiga tegishli ekanligidan qat'iy nazar, bir harf ostida birlashtirilgan, ya'ni alifbo tartibida tuzilgan. Masalan, fonetikaga oid termin «akustik fonetika» va sintaksis bo'limiga tegishli «aniqlovchi» terminlari «a» harfi ostida birlashtirilgan. Lingvistik terminlarning izohli lug'atini yaratishning yana bir samarali usuli mavjud. Ingliz lug'atshunosi Raymond Hikey yaratgan «Lingvistik terminlarning qisqacha lug'ati»da terminlar o'zi tegishli bo'lgan bo'lim ostida birlashtiriladi va quyidagi holatda keltiriladi:

Phonetics and phonology Morphology Lexicology

- Affricate Article Base
- Allophone Case Citation form
- Consonant Morpheme Lexeme
- Diphtong Personal pronoun Loan-word

Birinchi bo'lim fonetika va fonologiyaga oid bo'lib unda aynan shu bo'limga tegishli bo'lgan terminlar izohi bilan alifbo tartibida keltiriladi. O'zbek tili lingvistik terminlari izohli lug'atini yaratishda ham xuddi shu usuldan foydalanish mumkin.

Fonetika	Leksikologiya	Sintaksis
Akustik fonetika	Asos ma'no	Aniqlovchi
Aksent	Bosh ma'no	Bosh bo'lak
Aksentema	Leksema	Sintaktik birlik
Aksentologiya	Leksik antonimiya	Sintaktik kategoriya

Lug'atning bunday tuzilishi undan foydalanuvchilarga juda qulay hisoblanadi. Zarur bo'lgan termin bo'limga qarab topiladi.

Bugungi kunda chet tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Buning asosiy sabablari mamlakatimizda turizm sohasining rivoj topishi, xorijiy mamlakatlar bilan o'rnatilgan yaqin aloqalar, texnologiyaning yanada taraqqiy etishi va eng yangi sohalardan bo'lgan kompyuter lingvistikasining rivojlanishidir. Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan ushbu muhim o'zgarishlar deyarli barcha soha vakillari oldiga ma'lum bir vazifalarni yukladi. Tilshunoslik sohasi vakillaridan bo'lmish lug'atshunoslar oldiga ham ikki tilli va ko'p tilli lug'atlarni yaratish, tilda mavjud lekin eskirgan lug'atlarni qayta yaratish kabi vazifalar yuklatildi. Shu jumladan, tilshunoslikka oid ilmiy ishlar, maqolalar, monografiyalarni ingliz tiliga tarjima qilishda bevosita o'zbekcha-inglizcha lingvistik terminlar lug'atiga ehtiyoj sezamiz. Biroq bunday lug'at hali yaratilmagan. Bu kabi lug'atning yaratilishi ilmiy jihatdan juda katta ahamiyatga ega. Demak, tilni mukammal o'rganish uchun shu tildagi lug'atlardan kengroq foydalanish lozim. Yuqorida keltirib o'tgan lug'at tuzilishi o'zbek va ingliz tillari lingvistik terminlari izohli lug'atini yaratishda ham juda qo'l keladi. Ushbu ikki tilli tarjima lug'at o'z ichiga o'zbek tili tilshunoslik terminlarini qamrab olgan bo'lib, unda keltirilgan terminlar yonidan ularning ingliz tilidagi muqobil varianti keltiriladi. Lug'at alifbo tartibida tuzilib, har bir terminga izoh berilib, misollar bilan beriladi. U quyidagicha ko'rinishga ega.

Phonetics / Fonetika

- **Accent** — *urg'u. Turli fonetik vositalar (mas. ovozni kuchaytirish) orqali bo'g'in yoki so'zni ajratish, shu ajratishga xos kuchli talaffuz.*
- **Acoustic phonetics** — *akustik fonetika. Eksperimental fonetikaning nutq tovushlari hosil bo'lishini tovush to'lqinlari aspektida o'rganuvchi bo'limi.*
- **Articulation** — *artikulatsiya. Nutq organlarining tovush hosil etishdagi harakat-faoliyati va holati.*

Phonetics / Fonetika

- **Allofon** — *allophone. The realisation of a phoneme. A phoneme can have different allophones, frequently depending on position in the word.*
- **Artikulatsiya** — *articulation. The formation of clear and distinct sounds in speech.*
- **Undosh tovush** — *consonant. A basic speech sound in which the breath is at least partly obstructed and which can be combined with a vowel to form a syllable.*

Ko'rib turganingizdek, lug'atda har ikkala tildagi lingvistik terminlar izohi bilan keltirilgan. Demak, ushbu lug'atdan har ikkala til vakili foydalana olishi mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilning taraqqiy

■ *Talabalarning III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil topishini ta'minlashda lug'atshunoslikning ahamiyati beqiyosdir. Shu bois yaratilayotgan har bir lug'at ham shaklan, ham ma'zmunan mukammal bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Hojiyev A., Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi. 1985, 144.
- http://en.wikipedia.org/wiki/Translation#cite_note-The_Translator_p._95.
- Лотте Д.С., Основы построения научно-технической терминологии. –М.: Изд-во АН. 1961, 155.
- Madvaliyev A., O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2017, 382.
- Raymond Hickey. The Neat Dictionary of Linguistics. –Oxford^ University Press. 2016, 35.
- Tursunov U., O'zbek terminologiyasi masalalari. –Toshkent, 1933. 110.



O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FRAZEOLGIK OMONIMIYA

Xabibullayeva Dilshoda*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik omonimiya hodisasining farqli va mushtarak jihatlarini haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar: frazema, omonimiya, omofrazema, omonim so'zlar.

Annotation

This article discusses the different and similar aspects of the phenomenon of phraseological homonymy in Uzbek and English.

Key words: phraseology, homonymy, homophraseology, homonymic words.

Har bir tilda til va uning komponentlari bilan bog'liq hodisalar mavjud hamda bu hodisalar turli tillarda har xil ko'rinishda yuzaga chiqishi mumkin. Shuningdek, ular o'rtasida ayrim farqli, shu bilan birga, mushtarak jihatlar ham yo'q emas. Ma'lumki, frazema til qurilishining lug'at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik hisoblanadi va bittadan ortiq leksemaning o'zaro semantik-sintaktik birlashuvidan tashkil topadi. Adabiyotlarda ushbu til birligi *frazeologizm*, *frazeologik birlik* kabi terminlar bilan ataladi. «Frazema lisoniy birlik sifatida miyaning til xotirasida mavjud ramzga teng, frazemadan foydalanishda ana shu ramzdan nusxa olinadi» [Rahmatullayev Sh., Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006: 418]. Frazeologik birliklar xuddi so'zlar kabi tilda tizim shaklida mavjud. Tizimli bog'lanishlar omonim, sinonim, antonim, paronim

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek-ingliz tarjima fakultetining talabasi, dilshodaxabibullayeva21@mail.com

hodisalari bilan bog'liq bo'lgan turli xil frazeologik birliklar o'rtasida ham kuzatiladi. Frazeologik birliklarning ayrim guruhlari, ya'ni frazeologik omonimiyalar bir xil shakl orqali birlashtiriladi, qolgan sinonim, antonim, paronim hodisalari bilan bog'liq bo'lganlari esa semantik va struktural — semantik jihatdan muvofiq tarzda birlashtiriladi. Turkiy tilda frazeologik birliklarning bu xil munosabatlari ustida maxsus izlanish yetarli darajada olib borilmagan. Xususan, ingliz tilida ham bu hodisa ustidagi tadqiqotlar talab darajasida emas. Shu kabi hodisalar ustida izlanishlarning kamligi lug'at tarkibiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Shaklan teng kelish hodisasi frazeologik birliklarda ham mavjud va bu adabiyotlarda *frazeologik omonimiya* deb yuritiladi. Demak, frazeologik omonimiya — frazemalarning ifoda, ya'ni shakl, tuzilishlaridagi tenglik hodisasi. Buni quyidagi misollarda tahlil qilamiz:

1. **Jon bermoq** – «barhayot qilmoq»: «...*Odamzodga jon bergan ham, jonini oladigan ham Yaratganning o'zi*».

[Aytmatov Ch., Qiyomat. 1989: 44]

2. **Jon bermoq** – «o'lmoq», «so'nggi marta nafas chiqarmoq»:

Anduhdan qoraygan, bo'ybermas, qadim,

Og'riq singib ketgan oddiy xonada,

Jon berar Tolstoy shu onda, shu dam...

3. **Ustidan chiqmoq** – «biror harakat bajarilayotganida shu harakat ustidan chiqib qolmoq»: «...*Biz juda ko'p joylarda bo'ldik, – deydi ayg'oqchilardan biri. – Bir gal katta ziyofatning ustidan chiqib qoddik*».

[Aytmatov Ch., Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori. 1989: 144].

4. **Ustidan chiqmoq** – «bajarmoq»: «*Ibtidoiy jamoa tuzumidan beri yashab kelayotgan qonuniyatga binoan, o'z so'zining ustidan chiqmaydigan inson beburd hisoblanadi va unga hech kim ishonmaydi*».

[Aytmatov Ch., Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori. 1989: 1]

Bu misollardagi *jon bermoq I* va *jon bermoq II* shaklan teng bo'lgan ikkita alohida-alohida frazemalardir. Ayni munosabat uchinchi va to'rtinchi misollardagi frazemalarga ham xos.

«Shaklan teng bo'lgan frazemalar tilshunoslikda **omofrazemalar** deb nomlanadi. Shunday holat ham borki, bunda erkin birikma bilan frazema o'rtasida ham shakliyl tenglik hodisasi ro'y beradi. Bu esa frazeologik omonimiya emas, frazeologik omonimlik sanaladi. Demak, bunday holatlarda «omonimiya» va «omonimlik» atamaları o'zaro farqlanadi.

Masalan: 1. **Ko'z yummoq** (erkin birikma) – «ko'zini yumib olmoq» ma'nosida; 2) **ko'z yummoq** – (turg'un birikma) – «ko'ra-bila turib e'tiborsiz qoldirmoq ma'nosida; 3) **ko'z yummoq** (turg'un birikma) – «vafot etmoq» ma'nosida.

Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida erkin va turg'un birikmalar, ikkinchi va uchinchisida esa turg'un birikmalar (frazemalar) o'rtasida shakliy tenglik borligini ko'ramiz. Birinchi va ikkinchi misollardagi shakliy tenglik *omonimlik* sirasiga, ikkinchi va uchinchi misollardagi shakliy tenglik *omonimiya* sirasiga kiradi» [Jamolxonov H., Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'zbekiston. 2013: 402.] Frazeologik omonimiya hodisasi boshqa tillar doirasida ham kuzatiladi. Xususan, ingliz tilida ham frazeologik omonimiya hodisasi uchraydi. Lekin o'zbek tilidagiga nisbatan juda kam. Shuning uchun ham ingliz tilida frazeologik omonimiya emas, balki frazeologik omonimlik hodisasini ko'proq uchratishimiz mumkin. Bu holat birikma terminlar, erkin so'z birikmalari va frazeologik birliklar o'rtasida yuz berishi mumkin.

Masalan, **to ring a bell** frazemasini erkin so'z birikma sifatida *qo'ng'iroq jiringlashini* anglatadi. Frazeologik birlik sifatida esa *biror narsa boshqa bir narsani eslatayotgani, lekin aniq nimani eslatayotganini bilolmaslikni* ifodalash uchun qo'llaniladi. **Blue bottle** frazemasini erkin so'z birikma sifatida *idishni*, zoologiyada birikma termin sifatida *go'sht pashshasi*, Avstraliya va Yangi Zelandiyada *portugaliya meduzasini* bildiradi. Frazeologik butunlik sifatida Britaniyada *«politsiyachi»* atamasining norasmiy varianti hisoblanadi. Frazemalarni tarjima qilish ham osonlik bilan kechmaydi. Chunki bu so'zlarning turli xil birikuvini, frazeologik birliklarning omonimiya, sinonimiya, polisemiyasi va kontekstni hisobga olish zaruratini keltirib chiqaradigan bir xil birliklar singari omillarga bog'liq.

Ingliz tilida talaffuzi hamda harfma-harf aytilishi bir xil, ma'nolari esa har xil bo'lgan so'zlarga *omonim so'zlar* deyiladi. Ingliz tilida frazeologik omonimiya hodisasi odatda, frazema tarkibidagi omonim so'zlar hisobiga yuzaga keladi va bu hodisa aksariyat hollarda ularning talaffuzi jarayonida ro'y beradi. Bu holatga «soxta frazeologik omonimlik» deb ta'rif berishimiz ham mumkin. Ingliz tilida omonim so'zlar quyidagicha ko'rinishda bo'ladi: *aisle – isle, altar – alter*. Shu kabi so'zlar frazema tarkibida ham kelishi mumkin. Ingliz tilida talaffuzi va harfma – harf aytilishi bir xil so'zlar omonim hisoblanar ekan, bunday so'zlarni bir-biri bilan chalkashtirib yuborish ham mumkin. Masalan, ingliz tilida ham ayrim frazemalarning omonimiya hodisasi bilan bog'liq bo'lgan taraflari bor. Ba'zida frazemalar tarkibidagi omonim so'zlar bilan ham ayni holat yuz beradi. Quyida omonimiya hodisasi bilan bog'liq xatoliklarga tez-tez uchraydigan frazemalarni ko'rib chiqamiz:

1) **eke** [i:k] **out** - **eek** [i:k] **out**. «Eke» aslida «increase», ya'ni *ko'payish, ortish, oshish* ma'nolarini anglatadi, lekin frazema tarkibida bu so'z o'z ma'nosini yo'qotgan va «out» so'zi bilan birga kelib, *qattiq urinishlardan so'ng maqsadga erishish* ma'nosini anglatadi, bunda biror kishining qo'rquvdan

baqirib yuborishi tasvirlanadigan holatga aloqasi yo'q. Chunki «eek» so'zi ingliz tilida qo'rquv, hayratni ifodalovchi *oh, voy*, kabi undov so'zlariga mos keladi.

2) **just deserts** ['dezət]– **Just desserts** [dɪ'zɜːt]. Bu frazemada asosiy tanovuldan keyin iste'mol qilinadigan desert nazarda tutilmaydi. Bu *loyiq topilgan jazo yoki mukofot* ma'nosini anglatadi. Masalan: *Death was his just deserts.*

3) **pique** [pi : k] (**one's**) **interest** – **peak** [pi : k] (**one's**) **interest**. *Qiziqvchanlik, ishtiyoqni ifodalashda* «pique» fe'li mos keladi.

4) **sleight** [slait] **of hand** - **slight** [slait] **of hand**. Bu frazemani ko'pincha *sezdirmaslik uchun qilingan sekin harakatni* ifodalagani tufayli noto'gri tushuniladi, chunki «slight» so'zi «sekin» degan ma'noni anglatadi. Ammo frazemani shakllantiruvchi so'z «sleight» hisoblanib, u *mohirlik, ustalik, ustomonlik* ma'nolarini anglatadi.

5) **whet** [(h)wet] **your appetite** - **wet** [wet] **your appetite**. Bu fraza *biror kishining biror narsaga bo'lgan qiziqishini oshirish* ma'nosini anglatadi. «Whet» so'zi biror tig'li buyumni charxlash bildiradi. Masalan, pichoqni o'tkirlash. Ushbu frazemaga bu yerda muqobil variant «whet your appetite»dir»:

«Those ads on TV really *whet my appetite* for pizza.»

Yuqorida keltirilgan misollardan kelib chiqib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik omonimiya hodisasi struktur jihatdan bir xil. Ingliz tilidagi ayrim omonim bilan bog'liq bo'lgan bu hodisalar bevosita omofonlarga bog'lanyapti. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik omonimiya, umuman, omonimiya hodisasining bir-biridan farqli jihati shundaki, ingliz tilida ayrim omonim so'zlarning talaffuzi bir xil, yozilishi har xil. O'zbek tilida esa omonim so'zlar qanday talaffuz qilinsa, yozuvda ham shu tarzda aks ettiriladi. Frazeologik omonimiya hodisasi ingliz tilida juda kam uchraydi, ular shu frazemalar tarkibidagi so'zlarning omonimlari bilan chalkashtirilishi hisobigagina «soxta frazeologik omonimiya» ko'rinishiga kelib qoladi yoki bir xil talaffuzga ega bo'lib qoladi. Ko'rinib turibdiki, buni frazeologik omonimiya hodisasi deb to'liq ayta olmaymiz. Chunki omonimiya hodisasi bilan bog'liq bo'lgan frazemalarning har ikkisi muayyan bir ma'noni anglatishi lozim. Demak, mazkur masala ham qiyosiy tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifa sifatida chuqur va teran tahlilni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Jamolxonov H., Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'zbekiston. 2013, 402.
- Rahmatullayev Sh., Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T. 2006, 562.
- Aytmatov Ch., Qiyomat. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 1989, 178.
- Aytmatov Ch., Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori. –T.: Sharq. 1998, 235.



MATNAZAR ABDULHAKIM IJODINING LINGVO-POETIK XUSUSIYATLARI

Yangiboyeva Rayxonoy*

Annotatsiya

Maqola Matnazar Abdulhakim ijodining o'ziga xos jihatlarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishga qaratilgan. Bundan asosiy maqsad shoirning so'z qo'llash mahorati orqali, tilning imkoniyatlarini ochib berishdir.

Tayanch so'zlar: dialekt, inversiya, konversiya, pleonazm, ellipsis, qayroq, duduk, gujum

Annotation

This article analyzes specific features of Matnazar Abdulhakim's works from the linguistic point of view. The poet's main purpose is to demonstrate the opportunities of language with the help of perfect word usage.

Key words: dialect, inversion, conversion, pleonasm, ellipsis, whetstone, duduk, gujum.

Hozirgi o'zbek adabiy tili o'zbek milliy tilining oliy shakli — ishlov berilgan, me'yorlashtirilgan, millat vakillarining barchasi uchun umumiy bo'lgan barqaror ko'rinishidir. Demak, u milliy tilga zid qo'yilmaydi, undan boshqa tizim ham emas, balki shu milliy tilning yuqoriroq bosqichi, tartibga solingan bosh ko'rinishi hisoblanadi.

Dialekt — umumxalq tilining ma'lum etnik guruhga mansub ko'rinishi bo'lsa, sheva — mahalliy dialektning fonetik, leksik, grammatik umumiylikka ega bo'lgan, bir yoki bir necha qishloqni o'z ichiga oluvchi kichik bir qismi, guruhi. Dialekt va shevalar adabiy tilning shakllanishi uchun asos bo'ladi.

Adabiy tilga munosabat jihatdan badiiy uslub alohida baholanadi: u, odatda, badiiy asar tilini belgilaydi, badiiy asar tilida esa adabiy til me'yorlaridan chetga chiqish hollari ko'p uchraydi: obraz va personajlar nutqini tipiklashtirish zarurati shuni taqozo qiladi. Ayniqsa, she'riy asarlarda: pleonazm (nutqiy ortiqchalik), tautologiya (takrorlar), ellipsis (qaysidir bo'lakning tushib qolishi), inversiya (gap bo'laklarining o'rin almashuvi), konversiya (bir turkumdagi so'zning boshqa turkumga ko'chishi; masalan: yetti, qirq, yuz sonlari aza marosimlariga nisbatan qo'llaniladi) kabi hodisalar yaqqol namoyon bo'ladi. Quyidagi misollarga e'tibor beraylik:

*Suv bilan tirikdir har bitta daraxt,
Suv bilan barhayot har bir dona barg.
Odam dono bo'lsa, suv-obi hayot,
Odam nodon bo'lsa gar, suv-obi marg.
Suv Sahroi Kabir jonidan to'ysa,*

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakultetining 2-kurs talabasi, yangiboyevarayxonoy@gamil.com

Layli kiprigida titragan tomchi.

Suv — halokat, agar o'ldirib qo'ysa,

Nogoh ketmonchini ketmonchi.

Yuqoridagi misralarda suv so'zi deyarli har bir misrada takror ishlatilgan, ammo bu orqali o'sha so'zga o'quvchi urg'u berishi kerakligi ko'rsatiladi. Oxirgi misralarda esa, inversiya hodisasini kuzatamiz, bu holat vazn talabi bilan, qolaversa, she'rga o'ziga xos xulosa yasash uchun qo'llanilgan.

Alla ayt, allangdan tog'lar yuksalsin,

Alla ayt, allangdan yov ko'ksin tig'lasin.

Alla ayt, allangdan ulg'aysin borliq,

Ko'ksingdagi bolang esa-uxlasin.

Tinglasin koinot-tinglasin olam,

Allang-faryodingni, allang-nolangni.

O'z allangdan o'zing uxlab qolma faqat,

bosib o'ldirasan bolangni.

«Alla ayt» deb nomlanuvchi bu she'rda gap takrorlari ishtirok etgan bo'lib, undalma tushib qolgan bo'lsa ham nutq qaratilayotgan shaxs (2-shaxs birlik) anglashilib turibdi. Misradan misraga o'tishda fikrlar darajalanib, izohlanib boriladi va oxirida hukm o'qiladi. Garchi bu vaziyatda to'ldiruvchi gapda so'nggi o'ringa o'tib qolgan bo'lsa-da, u tugal ma'no yukini ko'tara olgan. Bu kabi misollarni ko'plab shoirlar ijodida uchratishimiz mumkin. Ammo shevani «tiriltirish», unga yangi «to'n kiydirish» murakkab jarayon. Biz yuqorida keltirgan va endi eslanajak misollarimiz bevosita, Ogahiyning avlodidan bo'lmish Matnazar Abdulhakim ijodidandir.

Uning she'rilarida xalq orasida unutilayotgan so'zlar orqali milliy qadriyatlar nafasi ufuradi. Sarlavhalardanoq bunga amin bo'lishimiz mumkin: «Duduk» (erta bahorda daraxt novdasidan qilinadigan xushtak), «Gujumlar qo'shig'i», «Qayroqchi qiz», «Keldi sen yoqdan ne baxt...» va h.k.z.

«Ellikqal'a» she'rida Ellikqal'ani:

Boshi osmon agarchi u yerlik qal'a

Ming-ming yoshda har otiz, har chellik qal'a...

deya (otiz – dala; chel — marza) ta'riflaydi.

Izoh: Ellikqal'a dashtlariga balanddan qarasangiz, ming yillik marzalarning o'rni ko'rinadi, demak, bu yerlar qadimiy ekinzorlar o'rni bo'lganligidan dalolat beradi. Ellikqal'ani madh etar ekan, arnolariga to'xtaladi. Bu yerda arno-kanal ma'nosini bildirib kelgan. Ya'ni katta anhorning bir turi (Munisning «Arnalar» risolasini eslang) hisoblanadi.

Abdulla Ahmad g'azaliga yozgan muxammasida esa «Ona yurt koshona, har to'r parchasi yo'qdir adan» jumlasini keltirar ekan, Xorazm shevasida poygak ma'nosini bildiruvchi adan so'zidan juda ustalik bilan foydalangan.

«Quduq» she'riga esa shunday epigraf keltiriladi: «*Ming machit, ming machitdan yuz gechik, yuz gechikdan bir ichik*». Bu Xorazm xalqida keng qo'llaniladigan maqol bo'lib, shunday inshootlarni qurgan odamlarning topadigan savob samarasi darajasini ko'rsatadi. Ichik-quduqning yana bir nomi. «Avesto»da ham ariq qazib, yerga suv chiqaradigan insonlar, eng mo'tabar kishilar sifatida ulug'lanadi. Bu aqida xalqimizning ruhiga singib ketgan. Har bitta tarixiy shaxsning buyukligi ortida ezgu ishlari yotar ekan, suv inshootlarini qurish ular uchun oliy vazifa bo'lgan. (Navoiyning bunyodkorliklari esimga tushadi). So'zimiz suv bilan boshlangan edi, xulosasi ham suv haqida bo'ldi. Zero, suv xalq farovonligi manbayi, musaffolik, saxovat ramzi. Suvdek serob tilimizning jilolari har bir so'zda tovlanadi. Muhimi suvni o'z holicha saqlashdir.

Til iyerarxiyasining lug'at boyligidan iborat yuqori pog'onasi bo'lmish leksik sath (so'zlar, iboralar, ularning turli qatlamlari) hamda til iyerarxiyasining morfologik va sintaktik birliklardan tarkib topuvchi grammatik sath (so'z turkumlari, grammatik ma'no va grammatik shakllar, so'z birikmalari va gap, ulaming turlari va konstruksiya modellari) birliklarini mantiqan to'g'ri qo'llay olish nafaqat ijodkorlar-u tilshunolar, balki o'zbek tilida so'zlovchi har bir shaxsning o'talishi lozim bo'lgan vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Jamolxonov H., Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin, 2005.
- Abdulhakim M., Ko'prik. –T.: Yangi asr avlodi, 2009.
- Abdulhakim M., Tanlangan asarlar. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyot, 2017.



ЎЗБЕК ВА ТУРК ТИЛЛАРИДА МУШТАРАК ТУРКИЙ ЛЕКСЕМАЛАР

Юсубова Умида*

Аннотация

Маълумки, туркий халқлар тараққиётида қадриятлар, одоб-ахлоқ масалалари муҳим ўрин тутди. Бу жиҳат туркий тиллар тарихи учун муҳим манба саналувчи «Девону луғотит-турк» асарида муҳим аҳамият касб этганлиги, шу билан бирга, ўзбек ва турк тилларида муштарак туркий лексемалар сифатида ҳозир ҳам истеъмолда эканлиги таҳлил этилган.

Таянч сўзлар: ғарбий хун тармоғи, эпистемик функция, қадимги туркий тил, ўзбек тили, турк тили, этимон шакл, этимон маъно.

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakultetining 2-kurs talabasi, yusubova-umida@mail.ru

Annotation

It is well known that tradition and moral issues have important role in the development of Turkish peoples. This aspect is widely analyzed in the work of «Devonu lug'otit turk», which is considered an important source for the history of Turkic languages, as well as it has being used as common Turkic lexemes in Uzbek and Turkish languages.

Key words: western xun branch, epistemic function, ancient Turkic language, Uzbek language, Turkish language, etymologic form, etymologic meaning.

Тарихий манбалар ва илмий тадқиқотлардан маълумки, туркий тилларнинг ўзаро яқинлик даражасига кўра икки тармоғи: Фарбий хун ва Шарқий хун тармоқлари ҳамда уларнинг бир неча гуруҳи ажратилади. Фарбий хун тармоғи қуйидаги асосий ички гуруҳларга бўлинади:

- 1) қарлук гуруҳи (ҳозирги ўзбек, уйғур тиллари);
- 2) қипчоқ гуруҳи (қорақалпоқ, козoқ, татар, бошқирд, нўғой тиллари);
- 3) ўғуз гуруҳи (туркман, озарбайжон, турк, Туркия туркчаси, гагауз тиллари);
- 4) булғор гуруҳи тиллари (чуваш тили).

Тиллардаги қардошлиқ тарихан бу тилларга мансуб миллатларнинг руҳий дунёси, менталитети, урф-одатлари, расм-русумлари, маданий турмуш тарзи ҳам ҳозирга қадар ўзаро яқинлигини сақлаб қолганлигидан далолат беради. Бу хусусият тилнинг эпистемик функциясини, яъни «миллий маданият ва анъаналар, халқнинг миллий ўз-ўзини англаш каби бойликларни янада мустаҳкамлаш ва сақлаш қобиляти»ни [Маматов А., Тилнинг энг муҳим 100 та функцияси, 2014: 38] кўрсатади.

Масалан, ўзбек ва Туркия туркчаси тилларининг лексик қатламида қадриятлар билан боғлиқ айрим туркийча сўзларнинг истеъмолда эканлигига диққат қаратамиз.

Қадимги туркий тилда «йўргак маъносини билдирган, яъни «чақалоқни белаб ухлатиш учун ясалган, тебратишга мосланган рўзгор буюми» семемасини англатувчи **бешик** (турк тилида ҳам **beşik**) сўзи бугунги кунда ҳам қатор қардош тилларда кейинги тараққиёт даврларида ҳам таҳлил этилаётган дастлабки маъносини сақлаб қолишга эришган. Ёки ҳозирги ўзбек тилидаги **улуғ** сўзини олайлик, ушбу сўз турк тилида **ulu** тарзида талаффуз қилинади. Ушбу сўз қадимги туркий тилда «юқори бўлмоқ» маъносини англатувчи **ул** сўзига **-уғ** қўшимчасини қўшиш орқали ясалган. Манбаларда ушбу сўзнинг «улкан», «катта», «кучли», «оғир», «жуда», «ўта», «буюк», «кучли», «баланд товуш» маъноларини билдирганлиги таъкидланади. Эътибор берсак, бу сўз кўчма маънода кўпни кўрган, тажрибали, хурматга лойиқ кишиларга нисбатан ҳам қўлланади. Ёки «Девону луғотит-турк» асарида келтирилган **қут-барака** жуфт сўзи таркибида қўлланувчи, «бахт», «давлат» маъноларини англатувчи туркийча **қут** сўзини олайлик. Кузатишимизча, бу сўз ўзбек

тилида ҳам, ҳозирги турк тилида ҳам архаиклашган бўлса-да, **қутламок** (турк тилида **қутламак**), **қутлуғ** (турк тилида **қутлу**) каби ясалмалар ҳар икки тилда ҳозирда ҳам мавжуд. Минг йиллик муштарак кадрятларимизнинг бардавомлиги бунга сабаб бўла олади.

Туркий халқларга хос кадрятларни Маҳмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит-турк» асарида келтирилган, бугунги кунда ўзбек ва турк тилларида қўлланилиб келинаётган айрим сўзлар мисолида асосли таҳлил этиш мумкин. Маҳмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит-турк» асарида ахлоқ ва одобга оид кўплаб сўзлар келтирилганки, демак, аждодларимиз одоб-ахлоқ масаласида собит бўлишган ва бу хусусият тилимизда мавжуд сўзлар салмоғини оширишга сабаб бўлган. «Девону луғотит-турк» асарида келтирилган «олқиш; мақташ; дуо қилмоқ; табрик; бировнинг яхши хизматларини эшлаш» маъноларини англатувчи **алқиш** сўзи ҳозир ҳам кўпгина туркий тилларда, масалан, ҳозирги ўзбек тилида **олқиш** ва ҳозирги турк тилида **alkış** тарзида юқоридаги маъноларда қўлланилади. Туркий халқлар менталитетининг бир инъикоси сифатида **олқишлар** нутқий этикет ифодаси сифатида юзага келган ва инсоний эҳтиёж маҳсулига айланган.

XIX аср ўрталарига келиб, XVIII асрда яшаган француз мутафаккири Ш. Монтескьенинг «...ҳар бир мамлакатнинг табиий муҳити унинг ахлоқи ва қонунларини белгилайди», деган таълимоти қайта тикланиб, ижтимоий-сиёсий қарашларда ўз ифодасини топа бошлаган бўлса, туркий халқларнинг яшаш тарзида ахлоқ устун бўлганлигини қадимий туркий қўлёмаларимиз акс эттириб турибди, она тилимиз лексикасида ахлоқ тушунчаларини ифодаловчи сўзларнинг салмоқли эканлиги фахрлидир. Бугунги кунда ўзбек ва турк тилларида этимон шакли ўзгаришсиз ёки ўзгаришли, бироқ этимон маъноси ўзгармаган одоб-ахлоққа оид лексемалар мавжуд. Масалан:

Ўзбек тилида	Турк тилида
<i>орсиз</i>	<i>arsiz</i>
<i>очкўз</i>	<i>orgözlü</i>
<i>иккиюзламачи</i>	<i>ikiyüzlü</i>
<i>юзсиз</i>	<i>yüzsüz</i>

Асрлар, тараққиёт, инқирозлар тилнинг луғат таркибига ҳам таъсир этмасдан қолмайди, бу эврилишлар айрим сўзларнинг шаклини, баъзи сўзларнинг эса маъносини ўзгартиради, бошқалари эса бутунлай унутилади, айримларининг ўрнини маъносини сақлаган ҳолда янги сўзлар эгаллайди, демак, сўз ҳам ўзгаришга, унутилишга, янгиланишга қодир.

Масалан, Кошғарийда келтирилган **jawash kishi** (ювош одам) бирикмасидаги **jawash** сўзи ҳозирги ўзбек тилида **ювош**, яъни «шўхлик қилмайдиган» дастлабки маъносини сақлаб қолган, турк тилида эса **yavaş** сўзи «секин, аста» маъноларини англатади ва этимон маъносини у қадар йўқотмаган.

«Девону луғотит-турк»да келтирилган **öpkä** сўзини олайлик. Ушбу туркий сўз қадимги туркий тилда «ғазаб» маъносини англатган, бунга сабаб эса ғазабнинг ўпкада пайдо бўлиши деб изоҳ берилади. Бу сўз ҳозирда турк тилида ҳам **öfke** тарзида қўлланади ва «ғазаб» маъносини англатади, бироқ ўзбек тилида истемолдан чиққан бўлса-да, ҳозирги ўзбек тилида **ўпкасини боса олмаслик** ибораси бўлиб, «ғазабланмок» маъносини англатади. Тўғри, сўз ҳам эскиришга, янгиланишга қодир, бироқ ментал хусусиятларимиз, олий қадриятларимиз, юксак ахлоқий сифатларга эга аждодларнинг ворислари эканлигимизни англатиб турувчи мазмун-моҳият ўзгармайди, ўлмайди, янгиланмайди, шу сабаб улар аждодларимиз руҳининг ифодачиси бўлиб, бугунга қадар бизга бус-бутун етиб кела олган.

Тилнинг мавжудлиги инсонларнинг сўзлаш ёки ёзиш ҳаракатларини бажариши билан боғлиқ бўлибгина қолмасдан, тил ўтмиш ва келажакни бир-бирига боғловчи кўприк, аждодларимизнинг тийнатини, қудратини, баҳосини белгиловчи ўлмас қадриятдир, қариндош тилларнинг тарихини ўрганиш асносида уларга хос ментал хусусиятларнинг туб илдизи англанади. Биз ким бўлмайлик, шу тилнинг эгасимиз, тилимиз ахлоқимиз, ўлмас қадриятларимиз мезонларини кўрсатар экан, тилимизни ахлоққа оид сўзлар билан бойитган аждодларимиздан миннатдор бўлайлик ва она тилимизни асраб-авайлайлик.

Фойдаланилган адабиётлар:

- Маматов А., 100 наиболее важных функций языка. Тилнинг энг муҳим 100 та функцияси. –Т.: Баёз. 2014, 38.
- Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). –Т.: Университет. 2000, 47.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. –Т.: ЎЗМЭ. 2006, 47.
- Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. I. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. –Т.: ЎзФА нашриёти. 1963, 18-311.





II SHO'BA. TIL TARIXI VA DIALEKTOLOGIYA



«DEVONU LUG'ATIT TURK» ASARIDA KELTIRILGAN BA'ZI MAQOLLAR TADQIQIGA DOIR

Bannobova Dilfuza*

Annotatsiya

XI asrda yashab o'tgan Mahmud Koshg'ariyning sa'yi-harakatlari natijasida o'sha davr turkiy tilining qiyosiy-tarixiy xususiyatlarini o'zida aks ettirgan «Devonu lug'atit turk» asari bunyodga keldi. Biz ushbu maqolamizda o'sha davr muhitini o'zida akslantirgan ba'zi maqollar, ularning qisqacha tahlili va zamonamizdagi muvofiqlari haqida fikr yuritdik.

Tayanch so'zlar: Mahmud Koshg'ariy, «Devonu lug'otit turk», maqollar, qiyosiy-tarixiy tahlil.

Annotation

Annotation. As a result of the efforts of Mahmud Koshgari, who lived in the 11th century, Devone created the lugati-t-turk art that reflected the comparative and historical features of the Turkic language. In this article, we have considered some of the articles that reflected the periodicity of the period, their brief analysis and contemporary compatibility.

Key words: Mahmood Koshgariy, Devonu lugotit turk, proverbs, comparative-historical analysis.

Mahmud Koshg'ariy ilk bor arab tilida turkiy tilining ichki imkoniyatlarini ochib berishga astoydil intildi va arab xati asosidagi turkiy yozuvining imlo qoidasini ishlab chiqishdek tilshunoslik tarixidagi buyuk ishni bajardi. U yaratgan «Devonu lug'atit turk» asari ushbu tilning naqadar boy ekanligini ko'rsatib beruvchi manbadir. Tilshunos olim asarda xalq qo'shiqlari, maqollari, dostonlaridan keltirib o'tish orqali o'z davrining madaniy-ma'naviy qiyofasi qanday ekanligini ko'rsata oldi. Jumladan, «Devon»da turkiy xalqlarning didaktik ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha paremiologik birlik — maqollari mavjud.

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakultetining 1-kurs talabasi, dilfuza-bannobova@mail.ru

1) «*Äšič ayur: túbüm altun. Qamč ayur: men qayda-men?*» «*Qozon aytur: Tubim oltin. Cho'mich aytur: Men qayda-man?*» mazmunidagi maqol **äšič (äshich – qozon)** so'zining ma'nosini izohlash davomida misol tariqasida keltirilgan va bu kimligini (hamma yaxshi) biladi-yu, (lekin) tanishlari oldida maqtanuvchi insonlarga nisbatan ishlatilgan» [Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'atit turk. Nashrga tayrovchi Q. Sodiqov. 2017: 35.]

Koshg'ariy keltirgan ushbu maqolga mazmunan mos tushadigan maqollar turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida uchraydi: «*Boqqaning ikki echki, o'shqirganing yer tebratar*» [Mirzaev T. va b., O'zbek xalq maqollari. 1989: 187].

2) «Devon»da **irük (iruk)** (devor va boshqa narsalardagi yoriq ma'nosida) so'zini izohlash mobaynida insonlarni mehnatsevarlikka, er yigitlarni bir so'zlikka, vatan himoyasida metin irodali bo'lishga undovchi maqollar ham o'rin olgan. «*Kündä irük yoq, begdä qiyiq yoq – «Quyosh kulchasida teshik yo'q bo'lmaganiday, bekning va'dasida ham qaytish yo'q»* [Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'atit turk. Nashrga tayrovchi Q. Sodiqov. 2017: 41.] maqolini ayni shu yo'sindagi ibratli so'zlar qatoriga qo'sha olamiz. O'zbek xalq maqollari nashridagi quyidagi maqola aynan ushbu mazmunda: «*Arslon izidan, yigit so'zidan qaytmaydi*».

3) «Devon»dagi ayrim maqollar o'sha davrda mavjud bo'lgan urf-odatlarni o'zida aks ettirishi bilan ham diqqatga sazovordir. Misol uchun: «*Qiz birlä küräšmä, qisraq birlä yarišma*. Ma'nosi: «*Qiz bilan o'ynashma, chunki ular kuchli va seni yengadi*» [Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'atit turk. Nashrga tayrovchi Q. Sodiqov. 2017: 41.] Ushbu maqolning yuzaga kelish tarixi asarda aks etgan bo'lib, «Devon»ga ko'ra, Xoqoniya qizlaridan biri Sulton Ma'sudning nikoh kechasi oyog'i bilan chalib yiqitadi va xalq orasida shunday maqol shakllanadi. Bizningcha, bu jarayon hozirgi vaqtdagi nikoh to'ylarida kuyov kelinning oyog'ini bosmasdan avval kelin kuyovning oyog'ini bosishga urinishi kabi kichik udumlarni yodga soladi. Balki bu holat ikki udumning aloqadorligi borligiga tarixiy asos bo'lar. Kuzatishlar davomida uchragan maqollarning aksariyatini eskirganiga guvoh bo'ldik, ammo ularga ma'no jihatdan o'xshashlarini zamonamizda talaygina uchratish mumkin.

4) **Sartniñ azuqi ariğ bolsa, yol üzä yer**. Ma'nosi: «*Savdogarning moli toza, beshubha bo'lsa, yo'l ustida yeydi*». Bu maqol aytgan so'zining uddasidan chiqqan olmagan, quruq maqtanchoqlarga nisbatan ishlatiladi [Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'atit turk. Nashrga tayrovchi Q. Sodiqov. 2017: 40.] Biz ushbu maqol va uning «Devon»dagi ta'rifi o'rtasida biroz uyg'unlikni sezmadik. Chunki, O'zbek xalq maqollari nashrida «Devon»dagi maqolaning o'ziga mos ravishda (ta'rifiga emas) «*Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich*» maqolini oldik. Maqol mazmunidan ko'rinadiki, ushbu

paremiologik birlik hozirgi kunda halolikka undab, to'g'ri, pok bo'lgan insonning hech kimning oldida tili qisiq, aybi bo'lmasligiga ishora qilinadi.

5) *Qoş qilič qinqa siğmas*. Ma'nosi: «*Qoş qilich bir qinga sig'mas*». Bu maqol bir ish uchun intilgan ikki kishi, bir qizga sovchi qo'ygan ikki odamga qarata so'zlanadi [Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'atit turk. Nashrga tayrlovchi Q. Sodiqov. 2017: 145.] Endi ushbu maqolning davrimizdagi ma'nodoshiga e'tibor qaratsak: «*Ikki qo'chqorning kallasi bir qozonda qaynamas*» [Mirzaev T. va b., O'zbek xalq maqollari. 1989] maqolini tahlil qilish mobaynida bir-biriga qarshi bo'lgan ikki insonning bir o'rinda bo'lmasligi anglashildi. Shuningdek, ushbu ikki maqolning ramziylik tomonini hisobga olgan holda birinchisida qo'llangan qilich, ikkinchi maqolda qo'llangan qo'chqor obrazlari ramziy tomondan er kishini ifodalagan bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda tush bilan bog'liq shunday ta'bir borki, homilador ayollarning tushiga qilich yoki pichoq kirs, farzandi o'g'il bo'lishiga ishora qilinadi. Umuman olganda, real hayotda ham qilich va shu turdagi harbiy anjomlar er yigit bilan bog'liqdir. Ko'rinadiki, «Devon»da yigitni aynan qilichga mengzalishi asosida ham ushbu detallarning hozirgi kundagi ifodalaydigan ramziy ma'nosi asos bo'lib xizmat qiladi. Endi, ikki maqolning mushtarakligiga kelsak, bu ikki maqol semantik-funksional jihatdan bir uyaga birlashuvchidir.

6) «Devon»da *a:l (a:l)* (hiyla, firib, makr ma'nosida) so'zini izohi sabab quyidaghi maqola keltirilgan: *A:lın arslan tutar, küçün uyuq tutmas*. Ma'nosi: *Hiyla bilan arslon tutilar, kuch bilan uyuq tutilmas*. Kuch bilan polizlarga o'rnatib qo'yilgan qo'g'irchoq-qo'riqchini ham tutib bo'lmaydi. Bu maqol kuch bilan ishni bitira olmaganlarga alohida tadbir qo'llash kerak, degan ma'noda qo'llanadi [Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'atit turk. Nashrga tayrlovchi Q. Sodiqov. 2017: 46]. Ushbu maqolning hozirgi kunimizdagi ma'no jihatdan yaqini «Hiyla bilan mingni ko'ndirasan, baqirish bilan — birni». Bu ikki maqol aynan muvofiq bo'lmasada insonlarni aql-farosat, bosliqlik bilan ish ko'rishga undashi bilan mushtarakdir.

7) «Devon»da izohlab o'tilgan *Ötlüg yinçü yerdü qolmas* maqolining ma'nosi quyidagicha izohlangan: «Teshik dur yerda qolmaydi, uni bir oladigan chiqadi». Bu maqol «Kanizaklar qizligicha uzoq qolib ketmaydi, unga bir uylanadigan kishi topiladi» degan ma'noda qo'llanadi. Shu kabi maqollar ham mazmun, ham shakl jihatdan hozirdagi maqollarga juda o'xshash va o'zgarishsiz yetib kelganini uchratdik. «Teshik munchoq yerda qolmas» kabi xalqimiz nutqidagi maqol esa yuqoridagining aynan muvofiq'i. 8) Yana shu kabi: *Yilan kendü egrisin bilmäs tewäy boynün egri ter*. Ma'nosi: «Ilon o'zining egriligini bilmaydi-da, tuyaning bo'ynini egri deydi», degan ma'noni berib, birovning aybidan so'z ochuvchi g'iybatchilarga nisbatan qo'llanilgan [Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'atit turk. Nashrga tayrlovchi Q. Sodiqov.

■ *Talabalarining III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil 2017: 64]. «Avval o'z aybingni bil, keyin boshqalardan kul», «Axmoqni o'zi bilmas, o'zгани ko'zi ilmas» [Mirzaev T. va b., O'zbek xalq maqollari. 1989: 163] kabi ibratomuz gapni zamonamizdagi muvofiq'i sifatida keltirishimiz mumkin. Kuzatishlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki X–XI asrlarda xalq tilida qo'llanilgan aksaryat maqollar zamon va makon sharoitidan kelib chiqib anchayin eskirgan, iste'moldan chiqqan. Lekin davr nuqtayi nazaridan o'zbek xalqi va qardosh xalqlar tilida uchrovchi eskilariga muvofiq maqollarda o'zining ma'naviy maqsadini yo'qotmay kelayotgan ibratomuz fikrlar ham talaygina. Biz esa necha yuz yil oldingi va zamonamiz kishilarining ma'nan, ruhan bog'liq va ajralmas ekanligini ko'rsatishga urindik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'atit turk. Nashrga tayrllovchi Q.Sodiqov. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr uyi. 2017: 488.
- Mirzaev T. va b., O'zbek xalq maqollari. –T.: Adabiyot va san'at. 1989, 512.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zME.



O'ZBEK TILINING O'G'UZ LAHJASIDAGI AYRIM LEKSEMALAR XUSUSIDA

Boltayeva Zilola*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'g'uz lahjasiga oid so'zlar etimologiyasi ko'rib chiqilgan. Mazkur leksemalar M. Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridagi va qardosh tillardagi variantlari bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: o'g'uz lahjasi, shevaga oid so'zlar, qardosh turkiy tillar.

Annotation

This article discusses the etymology of the words of the Oguz dialect. These lexemes are investigated in comparison with the words given in the «Divan of the Turkic words» by Mahmud Koshgari and in other related languages.

Key words: oguz dialect, related words to dialects, related Turkic languages.

Ma'lumki, o'g'uz lahjasi qipchoq va qarluq lahjalaridan ajralib turadi. Bu alohidalik lahja tarkibidagi hamma leksemalarni o'z ichiga qamrab ololmasa-da, ammo ayrim leksemalar borki, u aynan adabiy tildagi muqobillaridan farqlanadi. Vaholanki, shevadagi bu leksemalarni adabiy tildagi leksemalarning variantdoshi deb qarasa xato bo'lmaydi. Biz bu fikrga izoh tariqasida Mahmud

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakultetining 2-kurs talabasi, zilola.boltayeva@gmail.com

Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarini asosiy manba sifatida keltiramiz. Chunki adib o'g'uz lahjasining qadimiy ko'rinishlarini keltiradi. Devondagi o'g'uz lahjasiga mansub so'zlarni mumtoz adabiyot va zamonaviy she'riyat vakillarining nutq uslublaridagi shevaga oid so'zlari bilan qiyosan o'rganib chiqamiz.

Ma'lumki, tilning lug'at tarkibi eng ta'sirchan va o'zgarishga moyil qatlam hisoblanib, u jamiyatning taraqqiyoti bilan bog'liq holda doimo o'zgarib, rivojlanib boradi. Bu rivojlanish tilda o'z aksini topmay qolmaydi. Ammo shuni ham aytish joizki, o'z qadimiy shakli va fonetik tuzilishiga ega ba'zi so'zlar ham bor. Quyidagi fikrlarga tayangan holda biz Koshg'ariyning asari orqali hozirgacha saqlanib qolgan o'zining, tuzilishini yo'qotmagan va qardosh tillarda ham uchrashi mumkin bo'lgan namunalar orqali fikrimizni tasdiqlaymiz, bundan tashqari, asar misolida quyida keltirilgan so'zlarga to'xtalmoqchimiz.

«Devonu lug'otit turk»da **qildi** so'ziga quyidagicha izoh beriladi: *kishi ish qildi* (Mahmud Koshg'ariy, 2017: 216). Muallifning ta'kidlashicha, o'g'uzlar bir ish qilganlarida bu so'zning o'rniga **etti** so'zini qo'llaydilar. Chunonchi, *er yukunch etti* – *kishi namoz o'qidi* deya ifodalaydi. Quyidagi baytda mazkur jumlaning uchratamiz:

Vax, na yanglig' bilgusi hayvon guharining qadrini,
Kim topar *haz etsa* ul kunjora-yu somonga so'z.

(Ogahiy)

Bu misradagi *haz etmoq* qo'shma fe'liga e'tibor qarataylik. Adabiy tildagi *huzur qilmoq* yoki *halovat topmoq* fe'llariga variantdosh sifatida o'g'uz lahjalarning deyarli hamma shevalarida yuqoridagi *haz etmoq* fe'li qo'llaniladi.

Bazmi vaslidin na hosil no'shi la'li etmoq,
Jannat ahlig'a na *haz* gar bo'lsa kavsardin judo.

(Ogahiy)

Ushbu baytda ham *haz* so'zini uchratamiz. Ma'nosi: agar jannat ahli jannat suvidan (kavsardan) ajralsa (judo bo'lsa), ularga huzur-halovat yo'q (na *haz*).

Tarix nuqtayi nazaridan o'g'uz lahjasi vakillari Xorazm hududida muqim o'nashuvidan keyin bir qismi hozirgi Turkiya hududiga o'tib ketgan. Shu sababdan ham Xorazm shevasi turk tiliga anchayin yaqin. Koshg'ariy devonida: «Turklar **qildi** so'zini qo'llaydi» deydi, ya'ni bu o'rinda o'rtadagi farqni keltiradi. O'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan *bexavotir*, *emin-erkin* ma'nosini beruvchi leksemani misol qiladigan bo'lsak, aynan Xorazm shevasida bu so'z **orqayin** leksemasi bilan ifodalanadi va bu leksik birlikni turk ijodkorlarining asarlarida uchratishimiz mumkin:

«...Olloh roziligi yo'lida unga ko'z-quloq bo'ling. Otalik, akalik qiling. Bunday bo'lar deb o'ylamayman-u, lekin bir chatoq ish qilib qo'ysa, menga ikki qator yozib yuborsangiz kifoya. Shunday qilsangiz, men **orqayin** bo'lib yurgan bo'lardim...» (R. N. Guntekin, «Otash kechasi»).

Yana bir o'rinda Koshg'ariy «Devonu lug'otit turk»da *kizlashdi* so'ziga quyidagicha izoh beradi: *olar ikki tavar kizlashdi – ular ikkovi bir-biridan mol yashirishdi*. Bu shaklini haligacha yo'qotmagan, o'g'uz lahjasida saqlanib qolgan mazkur leksemani Omon Matjon she'riyatida quyidagicha uchramiz:

Bori el baribir so'zlar bizlardan,
Yolg'iz o'y sursak-da, kellarlar izdan,
Hechsa, borligimni *gizlab* yot ko'zdan,
Soyangni bir nafas tutaqolmabman.

(«Qo'sh yo'li»).

Shu o'rinda *kizladi* – *yashirdi* leksemasi o'g'uz lahjasida *gizladi*, turkman va turk tilida *gizlemek* tarzida qo'llanilishida ham o'g'uz lahjasi o'zining qardosh tillar bilan yaqin ekanligini namoyon qiladi.

«Devonu lug'otit turk»da o'g'uz lahjasini biz turkman tiliga ham qiyosan ochib berishga urinib ko'ramiz, boisi bu tillarda ba'zi leksemalar borki, nomema va sememasi bir-biriga yaqin va adabiy tilda deyarli uchramaydi. Masalan:

atiz (o'g'uz) (Koshg'ariy, 1963: 88) — *atiz* (turkman) leksemalariga asarda «*atiz ikki dara orasidagi chegara*» (Koshg'ariy, 1963: 88) deb ta'rif berilgan. Biroq o'g'uz lahjasida va turkman tilida *ekin maydoni* ma'nosini ifodalaydi.

aja (o'g'uz) (Koshg'ariy, 1963: 113) — *aja* (turkman) *kaft*, *qo'l kafti* ma'nosida har ikkala til vakillari tomonidan bir xil sememani ifodalovchi leksema sifatida qo'llaniladi.

Yoqtu/yoqti/yoxti – ushbu so'z Xorazm shevasida *yorug'* ma'nosini ifodalaydi. Mumtoz adabiyot namunalarida ham bu so'zdan keng foydalanilgan:

Iki *yoqtu* guhar olamga bergan,
Muhabbat ganjini odamg'a bergan.

(Xorazmiy «Muhabbatnoma»dan).

Bu so'z Omon Matjon ijodida quyidagicha ifodalanadi:
Bir-birimizga yaxshiroq, yaqindan qaraylik:
Hammamiz shu *yoqtilik* elchilarimiz,
Hammamiz shu nur farzandlari!

(«Ming bir yog'du»).

Bu yerda *yoqtilik* (hozirgi o'zbek adabiy tilida *yorug'lik* ma'nosini ifodalaydi) yasama so'z bo'lib, yasashga asos qism *yoqti* leksemasidir.

«Devonu lug'otit turk»da keltirilishicha, *qarincha* – chumoli (Koshg'ariy, 2017: 450) leksemasi o'g'uzlarda keng qo'llanilib kelinadi va Rabg'uziyda *qarincha* – *qarinchqa* tarzida uchraydi: «*Qarinchqalarning ulug'i oqsoq erdi*». Hozirgi turk tilida ham bu so'z faol qo'llaniladi.

Demak, tilning tarixiy ko'rinishini va hozirgi iste'moldagi faol leksemalarini taqqoslab shuni ta'kidlash mumkinki, til o'zgarishda, rivojlanishda bo'lsa ham, o'zining ma'no qatlamlarini va o'z ko'rinishini saqlab qolgan

leksemalar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu esa tilning uni qo'llovchi xalqning lisoniy birligidan unut bo'lib ketmasligi uchun xizmat qiladi. Yuqoridagi leksemalar etimologiyasi orqali mazkur fikrimiz o'z tasdiq'ini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Abdullayev F. A., O'zbek tilining Xorazm shevalari. –T.: Fan, 1960.
- Ashurboyev Samixon, O'zbek dialektologiyasi. –T.: Navro'z, 2016.
- Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'otit turk. I jild. Nashrga tayyorlovchi Solih Mutallibov. –T.: Fan, 1963.
- Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2017, 495.
- Ogahiy. Jamoling jilvasi. –T.: O'zbekiston, 2013.
- Omon Matjon. Saylanma. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 1995.
- Omon Matjon. Umr o'tar, vaqt o'tar. –T.: O'zbekiston, 2016.



TÜRK DİL TARİHİNDE NEVAİ DÖNEMİNİN TÜRKÇEYE KATKILARI

Burcu Yılmaz*

Özet

Türk dilinin tarihi devirleri arasında, Orta Asya edebî Türkçesinin üçüncü dönemi olarak, XV–XX. yüzyıllar arasında yer alan Çağatay Türkçesi, kendi içinde «klasik öncesi dönem, klasik dönem ve klasik sonrası dönem olarak üç devreye ayrılır. Çağatay Türkçesinin bu dönemleri arasında bizim işleyeceğimiz dönem ise Ali Şir Nevai'nin Türkçeye olan katkılarından dolayı, «Nevai dönemi» diye anılan klasik dönemdir.

Ali Şir Nevai, sadece 15. yüzyılda Orta Asya'da yaşamış bir Türk şairi değil, aynı zamanda bütün Türk dünyasında birlik-beraberlik ruhunu oluşturan, Türk insanına millî dil bilincini aşıl原因 ve yaptığı çalışmalarla Türkçeye ivme kazandıran önemli bir şahsiyettir. Şüphesiz ki onun Türkçeye verdiği hizmetlerin etkisi ile Çağataycaya «Nevai dili» denmiştir. Peki Nevai döneminin Türkçeye katkıları nelerdir? Bu dönemle birlikte neler değişmiş ve gelişmiştir? Ali Şir Nevai'nin tutumu ve bakış açısı Türkçeye neler kazandırmıştır? Yazımızın ana konusu bu soruların cevabı olacaktır.

Anahtar kelimeler: Türk dil tarihi, Çağatay Türkçesi, Ali Şir Nevai, Türkçe.

Annotation

Between XV. and XX. centuries, which is the third period of literary Central Asia Turkish language, Chaghatay Language is classified into three different groups; «pre-classic period, classic period, post-classic period». The period on which we will study in this subject is that the classic period which is also named «Nevai period», because of his contributions to the Turkish language.

* İstanbul Üniversitesi, Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Doktora Öğrencisi. burcu-yilmazz@hotmail.com

Ali Şir Nevai is not only a Turkish poet living in the 15th century, but also a very important person who created national unification and developed national language consciousness among Turks, with the help of his studies improving the Turkish language as well. There is no doubt that, because of his contributions which were influenced on the language, Chaghatay language is also called «Nevai language». Within this context, we will clarify his contributions and explain which changes and developments were made by him, asking what the benefits of his point of view and manner. The main idea of this study will be the answers of these questions.

Key words: Turkish language history, Chagatai Turkish, Ali Sir Nevai, Turkish.

GİRİŞ

Türk dilinin tarihî akışında, en çok gelişme gösteren devrelerden biri Çağatay Türkçesidir. Rus Türkoloğu A. N. Samoyloviç, Çağatayca'yı Karahanlı ve Harezmi (Kıpçak-Oğuz) Türkçelerinden sonra, Orta Asya edebî Türkçesinin üçüncü dönemi olarak XV.–XX. yüzyıllar arasına yerleştiren isabetli bir sınır çizmiştir. A. N. Samoyloviç'in görüşlerini daha da geliştiren J. Eckman'a göre, XV.–XX. yüzyıllar arasını kaplayan bu Orta Asya edebî Türkçesi, ses ve şekil bilgisi özelliklerine göre kendi içinde üç alt bölüme ayrılır:

1. Klasik öncesi dönem: XV. yüzyılın başından Nevai'nin ilk divanını yazdığı 1465 yılına kadar süren ve «geçiş dönemi» diye adlandırılan arkaik özelliklerin yer almış olduğu dönemdir. Başlıca temsilcileri Sekkakî, Lütfî, Ataî, Seyyid Ahmed Mirza, Yusuf Emir vb.

2. Klasik dönem: Hüseyin Baykara, Mîr Ali Şir Nevai, Hamidî, Şeybanî, Ubeydî, Bâbur, Muhammed Salih vb.

3. Klasik sonrası dönem (1600-1921): Bu dönem bir yandan Nevai dilinin özentili bir taklidi, bir yandan da Özbekçe unsurların dile girmeye başladığı bir dönem olarak nitelendiriliyor. Başlıca temsilcileri Ebulgazî Bahadır Han, Turdı, Huveydâ, Munis Horezmî vb. 'dir.'

Bizim bu dönemler arasında inceleyeceğimiz dönem, Nevai'nin işleyip geliştirdiği, yüksek bir edebiyat dili derecesine yükselttiği, kurucusu olduğu ve Nevai adıyla anılan «klasik dönem»dir. Ancak Nevai dönemine geçmeden önce, Nevai'nin hayatı, yetiştiği devir ve yetişme dönemindeki Türk dili ve edebiyatından da kısaca bahsetmek gerekir. Bu noktalara değinmek bizlere, Ali Şir Nevai'nin ve onun adıyla anılan bu dönemin Türkçeye neler kattığını daha açık bir şekilde gösterecektir. Aynı zamanda Ali Şir Nevai'nin Türk dilini nereden nereye taşıdığını da daha anlaşılır ve değerli kılacaktır.

Ali Şir Nevai'nin Hayatı

Soyca bir Uygur kabilesinden gelen Ali Şir Nevai 9 Şubat 1441 tarihinde Herat'ta doğdu. Babası Kiçkine Bahadır (Kiçkine Bahşi) Timur'un

* Zeynep Korkmaz, "Ali Şir Nevai ve Çağatay Yazı Dili", *Ali Şir Nevai'nin 560. Doğum, 500. Ölüm Yılı Dönüşlerini Anma Toplantısı Bildirileri*, 24 - 25 Eylül 2001, TDK Yay., Ankara, 2004, s. 68.

torunlarının hizmetinde bulunmuş, sonra Bâbü Şah'ın sarayında da önemli bir mevki sahibi olmuştu. Şâhruh'un ölümüyle çıkan karışıklıklar üzerine Kîçkine Bahadır o sırada altı yaşlarında olan Ali Şîr'i yanına alarak Irak'a gitti.* Beş yıl sonra Ebülkasım 1452'de Horasan'a hakim olunca, Kîçkine Bahadır oğlu ile yine Herat'a dönerek Ebülkasım'ın hizmetine girmiş, Sebzvar emiri olmuştur. Ebülkasım gerek Ali Şîr'e gerek süt kardeşi olan Mirza Hüseyin'in öğrenimlerine çok yakın ilgi göstermiş onlar da bu hevesle Farsça ve Türkçe şiirler söylemeye başlamışlardır. Ebülkasım 1456'da Meşhet'e giderken Mirza Hüseyin ile Ali Şîr'i de yanında götürmüştür. Ebülkasım 1457'de Meşhet'te ölünce, Mirza Hüseyin Merv'e gitmiş, Ali Şîr ise Meşhet'te kalarak öğrenimine devam etmiştir. Ebülkasım'ın ölümünden biraz sonra Kîçkine Bahadır da ölünce, Ali Şîr'i Timur sülâlesi emirlerinden Seyyit Hasan Erdeşir korumuş, ona baba şefkati göstermiştir. 1464'te Meşhed'den Herat'a gelen Ali Şîr, burada Ebû Said Mirza'nın hizmetine girdiyse de ondan ilgi göremeyince Semerkant'a gitti ve Arkadaşı Hüseyin Baykara'nın tahta geçmesine kadar da Semerkant'ta kalmıştır. Ebu Sait Karakoyunlular'a yardım için gittiği Karabağ'da 1469'da öldürülmesi üzerine, Sultan Hüseyin Baykara Herat'ı alarak Horasan'a hakim olmuştur. Herat'ın alınışından bir ay kadar sonra buraya gelen Ali Şîr, Sultan Hüseyin'e ünlü «Hilâliyye» kasidesini sunar. Bu tarihten sonra devlet işleriyle de ilgilenmeye başlamış ve ölünceye kadar sadakatle ona hizmet etmiştir. Nevai'nin ilk kabul ettiği görev mühürdarlıktır. 1472'de ise emir (divan beyi) olmuştur. Bu görev onu, istemediği halde devlet işleriyle daha yakından ilgilenmek zorunda bırakıyordu. Bu sırada Nevai, 1476'da Camî'nin irşadıyla nakşebendi tarikatına girmiştir. 1487'de Nevai Esterabat valiliğine gönderilmiştir. 1489'da Nevai, babası gibi sevdiği Seyyit Hasan Erdeşir'i kaybedince bu Nevai'yi çok üzmüştür. Aynı yıl divan beyliğinden çekilmiş ve artık Mukarreb-i Sultanî olarak Baykara'nın yanında kalmıştır. 1492 yılında Camî'nin ölümü, Nevai için yeni bir acı olmuştur. Bazı saray entrikaları sonucunda Hüseyin Baykara'nın oğlu Bediüzzaman ile arasının açılması ve bundan olma torunu Mirza Mehmed Mü'min'in yanlış bir fermanla öldürülmesi, daha sonra bu olayı hazırlayan vezir Nizâmülmülk'ün idam edilmesi, hem hükümdarı, hem de Nevai'yi çok sarsmıştır. 1499'da Baykara ile Bediuzzaman barışmışsa da Nevai üzerinde bu olay çok büyük bir etki yapmış ve saltanatın geleceğinden umudunu kesmiştir. Nevai'nin son zamanlarda sağlığı da bozulur ve 31 Aralık 1500'de Hüseyin Baykara'yı Esterâbâd dönüşünde karşılarken el öptüğü sırada yere yıkılmıştır. Herat'a getirildikten üç gün sonra 3 Ocak 1501'de vefat etmiştir.*

* Günay Kut, "Ali Şîr Nevai", TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt:2, s. 450.

* Agah Sırrı Levend, "Ali Şîr Nevai", Türk Dili, Cilt 4, sayı: 173, 1 Şubat 1966, s. 286-287.

Ali Şir Nevai çocukluk yıllarından beri şiirle meşgul olmuş; küçük yaşta pek çok şairin şiirlerini ezberlemiştir. Nevai ilk gençlik yıllarından itibaren şiir yazmaya başlar. Onun yetişmesinde şair olan dayısı Kabûlî ile Garîbî'nin önemli katkıları olmuştur. Nevai edebî gelenek itibarıyla Klasik Şark edebiyatının dairesi içinde yaşamaktaydı. Daha küçük yaştan itibaren Arapça ve Farsçayı öğrenmiş, Arap ve Fars edebiyatına vâkıf olmuştur. Genceli Nizamî, Dehlevî, Firdevsî gibi isimlerden etkilenmiştir. Nevai'nin iyi bir edip, şuurlu bir Türkçü ve Türkçeci olarak yetişmesinde kendisine örnek aldığı Horosan padişahı Ebulkasım Babür Mirza, Lutfî, Seyyid Hasan Erdeşir, Molla Camî gibi kişilerin büyük katkısı olmuştur.*

Ali Şir Nevai'nin yetiştiği dönemin Türk dili ve edebiyatındaki durumuna bakacak olursak, Orta Asya'da Timur'un hakim olduğu ülkelerde, hakim edebî dilin Farsça olduğunu görmekteyiz. Türk şairleri Farsça kaside ve gazel söyleyerek kendilerini tanıtmaya çalışıyorlardı. Saraylarda ve aydın çevrelerde bu dille yazılan eserler itibar gördüğü için şairler de kendi dillerinde değil, Fars dilinde yazmayı tercih ediyorlardı. Böyle olmakla birlikte XIV. yüzyılın ikinci yarısında Türkçe yazan şairler de görülmüş ve Çağatay Türkçesi gelişmeye başlamıştır. Sekkâkî, Atayî, Emirî, Gedâî ve Lutfî bu şairlerden bazılarıdır. Nevai Lutfî'yi devrin en büyük şairi olarak anar ve onun bazı gazellerini tahmis eder. Nevai'nin işleyeceği dil de bu şairlerin dilidir.*

Nevai gençlik yıllarının vermiş olduğu heyecanla ve yetiştiği dönemdeki edebiyatın etkisiyle ilk şiirlerini Farsça yazmıştır fakat daha sonra gözlerini iç alemden dış aleme çevirince, kalemini Türk diline hizmet etme amacı ile kullanmayı görev bilmiştir. Nevai kendinden bahsederek bu dalgınlıktan nasıl kurtulduğunu şu sözlerle anlatıyor:

*«Türk dili bırakılmak üzere idi. Bunun içindir ki, ben de gençliğimde geleneğe uyarak ilk şiirlerimi Farsça söyledim. Kendimi anlamaya başlayınca, güçlükleri yenmek isteğiyle Türk diline döndüm ve onu düşünmeye başladım. O zaman gözlerimin önünde on sekiz bin âlemden daha geniş bir âlem belirdi. O âlemin süslerle dolu göğü bana dokuz felekten daha yüksek göründü. İncileri yıldız cevherlerinden daha parlak olan erdemlik hazinesi bana açıldı...»**

Nevai Türkçenin işlenmemiş bir zenginliği olduğunu fark edip Türkçenin ne kadar üstün bir dil olduğunu ispat etme amacına büründükten sonra, çağdaşları olan şairlere şu sözlerle sesleniyor:

* Doç. Dr. Ertuğrul Yaman, "Ali Şir Nevai'de Dil Bilinci", *Ali Şir Nevai* 560. D., 500. Ö. Yıl dönümlerini Anma Toplantısı Bildirileri sayfa: 153, TDK Yayınları.

* Ağah Sırrı Levend, "Ali Şir Nevai", *Türk Dili*, Cilt 4, sayı: 173, 1 Şubat 1966, s. 286.

* Ağah Sırrı Levend, *Ali Şir Nevai*, 1. cilt, Türk Dil Kurumu Yayınları, 1965, s. 192-193.

«Türkün bilgisiz ve zavallı gençleri güzel sanarak, farsça şiir söylemeye özeniyorlar. Bir insan etraflı ve iyi düşünse, Türkçede bu kadar genişlikler, incelikler dururken bu dilde şiir söylemenin ve sanat göstermenin daha kolay daha beğenileceğini anlar...»^{*}

Ali Şir Nevai, Türk şairlerinin edebî dil olarak Farsçayı Türkçeden üstün tuttuğu ve insanların kendi dillerinin zenginliğine gözünü kapattığı bir ülkede; Türk dilini, Farsça ve diğer dillerle boy ölçüşebilecek bir seviyeye getirmek istiyordu. Nitekim öyle de olmuştur, Nevai dönemi diye adlandırılan Çağatay Türkçesinin bu döneminde Türkçe, Nevai tarafından işlenerek daha kıvrak, canlı, olgun ve Orta Asya'da hakim dil haline getirilmiştir. Bu noktada Türk dili Ali Şir Nevai'ye çok şey borçludur çünkü Nevai hazır işlenmiş bir yazı dili bulmamış ve kendi döneminin çok karışık yapıdaki lehçesine edebî bir dil olabilme özelliğini kazandırmıştır. Şimdi Nevai'nin bunu nasıl yaptığının detaylarını işleyerek Nevai döneminin Türkçeye olan katkılarını ayrıntısıyla göstermeye çalışacağız.

Sayıcı ve değerce üstün eserler vererek Çağatay edebî dilini kuran Nevai'nin en önemli eseri bizce 1499 yılında Türkçe ile Farsçayı karşılaştırmak için nesir tarzında yazdığı *Muhâkemetü'l- Lûgateyn* adlı eseridir. O devirde hakim durumda olan Farsçaya karşı, Türkçenin istiklâlini korumanın ve millî bir dil ve edebiyat meydana getirme gerekliliğinin ifadesi olan bu eser ile Türkçenin üstünlüğünü ve zenginliğini ortaya koymuştur. Peki bunu yaparken Türkçenin üstünlüğünü, eserinde hangi dillik deliller ile ispatlamıştır, bunu birkaç örnekle göstermek istiyoruz.

→ Nevai verdiği örneklerde önceliği fiillere tanır. Türkçedeki yakın anlamlı kelimelerin zenginliğine değinir ve ağlamak kelimesinin nüanslarını örnek gösterir: *sıktamak, singremek, ingremek, ökürmek, yıglamsınmak, bohsamak* vb... Nevai, Farsçanın bundan yoksun olduğunu belirtir. Yüz tane fiil sıralar ve Fars dilinde bu fiillerin inceliklerini ve orijinalliklerini karşılayacak kelime bulamadığını ifade ederken bu kelimelerin kavram olarak Farslarda olmadığını kasteder. Ardından da bunlardan birini Farslara anlatmak için Arapça kelimelerin yardımıyla uzun uzun cümlelere ihtiyaç duyulduğunu söyler.^{*}

→ Türkçe ses zenginliği bakımından Farsçayı geride bırakır. *Vâviler* ve *yâiler* denen ses takımlarında Farsça sözcükler ancak *o, u, i, î* biçimlerine girebildikleri halde Türkçe sözcükler *vâviler* takımında *o, ö, u, ü* diye dört ve *yâiler* takımında da *e, kapalı e, i* olarak üç biçime girebilirler. Bu durum hem şairlerin işini kolaylaştırır hem uyumu arttırır.

^{*} A. K. Brovko, "Özbek Yazı Dilinin Kurucusu Ali Şir Nevai", Çev. Rasime Uygun, *TDAY. Belleten*, 1954, s. 63.

^{*} Sema Barutçu Özönder, *Muhakemetü'l-Lûgateyn İki Dilin Mukayesesi*, TDK. Yay. Ankara 1996, s. 15.

→ Türkçede her varlık için ayrı bir sözcük vardır, her yaratığın evreleri ve cinsel ayrılıkların ayrı sözcüklerle karşılandığını şu sözlerle örneklendirir: «*Kuşta en önemli olan şey ilbasun yani ördektir. Fars bunu bilmez. Türk, ördeğin erkeğine suna, dişisine burçin der. Fars bunlara ad koymamıştır; erkek olsun dişi olsun hepsine birden mürgab der. Ördek cinsinden kuşları iyi bilen kuşçular katında çörke, irkesoktur, almabaş, çakırkanat, temürkanat, alaladga, alapeke, bağçal gibi yetmiş çeşidi bulunanların topuna da Farslar gene mürgab derler; eğer birbirlerinden ayırmak isterlerse Türkçesini söylerler.*»*

→ Nevai'ye göre Türkçe, taşıdığı gramer özellikleriyle de Farsçadan ayrılır. Bu ayrılıklar kullanışta kolaylıklar sağlar. Sözelimi Türkçede işteş fiiller, yeterli fiilleri ve eklerle türemiş sıfatlar olduğu halde, bunlar Farsçada yoktur. Kelime türetmeye yarayan eklerin bolluğunun, Türk dilinin zenginleşmesini sağlayan belli başlı yollardan biri olduğunu anlatır. +ÇI eki ile yapılan meslek adları, -gU ve -gAç/-kAç zarf fiil ekleriyle eylemin gerçekleştiriliş biçimlerini anlatmada sağlanan zenginlik, kör- tasvir fiiliyle eylemin aspektini anlatmada sağlanan zenginlik, -l gibi fiilden isim yapma ekleriyle kurulan şekillerin hepsinin, Türkçenin Farsçaya üstünlüğünü ispat eden deliller olduğunu söyler.*

→ Nevai Muhâkemetü'l- Lûgateyn' de dilleri karşılaştırırken dilde bir ölçü olarak kullanılan kelimelerin varlığına inmiş; akrabalık adlarını, ev, mutfak, giyecek ve savaş kültürüyle ilgili kelimeleri ayrıntısıyla sayarken aynı zamanda milletin zengin bir kültür birikimine sahip olduğunu anlatmak istemiştir. Bu kelimelerin hiç birinin Farsçada olmadığını söylediğinde ise Türkçedeki bu kelimelere başvurulduğunu belirterek dil kültür bağlantısına değinmiştir.

Nevai'nin eseriyle ilgili açıklamada bulunduğu şu sözleri, onun bu eseriyle Türkçeye vermiş olduğu hizmeti daha anlaşılır kılıyor:

«*Umarım ki Türk Ulusu'nun sanat, edebiyat ve bilim erlerine, ortaya çıkardığım bu büyük gerçeklerle, öz dilimiz üzerinde değerli üstünlük sağladım. Onlar bu önemli noktaları anlayarak, Farsçaya bağlananların dil uzatmalarından kurtuldular.*»

Nevai Türkçeyi hor gören zihniyete karşı çıkararak, Farsça yerine Türkçe eser yazmayı ve ana dili benimsetmeyi amaçlayan bu eser ile Türkçeye büyük ve değerli bir katkıda bulunmuştur.

Ali Şir Nevai döneminin Türkçeye olan bir diğer katkısı ise hiç şüphesiz, Nevai'nin 1484 yılında Türkçe manzum olarak yazdığı «Hamse»si olmuştur. Kendinden önceki Doğu'nun üç büyük şairi Nizemî, Dehlevî ve Camî

* Hikmet Dizdaroğlu, "Nevai'de Dil Bilinci", *Türk Dili*, C. XV, Sayı: 173, s. 293.

* Sema Barutçu Özönder, *Muhakemetü'l-Lûgateyn İki Dilin Mukayesesi*, s. 17.

tarafından işlenen ve edebiyatta erişilmesi artık imkansız sayılan bu ağır konu, iki yılı aşkın gibi kısa bir zamanda, cevap olarak Ali Şir Nevai tarafından yazılmış ve Türk dilinde yeni bir çığır açılmıştır. Nevai 53 000'lik bir şiir yığını ile yeniden bilinen, tanınan hatta rakipsiz sayılan «Hamse»siyle Orta Asyanın fikir hayatına yeni bir heyecan ve canlılık getirmiştir. Nevai, Türk edebiyatındaki ilk hamseyi meydana getirerek Türk dili ile de Hamse yazılabileceğini ispat etmiş ve Türkçenin gücüne güç eklemiştir. Nevai öteki yazarların aksine kitabının bütününde kahramanlarını hep Türk yaratılış ve ruhunda canlandırır. Kaleme aldığı beş poemın her birinde orijinal kalmak ister ve hamsenin düzenini değiştirir, konuları ve motifleri kendi görüşüne göre ayarlar. Onun Hamsesi Batıdaki Türk şairlerine de örnek olmuştur.*

Türk dili ve edebiyatı açısından Nevai döneminde gerçekleşen önemli gelişmelerden biri de Nevai'nin 1491' de kaleme aldığı *Mecalisü'n-nefais* adlı eseridir. Bu eser Türkçe yazılmış ilk «Şairler Tezkiresi»dir. *Mecalisü'n-nefais*, hem Çağatay edebiyatı hem de İran edebiyatı için çok mühim bir kaynaktır. Fakat asıl önemli yanı Anadolu'da meydana gelen tezkirelere modellik etmiş olmasıdır. Bu eser ayrıca daha sonra Osmanlı'da ortaya çıkacak olan Tezkire-i şuara türünü derinden etkilemiştir. Nevai bu eserinde Herat, Horasan ve Azerbaycan'da yaşayan çoğu Farsça yazan 455 şaire yer vermiştir. Bunlardan 43 'ü Türk veya Türkçe yazan isimlerdir. Nevai bu şairler hakkında uzun uzun bilgiler vermemiş, çoğuna ancak bir iki satır yer ayırmıştır. Her şairin bir, büyük şairlerin iki üç beyitini örnek olarak vermiştir. Nevai dönemindeki bu gelişme Türkçede edebî biyografiye ivme kazandırmıştır.*

Nevai döneminin bir başka önemli yönü ise Türk şiirine şekil ve ifade bakımından birtakım yenilikler getirmiş olmasıdır. Nevai kaside ve gazelden tuyuğa kadar bütün nazım şekillerini kullanmıştır. Özellikle gazelleri ve Türk nazım biçimlerinden olan tuyuğları meşhurdur. Çok sayıda şiir yazan Nevai şiirlerinde söz sanatlarından çokça yararlanmıştı. Bunlardan özellikle cinas ve iham sanatını ustalıkla kullanmıştır. Şekle o kadar meraklı ve bu konuda o kadar dikkatlidir ki divanlarının tertibinde geometrik bir düzen göze çarpar. Her şiiri ahenk ve muhteva bakımında güzellik taşır. Nevai eserlerinde kelime ve fiilleri çok çeşitli kullanmış, 26 bin kelime ve 900 çeşit fiil ile Türkçenin bu anlamdaki zenginliğini de gözler önüne sermiştir.* Millî zevke uyarak ve bilerek kullandığı redif, cinaslı kafiye ve alitereasyon Türk şiirini beslemiş ve güçlendirmiştir. Ali Şir Nevai millî nazım şekillerini ve millî edebi türleri ustalıkla kullanarak hem çağdaşlarına bu konuda öncülük etmiş hem de Türk

* Ahmet Caferoğlu, "Nevai'nin Türk Dilli Hamsesi", *Türk Dili*, C. XV, Sayı: 173, s. 298-299.

* Mustafa İsen, "Türk Biyografi Geleneğinde Ali Şir Nevai'nin Yeri", *Ali Şir Nevai'nin 560. Doğum, 500. Ötüm yıl Dönümlerini Anma Toplantısı Bildirileri*, Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2001, s. 28-29.

* Doç. Dr. Ertuğrul Yaman, "Ali Şir Nevai'de Dil Bilinci", *Ali Şir Nevai 560. D. / 500. Ö. Yıl dönümlerini Anma Toplantısı Bildirileri* sayfa: 158-159.

edebiyatının gelişmesine katkıda bulunmuştur. Nevai döneminde Türkçe klasik bir şiir ve nesir dili haline getirilmiştir.

Ali Şir Nevai'nin Türkçeye kattığı yeniliklerden biri de Aruzla ilgili ilk teorik eseri yani *Mizânü'l-evzân*'ı yazmış olmasıdır. Aruz hakkında toplu bilgiler vermek üzere kaleme aldığı bu üç bölümlük küçük risalede sırasıyla teknik bir mesele olarak «zihaf, bahirler ve takti» konuları üzerinde durur. Rubâî vezinlerinden sonra tuyuğ, koşuk, türki, cenge, arazvârî, muhabbetnâme gibi millî şekilleri ele alması eserin en dikkate değer tarafıdır. Ayrıca Divanlara isim verme geleneği ve bu eserlere dibace ile başlama da ilk kez onda görülür.*

Samimi bir Türkçü ve Türkçeci olarak milletine ve millî edebiyatına hizmet eden Ali Şir Nevai'nin ve onun adıyla anılan bu dönemin, Türkçeye olan katkılarından en önemlisi, Nevai'nin ana dili konusundaki bilinçli tavrı ve çalışmalarıdır. Prof. Dr. Kemal Eraslan, Nevai'deki güçlü dil bilincini şöyle ifade etmiştir:

*«Nevai'nin yüksek bir millî şura ve sarsılmaz bir Türkçe sevgisine sahip olduğu hemen hemen bütün eserlerinde görülmektedir. Edebiyat her şeyden önce bir dil meselesidir. Millî ve yüksek bir edebiyat ancak millî şuur ve millî zevkin geliştirdiği bir dille yaratılır. Bunun için evvelâ dilin kudretine inanmak, onu sevmek ve titizlikle işlemek gerekir. Nevai'nin Türkçenin müdafaasını yapmağa ve münevverleri Türkçe yazmaları için teşvik etmeğe sevk eden gerçek sebep budur.»**

Gerçekten de çok derin ve şuurlu bir Türkçe sevgisine ve Türklük duygusuna sahip olan Nevai, millete kendi öz diliyle hitap etmek gerektiğine inanıyordu. Hatta Nevai'deki dil bilinci ve milliyetçilik duygusu öylesine köklüdür ki Türkçe konuşup yazmayanları, Türk soyundan olsa da Türk saymazdı. Nevai, devletin resmî dili ile sanat ve edebiyat dili Türkçe olursa Türk egemenliğinin gerçekleşebileceğine inanıyordu.

Nevai eserlerinde, Arapça ve Farsça gibi yabancı dillere karşı kendi dili olan Türkçeyi ifade etmek için Türk tili, Türk elfazı, Türkçe gibi terimler kullanmıştır. Bu terim o dönem edebî Türkçesini adlandırmak üzere yalnız Ali Şir Nevai tarafından kullanılmıştır. O Türk dilinin en büyük hamisi bulunması sebebiyle <<Türk Dili>> lafzını kullanmaktan haz duymuş ve bu yolla Orta-Asya çevresindeki Türk dili mücadelesini körüklemiştir.*

Diğer taraftan da gelişme bulmuş an'anevî Orta-Asya edebî Türkçesi ile Ön-Asya edebî Türkçesine karşı dilini Çağatayca olarak adlandırmıştır. Ali Şir Nevai, Türk yazı dilinin tarihinde yeni bir çığır açmış, bunu savunmuş ve

* Rıdvan Canım, "Türk Kültür ve Edebiyatında Ali Şir Nevai ve Türkiyede Ali Şir Nevai Çalışmaları", *A. Ü Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, sayı:19, Erzurum 2002, s. 138.

* Kemal Eraslan, "XV. Yüzyıl Çağatay Edebiyatı", *Büyük Türk Klasikleri*, Cilt 3, s. 108.

* Ahmet, Caferoğlu, "Çağatay Türkçesi ve Nevai", *Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi*, Sayı: 3-4, İstanbul 1948, s. 148.

gelişmesine sağlam bir şekil vermiştir. Bu herkesçe malûmdur. «O millî dilin hemen hemen biricik veya hiç değilse en kuvvetli mücadelecisidir.»[▼]

Sultan Hüseyin Baykara *Risale* adlı eserinde Nevai için «Türk dilinin ölmüş cesedine Mesih nefesiyle ruh verdiğini ve o ruhu bulanlara Türkçe ayin sözlerle, seçkin kumaşlarla dokumuş elbiseler giydirdiğini ifade eder. «Gerçekten de Nevai Türkçenin geleceği için ömrünü adanmış ona büyük hizmetlerde bulunmuş belki de en önemli kişidir. Türkçeye karşı duyduğu derin sevgi, bu dille yazdığı eserlerin etkisi ve Türkçeye yaptığı büyük katkılarla Çağatay Türkçesi yüzyıllarca onun adıyla, «Nevai dili» diye anılmıştır.

SONUÇ

Türk dili tarihinde, «Nevai dönemi» olarak adlandırılan Çağatay Türkçesinin klasik devri, Ali Şir Nevai'nin öncülüğünde, Türkçeye oldukça önemli katkılarda bulunmuştur. Yabancı bir dilin edebiyat dili olarak kabul edildiği bir devir ve çevrede millî duygu ve şuurla ortaya atılıp Türk dilini savunan, onun Farsçadan üstün olduğunu ispat eden Nevai, adeta yeni bir edebî dil kurmuş ve Türkçeye büyük bir hizmette bulunmuştur. Nevai'nin bu dönemde Türkçeye kazandırdığı *Muhâkemetü'l- Lûgateyn* bu mücadelenin vücut bulmuş bir ifadesidir. Ali Şir Nevai döneminin Türkçeye katkılarında bir diğeri ise Nevai'nin Türkçe olarak yazdığı «Hamse»si olmuştur. Türk edebiyatında bir ilk olan bu durum, Türkçede adeta çığır açmış ve Türk dilinin gelişmesinde önemli bir rol üstlenmiştir. *Mecalisü'n-nefais* eseri ile ilk Türkçe şairler tezkiresini meydana getiren Ali Şir Nevai, Türkçe tezkire yazma konusunda kendisinden sonraki nesli etkilemiş özellikle Anadolu'da meydana gelen tezkirelere modellik etmiştir. Ali Şir Nevai millî nazım şekillerini ve millî edebî türleri ustalıklı kullanarak hem çağdaşlarına bu konuda öncülük etmiş hem de Türk edebiyatının gelişmesine katkıda bulunmuştur. Nevai döneminde Türkçe, klasik bir şiir ve nesir dili haline getirilmiştir. Ali Şir Nevai'nin aruzla ilgili ilk teorik eser olan *Mizânü'l-evzân'ı* yazmış olması da bu dönemde gerçekleşen ve Türk dilini geliştiren gelişmelerden biridir.

Nevai döneminin Türkçeye en büyük katkısına gelecek olursak; bu dönem, ana dili benimsemiş ve millî ruh bilinciyle, millî bir edebiyat oluşturmanın temellerini yeniden atmış ve Türkçenin bugünkü gelişme seyrine önemli katkılarda bulunmuştur. Nevai dönemiyle birlikte Türkçe temeli sağlam bir edebî dile kavuşmuştur.

Son olarak Türk dil tarihinde Nevai döneminin Türkçeye olan katkılarını maddeleştirerek verecek olursak, bunlar:

▼ N. N İlminskiy, *Vstupitel'noye çteniyeye u kurs turecko-tatarskogo yazıkı*, Kazan, 1862, s. 36.

- 1) Dönemin hakim dili Farsçaya karşı *Muhâkemetü'l- Lûgateyn* ile Türkçenin üstünlüğünün ispatlanması.
- 2) İlk Türkçe Hamsenin yazılması gibi önemli bir gelişmenin boy göstermesi.
- 3) İlk Türkçe şairler tezkiresi ve aruzla ilgili ilk teorik eserin yazılması.
- 4) Millî nazım şekilleri ve millî edebî türlerin kullanılarak millî edebiyatın gelişmesine katkı sağlanması.
- 5) Türkçenin klasik bir şiir ve nesir dili haline getirilmesi.
- 6) Sonraki nesillerinde bu dönemin etkisinde kalarak Türklük bilinci ve ana dil sevgisi kazanması.

KAYNAKÇA:

- BOROVKOV, A. K. (1954), «Özbek Yazı Dilinin Kurucusu Ali Şir Nevai», Çev. Rasime Uygun, *TDAY. Belleten*, s. 63.
- CAFEROĞLU, Ahmet (1948), «Çağatay Türkçesi ve Nevai», *Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi*, Sayı: 3-4, İstanbul, s. 148.
- CAFEROĞLU, Ahmet, «Nevai'nin Türk Dilli Hamsesi», *Türk Dili*, c. XV, Sayı: 173, s. 298-299.
- CANIM, Rıdvan (2002), «Türk Kültür ve Edebiyatında Ali Şir Nevayî ve Türkiye'de Ali Şir Nevayî Çalışmaları», *A. Ü Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, sayı:19, Erzurum, s. 138.
- DİZDAROĞLU, Hikmet, «Nevayî'de Dil Bilinci», *Türk Dili*, c. XV, Sayı: 173, s. 293.
- ERASLAN, Kemal, «XV. Yüzyıl Çağatay Edebiyatı», *Büyük Türk Klasikleri*, Cilt 3, s. 108.
- İLMİNSKİY, N. N (1862), *Vstupitel'noye çteniyе u kurs turecko-tatarskogo yazıka*, Kazan, s. 36.
- İSEN, Mustafa (2001), «Türk Biyografi Geleneğinde Ali Şir Nevai'nin Yeri», *Ali Şir Nevai'nin 560. Doğum, 500. Ölüm Yılı Dönümlerini Anma Toplantısı Bildirileri*, Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, s. 28-29.
- KORKMAZ, Zeynep (2004), «Ali Şir Nevayî ve Çağatay Yazı Dili», *Ali Şir Nevayî nin 560. Doğum, 500. Ölüm Yılı Dönümlerini Anma Toplantısı Bildirileri*: 24 - 25 Eylül 2001, TDK Yay., Ankara, s. 68.
- KUT, Günay, «Ali Şir Nevâî», *TDV İslâm Ansiklopedisi*, cilt:2, s. 450.
- LEVEND, Agah Sırrı (1965), *Ali Şir Nevai*, 1. cilt, Türk Dil Kurumu Yayınları, s. 192-193.
- LEVEND, Agah Sırrı (1966), «Ali Şir Nevai», *Türk Dili*, Cilt 4, sayı: 173, s. 286-287.
- ÖZÖNDER, Sema Barutçu (1996), *Muhakemetü'l-Lûgateyn İki Dilin Mukayesesi*, TDK. Yay., Ankara, s. 15.
- YAMAN, Ertuğrul, «Ali Şir Nevayî'de Dil Bilinci», *Ali Şir Nevayî 560. D., 500. Ö. Yılı dönümlerini Anma Toplantısı Bildirileri*, TDK Yayınları, sayfa: 153.



ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДА ЭРКАЛАШ ВА МУРОЖААТ ШАКЛЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

(МАҲМУД КОШҒАРИЙНИНГ «ДЕВОНУ
ЛУҒОТИТ ТУРК» АСАРИ МИСОЛИДА)

Дустмуродов Маъруфжон*
Узоқова Моҳияхон*

Аннотация

Ушбу мақолада туркий халқлар орасида қадимдан кенг қўлланилиб келувчи эркалаш ва мурожаат шакллари (Маҳмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит турк» асари мисолида) нинг тарихий шакллари ва бугунги кундаги сақланиш ҳолатини ёритишга ҳаракат қилинган.

Таянч сўзлар: Маҳмуд Кошғарий, «Девону луғотит турк», мурожаат шакллари, эркалаш-кичрайтириш шакллари.

Annotation

This article deals with the history and the current state of preservation of the ancient forms of dating and reference (the case of Mahmud Koshgari «Devon lug'oti-t-turk»), which is widely used in the Turkic peoples.

Key words: Mahmud Koshgari, «Devon Lug'at-t-turk», reference forms, molding and duplication.

Туркий халқларда, шу жумладан, ўзбекларда ўзаро мулоқотда ҳушмуомала бўлишга, нутқий этикет қоидаларига риоя қилишга катта эътибор қаратилади. Хусусан, қариндош-уруғ, ёт киши, ўзидан улуғ ёки тенгдош ва ҳаттоки кичикларга ҳам ўзига хос эътиборли муносабатда бўлиш халқимиз эътирофида яхши фазилат ҳисобланади. Бу ҳолат нафақат ҳозирги жонли сўзлашув тилимизда, балки тарихий ёзма манбаларда ҳам ўз ифодасига эга. Агар Маҳмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит турк» асарига мурожаат қилсак, бунинг қўплаб мисолларини топишимиз мумкин. Ушбу тақдқиқотимизда «Девон»да ўрин олган мурожаат ва эркалаш шакллари ҳамда уларнинг ўзбек тилида сақланиш даражасига тўхталиб ўтамиз.

«Девон»да муаллиф ёзади: «*Siz (siz)* – катталарни ҳурматлаш учун «сен» маъносида айтиладиган сўз (чигилча). Аслида, бунинг маъноси «*сизлар*» демакдир. Кичикларга *sen* дейилади. Ўғузлар бунинг тескарисини қўллайдилар» [Кошғарий, 2017: 365]; «*Senlädi (senladi)* ol anı *senlädi* – у уни сенлади (*senlär, senlämäk*). Бу (сўз) *cen* демакдир. Улуғлаш (ҳурматлашни) англатиш учун *sizlädi* дейилади. Бу *siz* демакдир. Бу хоқонлар билан сўзлашилганда қўлланиладиган сўз ўрнида келади»

* Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети Лингвистика йўналиши 1-курс магистранти, maruf_dust@mail.ru

* Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети Ўзбек филологияси факультети 1-курс талабаси, mohiyaxon@mail.ru

[Кошғарий, 2017: 424]; «*Sizlätim (sizlattim)* – сизлатдим, сизлашга буюрдим, *men anı sizlätim* – мен унга уни улуғлаб, сизлашга буюрдим» [Махмуд Кошғарий, 2017: 317].

Бу ҳолат, яъни ʒурожаат шаклларидаги ўзига хосликлар Махмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит турк» асарида яққол кўзга ташланади. Жумладан, ушбу бирликлар турли: хурмат, эркалаш, кичрайтириш маъносида қўлланилган.

1) *Egüč (egach)* — ўзининг ортиқ зийраклиги билан одамларга худди ўз синглисидек туюлувчи ёш қиз; бу сўз ёш қизларни севиш, эркалаш учун қўлланилади [Махмуд Кошғарий, 2017: 35]. Бу сўз ЎТИЛда эса аёлларнинг ўзаро мурожаатида қўлланувчи шакл сифатида изоҳланади: *Эгачи 1*. Бир ота-онадан туғилган қизлардан каттаси (кичигига нисбатан; тарихан ва баъзи шеваларда ўғил укага нисбатан ҳам қўллаган). 2. Аёл кишининг ўзидан катта ёшдаги (шунингдек, хурмат юзасидан кичик ёшдаги) аёлга мурожаат шакли. *Ҳалима уни тугишган эгачисидай иссиқ қабул қилди*. (Ж. Абдуллахонов, «Гулчехра») [ЎТИЛ, V: 19].

Egüč (egach) сўзи «Девон»да изоҳланган куйидаги сўзга *č (-ч)* эркалаш маъносидаги суффикс қўшиб шакланган: *Egä (ega)* – эгачи, опа. Ўғузлар *ezä* дейдилар [Махмуд Кошғарий, 2017: 49]. Кўриш мумкинки, эски туркий тил ва ундан қадимги даврда *-жон, -ча(м)* умуман, эркалаш-кичрайтириш маъносини *č (-ч)* суффикси ифодалаган ва бу аффикс фаол бўлган. Жумладан, куйидаги сўзлар бунга далил: *Ulič (ulich)* – болаларни севиб, эркалаб айтилган сўз; *Uličim* – ўғилчам, қароғим (қарлуқча) [Махмуд Кошғарий, 2017: 35]. Ўғил сўзининг айнаи даврдаги ўзбек шеваларида *ул* шакли ҳам мавжуд: *ул (чўзик у) шв. айн. ўғил. Бежой билдим, тўрам, Ёдгор улингни, Аймоқнинг юртига талаб қилибди*. («Ёдгор») [ЎТИЛ, V: 27].

Anač (anach) — она қиз, яъни ўзининг зийраклиги билан ҳамманинг онасидек бўлиб қолган ёш қиз. Бу сўз қизларни эркалаш учун айтилади [Махмуд Кошғарий, 2017: 35]. Шунингдек, ҳозирги даврда умумий равишда ўғил ёки қизларни эркалаш маъносида «*чирағим*» ёки «*чирақ*» ҳам дейилади: *чирағим* || *чирақ* (кипчоқ) чироғим (ўғил ёки қизларни эркалаш маъносидаги мурожаат) «светик мой, голубчик мой (ласкательное обращение к детям)» [ЎХШЛ, 1971: 385].

ЎТИЛда ушбу сўзга талаффуз жиҳатдан яқин «ОНАЖОН» сўзи мавжуд, аммо бу сўзнинг изоҳи «Девон»дагидан бироз фарқлидир: *онажон* эркл. Онаси ёки кекса аёлни севиб, эркалатиб, уни жуда яқин олиб мурожаат этиш шакли. *Элмурод, кампирнинг самимий муомаласини кўриб: – Саломат бўлинг, онажон! – деди*. (П. Турсун. «Ўқитувчи») [ЎТИЛ, III: 126].

Энди *Anač (anach)* сўзининг морфем таркибига эътибор берсак. Биз ушбу *č (-ч)* эркалаш-кичрайтириш суффиксини «Ўзбек тилининг изоҳли луғати»даги сўзлар таркибида ҳам кўришимиз мумкин. Масалан, бекнинг

ва умуман ҳукмдорларнинг, боёнларининг хотини ёки қизини англаган «бекач» сўзининг иккинчи маъносида ушбу суффикс (ё (-ч))нинг биз таҳлилга олган маъноси тўла юзага чиққан: 2. Эск. хотин-қизларга ҳурмат билан мурожаат қилишда ишлатиладиган сўз. *Оҳ, кўрсанг эди куёвни!* Қандай чиройли, ақлли эканини билардинг, бекачим. (А. Қодирий, Ўткан кунлар) [ЎТИЛ, I: 215]. Шунингдек, ЎТИЛга кўра «онанинг ёки отанинг онаси; бувини англатадиган «биби» сўздан шаклланган *бибиш* сўзи эътиборли.

Бибиш 1. эск. ҳукмронлар, зодагонлар наслига мансуб бўлган аёлларга мурожаат ёки ҳурмат билдириш шакли. – *Эй бибишим, мени десангиз, Чамбилга борманг.. – деди Оққиз Зулфизарга.* (Зулфизар билан Авазхон). 2. Ҳурмат юзасидан хотин-қизлар исмига қўшиб ишлатилади. *Адолат бибиш, Холнисо бибиш.* Бу ўринда ушбу сўз таркибидаги *-ш* суффикси бевосита ё (-ч) суффикси ифодалаган маънодадир. Бизнингча, *-ш* шакл ё (-ч) морфнинг фонетик ўзгаришга учраган кўринишидир, яъни *-ш* ва ё (-ч) бир морфнинг турли алломорфларидир. Лекин кўриш мумкинки, бу икки шакл сўзларда тенг ҳолатда ишлатилган. Бу суффиксларни шевага оид сўзларда ҳам кўриш мумкин. Масалан, *тш* (Тошкент) опа (ҳурмат маъносида) «сестра (почтительное обращение)» (ЎХШЛ, 1971: 332);

Дегеч (Бухоро) 2. Бир-бирига яқин, таниш хотинларнинг ўзаро мурожаатида қўлланадиган сўз «слово, употребляющееся при обращении близко знакомых женщин друг с другом» [ЎХШЛ, 1971: 339].

2) **Еёä (echa)** – ача, яъни «егачи» маъносида. Бу сўз *egä* ҳам дейилади. Бу ердаги ём ҳарфи *käf* дан ўзгарган [Маҳмуд Кошғарий, 2017: 48]. **Egälädi (egaladi)** – егачи деб атади, *ol anī egälädi* – у уни егачи деб атади (*egälär, egälämäk*) Маҳмуд Кошғарий, 2017: 128].

Бу шакл ЎТИЛда қуйидагича изоҳланади: **ача** шв 1. Буви. *Охири она қизига насиҳат этди: – Исфарага бориб ачамни кўриб келаман, деб отангдан рухсат ол.* (Ёшлик) [ЎТИЛ, I: 121].

«Девон»даги **ёёä (echa)** сўзи айнан ушбу асарда изоҳланган **ачä (ачи)** (кекса хотин барсғанликлар тилида [Маҳмуд Кошғарий, 2017: 48]) лексемасининг тарихий тараққиёт давомида **ёёä (echa)** шаклига ва бу сўз (echa)нинг айни даврда **ача** шаклига ўзгарган кўриниши бўлиши мумкин. Яъни ушбу лексемалар даставвал турдош от сифатида, кейинчалик мурожаат бирлиги вазифасида ишлатилаган. Аниқроғи, тилнинг тарихий тараққиёти давомида бир сўзнинг турли вариантлари сифатидаги муомалада фойдаланилган.

Шунингдек, ушбу сўзни **эчä (ача)** шаклида шеваларда ҳам кузатиш мумкин: **ача** (Наманган-Шўрқўрғон) \ \ **эчä** (Наманган, Уйчи, Чортоқ, Олмос, Поп, Чимкент) **ачä, ача** (Жанубий Тожикистон – қарлук, Тошкент

вилоятининг Сижжак, Ўратепа, Нов кишлоқлари) – ёши улғайган аёлларга хурмат билан мурожаат қилиш – «обращение к пожилым женщинам» [ЎХШЛ, 1971: 328]. Каттақўрғон, Хатирчи туманларида эса *эйча* шакли ҳам мавжуд. Бу ерда ушбу сўз ака ёки амакининг рафикасига нисбатан қайнисингил ва қайниукалар томонидан ишлатилади.

«Девон»да *еёа* (*echa*) нинг *егё* шаклини ҳам кўрдик. Бу вариант (*егё*)нинг *-чи* суффикси орқали шаклланган кўринишини шеваларда учратиш мумкин. Масалан: *эгэчи* (Урганч, Хива, Ҳазорасп, Хонқа, Янгиариқ, Шовот, Тўртқўл) || *экэжи* (Иқон, Қарноқ) || *экэчи* (Туркистон) || *экэчъ* || *экэчи* (Чимкент, Сузоқ, Жалолобод, Андижон). 1. Эгачи, опа. 2. Хола. 3. Тутинган опа. 4. Ўрта ёшдаги аёлларнинг ўзидан каттароқ аёлларга мурожаати – «обращение женщине к старшим (по возрасту) женщинам» [ЎХШЛ, 1971: 329]. ЎХШЛдаги *ача* ва *эгэчга* берилган таърифлардан ҳам кузатиш мумкинки, дастлаб жинс ва қариндошликни билдирган лексемалар кейинчалик мурожаат шаклига айланган.

3) *Атақі* (*ataqi*) — «отагинам, отажоним» маъносидаги меҳрибонликни билдирувчи сўз [Маҳмуд Кошғарий, 2017: 68]. Ушбу сўз *ата* сўзига яқинлик, суйиш маъносини англатувчи *-қі* (*-qi*) кўшимчаси кўшиб шаклланган. Бу ҳақда Кошғарий шундай дейди: *-қі* (*-qi*) – яқинлик, қариндошлик маъносида исмлар охирига кўшилиб, севги ва хайрихоҳлик маъносини англатувчи кўшимча; *атақі* – *otaginam*; *анақі* – *onaginam* каби [Маҳмуд Кошғарий, 2017: 397]. ЎТИЛда изоҳланган *ота* сўзининг хурмат маъноси ҳам қайд қилинади: *ота 1 1*. Фарзандли, бола-чақали эр киши (ўз болаларига нисбатан). 2. Ёши катта кишиларга мурожаат қилишда ёки уларни хурматлашда ишлатилади. *Оталар сўзи* — *ақлнинг кўзи* (мақол).

(Шунингдек, *тузақ* (*tuzaq*) — киши ўз севиклисига суйиб айтадиган сўзи. Бу сўзнинг *уа* (*ü*) билан *тузақі* тарзидаги талаффузи ҳам бор [Маҳмуд Кошғарий, 2017: 153].

ЎХШЛда «ота» сўзи қуйидаги маъноларда келтирилади: *амал* || *ота* (Қипчоқ, Ўғуз) || *ата* || *отат* || *эта* || *ўта* (Қорлуқ). 1. Ота. 2. Бобо. 3. Катта ёшдаги эрларга хурмат билан мурожаат қилиш – «отец, папаша — вежливое обращение к пожилым мужчинам» [ЎХШ, 1971: 328]. Шунингдек, асосан қарлуқларда катта ёшдаги эрларга хурмат билан мурожаат қилиш маъносидаги *этэжэн* || *этэжэн* сўзи ҳам қайд қилинади [ЎХШ, 1971: 362]. Ушбу сўзнинг адабий тилда ҳамда шеваларда «*дада*» деган кўриниши мавжуд: *дада* (Қорабулоқ) || *да:да* (Қорноқ) || *дэдэ* (Бухоро, Поп, Шахрисабз, Сузоқ, Нов, Апт, Ўратепа, Хўжанд, Исфара) || *дэдэ* (Тошкент) || *дэдэ* (Китоб) || *дэдэ*, *дьдэ* (Наманган, Уйчи, Тўрақўрғон, Караскон) 4. Дадаси (Болали хотиннинг эрига мурожаати) –

«отец — обращение супруги, имеющей детей, к мужу») [ЎХШ, 1971: 339].

Шунингдек, асарда қизларга мурожаат маъносидаги *tal* сўзи ҳам тилга олинади: (*tal*) – ҳўл новда. Кишини ҳам юмшоқликда толга ўхшатиб, *tal bodluғ* дейдилар. Бу сўз кўпинча нозик ва хушқомат канизакларга қўлланади [Маҳмуд Қошғарий, 2017: 376].

Хулоса шуки, туркий халқлар учун ўзаро ҳурмат, суйиб сўзлаш қадимданок яқдил тушунчалардир. Кўриш мумкинки, тилимизининг дастлабки тарихий тараққиёти давомида қариндошлик лексемаларига кўшилиб эркалаш, кичрайтиш, ҳурмат маъносини ифодалайдиган махсус кўшимча шакллар ушбу тилда мавжуд бўлган. Шунингдек, аввал мурожаат бирликлари бўлган лексемалар кейинги даврларда қариндошлик аҳамиятини касб этган.

Фойдаланилган адабиётлар:

- Маҳмуд Қошғарий, Девону лугатит турк. Нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1963.
- Маҳмуд Қошғарий, Девону лугатит турк. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. –Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1963.
- Ўзбек тилининг изоҳли лугати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- Ўзбек халқ шевалари. Маъсул муҳарир, Ш.Абдурахманов. –Т.: Фан, 1971.



«DEVONIY FONIY»DAGI «GIRYA» SO‘ZINING TOJIK SHEVALARIDAGI KO‘RINISHI

Najmiddnova Dildorabegim*

Annatotsiya

Ushbu maqolada «giryа» so‘zining shevadagi ko‘rinishlari va ularning o‘ziga xosligi yoritib berilgan. Bu so‘z fors-tojik tilida mansub bo‘lganligi uchun, fors tiliga xos adabiyot namunalari va tojikcha shevalar o‘rganildi.

Tayanch so‘zlar: sheva, giryа, giryanda, giryon, giryonchiq, mumtoz adabiyot, topmadka, bolalar qo‘shig‘i.

Аннотация

В данной статье объясняются виды слова «Giryа» в диалекте и его своеобразие. Так как слова «giryа» относится к персидско-таджикским языкам, изучается особенные образцы персидской литературы и таджикские диалекты.

Ключевые слова: диалект, «giryа», «giryanda», «giryon», «giryonchiq», классическая литература, загадка, детские песни.

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakultetining 2-kurs talabasi, najmiddinova1996@mail.ru

Shevalar — tilning fonetik, grammatik va lug'aviy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan eng kichik hududiy ko'rinishi/ U sezilarli lisoniy tafovutlari bo'lmagan, bir yoki bir nechta aholi maskanida yashovchilarning so'zlashuv vositasi sifatida qo'llaniladi. Aynan bir so'zning turli xil ko'rinishi shevalarda uchraydi, ya'ni biz so'zning bizga no'malum sifatlarini shevada ko'ramiz.

Biz mumtoz adabiyotimizda qo'llanilgan so'zlarni o'rganar ekanmiz, ularning sheva ko'rinishlariga ham alohida nazar solishimiz kerak. Chunki, biz bilmagan so'zlarning boshqa ko'rinishlari aynan shevada uchrashi mumkin. Shevada qadimiylik va tarixiylik qisman bo'lsa ham mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham biz bilmagan so'z va leksemalar shevada qo'llaniladi.

Biz quyida «Devoni Foni» asarida qo'llaniluvchi «giry» (گریه) so'zining sheva ko'rinishlari xususida fikr yuritishga harakat qilamiz.

«Giry» (گریه) so'zi fors-tojik tilidan olingan bo'lib, «yig'i», «fig'on» degan ma'nolarni bildiradi. Bu so'z Navoiy asarlarida ham xuddi shu ma'noda kelgan:

Man nago'yam, ki az on **giry** kunand ahli dilon,
Ki agar ahli dile xanda kunad bas budam.

(«Devoni Foni»)

Bu so'zning oldidan fe'l turkumiga oid so'zni qo'llasangiz, tojikcha qo'shma fe'l paydo bo'ladi گریه کردن - (giry kardan – yig'lamoq). Bu aynan Buxoro, Jizzax, Farg'ona va Samarqand tojik shevalarida uchraydi.

Bachcha omadagesh boza gerya kardashas. // Bola kelganidan beri yig'laydi.

(Buxoro tumani, Jondor qishishlog'i. Turdiyev Aziz)

«Giry» so'zi shevada «giryon» گریان tarzida ham qo'llaniladi. Uning ma'nosi «qalbi yoshga to'ldi» degan ma'noni bildiradi. Bu asosan Buxoroning shahar, Farg'onaning Sug'd tojik qishloqlari, Samarqand shahri tojiklari shevasida uchraydi.

Dardata famida **giryon** shudam.

Dardingni eshitib qalbm yoshga to'ldi.

(Buxoro shahri, Fayziyev Jasur)

Qizig'i shundaki, bu so'z mumtoz adabiyotimizda ham uchraydi va Navoiy bu so'zni xuddi shu ma'noda qo'llaydi:

Kemadin har dam chiqib rangin su ko'zum qonidek,

Anda yor andoqki mardum diydayi **giryon** aro.

(Alisher Navoiy)

«Giry» so'zining yana bir shakli asosan Samarqand va Buxoro shahrida «giryonchiq» گریونچیق (yig'loqi) degan ma'noni bildiradi. Bu variant asosan sifat turkumiga oid bo'lib, ko'p yig'laydigan bolalarga nisbatan qo'llaniladi.

Agar mul girya kuni, tuya giryonchiq mugun. // (Agar ko'p yig'lasang, seni yig'loqi bola deydilar).

(Samarqand shahri, Saratepa tumani)

«Giryonchiq» so'zi tojik shevasidagi o'yinqaroq baytlar, topmachalarda ham uchraydi:

Quyon-quyon bozi mekunem,
Kalon-kalon meshavaem.
Gerya nakun **giryonchiq**,
Dikon-dikon meshavem.

(G'ijduvon tumani, To'rayev Homid)

Baytni bolalar og'zidan eshitar ekansiz, buni asosan ular to'planishib, aylanib aytishadi.

Yoki bu so'zning «girya» گریندا varianti ham mavjud bo'lib, bu ham mumtoz adabiyotda, ham shevada keng qo'llaniladi. Mumtoz adabiyotda, asosan qit'a va ruboiylarda uchraydi. «Girya» ham oshiqqa xos holat, ham insoniy fazilatlarga xos xislatlarni aks ettirish uchun qo'llaniladi.

Masalan:

Har vaqt naguy yo Rab ato kun,
Har ruzata dida ayyom kun.
Nakun dili siyo joyma-joy,
Girya meshavi, to'tiyo kun.

(F. Gurgoniy)

Gurgoniyning bu ruboiysini fors tilidan, tojik shevasida taqdim etarkanman, bundagi «girya» گریندا so'zi insoniy fazilatni anglatib, inson nolib, har kuni yig'lab yurmasligi kerak. Oллоh bergan kunni ayyom qilishi, ya'ni shukur qilishga o'rganishi lozimligi aytib o'tilgan. Shevadagi ma'nolari ham shunga yaqin desam adashmayman. Tojik shevalarida «girya» noliydigan insonga yoki ko'p yig'laydigan insonlar va bolalarga nisbatan aytiladi.

A zuri dardasha guftana, **girya** shut. Kay nabini hamin. // Dardini aytishdan yuragi ezilib ketdi. Qachon ko'rsang shu ahvol.

(Buxoro shahri, Qilicheva Nasiba)

Yoki:

Bachem girya nashav, baribir guftageta namekunam. // Bolam, yig'lashing foydasiz, baribir aytganingni qilmayman.

(Buxoro shahri, Mirxonova Zebi)

Yana bir tomoni shundaki, «girya» so'zi har bir shevada fonetik jihatdan har xil aytiladi. Masalan, Samarqand tojklari «giya» deb, Buxoro tojik shevalari «ge:ra» deb talaffuz qilsa, Jizzax va Farg'ona tojklari «gi:rya» deb talaffuz qiladi.

Masalan: Ge:ra nakardanba harakat mekunam. (Buxoro shahri) / Har zamon giy:ra nakun. (Samarqand shahri)

Har bir so'zning shevadagi rang-barangligi uning sermazmunligini yanada orttiradi. Tojik shevalarining so'zlari qadimgi til shevalari bo'lib, asosan mumtoz adabiyot bilan bog'liqligi uning ko'zga ko'rinmas tomonlarini o'rganishga da'vat etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Alisher Navoiy. Devoni Foniyy. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.
- Овчинникова. И. К., Русско-персидский словарь. –Тегеран, 1996.
- Рубинчик. Персидский-русский словарь. –Москва: Русский язык. 1983.
- Ashirboyev. S., O'zbek dialektologiyasi. –T.: Navro'z, 2016.
- Alisher Navoiy. Badoye ul-bidoya devoni. III-devon.
- www.wikipedia.com
- www.nazmiforsiy.com
- Moin. «فرحنگ ذنبی فرسی» –Eron. 1988.



O'ZBEK TILIDAGI TAQLID SO'ZLAR VA ULARNING TARIXIY ILDIZLARI

Normurodova Gulzoda*

Annatsiya

O'zbek adabiy tili va shevalarida taqlid so'zlar ko'plab saqlangan bo'lib, ularning katta bir qismi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida uchraydi. Ushbu maqolada «Devon»da o'rin olgan ayrim taqlid so'zlarning o'zbek tilida saqlanish holatiga to'xtalib o'tiladi.

Tayanch so'zlar: qadimgi turkiy til, o'zbek adabiy tili, sheva, taqlid so'zlar.

Annotation

Words of imitation are still being widely used in modern Uzbek literary language and regional dialects while the vast majority of these words are found in «Devonu lug'atit turk» written by Mahmud Koshgariy. This article, tries to shed light and analyse their usage contemporary Uzbek language.

Key words: ancient turkic language, Uzbek literary language, dialect, words of imitation.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanishida qadimgi turkiy til davri muhim ro'l o'ynaydi. Ma'lumki, tilimizning asosiy qismini omonimlar, sinonimlar, ko'p ma'noli so'zlar, antonimlar, juft so'zlar, takror so'zlar, taqlid

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek-ingliz tarjima fakultetining 1-kurs talabasi, gulzoda_normurodova@mail.ru

soʻzlar, undov soʻzlar va hokazolar tashkil etib, ularning ildizi qadim davrlarga borib taqaladi. Xususan, tilimizdagi taqlid soʻzlar qadimgi turkiy tilga oid asarlarda uchrab, ularning sezilarli bir qismi bugungi kungacha yetib kelgan. Jumladan, Mahmud Koshgʻariy oʻzining «Devonu lugʻatit turk» asarida koʻplab taqlid soʻzlar keltirgan boʻlib, ularning katta qismi bugungi turkiy tillarda u yoki bu darajada saqlanib qolgan. Biz ushbu maqolamizda «Devon»da uchraydigan ayrim taqlid soʻzlarning oʻzbek tilida saqlanish holatiga toʻxtalib oʻtamiz.

Taqlid soʻzlarning kelib chiqishi quyidagicha izohlanadi: «Tabiatda insondan tashqari juda koʻplab tirik jonzodlar yashaydi. Ularda ham oʻziga xos nutq apparati mavjud. Mana shu nutq apparati yordamida ular turli-tuman ovoz chiqaradilar. Narsalar harakati natijasida har tovushlar hosil boʻladi. Inson oʻz faoliyati davomida mana shu ovoz va tovushlarga taqlid qilishga urinadi». Tilshunoslikda bunday ovoz va tovushlar «taqlid soʻzlar» atamasi bilan yuritiladi.

Taqlid soʻzlar ikkiga boʻlinadi: 1) tovushga oid taqlid soʻzlar: *taraq-taraq, gumbur-gumbur, shov-shuv, div-div*; 2) obrazga yoki holatga oid taqlid soʻzlar: *lip-lip, jimir-jimir, yalt-yult, dik-dik* ([https:// referat. arxiv.uz](https://referat.arxiv.uz) – 18-iyul, 2014).

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, «Devon»dagi taqlidiy soʻzlarning katta bir qismi bugungi kunda koʻpgina turkiy tillarda, xususan, oʻzbekchada muayyan darajada uchraydi. Faqat bu soʻzlarning bir qismi fonetik jihatdan biroq oʻzgarishga uchragan, yaʼni maʼlum tovushlar jaranglashgan yoki aksincha, portlovchi tovushlar sirgʻaluvchilarga almashgan, ayrim soʻzlarning esa maʼnosi ozgina oʻzgargan holatida saqlanib qolgan. Bunday soʻzlarga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

1. «**Taqir-taqir**» — Mahmud Koshgʻariy bu soʻzga shu tariqa izoh beradi: «*Otning oyogʻi taqir-taqir ovoz chiqardi. Bu maʼnoda tiqir-tiqir qilib yurdi deb ham qoʻllaydilar*» (Devonu lugʻatit turk. I: 344). Bizningcha, bu soʻzni oʻzbek adabiy tilida va shevalarida uchraydigan «dikir-dikir» va «taqir-tuqur» soʻzlari bilan bogʻlash mumkin.

Dikir-dikir ot keldi,
Chiqib qarang, kim keldi?

(Bolalar sheʼridan parcha)

Shu oʻrinda oʻzbekchadagi «taqir-tuqur» soʻzining idish-tovoqlar yigʻishtirilayotganda chiqadigan tovushiga nisbatan ishlatilishini aytib oʻtish kerak.

2. «**Qars-qars**» — qoʻl urish, chapak chalishdan chiqqan tovush. «*U qoʻllari bilan qars-qars chapak chaldi*» (Devonu lugʻatit turk. I: 333). Qars — qarsak, chapak, qars urmoq. «...*Kishilar qars urib turadilar va meni*

■ *Talabalarining III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil
masxaralagandek qiyqirib, og'iz-burunlarini qiyshaytirishadi» (Abdulla Qodiriy, Jinlar bazmi, 252). «...*Uning nutqi barchaga ma'qul bo'ldi shekilli, zalda o'tirganlarning barchasi qo'llari bilan «qars-qars» chapak chalishdi*» kabi.

3. «**Chars-chars**» — bu so'z «chars-chars» hamda «qars-qars» holda tilimizda saqlanib qolgan. «...*Tarnovdan tushayotgan yomg'ir suvi shamolda deraza oynalariga chars-chars urilyapti.*» (R. Azizxo'jayev, Yashil chayla). Qars — narsalarning bir-biriga qattiq urilishidan, sinishidan va shunga o'xshash narsalardan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi. «*Rais ko'k «Volga»ga o'tirib, eshikni qars berkitdi-da, «ketskik» dedi.*» (E. Rahim, Hayot amri bilan). «...*Qishning sovuq kunlaridan birida Feruza «qars-qars» sindirib pechkaga o'tin soldi-da, tezda uyga kirib ketdi. Biroz o'tib o'tinning «chars-chars» yongani eshitildi*» kabi.

4. «**Zab-zab**» — yurishda oyoq harakatining tezligidan chiqadigan tovush, «ship-ship» degan so'zdir. «*Zab-zab barg'il*» («Ship-ship, shipillab tez borgin») (Devonu lug'atit turk, I: 300.) Bu so'z aynan «zab-zab» holatida tilimizda saqlanmagan. Biroq «ship-ship» yengil qadam tashlab yurgan yoki qog'oz ishqalanganda hosil bo'ladigan kuchsiz uzuq tovushni bildiradi. «...*Qo'qqisdan «ship» etgan bir narsa uni to'xtatdi.*» (Fitrat, Dovdirash). «...*Hayol surib o'tirsam, «ship-ship» etgan tovush mening diqqatimni tortdi*» kabi.

5. «**Chab-chab**» — qamchi urilganda chiqadigan ovoz va labning shipillagan tovushi. Shap-shap, chap-chap deyilgan taqlidiy so'z. «*Ol eruk chap-chap yedi*» / («U shaftolini shap-shap qilib edi») (Devonu lug'atit turk, I: 306). Ma'lumki, xalqimiz orasida «Ovqatni chappillatib yema, uyat bo'ladi» degan tanbehni tez-tez eshitamiz. Bundan tashqari, bu so'zda «ch» portlovchisining «sh» sirg'aluvchisiga almashishi va «b» jaranglisining «p» jarangsizga almashishi holda tilimizda saqlanib qolgan. «Shap» — 1) Bir dona olma uzilib, «shap» etib suvga tushdi. 2) To'satdan, birdan, qattiq. «...*Mutal uni to'xtatmoqchi bo'lib, etagidan shap ushlagandi, ko'ylagi yoqasigacha yirtilib ketdi.*» (Odil Yoqubov, «Larza») kabi.

6. «**Qur-qur**» — «qorin qur-qur etdi, qorin qurilladi (gumburladi)». (Devonu lug'atit turk, I: 448). «Qur — baqa, turna kabilarning sayrashiga o'xshash tovushni bildiradi», «...turnalarning mayin qur-qurlari osmon gumbazida ajib aks-sado beradi» (Yoshlik: 379). Bu so'z hozirda ikki ma'noda ham saqlanib qolgan. «*Ertalabdan beri tuz totmaganligim sababli qornim qurillashdan to'xtamayapti*», «*Kuz oqshomlarida, sovuq tusha boshlaganda, osmonda uchib ketayotgan turnalarning qur-qur ovozi eshitdim*» kabi.

7. «**Qo'rt-qo'rt**» — otning yem yeganda chiqadigan ovozi. «Ot arpani qo'rt-qo'rt yedi. Shuningdek odam bodring kabi narsalarni qattiq chaynab yeganda chiqadigan ovozga ham bu so'z qo'llanadi» (Devonu lug'atit turk. I: 329). Bu so'z bugungi kunda «kars-kars» shaklida tilimizda saqlanib qolgan. «...Akbar akam palakdan bordingni uzib oldida, «kars-kars» qilib yedi» kabi.

8. «**Badar-badar**» — «badar-badar, patir-putir chopdi. Chopganda patir-putir oyoq tovushlari eshitildi» (Devonu lug'atit turk. I: 341). Patir-putur — tez, keskin harakat va undan hosil bo'ladigan tovush. Xo'rozlarning patir-puturi. Patir-putur otishma. «...Kunlardan bir kun qosh qorayganda... kaptarxona ichida birdan to's-to'polon, patir-putur bo'lib qoldi» (Mirmuxsin, Chiniqish). Ushbu so'zning hozirgi «badar-badar» ko'rinishi uchramaydi. Ammo «patir-putir» ko'rinishi tilimizda bor.

9. «**Shar-shar**» — qattiq yomg'ir yog'ish tovushi. Har bir suyuq narsaning oqish tovushi ham shu so'z bilan ifodalanadi. Bu so'zda «sh» harfi «j» bilan almashgan» (Devonu lug'atit turk. I: 313). Shar — suyuqlikning shiddat bilan oqishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi. «...U qozonga bir paqir suvni shar etib qo'shib yubordi», «...Yarim tunda yomg'irning sharrillab yog'ishidan uyg'onib ketdim» kabi.

Xullas, «Devonu lug'atit turk»ning taqlid so'zlardan ayrimlariga o'rganib chiqib, ularni o'zbek tiliga va shevalariga uchraydigan taqlidiy so'zlar bilan solishtirganimizda quyidagicha holatlar ko'zga tashlanadi:

- «Devon»da uchraydigan bunday so'zlarning deyarli 90% tilimizda saqlanib qolgan (qars-qars, chars-chars, va h. k.);
- «Devon»dagi taqlidiy so'zlarning katta qismi o'zbek tilida aynan yoki qisman o'zgarishda uchragan (zab-zab / ship-ship va h. k.);
- Ayrim taqlidiy so'zlar bugungi kunda ma'no yoki fonetik jihatdan o'zgargan holatda saqlangan (chab-chab / shap-shap, badar-badar / patir-putir, qo'rt-qo'rt / kars-kars).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Махмуд Кошгарий, Девону луғотит-турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталибов. 3 томлик. —Тошкент, 1960—1963.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. —Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006.
- Ўзбек халқ шевалари луғати. Масъул муҳаррир Ш. Шоабдурахмонов. —Т.: Фан, 1971.
- <https://referat.arxiv.uz> — 18-iyul, 2014



PARKENT TUMANI SHEVASI BO'YICHA FRAZEOLOGIK LUG'ATDA YO'Q FRAZALAR HAQIDA

Qurbonaliyeva Robiya *

Annotatsiya

Ushbu maqolada dialektal frazeologizmlar to'g'risida fikr yuritilgan. Parkent tumani shevasi ham alohida o'zbek shevalaridan biri hisoblanadi. Har bir iboraning transkripsiyasi, dialektal ma'nolari birma-bir ko'rsatib o'tilgan va mulohazalarini asoslash uchun havolalarga ham e'tibor berilgan.

Tayanch so'zlar: dialektal frazeologizm, frazeologizmlar lug'ati, transkripsiya, dialektal ma'no.

Anotation

In the article peculiarities of dialectal phrasemes were pointed out and clarified. The dialect of Parkent district is also considered to be a separate dialect with great importance. Transcription, dialectal meanings of every phraseme belonging to the above mentioned district's dialect were given and demonstrated with examples.

Key words: dialectal phrases, dictionary articles of phrase, transcription, dialectal meaning.

O'zbek tili tilshunosligi sohasida juda katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Lug'at boyligida ham, imlosida ham, so'z ma'nolarida ham yangicha qirralar kashf qilindi. Shu jumladan, frazeologizmlar va ularning matndagi o'rni keng tadqiq etildi. Hozirgi kunga kelib xalq tili o'zining imkoniyatlari bilan beqiyos kuchga ega ekanligini isbotlamoqda.

Tilshunoslikda iboralarning leksik-semantik xususiyati, grammatik vazifasi va ma'nolari o'rganilayotgan bo'lsa, dialektalogiyada ularning hudud nuqtayi nazaridan o'zgarib turishi tadqiq qilinadi. Frazeologiya tushunchasini dastlab fransuz tilshunosi Sh. Balli fanga kiritdi.

O'zbek tilshunosligida ham frazeologiya bo'yicha Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova, I. Qo'chqortoyev, A. Rafiyev, B. Yo'ldoshevlar ish olib borishgan. Frazeologiyaning asosiy vazifasi — nutqning tasirchanligini oshirish va sayqal berishdan iborat. Ammo ba'zi shevalarimizda ishlatiladigan iboralar adabiy til me'yorlaridagi so'zlardan birmuncha yiroqlashgan.

Masalan, quyidagi gapdagi iborada shunday mavhumlik bor:

«Sevinch hamma ishni g'arra qilib qo'ygandek, nuqul maqtanar edi».

G'arra leksemasi izohli lug'atlarda «g'arra-sharra» ko'rinishida sharta ma'nosida ishlatilishi ko'rsatilgan (O'zbek tilining izohli lug'ati, 5-

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi, q.robaiya@ru

jild: 438). Lekin bu gapdagi so'zning ma'nosi *qoyil qilgandek* ma'nosini ifodalagan. **G'arra qilib qo'ygandek** iborasi Toshkent viloyati Parkent tumani shevasida *qoyil qilgandek, uddasidan chiqqandek, yaxshi bajargandek* ma'nolarini beradi.

Parkent tumani dialektining lug'at boyligida barqaror so'z birikmalaridan iborat frazeologik iboralar ham ko'p. Ularning asosiy qismi umumxalq o'zbek tili lug'atlarida mavjud.

Masalan, Parkent shevasida *boshi osmonga yetdi, ko'ngli ko'tarildi, tarvuzi qo'ltig'idan tushdi* kabi frazalar ishlatiladi va ular xalq ongiga singib ulgurgan, ammo shunday iboralar mavjudki, ular faqatgina o'sha hudud doirasidagina ishlatiladi, ya'ni Parkent tumani shevasigagina xosdir. Jumladan, «Tutun chiqqan joydan qolmaydi» iborasini oladigan bo'lsak, uning ma'nosi *to'y, yig'in, bazm bo'ladigan joydan qolmaydigan, shinavanda* ma'nosida ishlatiladi. To'g'ri, ba'zi viloyat va tumanlarda ushbu ibora «is chiqqan joydan qolmaydi» ko'rinishida ishlatilganini eshitganmiz, lekin aynan frazeologizmlar lug'atida bunday holatga duch kelmadik.

Iboralardagi so'zlarning ishlatilishi bevosita o'sha hudud sharoiti, urf-odatlarini, ayniqsa, shevasi bilan bog'liq hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, «O'zbek tilining izohli lug'ati» bilan bog'liqdir.

Parkent tumani shevasida yana shunga o'xshash iboralardan keltiradigan bo'lsak, «Xamiri achimagan» iborasi ham o'sha hudud shart-sharoitidan kelib chiqib, qo'llanishiga guvoh bo'lamiz. **Xamir** so'zi aholi turmush sharoitida ko'p ishlatiladigan, ko'p tursa achib qoladigan qorishma (O'zbek tilining izohli lug'ati, 5-jild: 382) sifatida qaraladi.

Demak, iboralar ham tashqi muhitning tasirida yuzaga keladi. Bu iboraning ma'nosi esa, *bemalol, doim kech qolib yuradigan, shaltoq* insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ba'zi hududlarda bu iboraning «Ayrini achimagan» ko'rinishi (sinonimi) ishlatiladi. Ma'nosi ham deyarli bir xil.

O'zbek xalqi mehnatkash xalq, ayniqsa, tog'li hududlarda istiqomat qiladigan aholi ishdan qochmaydigan *tovonidan o't chaqnaydigan* insonlar sirasiga kiradi. «Tovonidan o't chaqnaydigan» iborasi Parkent tumani qishloqlarida aholi tilida ko'p ishlatiladi. Yuqoridagi gapdan ma'lumki, tovonidan o't chaqnaydi frazasi *chaqqon, epchil, tez ish qiladigan insonlarga* nisbatan ishlatiladi. **Tovon** so'zi oyoqqa nisbatan olingan va harakatga ishora qilyapti. Bu kabi iboralarni ko'p keltirish mumkin.

Taniqli o'zbek tilshunosi Sh. Rahmatullayevning asosiy ilmiy ishlari jumlasiga «O'zbek tili frazeologizmlari tadqiqi» kitobi kiradi. Ushbu izlanishga adabiy so'zlashuvga xos bo'lgan iboralar kiritilgan, ammo yuqorida keltirib o'tilgan frazalarni bu kitobda kuzatmadik. Ba'zi hududlarda quyidagicha iboralarni deyarli uchratmaymiz: «*Burning qonayapti*».

Bu jumlaning Parkent tumani shevasida ko'zing tegadi, sekinroq qara, ko'p tikilma ma'nolarida ishlatilganligiga guvoh bo'lganmiz. Ma'nosi esa ko'zi o'tkir insonga nisbatan chalg'itish ma'nosini beradi.

Bu iborada boshqalariga qaraganda alohida xususiyat mavjud, ya'ni yuqorida keltirib o'tilgan iboralarda ma'no anglatuvchi so'z va fraza o'rtasida ma'no aloqadorligi qisman saqlangan, ammo «Burning qonayapti» iborasida so'z bilan uning ma'nosi o'rtasida bu aloqa uzilgan. Bu hodisa tilshunoslikda frazemalarning semantik munosabati deb yuritiladi.

Demak, iboralardagi so'zlarning ma'nosi har doim ham ibora ma'nosi bilan mos kelavermas ekan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, iboralar qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar tilimizning boyib borishiga xizmat qiladi. Iboralar xalq tilida ishlatilar ekan, uning ma'nolari, ko'rinishlari ham o'zgarib, kengayib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Tuzuvchi mualliflar jamoasi, O'zbek tilining izohli lug'ati, 5-jild. –Toshkent.
- Rahmatullayev Sh., O'zbek tilining frazeologik lug'ati, 1992.
- Rahmatullyev Sh., Hozirgi o'zbek adabiy tili, 2006.



-li SUFFIKSINING ETIMOLOGIYASI

Raupov Mexroj*

Annotasiya

Affikslarning kelib chiqishi so'zlarning taraqqiyot yo'li bilan bog'liq: bu fikr bir qancha tillarning materiallarini, tarixini tekshirish asosida kelib chiqqan. Affikslarning tarixini, hayot yo'lini o'rganish, ularning aktiv-passivligini, unumli-unumsizligini, mahsuldor-mahsulsizligini yana aniqlashtirishga, shuningdek, so'z yasash usullarining va vositalarining turli davrlarda tutgan o'rni, o'zaro munosabati kabi hodisalarni oydinlashtirishda ham o'rni bor.

Maqolada -li suffiksi haqida bir necha olimlarning fikrlari ko'rib chiqilgan, qaysi davrlarda, qo'shimchaning qanday ma'nolarda qo'llanganligi ochib berilgan, -li affiksining -lik suffiksidan rivojlanganligi aniqlangan.

Tayanch so'zlar: -li suffiksi, -lik affiksi, O'rxun-Enasoy bitiklari, etimologiya.

Annotation

The origin of affix depends on development of the words. This idea derived from analyzing the noterial and history of several languages.

Learning the history of affix, the way of life reveals its active-passivity, its productivity and the disclosure of events and the relationships of word making methods and tools at different times.

* Guliston davlat universiteti Filologiya fakultetining O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-kurs talabasi, mehrojraupov1994@mail.ru

In this article, the views of several scientists were observed about -li suffix and in which periods it was used. Also it was revealed the supplement what meaning of used. It was identified that -li suffix was come from -lik. Affix.

Key words: -li suffix, -lik affix, etymology, Urkhun Enasoy inscriptions.

Tabiiy va ijtimoiy hodisalar borki, ular qaysidir yo'llar bilan paydo bo'ladi. Fan hodisalari ham bundan mustasno emas. O'zak morfemalarning paydo bo'lishi aniq — ular so'zlardan paydo bo'ladi. Morfemalarning vujudga kelish yo'llari so'zlarnikiga qaraganda ko'p va rang-barangdir:

a) mustaqil ma'noli so'zlardan -dir bog'lama *turur (durur)* fe'lining qo'shimchaga aylangan shakli;

b) qoshimchani o'zidan rivojlanadi -niki qarashlilik shakli qaratqich kelishigi -ning affiksiga sifat yasovchi -ki suffiksining qo'shilishidan paydo bo'lgan: -ning>ning+ki>ningki>niki.

Shu o'rinda biz ham -li affiksini qay shaklda paydo bo'lganligi masalasiga qisqacha fikr bildirmoqchimiz.

Affix* so'zning o'zagiga tirkaluvchi unsurdir. Affiks atamasi lotin tilidagi «birikkan», «tirkalgan» ma'nosidagi «**affixus**» so'zidan olingan.

-li (-lu allomorfi) morfemasi quyidagi vazifalarni bajaradi: sifat yasovchi, toponim yasovchi, ba'zi manbalarda bog'lovchi (takror qo'llanganda. Masalan, *Azrilmaqliq turur menli-senli (men va sen)*) morfemaning kelib chiqishi haqida ko'plab tilshunoslar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bizning ham bu mavzuda kechikroq izlanishlarimiz bor.

Shu o'rinda O. Madrahimovning «O'zbek tilida sifatlar va yangi sifatlarning yasashiga doir» maqolasi alohida o'rin tutadi. Maqolada yangi yasalgan sifatning qator grammatik va semantik xususiyatlari juda ishonchli tahlil qilingan. Lekin maqoladagi ayrim fikrlar munozarali bo'lib, o'zbek tili faktlariga mos kelmaydiganga o'xshaydi. Masalan, muallif yozadi: «...qadimgi turk yozma yodgorliklarida va eski o'zbek tilida -li affiksi uchramaydi. Uning vazifasini -lik (-lig, -lis, -lug, -luk) affiksi bajargan

«O'zbek tilining tarixiy grammatikasi»da esa -li morfemasi bilan yasalgan sifatlar qadimgi turkiy manbalarda, shu jumladan, O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy til yodgorliklarida uchramasligini, bu vazifani -lik suffiksi bajarganligi qayd etilgan, -li affiksi esa -lik suffiksidan rivojlangan deyiladi. Biz bu morfemaning qay shaklda shakllanganligiga aniqlik kiritish maqsadida -li suffiksining til taraqqiyotining har bir davrida qay yo'sinda qo'llanganligiga e'tibor qaratmoqchimiz. Qadimgi turkiy til

* Biz affiks morfema atamasini qo'llamadiq. O'zak morfema terminini tilshunosligimizda qo'llashga hojat yo'q. Negaki, morfema termini faqat qo'shimchaga nisbatan qo'llanadi. O'zak morfema o'rni, lug'aviy asos atamasini qo'llagan ma'qul.

■ *Talabalarning III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil davriga e'tibor bersak, *-li* affiksining o'rnida ham *-lik* morfemasi ishlatilgan:

Bu Turuk bodunqa yarag'liq yag'ig' kelturmadi, to'gunliq atig' yo'gurtmadim. // Bu turk xalqiga qurolli dushmanni keltirmadim, yalovli otni yugurtirmadim.

(«Tunyuquq» bitiktoshi)

Bu misolda *-lik* affiksining *-liq* fonetik variant *-li* suffiksining vazifasini bajarib kelgan, ya'ni sifat yasagan.

Eski turkiy adabiy tili. *-lik* suffiksi bilan birga (sifat so'z turkumi vazifasida) *-li* morfemasi ham barobar qo'llana boshlangan:

Tarig'chi turur, ko'r taqi bir qutu, // Tag'i bir toifasi dehqonlardir, Keraklik kishilar turur bu butu. // Bular mutlaqo kerakli kishilardir.

(Yusuf Xos Hojib, «Qutadg'u bilig»)

Bilikli kishi bilur ish o'zin. // Bilimli kishi ilmni farqlaydi.

(«Hibbat ul-haqoyiq»)

Eski o'zbek adabiy tili davrida sifat ma'nosida *-li* affiksi *-lik* qo'shimchasining o'rnini deyarli egallaydi:

«Ey shoh, Eshiking, tuprog'i – davlatli dargoh.

(Xorazmiy, «Muhabbatnoma»)

Yuqorida keltirilgan misollar, bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib shunday xulosa qilsa bo'ladiki, **-li** suffiksining vazifasini qadimgi turkiy adabiy tili davrida **-lik** affiksi bajargan, eski turkiy adabiy tili davrida **-lik** qo'shimchasidan shakllana boshlagan.

Eski o'zbek va hozirgi o'zbek adabiy tili davrlarida esa *-li* suffiksining qo'llanilish doirasi ancha faollashgach, **-lik** affiksining vazifasi chegaralanib, faqat ot yasashda ishtirok etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Hojjiyev A., O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari, –T.: Fan, 2010.
- Berdialiyev A., Hozirgi o'zbek adabiy tili, –Xo'jand, 2015.
- Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q., O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.
- Rahmatullayeva O., XI-XIV asrlarda sifat so'z turkumi. –Samarqand, 2011.
- Xo'jayev T., Mullajonova H., Yangi yasalgan sifatlar tahliliga tanqidiy obzor. O'zbek tili grammatik qurilishi, leksikologiyasi va dialektologiyasi masalalari –Samarqand, 1976.
- Madrahamov O., O'zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir O'zFA axboroti, ijtimoiy fanlar seriyasi. –Toshkent, 1957.

- Raupov M., -li suffiksimi yoki -lik?, Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuv. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Guliston, 2018.
- Raupov M., -li va -lik affikslari xususidagi keyingi tadqiqotlar. Ilmiy munozara: muammo, yechim va yutuq. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Toshkent, 2018.
- Ma'rufov Z., So'z sostavi. Ot va sifat. –Toshkent: O'zbekiston SSR FA nashriyoti, 1956.
- Sapayev Q., Hozirgi o'zbek tili. –Toshkent, 2009.
- Nurmonov A., O'zbek tilshunosligi tarixi». –Toshkent, 2002.
- Tojiyev Y., O'zbek tilidagi ergash morfemalarning semantik-stilistik xususiyatlari. –Toshkent, 2012.
- Enazarov T., Turkiy soda toponimlarning etimologik tadqiqi. –Toshkent: Universitet, 2002.
- Karimova L., O'zbek tilida toponimlarning o'rganilishi, –Toshkent, 1982.
- O'zbek tili grammatikasi, I tom. –Toshkent, 1975.
- G'ulomov A.N., Tixonov R., Qo'ng'urov, O'zbek tili morfem lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1977.
- Mengliyev B., Bahriddinova B., O'zbek tilining so'z tarkibi lug'ati. –Toshkent, 2006.
- Fozilov E., O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi. –Toshkent: O'zbekiston SSR FA nashriyoti, 1956.



TURKIY TILLI MANBALARDAGI BA'ZI MAQOLLAR TADQIQIGA DOIR

(MAHMUD KOSHG'ARIYNING «DEVONU LUG'OTIT TURK» ASARI MISOLIDA)

Tolibjonova Maftuna*

Annotatsiya

Xalqning dono fikrlarini ixcham shaklda ifodalovchi asarlar maqollardir. Bejizga yuqoridagi fikrlarni keltirib o'tmadik. Ushbu maqolada turkiy tilshunoslikning bizga ma'lum bo'lgan ilk yirik yodgorligi – Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida qo'llanilgan ayrim maqollarning bugungi kundagi talqinda ishlatilish holatini o'zaro taqqoslab berishga harakat qildik.

Tayanch so'zlar: tilshunoslik, yodgorlik, grammatika, turkiy til, xalq og'zaki ijodi.

Annotation

Articles representing the wisdom of the people in a compact manner are the proverbs. In this article, we tried to compare the present usage of some of the articles used in the

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakultetining 1-kurs talabasi, maftuna-tib@.ru

■ *Talabalarning III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil translation of Mahmud Koshgariy's first book, the first of which we know of Turkic linguistics, in the present interpretation.

Key words: Linguistics, Memorial, Grammar, Turkish Language, Folklore.

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida turkiy til leksikasi, morfologiyasi, grammatikasi keng tahlil qilingan. Shuningdek, asarda xalq og'zaki ijodi na'munalari – maqollar ham keng o'rin olgan. O'z navbatida ushbu maqollar ayni davrda ham keng ishlatilmoqda. Avvalo, «maqol» so'zi o'zbek tilida «maqol», forsiyda «zarbulmasal», arabchada «naql», turklarda «ataso'zi» atamasi bilan yuritiladi. Jumladan,

1. Alp yoğida, alçaq čoғida. Ma'nosi: «Botir yov bilan to'qnashganda (olishganda), yuvosh (olchoq) tirishishda sinaladi». «Alp» (botir), «olchoq» (qo'rtoq) ma'nosida qo'llangan. Bu maqolning hozirgi kundagi varianti:

*Botir singan yigitni yov kelganda ko'ramiz,
Chechan singan yigitni dov kelganda ko'ramiz.*

2. Ermägükä büilt yuk bo'lur. Ma'nosi: «Yalqovga eshik ostonasi ham tog' tepasidek ko'rinadi». Hozirgi kunda «Ishyoqmas o'roqchi o'roq tanlar» qabilida ishlatiladi. Ya'ni dangasa odamga biror yumush buyurilsa, oddiy ostonani tog' ro'kach qilishi aytiladi. Ushbu maqol ozarbayjon og'zaki ijodida «Alçaq yerdə təpəcik özün dağ sanar» ko'rinishida uchraydi.

3. Kişi alası içtin, yılqi alası taşın. Ma'nosi: «Kishining olasi (buzuq fikri) ichida, yilqiniki tashida (sirtida)».

Hozirgi kundagi varianti: «Odamning olasi ichida bo'ladi», «Tili boshqa, dili boshqa» Bu yerda «yilqi so'zi siz va bizga to'g'ridan to'g'ri tushuniladigan ot va otlar to'dasiga nisbatan emas, tuyoqli uy hayvonlariga nisbatan ishlatilgan. Bu maqol dilidagi xiyonatni yashirib, yoqimli muomala qiluvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

4. A:y tolun bolsa, eligin imlāmäs. Ma'nosi: «To'lin oyni qo'l bilan ko'rsatilmaydi». Bugungi kundagi shakli deb: «Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi». Ushbu maqolda hayotda shunday haqiqatlar borki, ularni inkor qilib bo'lmaydi. Chunki, ularning o'zi o'zgarmas haqiqatdir. Zero, haqiqat egiladi, bukiladi sinmaydi.

5. Esändä ewak yoq. Ma'nosi: «Sog'likda shoshilish yo'q». Hozirgi kundagi holati: «Xamir qormasdan buyon tandirga o'tyoqma».

Bu maqolda «Sog'lik» – shoshma-shosharlik bilan ishyuritmaslik, ya'ni birishni boshini tutishdan oldin har tomonlama o'ylab, puxta reja asosida amalga oshirilishi kerakligi uqtirilgan. Shunday ekan, «Puxta qilingan ish – boshga keltirmas tashvish».

6. Emgäk ekindä qalmas. Ma'nosi: «Mehnat bo'sh ketmaydi». Bugungi varianti: «Mehnat yerda qolmas, oltin yo'lda qolmas». Bu maqolda inson o'z

■ *Talabalarning III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil maqsadiga erishish uchun mehnat qilsagina erishishi, qachonki qunt qilsa, niyati amalga oshishi aytiladi. Ana shundagina mehnat bo'sh ketmagan bo'ladi.

7. Quş qanatin, er atin. Ma'nosi: «Qush qanoti bilan, er oti bilan». Hozirgi shakli: «Daraxt po'sti bilan, odam do'sti bilan». Ya'niki, hech bir narsa o'zining ko'makdoshisiz hayotda hech qanday kuchga ega bo'lmaydi. Ya'ni uning yuksalishida qo'shimcha madad zarur ekanligi ta'kidlangan. Yuqorida keltirilgan maqolga aynan shakldosh sifatida qardosh xalqimiz orasida «Quş qanadi ilə, adam adi ilə» shaklida foydalaniladi.

8. Tirik esän bolsa tañ, öküš körür. Ma'nosi: «Kishi eson bo'lsa, qiziq narsalarni ko'p ko'radi». Uning bugungi kundagi muvofiq'i: «Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi». Bu maqolda inson ortiqcha g'avg'olardan o'zini holi tutishi, yo'qotilgan narsaga achinmaslik haqidagi qarash yotibdi.

9. Umä kelsä qut kelur. Ma'nosi: «Mehmon kelsa, qut kelar». Ya'ni uyingga mehmon kelsa, u bilan birga qut-baraka, rizq keladi. O'zbek xalqi juda mehmondo'st xalqdir. Xonadoniga kim kelsa, shirin noni bo'lmasa ham shirin so'zini beradi. Bu holatga isbot tariqasida «Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan» maqolini ko'rsatishimiz mumkin.

10. Erigirini yağlıg, ermägü basi qanlig. Ma'nosi: «Tirishqoqning labi yog'li, erinchoqning boshi qonli». Erig (tirishqoq, g'ayratli ma'nosida kelgan). Hozirgi kunda:

Bog' boqsang — bog' bo'lur,

Botmon daxsar yog' bo'lur.

Boqimsiz bog' tog' bo'lur,

Yurak-bag'ring dog' bo'lur.

«Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar» shaklida qo'llaniladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, maqollar — bu o'zgartirib bo'lmas hayotiy haqiqatlar. Chunki, ular hayotiy tajriba-ko'nikmalar asosida paydo bo'ladi. Quvonarli jihati shundaki, olim devonida ayrim so'zlarning izohi sifatida maqollardan foydalangan. Shu xususda maqollar orqali bitiklarning etimologiyasini tahlil qilgan. Ularning talqini hozirgi davr muhitiga ozmuncha to'g'ri kelayotganini ko'rdik. Biz ushbu tezginda mana shu jihatni yoritib berishga harakat qildik. Zero, inson bor ekan hayotda o'z o'rnini topishga intilib yashaydi. Shunday ekan, tilshunoslik deb atalgan ulkan olamda hali yechib tugallanmagan jumboqlar talaygina, buning yechimini topish, albatta, biz yosh izlanuvchilarning qo'lida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'otit turk». Nashrga tayyorlovchi Q. Sodiqov. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2017.

- O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- Mirzayev T., –T.: Adabiyot va san'at. 1989, 512.



«HAYRAT UL-ABROR»DA ASTRONOMIK BIRLIKLARNING QO'LLANILISHI

Usmonova Iroda *

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonida qo'llangan astronomik birliklarning Navoiy tiliga xos jihatlari, xususiyatlarining nomlanishda aks etishi, astronomlarning badiiy asarda tutgan ahamiyati misollar asosida tadqiq qilingan.

Tayanch so'zlar: onomastika, fitonim, teonim, astronom, toponim.

Аннотация

В статье приведены особенности использования астрономических единиц измерения, их классификация, а также роль астрономов в литературных произведениях на примере произведения Алишера Навои «Хайрат ул-аброр».

Ключевые слова: ономастика, фитоним, теоним, астроном, топоним.

Onomastika — tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'lim, shuningdek, tildagi barcha atoqli otlar yig'indisi. Atoqli va turdosh otlar ma'nosini ifodalovchi ismlar ishlatilganligiga ikki ming yildan oshdi (Matviyev A. K., 2006). O'zbek tilining onomastik tizimi hajman ulkan mazmunga boy, serqirra hamda bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan lisoniy hodisadir. «Tilning leksik boyligi konkret lug'aviy birliklar (leksemalar)»dan iborat bo'lganidan, tilning onomastik fondini onomastik leksika doirasida mujassamlashtiruvchi konkret atoqli otlar tashkil etadi. Onomastik birlik deyilganda, aslida konkret atoqli ot ko'zda tutiladi, deb yozadi E. Begmatov (Begmatov E., Nafasov T., Karayev S., 1999).

Tilning onomastik fondidagi atoqli otlar o'zi atayotgan predmet yoki obyektning xususiyatiga ko'ra farqlanadi. Ular turli-tuman jonsiz predmetlarning nomi yoki insonlarning atoqli nomlari bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, atoqli otlar ham «sistemalarning sistemasi»dir (Antroponomika, 1970). Ya'ni uning o'zi alohida bir butun sistemani tashkil qilib, ayni zamonda bir necha sistemalarga bo'linadi: antroponimlar (kishi nomlari), toponimlar (joy nomlari), zoonimlar (hayvon nomlari), fitonimlar

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakultetining 3-kurs talabasi, usmonova_iroda@mail.ru

(o'simlik nomlari), teonimlar (diniy nomlar), astronomlar (osmon jismlari nomlari), dokumentonimlar (hujjat nomlari), xronimlar (tarixiy hodisa nomlari).

O'zbek onomastikasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. Nomshunoslikning muayyan sohalarini tadqiq etishga qaratilgan keng ko'lamlı bir qator monogarfiyalar, risolalar, izohli lug'atlar, ko'p sonli ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yaratildi. Aytish lozimki, bu ishlarning ko'pchiligida ismlar, qisman laqab va taxalluslar, mikrotoponim va makrotoponimlar, etnonimlar tadqiq qilingan. (Begmatov E., O'zbek ismlari imlosi. – Qomuslar bosh tahririyati, 1991; Joy nomlari — ma'naviyat ko'zguşi. –T.: Ma'naviyat, 1998; Oxunov N., Joy nomlari ta'biri. –Toshkent: O'zbekiston, 1994; Begmatov E., Ulug'ov N., O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. –Namangan, 2006.; Xudoyberganov R. Y., O'zbek antroponimiyasi tizimining variantdoshligi. –Toshkent, 2008; Uluqov N., O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. –Toshkent: Fan, 2008).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, realionimlar, mifonimlar, ekklezeonimlar, astronomlar (manbalarda *astroponimlar*, *kosmonimlar*) va shu kabi onomastik guruhlar kam tadqiq etilgan. Alisher Navoiy asarlarida ham onomastik birliklar ko'plab qo'llanilgan (Yoqubov Sh., 1994: 137). Jumladan, «Hayrat ul-abror» dostonida ham onomastik birliklar, xususan, astronomlar o'ziga xos tarzda qo'llangan. Shu o'rında aytib o'tish joizki, Navoiy osmon jismlari nomlarini qo'llashda ularning ma'nosiga alohida ahamiyat bergan. Osmon jismlarini ifodalovchi turdosh otlarni qo'llashda ham ularning bir tildagi, arab va fors tillaridagi variantlaridan unumli foydalangan. Birgina «Hayrat ul-abror»ning o'zida *osmon* ma'nosini ifodalovchi – *sipehr*, *ko'k*, *aflok*, *charx*, *toq*; quyosh ma'nosini ifodalovchi – *quyosh*, *mehr*, *shams*, *oftob*, *xurshid*; oy ma'nosini ifodalovchi – *oy*, *qamar*, *g'urra*, *hilol* (yangi oy), *mohcha* (yarim oy), *badr* (to'lin oy); yulduz ma'nosini ifodalovchi – *anjum*, *axtar*, *shihob*, *kavkab* so'zlar qo'llanishda bo'lgan.

«Hayrat ul-abror» asosan sayyora nomlari, yulduz nomlarini ifodalovchi astronomik atamalar ishlatilgan:

Nedur, agar **Hut** emas xanjari,

Qabzada gavhardin anga **Mushtari**.

Shoh Abulg'oziy Bahodirxonning xanjari baliqqa o'xshaydi. Baliqqa o'xshamasa, unda nimaga o'xsharkin? Dastasini gavhardan yasalgan Mushtariy ya'ni, Yupiter sayyorasi deyish mumkin. Teleskopdan kuzatilganda Yupiter sirtida ekvator bo'ylab qora belbog'lar ko'rinar ekan. Navoiy xanjar dastasining dumaloq shaklini Yupiterning ko'rinishiga qiyoslayapti. Bundan xulosa qilib, Navoiy zij ilmidan ham xabardor bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin. Aytish kerakki, Mahmud Koshg'ariy Mushtariyini **Qaraqush** deb

ataydi va «Bu tong vaqtida chiqadi. Ba'zan buni *Qaraqush* deb ham ataydilar», deya qayd etadi (Mahmud Koshg'ariy, III tom, 1960: 240).

*Turki falak chun anga gohi yetib,
Tebrata olmay nechakim zo'r etib.*

Falak turki, ya'ni Mirrix sayyorasi goho uni quvib yetsa ham, lekin qancha kuchanmasin, uni qimirlata olmaydi, unga zarracha ta'sir eta olmaydi. Mirrix — Mars jang-u jadal ramzi hisoblanadi. Jangda Abulg'oziyxon doim zafar quchadi. Navoiy Mirrixga nisbatan **Falakning turki** deya o'xshatish qo'llashiga esa ilmiy asos bor. Olimlar «Mars — Yerning egizagi», degan ta'rifni qo'llashadi. Sababi, Mars biologik hayot izlari ko'ringan quyosh sistemasidagi, Yerdan tashqari, yagona sayyoradir. Navoiy «U falakning turki, qondoshimizdir», deya yuqoridagi ma'lumotga ishora qilgan. Mo'g'ul xonlari qatorida turk xonlari ham Abulg'oziyga bo'ysungani, ular orasida ham urushlar bo'lgani, xonlar ustida xon bo'lganini ifodalagan bo'lishi ham mumkin.

*Tez etibon qatlig'a Bahrom tig',
Tortibon o'z holig'a har dam dorig'.*

Allohning mehri ham, qahri ham buyuk bo'ladi. Alloh qahri oldida *Bahrom*, ya'ni Mars sayyorasi o'ziga o'zi tig' tortib, yana o'z holiga o'zi yosh to'kishi mumkin. Allohning qudrati shu darajadaki, tasavvur qilish mushkul. [Mahmud Koshg'ariy Mirrixni **Baqirsoqum** ko'rinishida bergan (Mahmud Koshg'ariy, 1963: 342).

*Bo'ldi bu qalqon yuzida Kakhkashon,
Qini murassa' qilichidin nishon.*

Aylana osmon shoh uchun qalqon vazifasini o'tar ekan, bu qalqon yuzida kakhkashon — somon yo'lidek bezakdor narsa bo'lib, bu odil shoh qilichining qinidir. U Somon yo'li kabi bezalgan bo'lib, adolat uning bezagidir.

*Tiyr iligida ne qalam, ne raqam,
Balki raqam oyati «zaffal-qalam».*

Alloh yaratgan go'zal narsalarning go'zalligi o'zi uchun hech qanday foyda bermasligi haqida gapirar ekan, Navoiy **Tiyr** — Utorud, ya'ni Merkuriy qancha Quyoshga yaqin bo'lmasin, quyosh botmaguncha yoki u chiqmasidan oldingina ko'rinishiga ishora qiladi. Qo'lida qalam bo'lsa ham u yozolmaydi.

*O'ylaki Kayvon muhusatshior,
Kim yeridir gunbadi niliy hisor.
Nevchun erur Mushtari ondin quyi,
Qilmasa yaxshini yomondin quyi.*

Nega yomonlikni o'ziga shior qilgan **Kayvon** — Saturn (Zuhal) sayyorasi moviy qo'rg'on gumbazidan joy olgan. Yaxshilikka yo'llovchi Mushtariy esa

■ *Talabalarning III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil undan quyida? Bu dunyo yaxshini yomondan past ko'rishidir. Qadimgi davr odamlari e'tiqodiga ko'ra: Mushtariy — yaxshilik, Saturn — yomonlik ramzi bo'lgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ijodkor onomastik birliklar, xususan astronomlardan asarida qo'llashidan maqsad o'zi ifodalayotgan fikr-mulohazani o'quvchiga tushunarliroq yetkazish, astronomik birliklar xususiyatidan to'g'ri foydalangan holda ular ma'nosi ustiga muayyan fikriy yukni ortish, shu yuk barobarida manzilga sekin emas, yanada tezroq yetish imkoniyatiga erishishdir. Navoiy ham astronomik birliklar ma'nosi ustiga o'zi yangi ma'no, fikr ifodalagan holda kitobxonga shunday birlik ma'nosini ham, u vositasida ifodalanadigan yangi ma'noni ham to'lig'icha yetkazib bera olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati, I jild. E. I. Fozilov tahriri ostida. —T.: Fan, 1983, 654.
- Антропонимика. —М.: 1970.
- Берматов Э., Нафасов Т., Караев С., Ономастика Узбекистана. —Т., 1999.
- Hayrat ul-abror / Alisher Navoiy. To'plab nashrga tayyorlovchi: Aziz Qayumov. —T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2006, 392.
- Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk, I tom. —Toshkent, 1960-1963. 342.
- Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk, III tom. —Toshkent, 1963. 240.
- Матвиев А. К., Ономатология. —М.: Наука, 2006.
- Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at / Botirbek Hasanov. —T.: Fan, 1993. 373.



SHAHRISABZ SHEVASIDAGI BA'ZI DIALEKTAL SO'ZLAR

Vohidova Muxlisa*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Shahrisabz shevasi materiallari o'rganilish tarixiga e'tibor berilgan holda dialektal matnlar asosida sheva leksikasi tadqiq etilgan. Ayrim holatlarda ilmiy manbalar havola sifatida berilgan. Maqolaning dialektal matn asosida berilishi bugungi o'zbek dialektalogiyasining dolzarb masalalaridir. Unda bir qancha dialektal so'zlar sharhlangan.

Kalit so'zlar: sheva, shevalar guruhi, dialektal so'z, dialektal matn, dialektal matnning tahlili, Shahrisabz shevasi.

Annotation

The fact that the article is based on a dialectal text is one of the pressing issues of today's Uzbek dialectology. Several dialectal words have been interpreted there.

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakultetining 2-kurs talabasi, muxlisa@bk.ru

This article focuses on the dialectal texts of the regional accent lexicon, focusing on the history of the Shakhrisabz language study. In some cases, scientific sources are referenced.

Key words: group of dialects, dialectical words, dialectical text, regional accent of Shakhrisabz.

Qashqadaryo shevasi bo'yicha: 1950–1970-yillarda Bolta Jo'rayev (Shahrhisabz shevasi), A'zam Shermonov (Quyiy Qashqadaryo shevasi), To'ra Nafasov (Chiroqchi tumani, quyiy Qashqadaryo o'zbek shevalari lirikasi, «Qashqadaryo o'zbek shevalari lug'ati»), Kenja Usmonov (Quyiy Qashqadaryo o'zbek shevalari lirikasi (Quyiy Qashqadaryo shevasi misolida), Do'stmurod Abdurahmonov (Quyiy Qashqadaryo o'zbek shevalari lirikasi), Tolib Enazarov (Shahrhisabz tumani toponimlarining tarixiy-qiyosiy tadqiqi) kabi olimlar tadqiqot olib borishgan.

Dialektal so'z haqidagi turli fikrlar bor: Ayub G'ulomov va Shonazar Shoabdurahmonovlar «Sof dialektal so'z» ilmiy konsepsiyasi va Fattoh Abdullaev, Mustaqim Mirzaev, Ahmad Eshae, Tolib Enazarovlar ilgari surayotgan «Dialektal so'zlarning barcha turlari va ko'rinishlari lug'atlarga singdirish konsepsiyasi»ni ilgari surishgan. (Enazarov T., Abdullayev X., 2018: 3-11). Bu ilmiy-nazariy konsepsiyalardan, bizningcha, eng ma'quli «Barcha dialektal so'zlarning turlari va ko'rinishlarini olish va dialekt lug'atlarda berish» konsepsiyasidir. Mana shu holda tuzilajak «O'zbek xalq shevalari lug'ati» ning (ko'p tomli nashr) yaratilishiga imkoniyat va manbalar yetarli, deb bilamiz. Bunda sheva vakili qo'llaydigan barcha dialektal so'z turlari, shu jumladan, kishi ismlari va toponimlar ham dialektal so'zlar jumlasiga kiradi. (Enazarov T., va boshqalar, 2012: 40-49).

Quyida biz Shahrhisabz shahar shevasi materiallarini dialektal matn sifatida o'rgandik. Bunda shevaga xos dialektal matnlar va dialektal so'zlar beriladi. Dialektal so'zning alohida ko'rinishi esa qavs ichida yoziladi. Bizgacha qilingan bir qancha ishlarga faqat dialektal so'zlar berilgan. Ammo sheva so'zlarini dialektal matnlar asosida o'rganish ham ishonarli ham asosli bo'ladi.

Ushbu maqolada Shahrhisabz shevasi materiallarining dialektal matn sifatida o'rganilishini boshladik, deb aytishimiz mumkin. Kelajakda Shahrhisabz shevasining dialektal matnlari asosida maxsus ilmiy tadqiqot ishi qilish niyatimiz bor. Shuningdek, shevaga xos dialektal so'zlarning dialektal lug'atini tuzish ham rejamizda turibdi.

Biz quyidagi sheva vakillaridan sheva materiallarini suhbat asosida yozib oldik:

1. **Jumayeva Shoista.** Uy bekasi. 1967-yilda Kitob tumani, Saroy qishlog'ida tug'ilgan.

2. **Jumayeva Sojida.** Uy bekasi. 1961-yilda Shahrhisabz shahrida tug'ilgan. (Transkripsion belgilar o'zbek tili, kirill alifbosi asosida berildi.)

YANGAM HAQIDA AYTAYMI?

Mening yangam (**йәңәм** – kelinoyim) ajoyib ayol. U har qanday ishni chin dildan bajaradi. Mana, hozir ham u dalada... Boshida zaynovi (**зәйнәвь** – yashil), bika (**бәкә** – pushti rang /och qizil/) va qara (**қәрә** – qora rang) ranglar aralash kassingka, qo'lida grabl (**грәбл** – haskash /mehnat quroli/) olib ishlamoqda. Daladan bo'sh vaqtlarida u tikuvchilik bilan shug'ullanadi. U joynomoz (**жәйнәмәз** – joynomoz), lo'la (**ләлә** – bolish), qariyalar uchun jelaklar (**желәклә:** – yupqa ustki kiyim), quroq (**қурәк** – turli xil matolar parchalaridan tikiladigan gilamcha) dasixonlar (**дәсәхән** – dasturxon) tikadi. Butun oila a'zolari undan xursand, ayniqsa, kattam (**кәттәм** – buvim). Shu xotinni kelin qilganlaridan ko'ngillari to'q (**көнһ тәк** – xotirjam). Har doim yangamni (**йәңәм**) maqtab: **uvali-juvali bo'l** (**увәль-жувәль бәл** – uyli-joyli bo'l), qo'sha qaringlar (**қәшә қәрәлә:** – umrlaringni oxirigacha birga bo'linglar) kabi olqishlarni aytadilar.

Hammasidan ham zo'ri — yangam (**йәңәм**) shirin-shirin ovqatlar pishiradi. Ular tayyorlagan qatig'liosh (**қәтәғләш** – quyuq qatiqqa ugra solib pishiriladigan taom), ichiga boyimjon (**бәймәжән** – baqlajon, sabzavot turi) va karchishka (**қәрчишкә** – kartoshka, sabzavot turi) solib pishiriladigan kovob (**қәвәб** – qovurib, keyin dimlanadigan taom), cho'mich (**чәмьч** – oshxona buyumi) bilan kovlab turiladigan atala (**әтәлә** – unni yog'da qovurib tayyorlanadigan suyuq taom) arvoypirda (**әрвәйпәр** – marosim turi). Bu marosimni ko'pincha avtoulavi borlar o'tqazadi). Pishiriladigan halvoytar (**хәлвәйтәр**), shirvirich (**шәрвәрьч** – sirguruch, sutga guruch solib tayyorlaniladigan taom), kodipichak (**қәдпльчәк** – qovoq solib pishiriladigan somsa), g'ilvindi (**ғылвәндә** – ichiga sut va un aralashmali shirinroq atala solib tayyorlanadigan taom), yupqalarni (**йупқә** – somsaning bir turi, ichiga qaymoq solib pishiriladi) yemabsiz — bu dunyoga kelmabsiz! Biz bo'lalarimiz (**бәләлә:** – xolavachcha va amakivachcha) bilan yig'ilib tez-tez kattamnikiga (**кәттәм**) kelib turamiz. Yangamdan (**йәңәм**) ko'p narsalarni o'rganishga harakat qilamiz.

Xalqimizda «Qariganda ham tinch o'tirmaydi» degan gap ko'p ishlatiladi. Bu bejizga aytilmagan, albatta. Xolakattam (**хәләкәттәм** – otaning xolasi) ham shundaylar sirasiga kiradi. Qarib, bukchayib qolgan bo'lsalar ham yosh juvonlar (**жувәнлә:** – turmushga chiqqan ayol) singari serharakatlar. Buning isbotini jonli (**жәнль** – uy hayvonlari, asosantuyoqli hayvonlar nazarda tutilmoqda) boqishni kanda qilmasliklaridan (**қәндә қәлмәсләк** – to'xtatmaslik) ko'rishimiz mumkin. Ularning uyida juvana (**жувәнә** – ho'kiz), inak (**ьнәк** – sigir) bizov (**бәзов** – buzoq), takalar (**тәкә** – echki) judayam ko'p. Dadam va pochchom (**пәччә** – pochcha) jonlilarga (**жәнль**) juda qiziqishadi. Shuning

uchun tez-tez ularnikiga borib turishadi. Hovlilari ham anchagina katta bo'lib, jonzotlarga yemish bo'lsin deb yung'ichqa (**ЙУНГЪЧҚА** – beda, quritilgan beda o'simligi poyalari), jugori (**ЖУГЪРЪ** – makkajo'xori) ekib qo'yilgan.

Qorin ochqoganda (**ҚЪРЪН ОЧҚЪГЪНДЪ** – qorin och qolganda ma'nosida) «Nima ovqat qilamiz?», deb o'ylashning ham hojati yo'q, sut-chakki (**ЧЪКЪКЪ** – yog'i ajratib olingan quyuq qatiq, suzma) mo'l. Borsak, maza qilib yeb kelamiz. Shu bilan birgalikda uy ishlariga ham qarashib kelamiz. Buni ko'rgan xolakattam (**ХЪЛЪКЪТЪТЪМ**) xursand bo'lib, bizni alqaydilar: qadding terakday bo'lsin (**ҚЪДЪДЪ ТЪРЪКЪДЪЙЪ БЪЛЪСЪН** – beling g'amdan bukilmasin ma'nosida), uying bug'doyga to'lsin (**УЙЪНЪ БУГЪДЪЙЪГЪ ТЪЛЪСЪН** – risq-nasibang mo'l bo'lsin), suvday serob bo'l (**СУВЪДЪЙЪ СЪРЪОБЪ БЪЛЪ**), nasibang ulug' bo'lsin (**НЪСЪБЪЪНЪ УЛУГЪ БЪЛЪСЪН** – risq nasibang mo'l bo'lsin) kabi. Biz ham alqovlardan xursand bo'lib, ishimizga yanada shijoat qo'shamiz.

QARISI BOR UYNING PARISI BOR...

«Qarisi bor uyning parisi bor», degan naql qachon, kim birinchi bo'lib aytganini hech kim bilmaydi. Ammo hamma bu naqadar to'g'ri fikr ekanligini anglaydi. Nuroniy bobolarimiz, dona (**ДЪНА** – dono, donishmand) kattalarimiz (oilamizning yoshi katta vakillari nazarda tutilmoqda) barcha hovlidagi (**ХЪВЪЛЬ** – uy, oiladagi ma'nosida) turli mavzudagi turli nasihatlar bora-bora qiziqarli gurunglarga (**ГУРУНЪ** – suhbat) aylanadi. Oiladagi mehr-oqibat va hamjihatlikni yanada mustahkamlashda, kattalarga hurmat, kichiklarda izzat fazilatlarini o'rganishda qarilarning (**ҚЪРЪ** – qariya, yoshi ulug' kishi) o'rni katta.

Bobo va kattalarimiz (**КЪТЪТЪМЪ**) uyimizning fayzi hisoblanadi. Bobolarimizning ustlariga jelak (**ЖЪЛЪКЪ**) kiyib, kattalarimizning zaynovi (**ЗЪЙНЪВЪ**), bika (**БЪКЪ**), qara (**ҚЪРЪ**) kassinka (**КЪСЪНЪКЪ** – ro'mol) yopinib, tutaki (**ТУТЪКЪ** – ochiq ranglarga nisbatan) sinovoncha (**СЪНЪВЪНЪЧЪ** – paxta solib qavilgan kamzul) kiyib, chakkalariga nazvoylar (**НЪЗЪВЪЙ** – rayhon, o'simlik) taqib yurishlari bizga o'zgacha ko'tarinki kayfiyat uyg'otadi. Ayniqsa, ularning: «Uying bug'doyga to'lsin» (**УЙЪНЪ БУГЪДЪЙЪГЪ ТЪЛЪСЪН**), «Umrginangdan baraka top» (**УМРЪГЪНЪНДЪ: БЪРЪКЪ ТЪП** – hayotda qiyinchilik ko'rma ma'nosida), «Qadding terakday bo'sin» (**ҚЪДЪДЪ ТЪРЪЙЪДЪ: БЪЛЪСЪН**), «Uvali-juvali bo'l» (**УВЪЛЬ-ЖУВЪЛЬ БЪЛ** – bola-chaqali bo'l ma'nosida) kabi olqishlarini eshitganimizda qalbimizda ularga bo'lgan hurmat yana ham ortadi. Qarilarimizning (**ҚЪРЪ**) yana bir o'ziga xos xususiyati — har bir gurunglarida (**ГУРУНЪ**) maqollardan unumli foydalanishlaridir. Bu esa aytilgan fikrning ta'sir kuchini oshiradi. Masalan: «Ayg'ir qanday bo'lsa, ot shunday» (**ЪЙГЪРЪ КЪНДЪ: БЪЛЪСЪ, ОТЪ ШУНДЪ:**) «Bog'ing bo'lsa, qo'ra qil,

■ *Talabalarining III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil
O'g'ling bo'lsa, mulla qil» (БЭҒЫҢ БӨЛСӘ, ҚӘРӘ ҚЫЛ, ӘҒЛЫҢ БӨЛСӘ, МУЛЛА
ҚЫЛ), «Igna qayoqqa yursa, ip ham shu yoqqa yurar» (ҮҒНӘ КӘЙӘККӘ ЙҮРӘ,
ЫП ХӘМ ШУ ЙӘККӘ ЙҮРӘР)» kabi.

Bir so'z bilan aytganda, bobo va kattalarimiz — uyimizning farishtalari.
Ularni e'zozlaylik.

Xalq shevalari boy. Faqat dialektal so'zlarning dialektal matnlarga
asoslanib o'rganilishi ilm-fan talablariga mos keladi. Shuning uchun
shevalarimizning dialektal so'zligini dialektal matnlarga asoslanib saqlab qolish
lozim, deb bilamiz. Zero, Urxun-Enasoy yodgorliklari matn sifatida
saqlanganligi uchun bugun ham ilmiy qiymatga ega ekanligini hisobga olsak,
shevalarimizning dialektal manbalari hali ming-ming yillar o'rganiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- To 'ychiboyev B., O'zbek dialektologiyasi. —Toshkent, 2004.
- Abdullayev F., O'zbek tilining o'g'uz lahjasi. —Toshkent, 1978.
- Enazarov T. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. —T.: Universitet, 2012.
- Enazarov T., Abdullaev X., Dialektologik amaliyot so'roqligi. —Toshkent: Adabiyot
uchqunlari, 2018.



YAKKABOG' SHEVASIDA MAQOLLAR TAHLILI

Xayrullayeva Gulshoda*

Annotatsiya

Ushbu maqolada shevaning maqol va frazeologizmlari tahlilga tortilgan. Shu o'rinda
muallif maqollarni 4 ta guruhga ajratadi, ya'ni tasniflash yo'lidan boradi. Bu esa dialektal
maqollarni topishga, ularni izohlashga imkon beradi. Muallif o'rni bilan ilmiy adabiyotlarga
ham murojaat qilganki, beixtiyor maqollarning dialektologik tahlili shakllangan. Ushbu
maqola avvalgi ishlarning davomi sifatida shakllangan.

Tayanch so'zlar: dialekt, Yakkabog' shevasi, tasnif, dialektal maqol, dialektal ibora.

Annotation

This article analyzes the proverbs and frazeologies of the regional accent. In this case,
the author divides the article into four groups, chooses the way of classification. This allows
you to find and interpret the dialectal articles. She also addressed the scientific literature,
therefore analyzes of dialectal proverbs are formed by the way. This article is a continuation
of previous works.

Key words: dialect, Yakkabog regional accent, classification, dialectal word.

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakultetining 2-kurs talabasi,
leyli120898@inbox.ru

Shevalarimiz tadqiqi XX asrning 20-yillaridan boshlangan va bugungacha davom etib kelmoqda.

Tilimizni ham adabiy til, ham sheva, ham milliy til ma'nolarida tushunamiz. Adabiy tilning o'ziga xos taraqqiyot bosqichi borligi shubhasiz, ammo shevalarimiz, lahjalarimiz taraqqiyoti, rivojlanishi masalasi bahsli. Zero, mening shevam bo'lgan Yakkabog' shevasi haqida yuz yillik materiallarda hech narsa mavjud emas ekan. Bu, bir tomondan, shevani unutish hisoblanadi, ikkinchi tomondan, uni o'rganishga undaydi. Shuning uchun shevani dialektal matn asosida o'rganish maqsadga muvofiq, chunki unda davr, axborotchi va yozib oluvchi shaxs ma'lumotlari aniq ko'rsatiladi.

O'zbek tili turkiy tillar orasida eng qadimiy tillardan biri bo'lib, sheva va dialektlarga juda boy til. Har bir viloyat, har bir tuman, har bir qishloqning so'zlashuv uslubi o'zining shevaviy xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. O'zbek tilidagi shevalar va ularning xususiyatlari, tasnifi ustida V. V. Radlov, Ser Ali, B. M. Lapin, I. I. Yudaxin, Y. D. Polivanov, G'ozim Olim Yunusov, A. K. Borovkov, V. V. Reshetov, B. To'ychiboyev, B. Hasanov kabi olimlar ilmiy ish olib borishgan. O'rganilmagan sheva va dialektlarimiz hali bisyor. Ular xalq orasida yashab kelmoqda. Shevalarimizni o'zligimizni, qadriyatlarimizni namoyon qiluvchi o'lmas va tunganmas xazina desak mublag'a bo'lmaydi.

Maqollar bu — xalqning madaniyati, ma'rifati, madaniy saviyasi hamda qadriyatlarini o'zida birlashtirgan, jamlagan kichik hajmli matnlardir. Xuddi shu ma'noda dialektal matnlar ham doim e'tiborda bo'lgan. Masalan, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida ham bekorga maqollar berilmagan (Mahmud Koshg'ariy, 1961). Eskirgan maqollar ajdodlarimiz madaniyatini, madaniy qadriyatlarini bizga yetkazib kelgani tabiiy holdir.

Yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha sheva vakillarining so'zlashuvi bir-biridan go'zal va rang-barangdir. Shu jumladan, Qashqadaryo viloyati sheva vakillarining so'zlashuvi ham o'ziga xos. Qarshi shevasi qarluq lahjasiga kiradi (To'ychiboyev B., Hasanov B., 2004: 31-36).

Bu lahja Polivanov tasnifida «chig'atoy», G'ozim Olim Yunusov tasnifida «turk-barlos», Borovkov tasnifida «o'rta o'zbek», Reshetov tasnifida «qarluq-chigil-uyg'ur» atamallari bilan qo'llangan.

Qarluq lahjasi 3 guruhga bo'linadi:

1. Farg'ona guruhi;
2. Toshkent guruhi;
3. Qarshi guruhi.

Qarshi guruhiga: Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' shevalari kiradi.

Yakkabog' shevasi fonetik, morfologik va leksik jihatlardan qarluq lahjsining boshqa shevalaridan ma'lum farqlarga ega. Aholining o'zi ko'ngli ochiq, samimiy inson bo'lganliklari uchun bo'lsa kerak, shevalarida qo'pol

so'zlar ko'p ishlatilmaydi. Sheva vakillarining so'zga chechanligini ularning o'ziga xos maqol va iboralaridan bilishimiz mumkin. Yakkabog'liklar so'zlashuv nutqida ham maqol va frazeologizmlardan ko'p foydalanadi. Ularda ifodalanayotgan ma'no aniq va lo'nda. Tag ma'noli maqollar kam uchraydi. Balki, bu aholining pozetiv xarakteriligi bilan izohlanar. Tagma'noli maqollarning shakllanishida dialektal so'z va dialektal ma'no asosiy rol o'ynaydi. Mening nazarimda tagma'noda ko'proq dialektal ma'no ustunlik qiladi (Shoimova N., 2000: 40-41, 208, 247).

Professor Fattoh Abdullayev Xorazm shevalarini tadqiq qilganda dialektal matnlarga asoslanib ish ko'rgan (Abdullayev F., 1960: 9-15). Dialektal matnlarning bir turi dialektal maqollardir. Zero, har bir maqol katta asarlar ma'nosini ifodalashi mumkin. Quyida berilgan dialektal maqollar xuddi shu ma'noda jamlangan va saralab olingan. Biz maqollarning dialektal xususiyatlarini saqlagan holda ham adabiy shaklini ham dialektal shaklini berishga harakat qildik.

Quyida Yakkabog' sheva vakillarining maqollari bilan tanishamiz. Biz to'plangan maqollarni quyidagicha guruhlaymiz:

1. Faqat shevadagina qo'llanadigan maqollar.
2. Ham shevada, ham adabiy tilda qo'llanadigan maqollar.
3. Adabiy tilda boshqa, shevada boshqa ma'noda qo'llanuvchi maqollar.
4. Arxaik yoki eskirgan maqollar (bunday maqollar izohga ehtiyoj sezadi).

SHEVADA QO'LLANADIGAN MAQOLLAR:

1. Terakka qarab tol o'sar,
Onaga qarab qiz o'sar.
Terəkkə qarab təl osər,
Ənəgə qarəb qız osər.

(Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i)

Maqolda **ənə** so'zi ona ma'nosida kelgan. Yakkabog' shevasida ona so'zi *ənə, onə, aya* shakllarida qo'llanadi.

2. O'tirgan qiz o'rnini topar,
Turib-turib uy to'rini topar.
Отыргэн қыз онньн топәр,
Турьб-турьб уунь тогьнь тәрәр.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

Bu maqolda *o'rnini* so'zi fonetik hodisaga uchragan. «r» tovushi o'rniga ham «n» tovushi ishlatilgan: **онньн** – *o'nini*. **Отыргэн қыз** – maqolda ko'chma ma'noda qo'llangan. Aqilli, ibo-hayoli, odobli qiz ma'nosini beradi. Bundan tashqari, **отыргэн қыз** – sabrli qiz ma'nosini ham beradi. «O'zbek xalq

■ *Talabalarning III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil maqollari» kitobida «*O'tirgan qiz uy topar*» shaklida berilgan. (O'zbek xalq maqollari, 1989: 226)

3. Bolani suysang, beshikka suy.

Болә суьсәз, бешыккә суь.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

4. Ayig'idi mayig'idi, o'zimni joyimidi.

Chaqiridi-chuquridi o'zimni uyimidi.

Ауьгьд мәуьг'ьдь, озьмнмь јәуьмьдь.

Сһәқьрьдь-сһуқурьдь озьмнмь уьймьдь.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

Bu maqol o'z kelib chiqish tarixiga ega: qadim zamonda bir qiz toqqa borib qolib, o'sha yerda bir ayiqqa ko'ngil berib turmushga chiqqan ekan. Uning ota-onasi uylariga qaytarib olib kelishganda bir muddat yashab, keyin shu so'zlarni aytib chiqib ketgan ekan. Shundan buyon xalq orasida qizlar kelin bo'lib tushgan joyida tinib-tinchib ketishi nazarda tutilib, xalq orasida maqolga aylangan deyishadi. Bu maqolni boshqacha variantini «O'zbek xalq maqollari» kitobida uchratishimiz mumkin:

O'nqir edi, cho'nqir edi – uyim edi,

Ayiq edi, sayiq edi – erim edi.

(O'zbek xalq maqollari, 1989: 263.)

5. Yaxshi kelin er ursa, uyini to'riga qochar,

Yomon kelin er ursa, ko'chaga qochar.

Ҳәхшы келн ег урса уьнмь тоьгә қәчәг,

Ҳәмән келн ег урсә кәчәгә қәчәг.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

6. Yomonni ko'rmay yaxshini qadrini bilmaydi.

Ҳәмәннмь көрмәу уәхшынь қәдрнмь бьлмәудь.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

7. Yaxshi – yaxshi deysan-u, yashab ko'rsang bilasan.

Ҳәхшы – уәхшы дәйсән-и, уәшәб көрсәз бьләсән.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

8. Kuyovdan o'g'il bo'lmas,

Kuldān loy bo'lmas.

Куьвәдән оғ'ыл бәмәс,

Күлдән лөй бәмәс.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

9. O'nta o'g'ildan bitta choling pesh.

Онтә оғ'ьлдән бьттә чһөлнз рель.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i.

10. Oltmishga kirguncha ortingga qara.

Олмьгэ кыргуннэ эртъзгэ қарэ.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

11. Yaxshi bo'ldi dib suyimma,

Yomon bo'ldi dib kuyimma.

Үэхль болль дьб суymmэ,

Үомон болль дьб кuyммэ.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

12. Birinchi xotin — tosh xotin,

Ikkinchi xotin — qum xotin.

Вьргьннх хэтын тэль хэтын,

Бккннх хэтын qum хэтын.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

13. Katta kelin — latta kelin.

Кэттэ кельн — лэтта кельн.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

14. Qorovulning ming poylagani — o'g'rining bir poylagani.

Қарвульнъ мьз рэулэгэнь — оғ'рънь бр рэулэгэнь.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

15. Qadring bilmagan qarindoshingdan yot-begona yaxshi.

Қадръз блмэгэп қарьндэленэп үдд бегэна уахль.

(Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i)

Bu maqolni «Yordami yo'q qarindoshdan, Yetti yot begona yaxshi» shaklida adabiy tilda mavjud.

16. Podachining xotini poda kelar mahal g'ayrati tutar.

Роданьнъз хэтынъль рэда келар маһал г'айратэ тутэдъ.

(Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i)

Ushbu maqol ko'chma ma'noga ega bo'lib, faqat podachining xotiniga nisbatan aytilmagan. Aksincha, kun davomida qo'ni-qo'shnilarnikida o'tirib g'iybatlashadigan, kech bo'lib qolib, poda qaytar vaqtida uyiga shoshadigan ayollarga nisbatan aytilgan. Aynana *poda kelar mahal* deyilishiga sabab qishloqda quyosh botayotgan paytda poda qaytadi. [poda] – *poda* – birga haydab borilayotgan yoki birga o'tlab yurgan, odatda bir turga oid chorva mollari to'dasi (O'zbek tilining izohli lug'ati, 3-jild, 2007: 281).

17. Toqqa chiqmasang, do'lona qayda,

Xotin olmasang, qaynona qayda.

Тэққа чқмасэз, долана қауға,

Хэтын эмасанг, қаунна қауға.

(Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i)

Maqolda *qayerda* so'zi *qayga* shaklida qo'llangan. Bunga sabab Qashqadaryo shevasida kelishiklar soni 4 ta bo'lib, jo'nalish va o'rin-payt kelishiklari bir xil tarzda ishlatiladi. Ushbu maqolning adabiy tilda:

Jon kuydirmasang, jonona qayda,

Xotin olmasang, qaynona qayda,

shakli ham mavjud. (O'zbek xalq maqollari, 1989: 254.)

18. Ota-bolani mol ayiradi,

Og'a-inini xotin ayiradi.

ота-балани мол айирәди,

оғ'а-инини хотин айирәди.

(*Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i*)

19. Olovni kovlasang, o'chadi,

Qo'shningni kovlasang, ko'chadi.

оловни кәвләсәз оиәди,

қо'шнени кәвләсәз кәиәди.

(*Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i*)

Bu maqol «O'zbek xalq maqollari» kitobida:

Olovga tegsang, o'char,

Qo'shningga tegsang, ko'char

shaklida uchraydi. (O'zbek xalq maqollari, 1989: 257.)

20. Kellingni oyog'idan, cho'ponning tayog'idan.

Келһини оуоғ'идән, чо'понни тәуоғ'идән.

(*Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i*)

Ushbu maqol kelinlarning chaqqonligiga nisbatan aytiladi. Cho'ponning tayog'idan deyilishi cho'ponning tayog'i har doim uning xamrohi ekanligi va suruvni asosan shu bilan haydashiga nisbatan aytilgan. Bu maqolning adabiy tildagi variantini «O'zbek xalq maqollari» kitobidan topa olmadik.

21. Birovnig bor uyidan o'zingning yo'q uying yaxshi.

Бирәвниг бор уйдән озеуниг уоқ ууыз уахль.

(*Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i*)

22. Aziz bo'lsa, o'zi aziz.

Азъз боса, озъ азъз.

(*Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i*)

Mazkur maqol insonlarga nisbatan aytilib, aziz bo'lsa, o'zi aziz, qiligi emas ma'nosida ishlatiladi.

23. O'tmas pichoq qo'l kesar,

Qo'l kessayam mo'l kesar.

Отмәс рьнәқ қол кесәр,

Қол кессәям мол кесәр.

(*Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i*)

24. Hamma to'y bilan,
Bo'ri qo'y bilan.
Hamma toy blan,
Boгь qoy blan.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

**HAM SHEVADA, HAM ADABIY TILDA
QO'LLANADIGAN MAQOLLAR:**

1. Odamning olasi ichida bo'ladi.

одамнь олэсь ичидэ болэдь.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

2. Ot aylanib qozig'ini topadi.

от айлэньб қозьг'инь тэрэдь.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

3. Bo'lar bola boshidan.

Болэр болэ болэдьдэн.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

4. Ko'cha xandon, uy zindon.

Коча хандон, уу зьндон.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

5. Yaxshi inson oshini yeydi,

Yomon inson boshini yeydi.

Үэхль ипсон ошьнь уеудь,

Үомон ипсон большнь уеудь.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

6. Nonni katta tishlasang tishla,

Gapni katta gapirma.

Ноннь катта тьляласанг тьля,

Гэпнь катта гэпьрма.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

7. Qari borsa oshga borar,

Yosh borsa ishga borar.

Қарь борса ошгэ борар,

Үоль борсэ ьлга борар.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

Yosh kelsa – oshga.

Qari kelsa – ishga.

(O'zbek xalq maqollari, 1989: 477.)

8. Bor tovog'im, kel tovog'im,
Bormasang, kelmasang
O'rtada sin tovog'im.
Бор тۈۋۈگ'ۈم، كەل تۈۋۈگ'ۈم،
Борماسанг، келмасанг،
Ортادا син тۈۋۈг'ۈм.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

9. Qizi borning nozi bor.
Qызы борның нозы бор.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

10. Qo'shning ko'r bo'lsa,
Ko'zingni qisib qara.
Qо'льпыз кор босә,
Козьпынь қысыб қарә.

(Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i)

Mazkur maqolni «O'zbek xalq maqollari» kitobida: *Qo'shning ko'r bo'lsa, ko'zingni qis shaklida* uchratamiz. (O'zbek xalq maqollari, 1989: 265.)

11. Yeb to'yumagan yalab to'ymaydi.
Yеб тоумагаң ялаб тоумайды.

(Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i)

12. Boy boyga boqar,
Soy soyga oqar.
Бой бۈйга бۈқар،
Сۈй сۈйга сۈқар.

(Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i)

13. Yon qo'shnim, jon qo'shnim.
Yоң қо'льпым، јоң қо'льпым.

(Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i)

14. Chiqqan qiz chig'iriqdan tashqari.
Иьққан қыз иьг'ьргьқдан тальқарь.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

ADABIY TILDA BOSHQA, SHEVADA BOSHQA MA'NODA QO'LLANUVCHI MAQOLLAR:

1. Yo zo'ring bo'lsin,
Yo zaring bo'lsin.
Yо зорьз босьп,
Yо зарьз босьп.

(Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i)

Shevada *zo'r* so'zi o'g'il ma'nosida qo'llanadi.

2. Sonsizning savog'i uzun.

СОНСЪЗНЪ САВОГ'Ъ УЗУН.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

Maqolda *savog'* so'zi tikish uchun ignadan o'tkaziladigan ip ma'nosida qo'llangan.

3. El o'g'risiz bo'lmas,

Qo'tan bo'risiz bo'lmas.

El og'rsъlz bomas,

Qotan borъlz bomas.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

[Qotan] – *qo'ton* – birga boqilayotgan katta qo'y to'dasi; qo'y podasi; suruv (O'zbek tilining izohli lug'ati, 5-jild, 2008: 417). Ushbu maqol «O'zbek xalq maqollari» kitobida:

El o'g'risiz bo'lmas,

To'qay – bo'risiz

shaklida uchraydi. (O'zbek xalq maqollari, 1989: 18). **To'qay** – qamish, changal va shu kabi o'simliklar o'sib yotgan, odatda, zaxkash yer. (O'zbek tilining izohli lug'ati, 4-jild, 2008: 251)

4. Burgaga istaz qilib ko'rpangga olov qo'yma.

Burgaga ыstaz qыlb ko'rpэгэ олов qoyma.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

Maqolda [ыstaz] - *istaz* so'zi «achchiq qilmoq» ma'nosida ishlatilgan bo'lib, dialektal so'zdir.

5. Qotti borgan joyga asta borsayam bo'ladi.

Qотты borgan joyga asta borsa ham bolady.

(Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i)

Maqolda *qotti* so'zi «tez» ma'nosida qo'llangan shevaga xos so'z.

6. Qozonga aylansang qorasi yuqadi.

Qozongа aylansaz qorasi yuqadi.

(Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i)

Maqolda *aylansang* so'zi adabiy tildagi yaqin yursang so'zining o'rnida qo'llangan.

7. Quruq gapga pishak optopga chiqmas.

Quruq gapga pыlak optopga чiqmas.

(Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i)

[pыlak] – *pishak* — mushuk.

ARXAİK YOKI ESKIRGAN MAQOLLAR:

1. Ming ishchiga bir rahbar.

Мън ьльньгә br rahbar.

(Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i)

2. Xon chorig'ini unutmas.

Хон иргъг'ъль unutmas.

(Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i)

Maqollar shevada qo'llangani uchun ham dialektal maqollar deb adabiy tildagilaridan farqlanadi. Ammo shu vaqtgacha dialektal maqollar lug'ati nashr qilinmagan. To'g'ri, ba'zi tadqiqotchilarning kitoblarida bor. Men ushbu maqola bilan dialektal maqollarning ahamiyatini, zarurligini tushundim. Kelajakda ustozlarim maslahati bilan dialektal maqollar lug'atini to'plab, nashrga tayyorlamoqchiman. Xullas, dialektal so'z kabi dialektal maqollarning o'zbek dialektologiyasi sohasidagi ahamiyati, ya'ni, amaliy va tarbiyaviy jihatlari kattadir.

Axborotchilar:

1. Toshtemirov Ochil, 1951, Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i;
2. Toshtemirova Norinso, 1954, Yakkabog' tumani, Samoq qishlog'i;
3. Javliyeva Salima, 1955, Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i;
4. Ro'zomova Norchuchik, 1951, Yakkabog' tumani, Turon qishlog'i.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- To'ychiboyev B., Hasanov B.. O'zbek dialektologiyasi, –Toshkent, 2004.
- Abdullayev F., Xorazm hevalari, –Toshkent, 1960.
- Abdullayev F., O'zbek tilining o'g'uz lahjasi. –Toshkent: Fan, 1978.
- Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'atit turk, –Toshkent: Fan, 1961.
- Shoimova N., Qashqadaryo qipchoq shevalari leksikasi. –Qarshi: Nasaf, 2000.
- O'zbek tilining izohli lug'ati, 3-jild, –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
- O'zbek tilining izohli lug'ati, 4-jild, –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
- O'zbek tilining izohli lug'ati, 5-jild, –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
- O'zbek xalq maqollari, –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa uyi, 1989.



ÇAĞATAY DİLİNİN ARAŞTIRMA MESELELERİ

Zhanibek Ussenbek*

Özet

Bu makalede Çağatay Türkçesinin gelişme dönemleri, onun araştırılma tarihi ile «Çağatay» teriminin ortaya çıkması incelenmiştir. Bununla yanı sıra Kazakistan'ın filoloji ilmindeki Çağataycanın incelenmesi hakkında söz edilmiştir. Orta Asya edebi Türk dilinin bugünkü önemi ve güncelliği beyan edilmiştir.

Ahahtar kelimeler: Çağatay Türkçesi, Eski Türk dili, Orta Asya, Timurlular, Nevai.

Annotation

This article deals with the periods of development of Chagatay Turkic language, the history of the research and the appearance of the termin «Chagatay». In addition, it was mentioned about the research of Chagatay in the Kazakh philology. Here considered the importance and actuality of Central Asia Turkic language.

Key words: Chagatai Turkic, Old Turkic Language, Central Asia, Timurids, Nevai.

Çağatay dili, XV-XX yüzyıllar arasında tüm Türkistan bölgesinde kullanılan Türk yazı edebi dildir. Eski Türk dilinin devamı olarak XI-XII yüzyıllar arasında şekillenmiş Karahan Türkçesi bütün Türklerin ortak yazı diliydi. Karahan devleti dağıldıktan sonra bir taraftan XIV yüzyıl Harezmi Türkçesi, öbür taraftan ise Kıpçak Türkçesi ortaya çıkmıştır. Bunlar geçiş dönemin diliydi. XIV yüzyılın sonunda Emir Timur, Asya'da Türk birliğini sağladıktan sonra ortaya çıkmış Çağatayca yukarıda adı geçen dillerin yerini almıştır. Emir Timur döneminden başlayarak gelişmiş, kültür ve sanat merkezlerinde şekillenmiş Çağatay Türkçesi dağılmış Türk lehçelerini tekrardan birleştirip, XX yüzyılın başında şimdiki yazı dilleri gelişinceye kadar kullanılmıştır. Bu dilin yüzlerce yıllar boyunca itibarı yüksekti. Çağatay dili, şimdiki Türk halklarının yazı edebi dilinin ortak başlangıcıdır.

Çağatayca, Cengiz Han'ın ikinci oğlunun isminden gelen bir terimdir. Moğol İmparatorluğu dağıldığında Çağatay ulusuna Maverennahr (Harezmi hariç), Jetisu, Gazne ve Kabul'a kadarki Pamir civarı, Doğu Türkistan ile Cungarya dahildi [2, 74]. «Çağatay» sözü bu bölge için yaygın olarak XIV yüzyılın başında Duva Han'nin döneminde kullanılmaya başlamıştır.

Çağatay hanlarının askeri güçlerini oluşturan Maverennahr Türkleri ile Türkleşmiş göçebelere de «Çağatay» olarak adlandırılmıştır; İmparatorluğun doğu bölgesinde yaşayan göçebelere ise «Moğol» denilmiştir. «Baburname» eserinde hanın maiyetleri «Sipahlar, Rayiye, Moğollar, Çağataylar»-dan oluştuğu hakkında söylenmiştir. Şerafeddin Ali Yezdi'nin «Zafarnama» eserinin Çağatayca tercümesinde Emir Timur'un askeri «Çağatay çeriği» (Çağatay askeri) diye adı geçmiştir. XIII-XIV yy. Bizans kaynaklarında Batı Türkistan'ın

* L. N. Gumilev Avrasya Milli Üniversitesi, Uluslararası İlişkiler, Türkoloji bölümü, Astana, Kazakistan, z.usenbekov@hotmail.com

Türk yurduna *Ṭḡaxarāidēs* /Çakhadaides/, *Ṭḡaxarān* /Çakhataes/, *Ṭḡaxarān* /Çağatae/, *Ṭḡaxarāioi* /Çakhataio isimleri kullanılmıştır. «Çağatay» sözü Osmanlı kaynaklarında da etnik birlik olarak gösterilmiştir [3, 6].

Evvela Çağatay ulusunda yaşayan göçebe Türkler için kullanılan «Çağatay» terimi zamanla yazarlar ile tarihçiler tarafından «Timurlular devletinin Türk halkı, Timurlu Türkler» için söylenmiştir. Zamanında bu dil *Türki*, *Türk tili*, *Türki til*, *Türk lafzi*, *Türkçe*, *Türkçe til* diye adlandırılmıştır. Nevai bir yerde Türkçenin yerine «Çağatay lafzi» (Çağatay dili) olarak kullanmıştır. Mizanü'l-evzan'da ise tuyuğ tarifine geçmeden önce «Türk halkı, özellikle Çağatay halkı arasında yayılan vezinler»-den bahsederken Türk ve Çağatay kelimelerini farklı anlamlarda kullanmıştır. Ebülğazi Bahadır Han, Seçere-i Terakime'nin girişinde Timurlular döneminin Arapça ve Farsça sözlerle karışık ağdalı diline Çağatayca demiş ve eserine Arapça, Farsça ve Çağataycadan bir kelime bile katmadığını belirtmiştir.

«Çağatay» sözü Doğuda İslam devrinin Orta Asya Türk edebi dilinin belli bir dönemini bildirmişse, Batıda geniş anlama sahip olmaya başlamıştır. İ. N.



Çağatay Hanlığı XIII yüzyılın sonu

Berezin *Rechershes sur les dialects musulmans* (Kazan 1848, 26) eserinde Çağataycanı en eski Türk lehçesi olarak kabul etmiştir. Bu görüşü diğer bilim adamları da desteklemiştir. Genel olarak Çağatay dili eski Türk dilinin devamı olarak incelenmiştir. Ancak XII-XIX yüzyıllar arasında kullanılan Orta Asya Türk edebi dili olarak değil, bununla yanı sıra Batı ve Doğu Türkistan'ın lehçelerini, özellikle Özbek dilini Çağataycanın

kapsamında araştıran Armin Vambéry daha ileri gitmiştir. A. Vambéry 1867 yılında Leipzig'de basılan *Çagataische Sprachstudien* (Çağatay Dili Araştırmaları) adlı kitabıyla bir dönemin diline Çağatayca denilmesiyle bu adın yerleşmesinin öncüsü olmuştur. Macar bilim adamı Jozsef Thury, alman bilim adamı Martin Hartmann ve başka Türkologlar da Çağatay sözünü bu anlamıyla kullanarak yaygınlık kazandırmışlardır. Osmanlı devletinde Çağatay Türkçesi-Osmanlı Türkçesi sözlüğünü yazan Buharalı Şeyh Süleyman Efendi de «Lugat-i Çağatay» terimini ilk kullananlardan birisidir.

A. N. Samoyloviç, F. Köprülü, A. N. Şerbak, J. Eckmann ve başka Türkologlar Çağatay Türkçesinin sınıflandırılmasını yaparak çeşitli dönemlere ayırmışlardır. A. N. Samoyloviç 1928 yılında Leningrad'da yayımlanan eserinde Eski Türk dilinin temelinde ortaya çıkan Doğu Türkçesini dört döneme ayırmıştır. A. N. Samoyloviç lehçe farklılıklarını dikkate alarak «Çağatayca» terimini sadece Orta Asya edebi Türk dili için kullanmıştır [3, 10]:



A. N. Samoyloviç

Karahan Türkçesi veya Kaşgar Türkçesi (XI-XII yy)

1. Kıpçak-Oğuz Türkçesi (XIII-XIV yy.)

2. Çağatayca (XV-XIX yy.)

3. Özbekçe (XX y)

F. Köprülü Çağatay dilini beş döneme ayırarak inceler:

1. İlk Çağatay dönemi (XIII-XIV yy.)

2. Klasik dönemin başlangıcı (Nevayi'ye kadar, XV yüzyılın ilk yarısı)

Klasik Çağatay dönemi (Nevai dönemi, XV yüzyılın son yarısı)

3. Klasik dönemin devamı

(Babur ve Şibanlılar dönemi, XVI yüzyıl)

4. Gerileme ve Çökme dönemi (XVII-XIX yy)


J. Eckmann 1966 yılında yayımladığı *Chagatay manual* Çağatayca El Kitabı'nda Çağatay dilini üçe ayırmayı tercih eder:

1. Klasik öncesi dönem (XV yüzyılın başlarında Nevayi'nin 1465'te ilk divanını tertibine kadar)

2. Klasik dönem (1465-1600)

3. Klasik sonrası dönem (1600-1921)

4.



Çağatayca El Kitabı Janos Eckmann

Bugün Çağatay Türkçesini araştırmasını Türk, Özbek, Tatar bilim adamları yapmaktadır. Çağatayca için Sovyet bilim adamları tarafından kullanılmaya başlanan «Eski Özbek dili» terimi Kazak dil biliminde onun layık seviyede araştırılmadığı başlıca sebeplerden biridir diye düşünüyoruz. Kazak bilim

adamları arasında Çağataycayı inceleyenler: Absattar Derbisali, Babaş Abilkasimov, Seytbekova Aynur vb. Absattar Derbisali Çağatay Türkçesinin uzmanı olarak Hoca Ahmet Yesevi türbesi ve oradaki mezar taşlarındaki yazıları Kazakçaya çevirerek, incelemiştir. Orta çağ döneminde yaşayan Ebu-l Kasım el-Farabi, İsmail el-Cauhari el-Farabi, Ebu İbrahim Iskak el-Farabi, Burhanad-Din Ahmad el-Farabi, Mahmut el-Farabi, üç Kerderi, üç Sayrami (İsfidcabi), yedi Türkistani, otuz bir Tarazi, Baylak Kıpçaki, Hasan Ali Calairi, Gıyas ad-Din Cendi, Husam ad-Din Sıgnaki ve başka yüze kadar bilim adamı ve düşünürlerin ismini bulup, eserlerini bilimsel kullanıma dahil etmiştir. Muhammed Haydar Dulati'nin kabrini Hindistan'da tespit ederek onun mezar taşının kitabesini çözmüştür. Bilim adamın «Cahanne» adlı destanını Çağataycadan çevirerek yayımlamıştır (Almatı, «Bilim» 2006). Babaş Abilkasimov, Ebülğazi Bahadır'un «Seçire-i Türk» eserinin araştırma tarihini inceleyerek oradaki deyimleri dil açısından incelemiştir. Eseri Çağatay Türkçesinden şimdiki edebi dilimize (Kazakçaya) çevirerek kitap olarak basmıştır.

Çağatay dili Türkçenin Kıpçak, Oğuz ve Karluk lehçelerinin toplamı ve Müslüman Doğu Türklerinin ortak yazı edebi dili olduğundan dolayı onu kapsamlı araştırmamız gerekir. Dil bilimi için paha biçilmez kaynaklar bu yazı dilinin içinde bulunmaktadır. Şu an terminoloji meselesi çok güncelken eski yazı kaynaklardaki bazı eskimiş sözleri yeniden kullanmak, onların anlamlarını genişletmeyle terim üretmek çok önemlidir.

KULLANILAN KAYNAKÇA:

- Mustafa Argunşah. Çağatay Türkçesi. Türkiye, İstanbul, «Kesit Yayınları» 2013.
- Janos Eckmann. Harezmi, Kıpçak ve Çağatay Türkçesi üzerine araştırmalar. «Türk Dil Kurumu Yayınları» 1996.
- Janos Eckmann, çev. Günay Karaağaç. Çağatayca el kitabı. İstanbul, 1988.





III SHO'BA. TIL TA'LIMI VA KOMPYUTER LINGVISTUKASI



«KO'K» SO'ZINING QO'LLANILISHIGA DOIR

Abduqodirova Madina*

Annotatsiya

Ushbu maqolada «ko'k» so'zining qo'llanilishiga oid fikrlar tadqiq qilingan. Turli ma'nolarda ifodalanishi nazariy jihatdan o'rganilgan, mumtoz asarlarda keltirilgan parchalar orqali tahlilga tortilgan. Bundan tashqari, «ko'k» so'zining o'zbek tili va adabiyotidagi yangi ma'no xususiyatlari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: «ko'k» so'zi, ma'no xususiyatlari, O'rxun-Enasoy yodgorligi, «Devoni lug'otut-turk», «Muhokamat-ul lug'atayn».

Annotation

In this article thoughts about using the word «ko'k» are described. Expressing in different meaning of this word is investigated theoretically. Extracts from classic literature are analyzed. Specific features of the word «ko'k» in Uzbek language and literature.

Key words: «ko'k», features of meaning, monuments of «Orxun Enasoy», «Devoni lugotit turk», «Muhokamat-ul lug'atayn».

Ma'lumki, har bir tilning mavqeyi uning lug'at boyligi, ishlatilish ko'lami, ma'no-mazmun mohiyati bilan o'lchanadi. E'tibor beradigan bo'lsak, tilimizda uchraydigan aksariyat so'zda omonimlik yoki ko'p ma'nolilik xususiyatlari kuzatiladi. Albatta, bu so'zlarning faol qo'llanilishi va tilda umumiy ishlatilishi bilan bog'liq. So'zlar tilning tarixda qanday ma'noda qo'llanilib saqlanganligi so'zlarning ma'no qatlamida o'rganishda o'z o'rniga ega. So'zning etimologiyasiga va tarixiy adabiyotlarda qo'llanilgan vazifasiga ko'ra o'xshashlik va farqli jihatlarini o'rganish tilning mavqeyini yanada mustahkamlovchi omillardan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Birgina «ko'k» so'zi misolida uning qanday ma'nolarni anglatishi, etimologiyasi, turli davrlarda yaratilgan adabiyotlarda qanday ma'noda qo'llanganligi, o'xshashlik va farqli xususiyatlarini bilib olishimiz mumkin. Biz kundalik hayotimizda ko'p tilga oladigan bu so'zning yana qanday ma'noda qo'llana olishi yoki qo'llanishini ko'rib chiqaylik. Ko'k so'zining etimologiyasiga

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi, madina_abduqodirova@mail.ru

■ *Talabalarning III an'naviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil nazar tashlaydigan bo'lsak, uning rang bildirish ma'nosi haqida qisqa ma'lumotlar ko'zga tashlanadi.

«**Ko'k**» — «*moviy*», «*zangori*»... *Hovuzning jimir-jimir tebranayotgan ko'm-ko'k sathiga... bir necha qarab turdi-da...* (Hamid G'ulom)

O'zbek tili omonimlarining izohli lug'atida «**ko'k**» so'zining «*havo rangli, moviy*»; «*yashil, o't rangli*»; «*yer ustida gumbaz shaklida ko'rinib turuvchi havo qatlami, osmon*»; «*kashnich, ukrop, kabi o'simlik, ovqatga ishlatiladigan ko'kat*»; «*yirik-yirik qilib tikilgan chok (namoyotka)*» ma'nolari berib o'tiladi.

O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati Qashqadaryo va Surxondaryo o'zbek shevalari materiallari asosida tuzilgan bo'lib, unda «**ko'k**» so'zining ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan ma'no xususiyatlari ham berilgan:

Ko'k (I) — *Qora uy qanotlari cho'p-yog'ochlari va keragalarni bog'lash uchun ishlatiladigan qayish tasma. U pishirilmagan tuya terisidan tayyorlangan bo'ladi.*

Ko'k (II) — *Marhumning xotiri uchun uning yaqin ayol qarindosh urug'lari tomonidan kiyiladigan azalik (motam) kiyimi.*

O'zbek tilining izohli lug'atida «**ko'k**» so'zining 8 xil ma'nosi keltirilgan. «**Ko'k**» so'zi 1) «*tiniq, osmon rangidagi, moviy*»; 2) «*kul rangidagi kulrang*»; 3) «*yashil, sabza, ko'k o't*» (*Qarshimda tebranar ko'k barglar har on. U. Hamdam*); 4) «*Yer ustida gumbaz shaklida ko'rinib turadigan havo qatlami, osmon*»; 5) «*O't-o'lan, maysa, ko'kat*» (*Yomg'irlar yog'ib, yerda o't-o'lanlar ko'rina boshladi, hayvonlarning og'zi ko'kka tegdi. M. Muhammadjonov, Turmush urinishlari*); 6) «*Bahorda yangi chiqqan, somsa, chuchvara kabi ovqatlarga ishlatiladigan otquloq, jag'-jag' kabilarning umumiy nomi va shunday ko'katlar qo'shib tayyorlangan ovqat*»; 7) «*Kashnich, ukrop kabi ovqatga qo'shib yeyiladigan rezavor o'simliklar, ko'kat*»; 8) «*Dollar (3-shaxs birlik shaklida - ko'ki) Bir pachka ko'ki bilan qo'lga tushibdi, ish chatoq.*

Qadimgi yodgorliklarimizdan bo'lgan O'rxun-Enasoy yozma yodgorligida qadimgi turk davridagi turkiy qavmlar yagona nom bilan bilan «**ko'k turklar**» deb yuritilgan. Bu haqida Nasimxon Rahmonov «O'zbek adabiyoti tarixi» kitobida shunday ma'lumot beradi: «**Ko'k turk** — ilohiy turk deganidir. Turkiy qavmlar yaratgan mifga ko'ra, ular osmonni — ota, yerni — ona deb tasavvur qilganlar. Shu bois o'zlarini ham «osmon bolalari» deb atardilar va «**ko'k turk**» nomli mifologik atama ularning rasmiy nomiga aylanib qoldi».

Bundan kelib chiqadiki, qadimgi turkiy qavmlar o'zlarini «osmon bolalari» deya ilohiylashtiradilar va o'zlarini «**ko'k turk**» deb nomlay boshlaydilar. Demak, bu manbadan anglashilishicha, «**ko'k**» so'zining dastlabki ma'nosini «**ko'k**», ya'ni «osmon» deb olsak, keyinchalik turklarning

■ *Talabalarning III an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari* ~~~~ ■ 2018-yil rivojlanishi va bu so'zning ommalashuvi natijasida «ilohiy» ma'noni ham o'ziga singdirgan.

Qadimiy manbalarimizdan biri «Devoni lugotit-turk»da «ko'k» so'zini ma'nosi quyidagicha berilgan:

كوك (ko'k) – (jarangsiz kaf [ya'ni k] bilan) osmon.

كوك (ko'k) – ko'k rang ma'nolari «O'rta harfi sukunli fa'l, fu'l, fi'l qoliplaridagi so'zlar bo'limi»da uchrasa, «Ikki harfli otlar bobi»da quyidagicha ma'nolari keltirilgan:

كوك (ko'k) – egar chilviri.

كوك (ko'k) – asl, tomir, tag.

Demak, bu bo'limda keltirilgan «ko'k» so'zi bizga ma'lum bo'lmagan «egar chilviri», «asl, tomir, tag» ma'nolarida qo'llanilgan. Garchi bu semalar izohli lug'atda ham, etimologik va boshqa lug'atlarda keltirilmagan bo'lsa ham, hozirgi kunda turkiy tillar oilasiga mansub boshqa tillar lug'at boyligi tarkibida saqlangan.

Alisher Navoiy ham «ko'k» so'zi turli xil o'rinlarda qo'llagan. Masalan:

1. «Ko'k», ya'ni «osmon» ma'nosida:

Ne ko'kka, ne quyoshga insa boshim,
Buzuq uy bo'lsa ko'k, ravzan quyoshim.

(«Vaqqiya», XIII: 161)

2. Sayyora, ya'ni planeta ma'nosida:

To'rt unsur, yetti ko'k, olti jihat
Nodiru oliy asosi koinot.

(«Lisonut-tayr» 175: 18)

3. «Falak, charx, taqdir» ma'nosida qo'llagan.

Ishq aro o'lmay netaykim, ko'k meni aylab gado,
Xusn iqboli mening mohimni mirzo aylamish.

(«Xazoyin-ul maoniy», I: 137)

4. «Ko'k» so'zining aynan rang ma'nosida ishlatilgan o'rinlari ham mavjud.

Yetti ko'kni ko'k varaqlardek sovurg'ay har taraf,
Toqi minoyi aro chirmalsa ohi hasratim.

(«Xazoyin-ul maoniy», I: 411)

5. «Ko'k» so'zi «ko'k rang» ma'nosidan tashqari «Ko'k bo'z» — ko'kka moyil bo'z rang» ma'nosida ham qo'llagan:

Ko'k jafosidin o'lur xobgahing bo'z tufrog',
Bo'lsa ostingda sipehr ashhabi yanglig' ko'k bo'z.

(«Xazoyin ul-maoniy», III: 219)

* Qarang: Г. Гусейнова. Азербайджанского-русский словарь. Баку, 1994, 74-б.

6. Alisher Navoiyning «Munshaot» asarida «ko'k» so'zi «o't-o'lan, maysa» ma'nosida qo'llanilgan:

Ko'k sabzasi ko'kka yetkurib bosh,
Ul ko'kta bo'lub nujum ushoq tosh.

7. «Muhokamat-ul lug'atayn»da «Ko'k» o'ziga xos ma'noda — musiqada tovushlar hamohangligi, muvofiqligi, kuy va ohang ma'nosida qo'llanilganligini kuzatishimiz mumkin:

Va ko'k lafzin ham necha ma'ni bila iste'mol qilurlar,
Biri ko'k-osmonni derlar. Yana ko'k ohangdur...

To'plangan ma'lumotlardan ko'rinadiki, biz hozirda ko'k so'zining faqat izohli lug'atda ko'rsatilgan ma'nolaridan umumiy kundalik hayotimizda foydalanamiz. O'rxun-Enasoy yodgorliklarida ham, «Devoni lug'otut turk» va Alisher Navoiy asarlarida ham «osmon» va «ko'k» ma'nolari keltirilgan. Endi bu o'rganilgan ma'lumotlardan bir-birida o'xshamagan farqli ma'nolariga to'xtalamiz:

1. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'atida «ko'k» so'zini asli asos negiz ma'nosidagi so'z bo'lib, yirik-yirik qilib tikilgan chok ma'nosida ishlatilishi;

2. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'atida uning «Qora uy qanotlari cho'p-yog'ochlarini va keragalarni bog'lash uchun ishlatiladigan qayish tasma» va motam kiyimi ma'nolari (shevashunos olimlardan boshqalar uchun noma'lum xususiyatlardandir);

3. O'rxun-Enasoy yozma yodgorligida «ilohiy» ma'nosining qo'llanilishi;

4. «Devoni lug'otut-turk»dagi «egar chilviri» va «asl, tomir» ma'nosida uchrashi;

5. Alisher Navoiy asarlarida taqdir, charx ma'nosida, «Muhokamatul lug'atayn» asarida esa musiqada tovushlar hamohangligi, muvofiqligi, kuy va ohang ma'nosida qo'llanilganligini birgina «ko'k» so'zining yanada ma'no ko'lamini ko'paytirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Раҳматуллаев Ш., Ўзбек тилининг этимологик луғати. –Т.: Университет, 2000.
- Раҳматуллаев Ш., Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1984.
- Мирзаев Н., Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. – Т.: Фан, 1991.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. –Т.: Ўз.МЭ, 2006.
- Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси мухбир аъзоси Э. И. Фозилов таҳрири остида. – Т.: Фан, 1983.
- Маҳмуд Кошгарий. Девону луғатит-турк –Т.: Ғафур Фулом, 2017.
- Nasimxon Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. –Т.: Sano-standart, 2017.



MASHINA TARJIMASIDA KELISHIK KATEGORIYASI

(INGLIZ VA O'ZBEK TILLARINING MISOLIDA)

Anvarova Durдона *
Hamroyeva Mohinur *

Annotatsiya

Ushbu maqolada mashina tarjimasida, o'zbek tilidagi kelishik kategoriyasining ingliz tilidagi muqobil variantlarini qay yo'sinda topish va to'g'ri tarjima qilish yo'llari o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlari: predloglar, kelishik, qolip, mashina tarjimasida.

Annotation

This article was explored cases of the Uzbek language, the corresponding variants of the English language, the method of finding the correct translation in machine translation.


Key words: prepositions, case, model, machine translation.

Butun dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv va integratsiya jarayonlarida milliy tilimizni dunyo tillari safiga olib chiqish oldimizda turgan ulkan vazifalardan biridir. Mazkur o'ta muhim va dolzarb ishni amalga oshirishda zamon talabi bo'lgan kompyuter texnologiyalariga, xususan, kompyuter lingvistikasiga bo'lgan ehtiyoj va talab kun sayin ortib bormoqda. Kompyuter lingvistikasining yutuqlari mamlakatimizda amaliy va nazariy tilshunoslikning uzviyligini ta'minlash va uni ko'pgina sohalarga tatbiq etish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so'zlari bilan aytganda, «fanning vazifasi kelajagimizning shakl-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat... Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanligini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim».

Kompyuter lingvistikasi fanining asosiy maqsadi ham inson hayotini yengillashtirishdan iborat. Mazkur fan oldida bir qancha yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Xususan, inglizcha matnlarni mashina vositasida o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ayrim xatolar kuzatiladi. Shulardan biri kelishik va predloglar tarjimasida bilan bog'liq. Masalan, google tarjima misolida olaylik:

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-kurs talabasi, durdonanvarova97@gmail.com

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-kurs talabasi, mohi98hamroyeva@gmail.com



Ushbu misolda ingliz tilidagi gapni o'zbek tiliga tarjima qilganda, kelishik qo'shimchasi noto'g'ri qo'yilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, mashina tarjimasida o'zbek tilining kelishik kategoriyalarida muammolar mavjud bo'lib, shunday masalalarni qay yo'sinda hal etishni birma-bir ko'rib o'tamiz.

Kelishik kategoriyasi — sintaktik qurilmalarda oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash.

Predloglar — sintaktik qurilmalarda odatda, ot yoki olmosh oldidan kelib, ularning gapdagi boshqa so'zlar bilan aloqasini ko'rsatib beradigan, turlanish va tuslanish xususiyatiga ega bo'lmagan va ko'plik shaklda kelmaydigan so'z va so'zlar birikmasi. Ular tabiiy va kontekstual ko'pgina ma'nolarga ega.

No	Kelishiklar	Predloglar
1	Bosh kelishik	—
2	Qaratqich kelishigi	-ning
3	Tushum kelishigi	-ni
4	Jo'nalish kelishigi	-ga
5	O'rin-payt kelishigi	-da
6	Chiqish kelishigi	-dan

Bosh kelishik — boshqa kelishiklarga zid holda ko'rsatkichsizdir. Bu kelishikdagi so'zlar *kim?*, *nima?*, *qayer?* kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi.

Yuqoridagi kelishik nol shaklda bo'lib, uning mohiyati boshqa kelishiklarga qarama-qarshi qo'yilish asosida belgilanadi. Shu bilan birga, ingliz tilida ham bosh kelishik ko'rsatkichi yo'q.

Misol: *Men keldim – I came.*

Qaratqich kelishigi — qaralmishdan anglashilgan narsaning shu kelishikdagi so'z anglatgan predmetga qarashli ekanini, xosligini ifodalovchi kelishik. Ushbu kelishik **-ning** ko'rsatkichi bilan ifodalanadi. Ingliz tilida esa, **of** va **ba'zi** o'rinlarda **in** predlogi ayni shu ma'noni beradi.

Misol: *Bu do'stimning kitobidir – It is the book of my friend; Havoning o'zgarishi o'yinimizga ta'sir qiladi – The change in the weather effects our match.*

Tushum kelishigi — o'zi qo'shilgan so'zni faqatgina fe'lga bog'laydigan grammatik vosita. Mazkur kelishigimiz **-ni** ko'rsatkichi bilan yasaladi, ammo ingliz tilida bu kelishikning ma'nosini sodda gapda asosiy ma'noli o'timli fe'l ifodalaydi.

Misol: *Men kitobni o'qidim – I read the book.*

Ba'zi sodda gaplarda **of**, **with**, **for**, **about** va shu kabi predloglar boshqa fe'llar bilan fe'lli birikma hosil qilganda tushum kelishigi beradigan ma'noni anglatadi. Masalan, *They are in love with each other – Ular bir-birlarini sevishadi; We are hoping for the change in the weather – Biz ob-havoning o'zgarishini umid qilamiz; I reminded him about his promise – Men unga va'dasini eslatdim; This reminds me of my school – Bu menga maktabni eslatadi.*

Jo'nalish kelishigi — ot orqali ifodalangan narsaning yo'nalganlik, xoslik, tenglashtirish kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu kelishik **-ga** ko'rsatkichi bilan ifodalanadi. Ingliz tilida bu kelishikning ma'nosini **in**, **to**, **for**, **at**, **upon**, **on**, **towards** kabi predloglar ifodalaydi. Shu bilan birga, jo'nalish kelishigi o'z ichida ma'noviy guruhlariga bo'lingani kabi yuqoridagi predloglar ham xuddi shunday ma'noviy guruhlariga ajraladi.

Misol:

a) Xoslik: **to**, **for**. *Kecha men dadamga xat yozdim – I wrote a letter to my father yesterday; Buni senga sotib oldim – I bought it for you.*

b) Yo'nalganlik: **towards**, **to**, **at**, **on (upon)**, **in**. *U dengizga bordi – He walked towards the sea; Men kinoga bordim – I went to the cinema; Men kinoteatrga yetib keldim – I arrived at the cinema; Jurnalni stolga qo'y – Put the magazine on (upon) the table; O'zbekistonga yetib keldim – I arrived in Uzbekistan.*

c) Tenglashtirish: **to**. *U Nodirabegimga tamomila o'xshashdir – She is quite equal to Nodirabegim.*

O'rin-payt kelishigi — oldingi so'zni keying so'zga hol va to'ldiruvchi vazifasida bog'lash bo'lib, yo'nalganlik va o'rinlashganlik kabi ma'nolari

bilan farqlanadi. Ushbu kelishikdagi o'rinishlar ma'nosi, o'z ichida yana uchga, ya'ni vosita, makon va zamon kabi ma'nolarga bo'linadi.

Mazkur kelishik **-da** affiksini olishi bilan xarakterlanadi. Ingliz tilidagi **with, in, at, on, during, upon** sodda predloglari shu kelishik ma'nolarini ifodalaydi.

Misol:

a) Vosita: **in, with, on.** *Men qalamda yozdim – I wrote in pencil; Men qalamda yozdim – I wrote with pencil; Men bu filmni televizorda ko'rgan – I watch this film on TV.*

b) Zamon: **on, in, at, during.** *Biz Italiyaga iyunda boramiz – We will go to Italy on June; Biz Italiyaga yozda boramiz – We will go to Italy in summer; Ikki soatda Koreyada bo'laman – I will be in Korea in 2 hours; Biz kinoga soat 7da bormoqchimiz – We are going to the cinema at 7 o'clock; Biz kinoga peshinda bormoqchimiz – We are going to the cinema at noon; Biz Italiyaga 1-iyunda boramiz – We will go to Italy on the first of June; Biz Italiyaga shu semestrda boramiz – We will go to Italy during this semester; Biz Italiyaga shanba kunida boramiz – We will go to Italy on Saturday.*

c) Makon: **in, at, on.** *Keyingi hafta men Koreyada bo'laman – I will be in Korea next week; Ikki daqiqada avtobus bekatida bo'laman – I will be at the bus stop in 2 minutes; Rasm devorda osilgan – the picture is hanging on the wall.*

Chiqish kelishigi — ish-harakatning boshlanish o'rni, manbayi, sababi kabi ma'nolarni bildiradi va gapda hol, to'ldiruvchi, ega, kesim vazifasida keladi. Yuqorida izohlangan kelishikning asosiy xususiyatini ko'rsatuvchi ko'rsatkichi -dan affiksidir. Chiqish kelishigi ingliz tilidagi **out of, from, of, off, through, up** predloglariga to'g'ri keladi.

Misol: *U uydan chiqdi – He came out of the house; U Samarqanddan keldi – He came from Samarkand; Tomdan yomg'ir oqar edi – The rain ran off the roof; Uy g'ishtdan qurilgan – This house was built of brick; U derazadan qaradi – She looked through the window; U zinadan ko'tarildi – She walked up the stairs.*

Tarjima jarayonida kelishiklar anglatadigan ma'no predloglarsiz ham ifodalanishi mumkin.

Qaratqich kelishigi: *His book is interesting – Uning kitobi- qiziq; Ali's dog is big – Alining kuchigi kattadir.*


Qaratqich kelishigi ma'nosi, nafaqat, **in, of** bilan, balki **possessive pronoun** va 's yoki s' bilan ham ifodalanadi.

Tushum kelishigi: *I read the book – Men kitobni o'qidim.* Gapda transitive verb. [o'timli fe'l] kelganda, ma'no tushum kelishigi anglatgan fikrni ifodalaydi.

Jo'nalish kelishigi: *I came home – Men uyga keldim.*

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, *come home, arrive home, go home* kabi birikmalarda so'zlar orasida predlog ishlatilmaydi, ammo yo'nalganlik ma'nosi anglashiladi.

O'rin-payt kelishi: *I have a dog – Menda kuchuk bor.* Ba'zi predloglar bir vaqtning o'zida o'zbek tilidagi bir necha kelishiklarga mos kelishi mumkin.



Yuqorida keltirib o'tilganidek, ingliz tilidagi *in* predlogi o'zbek tilidagi o'rin-payt va jo'nalish kelishiklariga mos keladi. O'rin-payt kelishigi ma'nosida kelganda,


V[fe'l]+in qolipi asosida hosil qilinadi. Masalan, *I live in Tashkent – Men Toshkentda yashayman.* Agar jo'nalish kelishigi ma'nosida kelsa, **V+obj [obyekt]+in** qolipi asosida yasaladi. Masalan, *Put the ball in the box – Koptokni qutiga qo'y.* Ingliz tilidagi yo'nalish ma'nosidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilganda, fe'l va predlog o'rtasida keladigan obyekt tarjima jarayonini konkretlashtiradi. Vaqtni ifodalab keluvchi so'zlar bundan mustasno. Masalan, *I always drink coffee in the morning – Men har doim tongda kofe ichaman.* Bunday gaplarda ham fe'l va predlog o'rtasida obyekt kelib, **in** predlogidan keyin vaqtni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari kelganda, payt ma'nosini bildiradi va mazkur predlog o'rin-payt kelishigi ma'nosini ifodalaydi. **In** predlogi ba'zi o'rinlarda kontekstda qaratqich kelishigi ma'nosini ifodalab, har ikkala tomonidan ot yoki otl birikmalar bilan keladi. Masalan, *We are looking forward to the change in the weather – Biz havoning o'zgarishini intizorlik bilan kutyapmiz.* Ba'zi hollarda, bir gapni ikki xil ko'rinishda tarjima qilish mumkin. Xususan, *Sometimes the change in the character depends on situation* gapini quyidagicha tarjima qilishimiz mumkin:

- Ba'zida xarakterning o'zgarishi vaziyatga bog'liq.
- Ba'zida xakterdagi o'zgarish vaziyatga bog'liq.

Yuqoridagi gaplar bir-biridan semantik jihatdan farqlanadi. Bunday gaplarni tarjima qilishda kontekst yetakchi ahamiyat kasb etadi. Ammo, ayrim gaplarda **in** predlogining tarjimasini affikslar sinonimiyasi ham bo'lib kelishi ham mumkin:

- Sening irodang mustahkamdir – The will in you is firm.*

b) *Sendagi iroda mustahkamdir – The will in you is firm.*




Sxemada keltirilgandek, *of* predlogi ham ikki kelishik ma'nosini anglatadi. Chiqish kelishigi vazifasida kelganda, ikki xil qolip asosida yasaladi:


a) V+of: *The watch is made of gold – Soat tilladan yasalgan.*

b) Pro[olmosh]+of: *Some of my friends came to see me off – Do'stlarimning ba'zilarini meni kuzatgani kelishdi.*

Ushbu predlog qarashlilik ma'nosini ifodalab kelganda, *ot* so'z turkumiga mansub so'zlardan keyin keladi: *Tashkent is the capital of Uzbekistan – Toshkent O'zbekistonning poytaxtidir.* Ana shunday qolipli gaplarda *of* predlogi o'zidan keyin kelgan so'zga o'z ma'nosini yuklaydi.



Yuqoridagi lingvistik qurilmadan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, *on (upon)* predlogi jo'nalish va o'rin-payt kelishigi vazifasida keladi: V+obj+on: *Put the magazine on the table – Jurnalni stol ustiga qo'ying.* V+on: *The picture is hanging on the wall – Surat devorda osilgan.* Ammo, jo'nalish kelishigiga tuzilgan qolipda *on* predlogidan keyin vaqtni ifodalab keluvchi so'z va so'z birikmalari kelsa, bunda fe'l va predlog o'rtasida obyekt kelib, o'rin-payt ma'nosini ifodalaydi. Masalan, *I eat pizza on Mondays – Men dushanba kunlari pitsa yeyman.*



Havola qilingan sxemaga ko'ra, ushbu predlog faqatgina *arrive* fe'li bilan kelganda, jo'nalish kelishigi ma'nosini ifodalaydi. Masalan, *I arrived at the bus stop – Men avtobus bekatiga keldim. Arrive* fe'lidan boshqa fe'llar bilan kelganda o'rin, hamda predlogdan keyin vaqt ko'rsatgichlari kelganda payt ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, *I have been waiting you at the bus stop for two hours – Men seni ikki soatdan beri avtobus bekatida kutyapman.*

Ingliz tilidagi sodda gaplardan iborat matnlarni o'zbek tiliga o'girishda matnning uslubi, janri, birliklar hamda predloglarga ahamiyat qaratish lozim. Shuningdek, ba'zi fe'l va predloglarni birikma holda berish kerak. Tarjima jarayonida sinonim predloglar, affikslarni bir-biridan farqlash uchun maxsus qoliplardan foydalanish, predloglarni ma'noviy guruhlariga ajratgan holda dastur bazasiga kiritish, o'zbek tilidagi har bir kelishik ma'nosiga mos bo'lgan so'zlar, so'z birikmalari hamda predloglarni alohida-alohida turlarga ajratish lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tilidagi sodda gaplarni xatolarsiz tarjima qilishda, hatto, eng kichik lisoniy birliklar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimada muqobil so'z tanlash bilan birga qo'shimchalar ma'nosiga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Aks holda, tarjima sifati buziladi, unga aniq va kodlashtirilgan buyruqlar kiritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Mengliyev B. R., Hozirgi o'zbek tili (o'quv-uslubiy majmua). –Toshkent, 2017.
- G'apurov M., Qosimova R., Ingliz tili grammatikasi. –T.: Turon-iqbol, 2014.
- Abdurahmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti. –T: Muharir nashriyoti, 2018.
- Mirziyoyev Sh., Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
- Musliyanti Binti Mus. (2012). Students' Ability in Using Preposition: A case Study at Faculty of Letters of Hasanuddin University. Retrieved from <http://repository.unhas.ac.id>
- Tutin Apriyani. (2012) An Analysis on Grammatical Errors made by the employee in PT, Segar Prima Jaya Batam. In Nika Purwati, et. al. (Eds), Research in English and Applied Linguistics. Indonesia: Halaman Moeka and LLK Publishing.
- Carillo, J. (2009). «Lesson #8 – Specific Rules for Preposition Usage». English Grammar, June 19, 2009, Jose Carillo's English Forum. Retrieved from <http://josecarilloforum.com/forum/index.php?topic=139.0>
- Quirk, R., Greenbaum, S., Leech G., and Svartvik, J. (1985).comprehensive Grammar of the English Language. New York: Longman Group Ltd.
- www.nipissingu.ca/departments/student-development.../Preposition.docx
- Eissa Al-Khotoba. (2013). Errors in the Use of Prepositions and Adverb Particles by Arabs ESL Speakers: Performance Analysis Perspective. International Journal of Linguistics, 5 (1), 273–282. <http://dx.doi.org/10.5296/ijl.v5i1.3310>
- Julia Miller; Prepositions, English for Uni, www.adelaide.edu.au/english-for-uni



ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТОЛЕРАНТ ХУЛҚ-АТВОРНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН МЕТОДЛАРИ

Атауллаев Фазлиддин *

Аннотация

Мазкур мақолада ўқувчилар хулқ-атворида толерант қарашлар, установакалар, хатти-ҳаракатларни шакллантиришнинг айрим муаммоли масалалари ёритилган. Шунингдек, ўқувчиларда толерант хулқ-атворни шакллантиришнинг самарали методлари тизимлаштирилган.

Таянч сўзлар: толерант хулқ-атвор, интолерантлик, сабр тоқат, ғамхўрлик, диверсификацион ёндашув, когнитив ёндашув, бихевиорал ёндашув, диалогли ёндашув.

Annotation

Following article had shed several problems of developing characters, sets, tolerance behavior of students in education process. The methods of orientation of tolerant behavior of students are indicated.

Key words: tolerant behavior, intolerance, patience, endurance, diversity approach, scognitive approach, behavioral approach, interactive approach.

Бугунги кунда Ўзбекистонда 130 дан ортиқ миллат вакиллари яшайди. Конституциямизнинг 4-,8-,18-,31-моддаларида айнан турли дин, миллат вакиллариининг ҳуқуқлари хусусида фикр юритилади. Жумладан, 18-моддада: «Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирки, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши ва ижтимоий мавқеидан қатъий назар қонун олдида тенгдирлар», деб белгилаб қўйилган. Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти И.А.Каримов таъкидлаганидек: «Минг йиллар мобайнида Марказий Осиё ғоят хилма-хил динлар, маданиятлар ва турмуш тарзлари туташган ва тинч-тотув яшаган марказ бўлиб келди. Этник сабр-тоқат, бағрикенглик ҳаёт бўронларидан омон қолиш ва ривожланиш учун зарур табиий меъёрларга айланди... Айни шу заминда кўп асрлар мобайнида жаҳон маданиятлари дунё миқёсида бир-бирини бойитган. Бу ерда кўчманчи халқлар ўтроқ халқлар билан, эронлик қабилалар турк қабилалари билан, мусулмонлар насронийлар ва яҳудийлар билан кўп асрлар бирга яшаб келганлар». Шунга биноан «Мовароуннахрнинг мусулмон маданияти этник сабр-тоқат ва бағрикенглик руҳини ўзида акс эттирди. Унинг идеали — фозил кишилар шаҳри нафақат диний асосда, балки маданий ва ахлоқий

* Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети Роман-герман филологияси факультетининг 3-курс талабаси, fazliddin-0292@mail.ru

негизида ҳам уюшган одамларнинг ҳамжамиятидан иборат бўлганлиги тасодифий ҳол эмас».

Толерантлик, яъни бағрикенглик тушунчаси ўзига ҳос синоним ва антонимларга эга бўлгани ҳолда, манбаларда турлича изоҳланади. Фалсафа энциклопедик луғатида: «Толерантлик (лот. толерантиа — чидам, сабр-тоқат), бағрикенглик — ўзгаларнинг турмуш тарзи, хулқ-атвори, одатлари, ҳис-туйғулари, фикр-мулоҳазалари, ғоялари ва эътиқодларига нисбатан тоқатли, чидамли бўлиш. Бу бир-бирига ўхшамаган одамларнинг бирга аҳилликда яшашидир». Ижтимоий энциклопедик луғатда: «Толерантлик — ижтимоий ишнинг бошқарув тамоили, индивидлар, гуруҳлар ва ижтимоий ҳамжамиятлар ўртасидаги маданий, ирқий ва бошқа тафовутларни тан олиш, одамларнинг ташқи қиёфаси, хатти-ҳаракати, қадриятлар йўналиши ва улардаги фарқларга нисбатан бағрикенгликдир», деб таъриф берилади.

Толерантлик ҳамда унинг ривожланиш муаммосига доир тадқиқотлар кейинги пайтларда кўпчиликни қизиқтирмакда. Ҳолбуки, унга доир изланишлар Гераклит ва Сенека, кейинчалик Д. Лок, Ф. Волтер, Б. Соловёва, П. Флоренский, Н. Бердяевларнинг илмий изланишларида ҳам кўзга ташланади. Бизнинг тадқиқотларимизда эса «толерантлик» экзистенциал-гуманистик, диверсификацион, когнитив, бихевиорал ва фасилитатив ёндашувлар нуқтаи назаридан кўриб чиқилади.

<p>Экзистенциал-гуманистик ёндашув</p>	<p>Мазкур ёндашув вакиллари толерантликни онгли, анланган ҳодиса бўлиб, у автоматизмлар ва хатти-ҳаракатлар стереотипига олиб келмайди, деб ҳисоблайдилар. Бу қадрият ва ҳаётий позиция бўлиб, унинг рўёбга чиқиши конкрет вазиятларда ўзининг муайян мазмунига эга бўлади, у толерантлик субъектидан бу мазмунни излашни талаб қилади. Шу тариқа, толерантликни намоён бўлиши аксиологик моделни намоён қилади. Бу эса қадрият — қадрият воситаларини, «бошқа бировга» қадриятли ёндашув эса қадриятли сифат, қадриятли билимларни белгилаб беради.</p>
<p>Диверсификацион ёндашув</p>	<p>Толерантликни бир қиррали, бир сифатли жараён сифатида қарамайди. Толерантлик — уларнинг фикрича мураккаб, кўп қиррали ва кўп компонентли феномен бўлиб, унинг намоён бўлиши ва ривожланиши турлича бўлиши мумкин. Шунинг учун ҳам у инсоннинг бутун социал ва индивидуал ҳаётини қамраб олади, деярли ҳар бир психологик жараён ва ҳолатларнинг муҳим ўлчови ҳисобланади. Диверсификацион ёндашув, шунингдек, толерантликни турли шакл ва кўринишларини ҳам ажратиб кўрсатади.</p>

Когнитив ёндашув	Толерантликнинг асосида муайян билим ва рационал қарорлар ётадики, улар «бўлгуси ҳақиқатга» олиб борувчи йўлларнинг кўплигини, мураккаблигини, хилма-хиллигини тан олади ва кўпхилликдан қочиб бўлмаслигини таъкидлайди.
Бихевиорал ёндашув	Мазкур ёндашув вакиллари эса толерантликни инсоннинг махсус хатти-ҳаракати бўлиб, бу «ўзга» билан конструктив муносабатда бўлишга қаратилади, толерантлик — бошқа бировни ўзи билан тенг кўриш сифати бўлиб, унга нисбатан салбий ҳисларни онгли бостириш ҳиссида намоён бўлади, деб ҳисоблайдилар.
Диалогли ёндашув	Толерантликнинг муҳим кўриниши — шахслараро толерантликни изоҳлайди. Яни шахслараро толерантлик — ўзаро муносабатлар, шахслараро хатти-ҳаракатлар ва ўзгалар билан мулоқот ўрнатишнинг махсус усулидир. Айнан мана шу кўринишда толерантлик — толерантлик муаммосининг барча жабҳаларини қамраб олади.
Фасилитатив ёндашув	Бунда асосий эътибор толерантликни адекват педагогик-психологик тактикасига қаратилиб, бунда ҳар бир инсон ўзи учун қулай, шахсий, мустақил позицияни шакллантиришга, толерантликни табиий, рефлексив ва индивидуал хусусиятга айлантиришига қаратилади.

Мазкур йўналишлар турли педагогик тадқиқотлар ўтказиш, толерантликни ривожлантириш учун турли диагностик дастурлар тузиш, шунингдек педагогика ўқув юртлирида толерант хулқ-атворли шахсларни шакллантириш учун зарур муҳитни яратишга асос бўлиб хизмат қилади

Толерант хулқ-атворга эга шахсни шакллантириш — мураккаб жараён бўлиб, ўқувчиларнинг тенгдошлар ва атрофдаги кишилар билан мулоқотга киришиш асосида ҳамда бошқа кишиларга муносабати ва қарашлари билан боғлиқ ижтимоий воқелик таъсирида амалга ошади.

Файласуф олимларнинг фикрига кўра, толерантлик тафаккурига эгаллик, маънавий-ахлоқий сифат бўлиб, у самарали ташкил этилган мақсадли таълим-тарбия жараёнида шаклланади. Толерантлик тафаккурига эгаллик индивиднинг шахс сифатидаги тараққиёти ва шаклланиши, унинг гуманитар талаблар асосидаги камолоти, маънавий-ахлоқий етуклиги, цивилизация қадриятлари асосида шакллантирилган кенг дунёқараш, толерантликни қўллаш олиш қобиляти, фуқаролик жамияти ҳаётида фаол бўлиш малакалари каби хусусиятларни англади. «Толерантлик тамойиллари Декларацияси»да таъкидланганидек:

«таълим ва тарбия толерантлик тафаккурининг ўрнатилишида энг самарали йўл ҳисобланади».

М. И. Рожков, Л. В. Байбародова, М. А. Ковалчуклар толерантликни шакллантиришнинг куйидаги методларини ажратиб кўрасатадилар:

1. Интеллектуал соҳада: ишонтириш, ўз-ўзини ишонтириш методлари;

2. Эмоционал соҳада: уқтириш методи;

3. Ўз-ўзини назорат қилиш соҳасида: хулқ-атворни коррексия қилиш ва ўз-ўзини коррексия қилиш методи;

4. Экзистенционал соҳада: муаммоли мавзудаги суҳбат, мунозара ва рефлексия методлари;

5. Иродавий соҳада: ташаббусни ва қатъиятлиликни ривожлантириш методлари;

6. Воситали амалий соҳада: тарбияловчи вазиятлар методи;

7. Мотивацион соҳада: рағбатлаш методи.

П. В. Степанов ўқувчиларни тарбиялаш жараёнида уларда толерантлик установкаларини шакллантириш учун куйидаги ҳаракатлар алгоритминини тавсия этади:

1. Ўқувчиларни ўзга маданият намуналари билан таништириш мақсадида учрашувлар ташкил қилиш (ўсмирлар эътиборини жалб эта олиш даражасида махсус биноларда ва чиройли ташкил этилган жойларда);

2. Ўзга маданият вакилларига нисбатан ўқувчилар муносабатни қарор топтириш;

3. Муаммоли музокаралар ташкил этиш;

4. Ўқувчиларни ўзга маданият вакилларига бўлган муносабатини рефлексия тарзида ўзларида ҳис қилиш имконини яратиш;

5. Ўқувчиларда танкидий тафаккур, мунозара олиб бориш, ўзининг ва ўзгаларнинг нуқтаи назарини таҳлил қила олишига ёрдамлашиш.

Шунингдек, ўқувчиларда толерант хулқ-атвор установкаларини шакллантиришда ижтимоий-психологик тренингларнинг ўрни беқарор. Тренинг — шахсда мавжуд бўлган ёки вужудга келадиган муаммоларни ҳал қилиш учун зарур бўлган билим, кўникма малакаларни ҳосил қилиш мақсадида баҳс-мунозара, ўйин ва машқлар орқали ўтказиладиган машғулотлар йиғиндисиدير. Ижтимоий-психологик тренинглар ёрдамида куйидаги вазифаларни муваффақиятли ҳал этиш мумкин:

1. Ўқувчиларида ҳаётни севиш, ўзгаларни қабул қилиш ва тушуниш, улар билан позитив муносабатда бўлиш:

1) турли кўринишдаги зўравонлик ва агрессияга нисбатан негатив муносабатни шакллантириш;

2) ўз-ўзига ва ўзга инсонларга, уларнинг маданиятига нисбатан хурмат ва тан олиш ҳиссини шакллантириш;

3) халқаро ва динлараро муносабатларни ўрнатиш қобилиятини шакллантириш; баъзи социум вакиллари билан (уларнинг келиб чиқиши ва дунёқарашидан қатъий назар) конструктив муносабатлар ўрнатиш, толерант мулоқот ўрнатиш қобилиятларини шакллантириш;

4) толерантлик чегараларини белгилаб олиш малакаларини шакллантириш.

II. Жамиятда ва таълим тизимида толерант муҳитни яратиш:

1) жамиятдаги терроризм, экстремизм ва агрессиялар профилактикаси;

2) катталар ва кичиклар орасида, таълим ва тарбия орасидаги муносабатларни гуманизациялаш ва демократизациялаш;

3) толерантлик педагогикасидаги илғор ғояларни қайта кўриб чиқиш ва янгитдан яратиш;

4) бўлғуси педагогларни ўзларига ўхшаган толерант хулқ-атворли ўқувчилар тарбиялаш ва етиштиришларига эришиш.

Толерантликни шакллантиришга ёрдам берувчи қуйидаги тренинг машқларини мисол келтирамиз:

«Ижтимоий роллар» машқи.

Мақсад: турли ижтимоий гуруҳ вакилларига нисбатан эмпатия ва меҳрибонлик туйғусини шакллантириш. Ўзгалар фикрига нисбатан толерантлик даражасини аниқлаш. Комуникатив малакаларни шакллантириш.

Кўрсатма: Иштирокчиларнинг бошларига ўзларига кўрсатмаган ҳолда турли ижтимоий роллар ёзилган қоғоз халқалар кийгизилади (маркетолог, қочоқ, коллеж директори, ароқхўр, ОИТС касаллиги билан касалланган шахс, ногирон, нафақахўр, мардикор, янги бой ва б.) Иштирокчилар бир бирларига яқинлашиб ҳар кимнинг ижтимоий мақомига кўра мулоқот қуришлари, савол беришлари ёки бирор нимани сўрашлари лозим, лекин уларнинг ким эканлиги ошкор қилинмайди. Сўнгра таҳлил ўтказилади: ўзингизни қулай ҳис қилдингизми? Ўз қахрамонингизнинг ижтимоий мақомини топа олдингизми, агар ҳа бўлса қандай белгиларга асосланиб? Биз ўзга одамларга нисбатан қай даражада тоқатлимиз? Таҳлил жараёнида тренер иштирокчиларнинг фикрларини диққат билан тинглаши лозим.

«Кўприк» машқи.

Мақсад: вазиятни бошқа инсон позициясидан туриб баҳолашни ўрганиш. Ижтимоий перцепция, эмпатия, идентификация механизмларини шакллантириш.

Кўрсатма: полга тор йўл – «кўприк» чизилади. Унинг қарама-қарши томонидан бир вақтнинг ўзид а икки одам ўтиши лозим. «Кўприк» остидан «дарё» оқиб ўтади. Иштирокчилар икки гуруҳга бўлинган ҳолда икки қирғоқ тарафидан жой оладилар. «Кўприк»дан ўтиш исталган усулда амалга оширилиши мумкин. Фақат олдиндан келишиб олишга йўл қўйилмайди.

Тренерга маслаҳат: гуруҳ иштирокчиларининг ўзаро муносабатларини кузатиш ва улар қай йўсинда ҳамкорлик қилиш ва бир-бирларини тушунишга ҳаракат қилаётганликларини кузатиш лозим. Таҳлил учун саволлар: кўприкни кечиб ўтиш усуллари ҳақида нималар дея оласиз? Биз ўзгаларга ён беришга қай даражада тайёрмиз? Ҳаётда бундай вазиятлар тез-тез кузатиладими? Мазкур ўйинлар орқали ўқувчилар хулқ-атворида толерант установакаларини шакллантириш, вазиятни ўзга инсон нуқтаи назари билан баҳолашга ўргатиш, ўзига ва ўзгаларга эътиборли бўлишни шакллантириш, ўз-ўзини назорат қилиш малакасини ривожлантириш мумкин.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, толерантлик муҳим ахлоқий меъёр сифатида ҳар бир кишида шаклланиши лозимлигини ижтимоий тараққиётнинг ўзи такозо қилмоқда. Бу борада ўқувчиларда толерантлик тушунчасини шакллантиришда оила аъзолари билан бир қаторда, ўқитувчи ҳам муҳим ўрин тутишини айтиш лозим. Шундай экан, педагогик жараёни янги фикрлар билан бойитиш ва қурооллантириш, бўлажак ўқитувчилар хулқ-атворида толерантликни шакллантириш бўйича замонавий, демократик ва фуқаролик жамияти талабларига жавоб бера олувчи педагогик тавсиялар ишлаб чиқиш зарур.

ТАВСИЯЛАР:

1. ўқитувчиларда толерантлик тафаккурини шакллантиришнинг самарадорлигини таъмишлашда мустақил таълим тизимини шакллантириш, ҳамда улар мазмунини замонавий билимлар билан бойитиб бориш;
2. ижтимоий фанлардаги мавзулар мазмунини мақсадли равишда толерантлик бўйича замонавий билимлар билан такомиллаштириш;
3. ижтимоий институтлар фаолиятини, хусусан «Ёшлар Иттифоқи», «Болалар» фонди, Соғлом авлод учун, Хотин-қизлар кўмитаси, Маҳалла жамғармаси кабиларнинг иш жараёни ва дастурларини мақсадли равишда толерант хулқ-атвори шакллантириш фаолиятига йўналтириш, мувофиқлаштириш.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

- Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 2009.
- Каримов И.А.б Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2003.

- Фалсафа: энциклопедик лугат. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2010, 343.
- Словарь-справочник по социальной работе. Под.ред. проф. Е.И.Холстовой. – М.,1997.
- Кабылбекова З.К., Изучению современных педагогических условий для развития толерантных качеств личности учащегося.
- Фалсафа ва ҳуқуқ. –Тошкент, 2010.
- Бағрикенглик тамойиллари декларацияси. ЮНЕСКО ваколатхонаси нашри. Нашр учун масъуллар: А.Саидов, К.Жўраев. –Т.: 1999.
- Рожков М.И., Байбородова Л.В., Ковальчук М.А., Воспитание толерантности у школьников. –Ярославль, 2003.
- Степанов П.В., Воспитание толерантности у школьников: теория, методика, диагностика. Под ред. Л.И. Новиковой. –Москва: АПКИПРО, 2005.



TA'LIM BOSHQA TILDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLAR UCHUN YARATILGAN O'ZBEK TILI DARSLIGINING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI (10-SINF DARSLIGI MISOLIDA)

Boltaboyeva Sevara *

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim boshqa tilda olib boriladigan maktablar uchun yaratilgan O'zbek tili darsligining yutuq va kamchiliklari ko'rsatib berilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim-tarbiya tizimi, intellektual bilim, darslik, o'zbek tili (davlat tili), og'zaki va yozma nutq, matn, qiyosiy o'rganish, lug'at.

Annotation

This article outlines the successes and disadvantages of the «Uzbek language» textbook for schools in other languages.

Key words: textbook, school's book, Uzbek language, the successes, the disadvantages.

Mutaqillik yillarida mamlakatimiz erishgan ulkan yutuq va marralar haqida so'z yuritilganda, boshqa sohalar qatori ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan ummummilliy dasturlar, ularning ulkan natijalari, birinchi navbatda tilga olinadi. Bugungi kunda har qaysi xalq, davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor, uning inson kapitaliga, inson rivojiga berayotgan e'tibori, shu yo'ldagi sa'yi harakatlari bilan o'lchanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga ayni ta'lim-tarbiyaning ustuvor yo'nalishlari sifatida kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

* Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakultetining 2-kurs talabasi, qoraqalpoq2017@inbox.ru

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi fikrlarini esga olish o'rinli deb o'ylaymiz: «Biz yashayotgan XXI asr intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki, bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va xalq uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa, bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar».

Darhaqiqat, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, va madaniy sohalardagi rivojini shu sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan kadrlarning bilimi, faolligi, ma'naviy qiyofasi, intellektual, ayniqsa, kashfiyotchilik salohiyati belgilab beradi.

Dars sifatining muhim omili — bu darslik. Bugungi kunda jahon andozalariga har jihatdan mos keladigan, milliy mustaqillik g'oyasini o'zida aks ettiradigan mukammal darsliklar yaratish dolzarb muammoga aylandi. Shu bois «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kontseptsiyasi» talablari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yangi mazmundagi darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda. Bu borada xalq ta'limi tizimida amaliy ishlar olib borilyapti. Osiyo taraqqiyot bankining kredit mablag'lari hisobidan «Umumta'lim maktablari uchun darslik va o'quv adabiyotlarini nashr qilish tizimini takomillashtirish» loyihasi doirasida yangi avlod darsliklarini tanlov asosida yaratish ishlari keng yo'lga qo'yildi. Bu borada ma'lum natijalarga erishildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'zbek tili (davlat tili) darsliklarining yangi avlodi maydonga keldi. 10-sinf uchun «O'zbek tili» (Muhitdinova X. va boshqalar, 2017) darsligining yangi nashri yaratildi.

Darslikdagi har bir mavzu tegishli savol va topshiriqlar bilan ta'minlangan. Ular mavzuning xarakteri, materialning hajmi, ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar bilan aloqador holda tuzilgan. Demak, savol va topshiriqlar o'rganilishi lozim bo'lgan materialning hajmi, xarakteri va unda ko'zda tutilgan maqsad bilan bog'liq holda tuziladi. Ularning mazmuni ham rang-barang. Ayrim savollar muayyan til hodisasi haqidagi yangi ma'lumotlarni bilishga qaratilgan. Ayrim savollarda boshqa o'quv predmetlari, san'at turlari bilan aloqadorlik nazarga olingan. Yana bir turkum savollar esa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini takomillashtirishni ko'zda tutadi.

O'qituvchi ularga ijodiy tarzda yondashishi mumkin. Tajribali o'qituvchilar matn mazmunidan kelib chiqib, savol va topshiriqlarni o'zlari tuzishlari mumkin. Bunda o'quvchilarning faollik darajasi keskin ortadi. Ularning matn mazmunini o'zlashtirishlari uchun yanada qulay sharoit yaratiladi, eng muhimi, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi jonli bir holat, qulay vaziyat maydonga keladi.

Ba'zi savollar voqealarning izchilligi, mantiqiyiligini («Matnni o'qib bo'limlarga ajrating va har bir bo'limga sarlavha qo'ying») kuzatishga undasa, yana ba'zilar ularni ijodiy fikrlashga da'vat etadi («Men yoqtirgan ko'rsatuv»

mavzusida matn tuzing). Amaliy-ijodiy faoliyatni talab etadigan («Rasm asosida hikoya tuzing») savollar ham darslikda anchagina.

Topshiriqlarda ifodali o'qish, rollarga bo'lib o'qish, matnni yod olish, matn mazmunini hikoya qilish, matn mazmunini qisqartirib hikoya qilish singari ko'rinishlar mavjud. Ular o'quvchilarning og'zaki nutq malakalarning ortishiga muhim omil bo'la oladi. Bevosita yozma nutq takomiliga yo'naltirilgan topshiriqlar ham mavjud.

Davlat tilini uning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda o'rganishning boshlanishi yetuk kitobxonni shakllantirish uchun muayyan zamin yaratish imkonini beradi. 10-sinf darsligi bilan ishlashda o'quvchilarning badiiy matn mohiyatini, sehrini, tarovatini, shular asosida esa o'zbekcha so'z nazokatini tushunishlari, his etishlari, anglab yetishlari uchun yangi qadamlar qo'yiladi. Ammo har bir matnning o'ziga xos tarzdagi yondashuvlarni taqozo etishini ham unutmaslik kerak.

Dastur va darsliklarda o'rganilishi ko'zda tutilgan matnlar badiiy qimmat, tarbiyaviy ahamiyati hamda o'quvchilarning yoshi, ruhiy imkoniyatlari, aqliy rivojlanish darajalariga mosligiga ko'ra tanlangan, asar tahlilida bir xil fikrlash va bir qolipdagi mulohazalar yuritishdan voz kechilgan.

O'zbek tilini o'qitish jarayonida kommunikativ-nutqiy malaka va ko'nikmalar shakllantirilishi asosida ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlar ham amalga oshiriladi. Buning uchun o'zbek adabiyoti o'zbek tili ta'limining tarkibiy qismiga aylantirilishi lozim (Bekniyazova I., 1998: 45). Adabiy o'qish uchun tanlangan asarlar o'zbek xalqining an'analari, madaniyati, tarixini aks ettirishi, dolzarb mavzular yoritilishi va badiiy yetukligi jihatidan xarakterli bo'lishi lozim. 10-sinf darsligida avvalgi darsliklardan farqli o'laroq adabiyot namunalari keng o'rin ajratilgan. Jumladan, H.Olimjon, A.Muxtor, E.Vohidov, Oybek, G.G'ulom, O.Umarbekov, Zulfiya, O.Hoshimov, A.Qodiriy, A.Oripov, M.Yusuf kabi ijodkorlarimizning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar bilan birga asarlaridan parchalar va she'rlaridan namunalar berib borilgan. Shuningdek, darslikda sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilayotgan asarlardan parchalar ham o'rin olgan bo'lib, bu o'z navbatida o'quvchilarni o'zbek adabiyoti namunalari bilan yanada yaqindan tanishishga ularning so'z boyligini oshirishga yordam beradi.

Ta'lim boshqa tilda olib boriladigan maktablar uchun o'zbek tili dasturida o'quv fanining asosiy mazmuni, asosan, nutqiy kommunikativ malakani egallash orqali o'zbek tilini o'rgatish o'qitishning umumta'limiy maqsadini, milliy madaniyatni egallash malakasi esa tarbiyaviy maqsadni ko'zda tutadi. Darslikda berilgan «Kitob o'qishning hikmati», «Kitoblar fazilati haqida», «Yetmish til sohibi», «Ishning ko'zi», «Hukmdorni yig'latgan darvesh», «Odob gulshani» kabi kichik hajmli matn va hikoyalar ham berilgan-ki, ular o'quvchilarni mushohada yuritishga undaydi.

O'zbek tilini o'qitishda ona tili tizimini yaxshi bilish o'quvchilarga katta yordam beradi. Ona tilidagi ko'nikma va malakalar o'zbek tiliga ko'chiriladi. Shu jihatlar inobatga olingan holda darslikda «O'z ona tilingizga tarjima qiling» kabi topshiriqlar berilgan. Ammo birgina topshiriqning o'zi ona tili bilan qiyosiy o'rganish uchun kamlik qiladi. Darslikda berilgan lug'atlar ham rus guruhlariga uchun mo'ljallangan. Qardosh tillar, xususan, qoraqalpoq, qozoq guruhlaridagi o'quvchilar uchun murakkab so'zlarning izohlari berilmagan. Umuman darslik rus guruhlariga mo'ljallangan bo'lib, qoraqalpoq, qozoq guruhlarida ta'lim oluvchi o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari inobatga olinmagan. Ta'lim rus, tojik tilida olib boriladigan maktablarda o'quvchilarning o'zbek tilini tushunishi bilan qoraqalpoq, qozoq o'quvchisining o'zbek tilini bilishini tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki, qoraqalpoq, turkman, qirg'iz, qozoq tillarining leksik qatlami, gap qurilishi o'zbek tiliga nihoyatda yaqin. Qoraqalpoq va o'zbek tillari orasidagi o'ta yaqinlik nazarda tutiladigan bo'lsa, ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar uchun o'zbek tilidan maxsus darsliklar yaratilishini maqsadga muvofiq deb bilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Bekniyazova I.N., Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinflarida o'quvchilar so'z boyligini oshirish (predmet belgisini bildirgan so'zlar misolida) ped.fan.nom.dis...Avtoref. –TDPU, 1998.
- Muhitdinova X.S., Muxamedjanova G.Z., Talipova F.S., Eshbayeva R.B., 2017).
- O'zbek tili, 10-sinf uchun darslik. –T.: Davr nashriyoti, 2017.



КОМПЬЮТЕРНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Исмоилова Барно*

Аннотация

Мақола рус тили фани дарсларида компьютер технологиялари ва таълимнинг янги ва илғор усулларини қўллаш масалаларига бағишланган. Миллий мактаб ўқувчиларига рус тили орфографиясини ўргатиш ва ўқув жараёнини юқори илмий-педагогик даражада ташкил этиш, муаммоли машғулотлар ўтказиш, илғор педагогик технологиялардан ва компьютер воситаларидан самарали фойдаланиш, ишлаш ва бошқа жиҳатлар буйича таклифлар берилган.

Таянч сўзлар: техника тараққиёти, компьютерлар, ўқув жараёни, миллий мактаб ўқувчилари, компьютер технологиялари, орфографик кўникмалар, таълим олишнинг янги усуллари.

* Студентка 4-го курса Гулистанского государственного университета, ismoilova.barnoxon@gmail.com

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы применения компьютерных технологий и новых методов обучения на уроках русского языка. Даны рекомендации по организации учебных процессов на уроках русского языка на высоком научно-педагогическом уровне, проведения проблемных уроков, использование передовых педагогических технологий и компьютерных средств при изучении русской орфографии учениками национальных школ.

Ключевые слова: технический прогресс, компьютеры, учебный процесс, ученики национальных школ, орфографические навыки, новые методы преподавания.

Сегодня во всех областях науки и техники применение компьютера стало неотъемлемой частью технического прогресса. Компьютеры дают возможность использовать в учебном процессе уже имеющиеся обучающие системы, создавать на их основе новые собственные программы, внедрять совершенные автоматизированные системы обучения. Учебные материалы должны соответствовать программе, помочь учащимся получить знания, указанные в программе, формы заданий должны служить для формирования и развития речевых навыков, умений на их основе. Учебные материалы, готовящиеся для компьютеров, должны чётко определять конкретную учебную цель, которая сообщает ученикам чтобы при работе с ними у них возник интерес к знаниям и концентрировалось внимание.

На сегодняшний день задача создания эффективных обучающих и контролирующих программ является наиболее проблемной, так как для её решения требуется объединение усилий специалистов по различным отраслям знаний: учителей, программистов, методистов, дизайнеров и т.п. Компьютер целесообразно использовать в качестве средства эффективного обучения для формирования навыков интенсивного мышления учащихся.

В данное время всех волнует проблема повышения грамотности. Орфографическая грамотность-это важнейшее качество письменной речи учащихся; её развитию на уроках русского языка необходимо уделять максимум внимания.

Применение компьютера при обучении орфографии в русском языке является актуальной проблемой. Вооружить учащихся прочными орфографическими навыками — одно из важнейших программных требований, выполнение которого при обучении русскому языку требует от учителя больших усилий. В школе изучаются все разделы русской орфографии: и правила обозначения буквами звукового состава и их частей, и правила стильно- дефисно-раздельных написаний, и правила употребления прописных и строчных букв, и правила переноса слов.

В настоящее время не вызывает сомнения тот факт, что орфографические навыки являются более прочными в том случае, если они формируются на основе развития речи учащихся, в едином речевом потоке. Отсюда одна из важных задач обучения русской орфографии в условиях национальной школы заключается в определении объёма и содержания подлежащего усвоению орфографического материала, определение его роли и места в учебном процессе, форм и видов связи с другими аспектами языка, а также с работой по развитию русской устной и письменной речи учащихся национальных школ. Поэтому учителя русского языка должны прежде всего, научит учащихся правильному говорению. Чтобы учащиеся были грамотными, они должны сначала усвоить и запомнить все орфографические правила, при изучении которого учащиеся — узбеки испытывают большие трудности. Если учащиеся хорошо усвоить эти правила, то они будут правильно произносить слова. Для решения этой проблемы необходимо внедрить в процесс обучения компьютеры, которые коренным образом изменят характер педагогической деятельности. Обучение с помощью компьютеров может превзойти эффективность обучения. Конечно, здесь очень важно предусмотреть индивидуальный подход к обучению учащихся. Необходимо иметь сведения об исходном уровне знаний, умений и навыков учащихся.

Учителю-словеснику необходимо разработать методику изучения новой темы, определить место и роль компьютеров в учебно-воспитательном процессе. Компьютеры можно использовать на разных этапах урока: в организационном моменте при проверке домашнего задания, при объяснении и закреплении новой темы, при самостоятельной работе. При этом учитель должен тщательно отобрать материал для самостоятельной работы учащихся, придумать способы организации этой работы, создать научно-методический аппарат составления эффективных обучающих программ. Необходимо усилить работу по самостоятельному применению правил. Например: при самостоятельной работе учащихся с компьютером, где автоматизировано контролируются умения и навыки учащихся, определяется уровень их знаний. Это освобождает преподавателя от выполнения огромной работы ежедневного контроля, устраняет субъективность в оценке в знаний учащихся, даёт простор для появления творческих способностей учащихся. Имеется возможность получить дополнительную информацию через интернет. Задача учителя-словесника при этом сводится к определению наиболее целесообразной части знаний, предназначенные для самостоятельной работы, и подлежащих контролю умений и навыков. Через компьютер ученик

может получить дополнительную информацию к полученной на уроке новым знаниям.

При объяснении новой темы осуществляется знакомство с формулировкой орфографического правила, схемой его применения, проводится первичные закрепления правила. Составляя сценарий занятия, учитель должен установить семантические, фонетические, грамматические признаки орфограммы, указать в формулировке орфографические правила. Каждый школьник отвечая на вопросы, может сравнить собственные ответы с ответами компьютера. Компьютер помогает осуществлять контроль над деятельностью учащихся, так как фиксирует сведения об ошибочных ответах учащихся при составлении сценария нужно стремиться реализовать все взаимосвязанные функции обучения. Прежде чем как перейти к выполнению упражнения школьники знакомятся с новой темой на компьютере, читают и запоминают правило. Затем компьютер приглашает их выполнить несколько упражнений по данной теме, упражнения должны вызывать творческую активность учащихся, обеспечивающую эффективность произвольного запоминания.

Следует отметить, что, послушав десятиминутное сообщение, человек запоминает из сказанного лишь половину. Через несколько часов он забывает ещё половину того, что запомнил. Для облегчения запоминания полезно сочетать визуальные и вербальные образы с оптимальными по объёму записями. Чем удачнее удастся сгруппировать информацию – «орфография» - для ввода в память, тем легче будет его воспроизвести, когда это потребуется. Для использования компьютера в качестве информатора, тренажёра и справочника по орфографии составляется сценарий программы по моделям и группам трудных для учащихся-узбеков орфограмм.

Мы предлагаем фрагмент учебной программы V класса на тему: «Правописание слов с разделительным твёрдым «**Ъ**» и мягким знаком «**Ь**», где учащиеся чаще всего допускают ошибки.

